
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON ENG YANGI TARIXINING DOLZARB
MASALALARI**

**Respublika ilmiy anjumani maqolalar to'plami
2024-yil 30-aprel**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НОВЕЙШЕЙ ИСТОРИИ
УЗБЕКИСТАНА**

**Сборник статей республиканской научной конференции
30 апреля 2024 года**

ACTUAL ISSUES OF THE NEWEST HISTORY OF UZBEKISTAN

**A collection of articles of the Republican scientific conference
April 30, 2024**

To'raqo'rg'on – 2024

“O‘zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari” mavzusida ilmiy anjumani maqolalar to‘plami (2024-yil 30-aprel). – Namangan: NamDChTI, 2024. – 287 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-qarori hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2024-yilda o‘tkaziladigan respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga binoan kuni Is‘hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida 2024-yil 30-aprelda o‘tkazilgan “O‘zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy anjumani materiallarini o‘zida jamlagan. Unda O‘zbekiston eng yangi tarixining tarixshunosligi va manbashunosligi, O‘zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi, O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va siyosiy islohotlar, istiqlol yillarida O‘zbekistonning ma‘naviy va madaniy taraqqiyoti, O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayonlari, sifatli ta‘lim — Yangi O‘zbekistonning muhim poydevori, gender tengligi va yoshlarga oid davlat siyosatiga oid dolzarb mavzular doirasida turli maqolalar keng kitobxonlar ommasi e‘tiboriga havola qilingan.

Umuman olganda, ushbu to‘plabdan Respublikamiz oliy o‘quv yurtlari professor o‘qituvchilari, mustaqil izlanuvchi va doktorantlar, magistrlar, talabalar-yoshlar, tarixchi olimlarning so‘nggi ilmiy tadqiqotlari natijalari o‘rin olgan.

Mas‘ul muharir: **M.Yakubbayev – p.f.f.d. (PhD), dotsent.**

Tahrir hay‘ati: **S.Misirov – p.f.n., dotsent**
S.Mirzaxalov – t.f.f.d. (PhD), dotsent v.b;
N.Abduxoliqova – f.f.f.d. (PhD) dotsent v.b
U.Abdurasulova – p.f.f.d. (PhD), dotsent
L.Kozlova – dotsent

Texnik muharrirlar: **M.Sharofiddinov – katta o‘qituvchi**
M.Abdusamadov – o‘qituvchi

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalardagi ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun shaxsan mualliflar mas‘uldirlar.

Mazkur to‘plam Is‘hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Kengashining 2024-yil 26-apreldagi 10-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O‘RGANISHNING YANGI BOSQICHI

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘liga o‘tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o‘tish, xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining bir qator risola va nutqlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlarning xususan, tarix fanining o‘rni beqiyosligini ta'kidlab o‘tdi. Jumladan, Prezidentimiz milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o‘rniga g‘oyat yuksak baho berib: **“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”**, - deb ko‘rsatdi.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqi mustaqillikka tinch yo‘l bilan erishgan bo‘lsa-da, istiqlol uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o‘rganishga imkoniyat yaratildi va milliy tariximiz, ma'naviy boyliklarimizni sinfiy, partiyaviy to‘siqlar bilan xalqdan ajratib qo‘yishdek illatga barham berildi.

Mustabidchilik davrida hukmron kommunistik mafkura ta’sirida o‘tmishimizdagi talaygina tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar kommunistik, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto‘g‘ri talqin etildi.

Buning uchun juda ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan, o‘zbek millatining shakllanish jarayoni, o‘zbek davlatchiligi tarixi muammolariga yuzaki tarzda yondoshildi. Yurtimiz tarixida muhim o‘rin tutgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar, voqealar soxtalashtirildi. Buyuk tarixiy shaxslarimizning Vatan va millat oldidagi xizmatlari kamsitildi yoki umuman inobatga olinmadi. Amir Temur tarixi, jadidchilik harakati tarixi, istiqlolchilik harakati tarixi noxolis o‘rganildi yoki o‘rganilmadi.

Tarixchilarimizning hozirgi kundagi dolzarb vazifalaridan biri, o‘tmishimizdagi har bir hodisa va voqea ma'lum ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy muhit ta'sirida yuz berganligini hisobga olgan holda, asosli hujjatlarga tayanib, ushbu voqea, hodisalarni har tomonlama chuqur o‘rganish hamda tahlil qilishdan

iboratdir.

Hozirgi kunda o‘tib kelayotgan avlodning ongi va tafakkurini salbiy illatlardan himoya qilish ma’nosida ularda ma’naviy immunitetni hosil qilish, yoshlarning ongiga ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan azaliy qadriyatlar - ezgulik, odamiylik, bag‘rikenglik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhini singdirishda tarix fanining o‘rni beqiyosdir. Aynan Vatan tarixini anglash orqali o‘tib kelayotgan avlod nafaqat shonli o‘tmish tarixini, balki istiqbolning tom mazmunini, uning mamlakatimiz istiqboliga qaratilgan siyosati mohiyatini yanada teran tushunib yetadilar. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev qayd etganidek, **“...bashariyat tarixi shundan dalolat beradiki, har bir xalq faqat erkin va ozod bo‘lgan taqdirdagina, o‘z hayoti va kelajagini mustaqil barpo etish huquqiga ega bo‘ladi”.**

Mustaqillikning o‘tgan yillarida respublika tarixchi olimlari tomonidan katta ahamiyatga molik, dolzarb mavzularga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi, qator o‘quv adabiyotlari, o‘quv qo‘llanma, qo‘llanma, monografiyalar chop etildi. Ta’kidlash joizki, hozirgi kunda ham xalqimiz tarixini xolis va ilmiy asosda o‘rganish jarayoni davom etmoqda. Xususan, mustaqillikning o‘tgan o‘ttiz uch yillik davri tarixining turli qirralari ko‘plab olimlar, izlanuvchilar uchun tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu ma’noda bugungi bizning ta’lim muassasamizda o‘tkazilayotgan **“O‘zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari”** mavzusida Respublika ilmiy anjumani yangi tadqiqotlarni sarhisob qilish imkoni bersa, yosh tadqiqotchilar uchun har bir ma’ruza, yangi yondashuv tajriba maktabi vazifasini o‘taydi.

Mazkur Respublika ilmiy anjumani O‘zbekiston tarixi fani oldida turgan dolzarb masalalarning ijobiy yechimini topishga yordam berib, fanning yanada rivoj topishiga o‘z hissasini qo‘shadi, degan umiddaman. Anjuman ishtirokchilari va ular orqali barcha tarixchi va jamiyatshunoslar jamoasiga salomatlik va ilmiy-pedagogik ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

R.G.Karimov

***Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti rektori,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.***

**BIRINCHI SHO‘BA.
O‘ZBEKISTON ENG YANGI TARIXINING TARIXSHUNOSLIGI VA
MANBASHUNOSLIGI**

**TURKISTON BOSHQARUV MUVAQQAT QO‘MITASI FAOLIYATIDA NORMATIV-
HUQUQIY HUJJATLAR**

Abdullayev Zafarbek G‘aybullayevich

Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

E-mail: abdullayevzafar1978@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fevral inqilobidan keyin Turkiston boshqaruv tizimida joylarda Muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash, Turkistonda boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi faoliyati bo‘yicha, biroq aholining yashash tarzi va ularning haq-huquqlarini inobatga olmagan holda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning aholini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy holatiga nechog‘li salbiy ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi (TBMQ), normativ-huquqiy hujjat, jamoat xavfsizlik qo‘mitasi, o‘lka boshqaruv tizimi, tub aholi, aholining yashash tarzi, siyosiy kuchlar, saylov, noqonuniy xatti-harakat, oziq-ovqat ta’minoti.

**НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ АКТЫ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВРЕМЕННОГО
КОМИТЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО УПРАВЛЕНИЯ**

Абдуллаев Зафарбек Гайбуллаевич

*Старший преподаватель Наманганского
государственного педагогического института*

E-mail: abdullayevzafar1978@gmail.com

Аннотация: В данной статье освещается поддержка Временного правительства на местах в системе управления Туркестаном после Февральской революции, нормативно-правовые акты, принятые в отношении деятельности Временного комитета управления в Туркестане, но без учета образа жизни населения и их прав, а также их негативное влияние на социально-политическое, экономическое положение населения.

Ключевые слова: Временный комитет Туркестанского правительства (Тбмк), нормативно-правовой акт, Комитет общественной безопасности, система управления краем, коренное население, образ жизни населения, политические силы, выборы, противоправное поведение, продовольственное снабжение.

NORMATIVE LEGAL ACTS IN THE ACTIVITIES OF THE PROVISIONAL COMMITTEE OF THE TURKESTAN ADMINISTRATION

Abdullaev Zafarbek Gaibullayevich

Senior Lecturer at Namangan State Pedagogical Institute

E-mail: abdullayevzafar1978@gmail.com

Abstract: *This article highlights the support of the Provisional Government on the ground in the management system of Turkestan after the February Revolution, the normative legal acts adopted in relation to the activities of the Provisional Management Committee in Turkestan, but without taking into account the lifestyle of the population and their rights, as well as their negative impact on the socio-political, economic situation of the population.*

Keywords: *Provisional Committee of the Turkestan Government (Tbmc), regulatory legal act, Public Security Committee, regional management system, indigenous population, lifestyle of the population, political forces, elections, illegal behavior, food supply.*

1917-yil Fevral inqilobi Rossiyada asrlar davomida hukmronlik qilib kelgan Romanovlar sulolasiga barham berdi (1613-1917). Yangi boshqaruv tizimi - Muvaqqat hukumat tuzildi va butun jahonga ko‘p asrlik monarxiya tuzumi barham topgani bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi¹.

Ma‘lumki, inqilob orqali hokimiyatni egallagan kuchlar, o‘z “haqiqatlari”, asosida inqilob “tartib-qoida”larini, yangi tuzum “normativ-huquqiy hujjatlari”ni joriy eta boshlaydi. Inqilobgacha mavjud barcha normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish: ulardan maqsadga muvofiqlarini shu yo‘sinda davom ettirish, ayrim tartib-qoidalarga, inqilob mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, o‘zgartirishlar kiritish, tubdan yangi mazmun kasb etgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish

¹ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Ташкент: “Шарк”; 2000. – С.19.

amalga oshiriladi. O‘z-o‘zidan, 1917-yil 28-fevralda Petrogradda amalga oshirilgan inqilobni ham Rossiyaning markaziy guberniyalarida, imperiyaning chekka o‘lkalarida ma’lum bir umid va ayrim bir ikkilanishlar, xavotirlar bilan qarshi olindi. Ayni paytda, Fevral (1917) inqilobi imperiya manfaatlariga xizmat qilayotgan, Turkiston harbiy-siyosiy boshqaruvida tub aholi mehnatidan, ular yaratgan xom-ashyodan Rossiyaga yuborayotganlar uchun “ko‘zda tutilmagan” o‘zgarish bo‘lib, inqilob ular uchun noilojlikdan kelib chiqqan real holat edi. Fevral inqilobiga tub aholining munosabatiga kelganda, bu holatga ma’lum bir ikkilanish, ijtimoiy-siyosiy harakatlar jonlanishi yo‘lida umid bilan qaralgan. Xususan, Turkistonda Fevral inqilobidan keyin mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish, unga huquqiy maqom va vakolatlar berish yo‘lida sa’y-harakatlar boshlandi. Hatto bu borada 1917-yil 3-martda Toshkent ishchi deputatlari Soveti tashkil topgan bo‘lsa, 4-mart kuni Toshkent soldat deputatlari soveti tuzildi. Boshqaruv tizimidagi ikki sovet faoliyati tez orada ularni birlashuvi bilan tugadi. Endilikda bu Toshkent ishchi-soldat deputatlari soveti deb yuritila boshlandi. Ishchi-soldat deputatlari soveti chaqirig‘iga binoan, Turkistonning shahar va qishloqlarida shunday sovetlar tuzila boshlandi. 1917-yil mart oyi oxirlariga kelganda Turkiston o‘lkasi bo‘yicha 75 ta ishchi-soldat deputatlari soveti mavjud bo‘lib, tuzilgan sovetlardagi deputatlarning aksariyatini yevropalik millat vakillari tashkil qilgan edi. Amalda bu ham, boshqaruvni sovet orqali huquqiy tartibga solib borishga qaratilgan bo‘lsa-da, aslida o‘lka tub aholisining haq-huquqlari chetga surilib, mahalliy aholini saylovda qatnashish tizimi, ularni bu boshqaruv jarayonlariga jalb qilish yo‘l-yo‘riqlari ishlab chiqilmaganidan dalolat edi².

Fevral inqilobidan so‘ng asta-sekin yangi tartibdagi boshqaruv tizimini joriy etishga, xususan aholi yashaydigan har bir qishloq, posyolka³, volost, uyezd, shahar miqyosida JXQ lari, ya’ni jamoat tashkilotlarining ijroiya qo‘mitalari tashkil topa boshladi⁴. Turkiston shaharlarida ijroiya qo‘mitalar va JXQ lariga saylovlar o‘tkazila boshlandi. Ammo bu saylovlar ham ma’lum bir tizimi ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarga, aholining mutloq ko‘pchiligini tashkil qilgan musulmonlar manfaatlariga qaratilmagan. Turkistonda mahalliy aholining haq-huquqlarini kamsitish davom ettirilib, hokimiyatni boshqarish jamoatchiligi shu tarzda shakllana boshladi. Tashabbusni ishchi-soldat deputatlari soveti qo‘lga olib, o‘lka jamoatchiligi tazyiqi ostida A.N.Kuropatkin va uning yaqin yordamchilari

² Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Ташкент: “Шарк”; 2000. – С.20.

³ Посёлка – шаҳар туридаги қишлоқ, посёлка. Qarang: Русча-ўзбекча луғат. Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, I том. 1984. –Б.153.

⁴ Jamoat xavfsizligi qo‘mitasi (JXQ) faoliyati to‘g‘risida 1.2 da yoritilgan.

lavozimlaridan chetlashtirildi. Muvaqqat hukumat qarori bilan o‘lkani boshqargan eski ma‘muriyat o‘rniga, 1917-yil 7-aprelda N.Shchepkin boshchiligidagi 9 kishidan iborat TBMQ tashkil topdi. TBMQ tarkibi musulmon aholi vakillaridan 4 nafari, undan ham 2 nafarigina tub aholi vakili edi, xolos. Imperiya qulagan bo‘lsa-da, Rossiyada tuzilgan Muvaqqat hukumatda “imperiya mushohadasi” davom etgani bois, o‘lka boshqaruvida tub aholi vakillari asosiy rol o‘ynashiga yo‘l qo‘yilmadi. O‘sha 4 nafar turk-musulmonlardan biri A.N.Bukeyxanov va ikkinchisi M.Tinishpayevlar bo‘lib, ular qozoq millatiga mansub edi. Uchinchisi S.N.Maqsudiy va to‘rtinchisi A.Davletshinlar bo‘lib, ular tatar millatiga mansub edi. Yana shunisi borki, A.Bukeyxanov Turkistonga kelishni xohlamagan bo‘lsa, S.Maqsudiy va A.Davletshinlarni TBMQ a‘zosi bo‘lishini, o‘lka boshqaruv tizimini o‘z qo‘liga olgan Turkiston ishchi va soldatlari xohlamadi. Shunday qilib, Turkiston boshqaruv tizimiga aholining salmoqli qismini o‘z ichiga olgan o‘zbeklar va yana o‘lkaning tub aholisi turkman, qirg‘izlardan kiritilmay, ularning haq-huquqlari hisobga olinmadi⁵. Muvaqqat hukumat TBMQ orqali o‘lkani mustamlakachilik usulida boshqarishni ko‘zda tutgan edi. Bu holat TBMQ bilan mintaqadagi mahalliy siyosiy kuchlar o‘rtasidagi qarama qarshilikni vujudga keltirdi. Xususan, Turkistonni bo‘lg‘usi davlat boshqaruv masalasi: muxtoriyatchilik yoki federativ harakat masalasi dolzarblik kasb etdi⁶.

Turkistonda vujudga kelgan shart-sharoit tufayli yangi siyosiy muhit shakllana bordi. Xususan, ko‘plab jamoat harakatlari, milliy-siyosiy partiyalar paydo bo‘lib, ularning asosiy tarkibini o‘z ichiga olgan ulamo, muallim va savdogar, milliy ziyolilar o‘z oldilariga maktab va madrasalar faoliyatini takomillashtirish, aholining yo‘qsillariga yordam ko‘rsatish, to‘y va ma‘rakalardagi isrofgarchiliklarga qarshi kurashish, aholi turmush tarzini yaxshilash kabi vazifalarni qo‘ydilar. Milliy-siyosiy harakatlar va partiyalarning hech biri tomonidan o‘lka boshqaruvida huquqiy tizimni takomillashtirish, aholi haq-huquqlari va majburiyatlarini tartib-qoida doirasida yuritish, mavjud qonun-qoidalarni o‘lka shart-sharoitlariga moslash kabi vazifalar kun tartibiga qo‘yilmadi.

TBMQ o‘z faoliyatini to‘laqonli va izchil bajara olmay, joylarda aholi hayotida ularning haq-huquqlariga e‘tibor qaratmagan. Xususan, 1917-yil Fevral inqilobidan keyin qabul qilingan qarorlar, farmoyishlar va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, u yoki bu lavozimdagi shaxslarga berilgan vakolatlar, guvohnomalar

⁵ Qarang: Расулов А.Н., Исоқбоев А.А., Насретдинова Д.М. Татары в Туркестане на изюме эпох (начало XX века). Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2021. –С.18-20; Уларнинг ўзи. Туркистон ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида татарлар. Тошкент. “TURON-IQBOL”. 2019. –С.17-19.

⁶ Ражабов Қ., Раҳматов М. Туркистонда совет ҳокимиятининг иқтисодий сиёсати ва очарчилик даҳшатлари (1917-1924 й.). Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси; 2022. –Б. 29.

tahlili shundan dalolat beradiki, boshqaruvni barqaror va tizimli faoliyat yuritishida ma’lum bir muammolar, cheklovlar yoki vakolat doirasini juda kengaytirib yuborish hollari ham bo‘lgan. Masalan, 1917-yil 20-sentabrda Farg‘ona viloyat ishchi, soldat va dehqon deputatlar soveti tomonidan I.O.Davydenkoga berilgan guvohnomada, uni Toshkentga borib, “mavjud yoki tashkil topayotgan barcha o‘lka va mahalliy tashkilotlar, birlashmalar majlislarida hamma masalalar bo‘yicha hal qiluvchi ovoz bilan qatnashishi (ta’kid bizniki – Z.A.) va o‘ziga kerakli ma’lumotlarni barcha tashkilot hamda korxonalardan olishi” mumkinligi belgilangan⁷.

TBMQ davridagi normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga ko‘ra, o‘lka viloyatlaridagi boshqaruv tizimi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Xususan, endilikda boshqaruv tizimi general-gubernatorlik davridan farq qilib, yangi tizimga moslangan bo‘lsa-da, demokratik boshqaruvdan ancha yiroqda edi. Masalan, 1917-yil 27-aprelda Samarqanddagi ishchi-soldat deputatlar soveti majlisi bayonnomasiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi, volostdagi o‘zini-o‘zi boshqarishni yangi tartibi muhokama qilingan. Mazkur sovet majlisida saylov tizimining yangi tartibi, jumladan, quyidagicha bo‘lishi belgilangan:

1. Jinsidan, diniy e’tiqodidan, millatidan qat’iy nazar, 21 yoshdan kam bo‘lmagan faol saylov huquqiga ega bo‘lganlar hamda 25 yosh va undan yuqori yoshga ega bo‘lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan foydalanadi. Saylovda ayollar ishtiroki masalasini musulmonlarning o‘ziga qo‘yib berish kerak.

2. Saylov to‘rt vakillik tizimi asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va imkon bo‘lsa, yashirin saylov huquqidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Saylovga qatnashganlarning yarmidan ko‘pi erkak saylovchilarni ishtiroki birinchi saylov uchun qonuniy bo‘lsa, keyingi saylovlar uchun saylovchi erkaklar miqdori belgilanmagan.

3. Ilgari qishloq va ovul oqsoqollariga yuklatilgan vazifalar, endilikda jamoa qo‘mitasi zimmasiga yuklatiladi. Jamoa qo‘mitasi a‘zolari nima ishlar bilan shug‘ullanishini o‘zaro kelishib oladilar.

4. Volost komissarini volostdagi barcha fuqarolar ovoz berib saylaydi.

5. Politsiya hokimiyatining quyi darajasi – uchastka komissari. Uchastka komissari zimmasidan barcha xo‘jalikka oid vazifalar olinib, ularda ma’muriy, politsiya-qidiruv vazifalari qoldiriladi⁸.

TBMQ tomonidan aholini oziq-ovqat ta’minotiga oid farmoyishlari ham o‘ziga xos, ziddiyatli bo‘lgan. Dehqonlarni manfaatdorligiga emas, balki u yoki bu

⁷ Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 121-fond, 1-ro‘yxat, 9-ish, 149-varaq.

⁸ O‘zbekiston Milliy arxivi, I-1044-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 27 - 28-varaqlar.

jazoni qo‘llash tizimini ustuvorlikka olib chiqilgan. Masalan, Muvaqqat hukumat tomonidan joylardagi barcha boshqaruv tizimidagilarga, xususan oziq-ovqat qo‘mitalariga berilgan ko‘rsatma-farmoyishlarda, aholini oziq-ovqat ta‘minotiga e‘tibor qaratilib, dalalarda hosilni yig‘ib olish va ekish ishlariga katta ahamiyat bergan. Yer egalari va ijaraga olganlar hosilni o‘z vaqtida yetishtirib olmagan taqdirda, Muvaqqat hukumatning 1917-yil 17-martdagi qaroriga asosan, javobgarlikka tortilishi, ayni paytda aholi tomonidan hosilni o‘zboshimchalik – noqonuniy egallash, nafaqat keltirilgan zararni qoplash, balki qonuniy javobgarlikka tortilishi va sudga berilishi qayd etilgan. Ayni paytda Muvaqqat hukumat tomonidan joylardagi oziq-ovqat qo‘mitalariga berilgan vakolatda, ular “hosilni yig‘ishtirib olish va ekish masalalarida barcha chora-tadbirlarni ko‘radilar” deyilgan. Mavjud g‘allaning barchasi 1917-yil 25-martdagi qonunga ko‘ra, “davlat ixtiyoriga o‘tkazilishi ...boshqa qo‘mitalar ko‘rsatilgan masalalar (g‘alla masalasi – Z.A.)ni hali qilishga haqqi yo‘q va [ularning] qarorlari aholi uchun majburiy emas” deb qayd etilgan. Mazkur buyruqni chiqishiga, ko‘p joylarda aholi yer egalariga zo‘rlilik o‘tkazib: g‘allani yig‘ib olishga xalaqit berayotgani, harbiy asirlarni, ishchilarni haqini oshirish talab qilinayotgani, qilingan mehnat uchun pul emas, g‘alla talab qilinayotgani edi⁹.

TBMQ davrida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra o‘lka manfaatlaridan ko‘ra Markazni, xususan, harbiy qismlarning talab-ehtiyojlarini qondirishga, tub aholi ta‘minotini keyingi o‘rindagi vazifalar qatorida belgilashga qaratilgan. Masalan, 1917-yil 7 va 9-sentabr kunlari Turkiston oziq-ovqat boshqarmasi tomonidan davlat manfaatlari yuzasidan kelib chiqib, xususiy tarzda mevalar bilan savdo qilish bo‘yicha qaror qabul qilingan. Mazkur qarorda barcha mevalarni O‘lka oziq-ovqat boshqarmasi xarid qilishi (aholi tomonidan faqat ularga sotilishi – Z.A.) belgilanib, o‘z navbatida Turkiston oziq-ovqat boshqarmasi xarid qilingan mevalar bilan “birinchi navbatda armiya zaruriyatiga, ikkinchi navbatda Turkiston mahalliy aholisiga va uchinchi navbatda Rossiyaning barcha ehtiyojini ta‘minlash” zarurligi belgilangan¹⁰.

Shunday qilib, xulosa tariqasida qayd etish mumkinki, Rossiya imperiyasi barham topib, hokimiyat boshqaruv tizimini o‘z qo‘liga olgan Muvaqqat hukumat amalda joylardagi holatni normativ-huquqiy hujjatlar asosida to‘la-to‘kis, tizimli faoliyat olib borishining nazoratida sustligini ko‘rsatdi (aslida, ko‘p hollarda normativ-huquqiy hujjatlar eskisi bekor qilinmagan holda, ularga tayanishni xohlanmagan va ayni paytda yangisi yo‘q edi – Z.A.). Amalda shunday o‘ziga xos

⁹ Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 121-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 27-varaq orqasi va 28-varaq.

¹⁰ O‘zbekiston Milliy arxivi, I-1044 fond, 1-ro‘yxat, 17-ish, 104-varaq.

noaniqlik, boshboshdoqlik rasman 1917-yil 7-apreliga qadar davom etib, bu jarayonga Muvaqqat hukumat qarori bilan N.I.Shchepkin boshchiligida TBMQ tuzilgandan keyin ham barham berishga to‘la muvaffaq bo‘linmadi. Boz ustiga, TBMQ o‘z sa‘y-harakatlarini to‘la-to‘kis o‘lka boshqaruv tizimini qayta ko‘rib chiqishga, bu borada mustaqil ravishda normativ-hujjatlar qabul qilishga, o‘lka aholisi manfaatlari, ularning haq-huquqlarini himoyasiga oid tegishli farmoyish, qaror, yo‘riqnoma, buyruqlar qabul qilishda o‘ta ehtiyotkorlik bilan yondashib, bu borada Muvaqqat hukumat yo‘l-yo‘rig‘i, ko‘rsatmasi bilan ish yuritardi. O‘z-o‘zidan bunday holat TBMQ tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda, aholi turmush tarzida o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pobeda sovetskoy vlasti v Sredney Azii i Kazaxstane. Tashkent: “FAN”, 1967. –S.169.
2. Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. Tashkent: “Shark”., 2000. –S. 20-21.
3. Abdullayev R. Natsionalnye politicheskiye organizatsii Turkestana v 1917-1918 gody. Tashkent: “Adabiyot uchqunlari”? 2016. –S. 77.
4. Rudnitskaya D.M. Iz istorii stroitelstva sovetov v Turkestane. Tashkent: “Nauka”, 1964. –S. 29-30.
5. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 121-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 43-varaq.
6. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 121-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 43-varaq orqasi, 44-varaq.
7. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 121-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 47-varaq.
8. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 121-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 53-54 varaqlar.
9. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 121-fond, 1-ro‘yxat, 14-ish, 61-varaq va orqasi, 65 varaq va orqasi.
10. A‘zamxo‘jayev S. Turkiston Muxtoriyati. Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2000. – B. 45-46.
11. Abdullayev Z. TURKISTONDA MOL-MULK MUSODARASI VA REKVIZISIYA //Scientific journal of the Fergana State University. – 2022. – №. 1. – S. 30-30.
12. Abdullayev Z. G. NATURE AND SOCIETY: RELATION AND INTERRELATION //Ekonomika i sotsium. – 2019. – №. 4 (59). – S. 3-5.

O‘ZBEKISTONNING YANGI TARIXIDA NEMIS SHARQSHUNOSLIGINING AHAMIYATI

Tillabayeva Zuhraxon Xamidillo qizi

Namangan davlat chet tillari instituti

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Tarix ilmining tobora rivojlanib borayotgan manzarasida nemis sharqshunosligining O‘zbekistonning o‘tmishi haqidagi tushunchamizni shakllantirishdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega mavzu sifatida namoyon bo‘ldi. Akademik dunyo Markaziy Osiyo tarixining murakkab gobelenlarini chuqurroq o‘rganar ekan, nemis sharqshunos tafakkurining ta’siri tobora yaqqol namoyon bo‘lib, bu dinamik xalqning shakllanish yillarini yaxshiroq anglashimiz mumkin bo‘lgan hal qiluvchi ob’ektiv bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada nemis sharqshunosligining O‘zbekiston yangi tarixidagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: O‘zbek-nemis adabiy, madaniy aloqalari, ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlar, O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi adabiy aloqalar.

Kirish: Nemis sharqshunosligi tarixning munozarali haqiqati bo‘lib, madaniyatlararo tushunmovchilikning eng yorqin misollaridan birini beradi. Hozirgi vaqtda “Sharqshunoslik” atamasi Yevropa olimlari tomonidan Osiyo va Shimoliy Afrika jamiyatlarining ko‘plab jihatlarini o‘rganish uchun stipendiyalarda qo‘llaniladi. Ushbu olimlarning ishlari qisman kuzatuvchi bo‘lgan tarix yoki tillar, adabiyot, filologiya, din, qonunlar, qadimiy narsalar, folklor yoki madaniyatning boshqa jihatlarini ajratishda muqarrar ravishda bo‘lgan davrning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muhitini aks ettirdi. Sharqshunoslikka turli xil asarlar ansambli sifatida qarash kerak bo‘lsada, ushbu asarlarni bir-biriga bog‘laydigan ba’zi elementar taxminlarni tan olish foydalidir. Sharqshunoslikning asosiy taxminlari shundaki, Sharq G‘arbdan farq qiladi, Sharq G‘arbdan orqada va Sharq G‘arb uchun o‘ziga xoslikni anglash usuli edi. Bu fikrdagi iqlim va O‘zbekistonning yangi tarixi shakllanayotgan muhit edi.

Nemis sharqshunosligi tarixi:

Britaniyaning Hindistondagi ishtiroki uni har doim Osiyo mamlakatlari orasida Yevropa ongiga eng tanish bo‘lgan va Buyuk Britaniya 19-asrda yetakchi global kuchga aylanganligi sababli, Osiyodagi Yevropaning qiyofasi uzoq Sharqqa aylandi. Biroq, turli Osiyo tadqiqotlarining vaqti va joyidagi tafovutlarga qaramay, G‘arb ustunligining asosiy munosabati va Yevropadan tashqari dunyoni boshqasini

o‘rganish sifatida o‘rganish doimiy omil bo‘lib qoldi. Mustamlakachilik sharoitlari va Yevropaning Osiyoga kengayishining vahshiyliklari ko‘pincha davlat muassasalari tomonidan yuklatilgan va ko‘pincha akademiklarga mustamlakachilik vazifalari berilgan edi. Ushbu davrda Sharqning turli xil ma'lumotlar shakllari orqali to‘plangan bilimlari sharqshunoslikning zamonaviy akademik fanlari va Yevropadan tashqari tarixlarni o‘rganish uchun asos yaratishi kerak edi [2].

Shu bilan birga, Yevropaning Sharq bilan uchrashuvlari har doim “boshqasi bilan uchrashuvlar” sifatida qaraldi va bu uchrashuvlarga Yevropaning o‘ziga xosligi va uning Yevropadan tashqari madaniyatlardan ajralib turishi haqidagi hozirgi tushunchalar ta'sir ko'rsatdi. Edvard Saidning yangi ishi Sharqshunoslik Sharqni Yevropa tadqiqotining asosiy bahosidir. Garchi uning ishi Arab Islom madaniyatining buzilishlariga qaratilgan bo'lsa-da, uning ta'siri asosida 'Sharq' yaqin Sharq va yaqin Sharq jamiyatlari va xalqlari bo'lish.

O‘zbekistonning yangi tarixiga umumiy nuqtasi:

O‘zbekistonning yangi tarixi-bu o‘z mohiyatini Sovet yoki marksistik-lenincha tarixiy rivoyatdan kelib chiqmaydigan tarixiy tafakkur maktabidir. O‘zbek (va Turko-Eron) tilida so‘zlashuvchi xalq(lar) ning doimiyligi va diskret tarixi atrofida ta'kidlagan O‘zbekiston haqidagi an'anaviy sovet tarixiy rivoyati bilan taqqoslaganda, O‘zbekistonning yangi tarixi teskari xulosaga keladi. O‘zbekistonning yangi tarixi 1980-yillar oxiri-1990-yillar boshida O‘zbekistonda vujudga kelgan madaniy harakatning intellektual mahsulidir. U xalq orasida Jadid (so‘zma-so‘z Arab tilida “yangi” va o‘zbek tilida “Dja-amal” deb talaffuz qilinadi) harakati sifatida tanilgan. Jadidlar 1880-1910 yillarda Rossiya imperiyasining musulmon islohotchilari bo‘lib, ular konservativ musulmonlarga qarshi dissidentlar edilar. “Haqiqiy” o‘zbek milliy o‘ziga xosligini zamonaviy madaniyat va davlat bilan uyg'unlashtirgan jadidlardan Ilhom olindi. 1990-yillardagi O‘zbekiston Respublikasi olimlari izlagan bu zamonaviylik ko‘p jihatdan g‘arbona edi [3,4]. Sovet davrida Yevropa va uning madaniyati (g‘arbiy va Sharqiy Evropa) Sovet tarixiy rivoyatlarida “‘Sharqiy” hamma narsaning antitezi sifatida aylangan va shuning uchun tabiatan 'Sharqqa'dushman bo'lgan. Ammo 1980-yillarning oxiriga kelib Sharq-antiteziya nazariyasi va Sovetlikning obro'sizlanishi bilan evropaliklar va amerikaliklar “Sharq” o‘zbek o‘ziga xosligi va madaniyatiga nisbatan oddiygina “zamonaviy” sifatida qaraldi va qabul qilindi.

Tarixiy jihatdan Sharqni o‘rganish, bu atama yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi turli mintaqalarni qamrab olgan bo‘lib, Yevropalik olimlar orasida ustun tadqiqot sohasi bo‘lgan. Germaniya o‘zining boy intellektual an'analari va rivojlanayotgan ilmiy muassasalari bilan ushbu ilmiy ishda hal

qiluvchi rol o'ynadi. Taniqli olimlar Vilgelm Radloff va Vasiliy Bartold singari taniqli nemis sharqshunoslari O'zbekistonning madaniy, lingvistik va tarixiy merosini tushunishga muhim hissa qo'shdilar.

Ushbu nemis sharqshunoslari o'zlarining puxta izlanishlari va yangi nashrlari orqali O'zbekiston o'tmishini yanada chuqurroq va har tomonlama qadrlash uchun asos yaratdilar. Ularning faoliyati o'zbek jamiyatining murakkab gobelenlarini o'rganib chiqdi, mintaqa taraqqiyotini shakllantirgan etnik, lingvistik va diniy ta'sirlarning murakkab tarmog'ini o'rganib chiqdi. Ushbu olimlar dastlabki manbalar, arxeologik topilmalar va til qonuniyatlarini sinchiklab tahlil qilib, O'zbekistonning shakllanish yillariga xos bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy dinamikani yoritishga muvaffaq bo'ldilar.

Bundan tashqari, nemis sharqshunosligining ta'siri akademik nutq doirasidan tashqariga chiqdi, chunki bu O'zbekiston tarixini jahon miqyosida idrok etish va talqin qilish uslubiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Germaniya sharqshunoslari tomonidan taqdim etilgan tushuncha va istiqbollar siyosatchilar, diplomatlar va xalqaro kuzatuvchilar tomonidan qiziqish bilan qabul qilinib, O'zbekistonning Markaziy Osiyo geosiyosiy landshaftidagi o'rni haqida keng tushuncha shakllantirildi.

O'zbekistonning zamonaviy tarixshunosligi rivojlanib borar ekan, nemis sharqshunosligi merosi bu xalqning o'tmishini anglashimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zamonaviy olimlar, avvalgilarining asosiy ishlariga asoslanib, nemis sharqshunosligi an'alaridan olingan tushunchalarni tanqidiy o'rganishga va kengaytirishga intildilar. Ushbu qayta baholash va qayta talqin qilish jarayoni O'zbekiston tarixini yanada nozik va ko'p qirrali tushunishga olib keldi, bu uning rivojlanishini shakllantirgan ichki va tashqi kuchlarning murakkab o'zaro ta'sirini qamrab oladi.

O'zbekistonning yangi tarixi sharoitida nemis sharqshunosligining ahamiyatini rad etib bo'lmaydi. Bu ushbu millatning tarixiy traektoriyasini belgilab bergan madaniy, lingvistik va siyosiy dinamikani tushunish uchun muhim asos yaratdi. Nemis sharqshunoslari, olimlari va siyosatshunoslari tomonidan yoritilgan O'zbekiston o'tmishining boy gobelenlarini o'rganish orqali Markaziy Osiyo xalqining butun tarixi davomida duch kelgan noyob qiyinchilik va imkoniyatlarini chuqurroq anglash mumkin.

Biz O'zbekiston o'tmishining rivojlanayotgan tarixni o'rganishda davom etar ekanmiz, nemis sharqshunosligi merosi bu jo'shqin va serqirra xalq haqidagi tushunchamizning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Ushbu ilmiy an'ana orqali biz O'zbekistonning Markaziy Osiyo tarixi doirasidagi o'rnini yanada

kengroq va chuqurroq anglashimiz, ahamiyatida ushbu muhim mintaqani yanada xabardor va ravshanroq tushunishga hissa qo'shishimiz mumkin [1].

Ma'lumki, adabiy asarning mahsuldorlik qiymati uning nafaqat ma'lum bir avtonom adabiy makonda badiiy matn sifatida ishlashiga, balki uning dunyoning ijtimoiy, madaniy va adabiy omillari kontekstiga qanday kiritilganligiga balki ijtimoiy-madaniy ko'rsatmalarni aks ettirishiga bog'liq. Aynan jahon adabiy jarayoniga qo'shilish turli mamlakatlar o'rtasidagi adabiy aloqalar, milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri va tarjima faoliyati bilan ta'minlanadi, chunki u orqali tarjima har qanday milliy adabiyotning global adabiy makonda ommalashishi va faoliyati ta'minlanadi.

Ma'lumki, milliy adabiyotlarning rivojlanishi boshqa adabiyotlar bilan o'zaro bog'liqliksiz, o'zaro ta'sir va o'zaro boyitishsiz mumkin emas. O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi adabiy aloqalar o'z tarixiga va zamonaviy hamkorlikning qiziqarli qirralariga ega.

O'zbek adabiyoti, xususan, klassiklar dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan, nemis tili mamlakatlarida, xususan, Germaniyada tan olingan. Buni yigirmanchi asrda amalga oshirilgan ko'plab tarjimalar tasdiqlaydi. Buyuk o'zbek adibi Alisher Navoiy asarlarining 1941-yilda nemis tarjimoni Alfred Kurella tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari o'zbek va nemis adabiyoti o'rtasidagi o'zaro aloqalar tarixidagi ajoyib sahifadir. Iste'dodli tarjimonlar O'zbek talqinida nafaqat mazmunni, balki nemis aslining ruhini ham yetkazishga intilib, nemis she'riyatining Faust, Gyote yosh Verterning iztiroblari va boshqa durdonalari o'zbek tilida to'liq kuchga kirishi mumkinligini isbotladilar [7]. Ushbu tarjimalar xalqaro munosabatlarning rivojlanishini va intensivlikni rag'batlantirdi. Xalqaro madaniy aloqalar va tarjima faoliyati, ko'plab adabiyotlar tomonidan to'g'ri ta'kidlanganidek olimlar va tarjimonlar milliy adabiyotning o'sishi va boyishiga hissa qo'shadi, uning jahon adabiy makonidagi obro'sini mustahkamlaydi, jahon adabiy jarayonida munosib o'rin egallashiga yordam beradi, tinchlik va jamiyatning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. 19-asrda Germaniya Markaziy Osiyo, uning madaniyati, adabiyoti, o'tmishi va bugungi kuniga qiziqish ortdi. Boburning 1828 yilda nemis tarjimoni va sharqshunosi Kayzer tomonidan amalga oshirilgan Boburning nemis tiliga tarjimasi bunga yorqin misoldir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nemis sharqshunosligining O'zbekistonning yangi tarixiga ta'siri madaniyatlararo almashinuvning doimiy qiymati va intellektual izlanish kuchidan dalolat beradi. Tarixchi va olimlar nemis sharqshunoslari stipendiyasi orqali O'zbekiston o'tmishining boy tarixi bilan shug'ullanish orqali

yangi istiqbollarni ochish, mavjud qarshiliklarga barham berish va Markaziy Osiyodagi ushbu muhim mintaqani yanada nozik va har tomonlama tushunishga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. O‘zbekiston va Germaniya ishonchli, muhim va uzoq muddatli hamkorlardir. Tanlangan asarlar. IV jild. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti. 2019 III jild, 315-319-betlar.
2. “Berliner Zeitung” gazetasi, 1974 yil, 30-iyun, p. 10.
3. “Freie Welt” jurnali, 1974, 727.
4. O‘zbek do‘stlar. «Sharq haqiqati», 1968 yil, 10 oktyabr.
5. Shanba. Milliy adabiyotlarning aloqalari va o‘zaro ta’siri”, M., 1961 y.
6. Rivojlangan sotsializm adabiyotlari va badiiy madaniyatining o‘zaro ta’siri. “Fan” nashriyoti, M., 1977 yil.
7. G. Lomidze. Ajoyib hamjamiyat hissi. Nashriyot uyi “Sov. pis., M., 1978 yil

1947 йилда ўТКАЗИЛГАН ПУЛ ИСЛОХОТИ ВА УНИНГ ОЗИҚ-ОВҚАТ ТАЪМИНОТИГА ТАЪСИРИ:МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

Музаффар Хўжамов Расулжонович

Наманган давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: *Мазкур мақолада 1947 йилда СССРда ўтказилган пул ислохоти ва унинг Ўзбекистон ССР аҳолисининг озиқ-овқат таъминотиغا таъсири, бу борада республика ҳукумат томонидан олиб борилган чора-тадбирлар, унинг натижасида озиқ-овқат таъминоти нарх-навонинг қисман эркинлашиши, аҳолини дон ва ун, нон ва бошқа турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари таъминотини борасидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари масалалари ёритилган.*

Калит сўзлар: *Пул ислохоти, Ўзбекистон ССРда озиқ-овқат таъминоти, нарх-наво масаласи, озиқ-овқат таъминотида он ва ун, буғдой ва бошқа турдаги масалалар, мавжуд муаммолар, ечим, чора-тадбирлар.*

Аннотация: *Денежная реформа, продовольственное снабжение в Узбекской ССР, вопрос о ценах, муке, пшенице и других видах продовольственного снабжения, существующие проблемы, пути решения, меры.*

Annotation: *Monetary reform, food supply in the Uzbek SSR, the issue of prices, flour, wheat and other types of food supply, existing problems, solutions, measures.*

Иккинчи жаҳон урушидан сўнг қишлоқ хўжалигини қайта тиклаш ва озиқ-овқат таъминотини яхшилаш мақсадида бир қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқилди. Шу билан бирга озиқ-овқат таъминотида ҳал этилиши керак бўлган зиддиятли ҳолатлар ҳам мавжуд бўлиб, шундай ечимини кутаётган масалалардан бири нарх-наво масаласи эди.

Шу мақсадда 1947 йил СССР Министрлар совети ва ВКП (б) Марказий комитетининг бутун иттифоққа аъзо республикаларда пул ислохоти ўтказиш ва карточка тизимини тугатиш тўғрисида қарори қабул қилинди. Пул ислохотини ўтказилишига бир қатор омиллар сабаб қилиб олинди, хусусан, уруш йиллари ҳарбий ҳаражатларни қоплаш мақсадида кўп миқдорда пул ишлаб чиқарилгани ва муомаладаги пулни режадан ортиқ кўпайиб кетгани бўлса, карточка тизимини натижасида нархларни бир маромда ушлаб турилиши натижасида давлат ва кооперация истеъмол молларини камайиб кетганлиги, оқибатда хўжалик деҳқон бозорларига талабнинг ошиши ўз ўзидан нарх-навога ўз таъсирини ўтказмай қолмади. Бунинг натижасида уруш йилларидаги нарх-наво сиёсатида стабилликни ушлаб туриш учун ҳаракатлар нарх-навони урушдан олдингига нисбатан 10-15 % га ошишига олиб келди. Пул ислохоти ўтказиш натижасида муомаладаги ва аҳоли қўлидаги 10 сўм ўрнига 1 сўм, давлат банки ва омонат кассаларида сақланаётган 3000 сўмгача бўлган пуллар 1 сўмига 1 сўм,

бунинг натижасида аввалги қийматини сақлаб қолади. Ислохот режасида давлат заём [1:Б.123]ларига ҳам тўхталиниб, 1947 йилгача ишлаб чиқилган пул заёмлар ҳаммаси конвертация қилиниб, заём облигациялар 3 сўмига 1 сўм ҳисобланиб, бир нечта заём облигациялар битта заёмга алмаштирилади. Тушиниш мумкинки, қиймат жиҳатдан нақд пул сақлаган фуқароларга нисбатан заём облигациялар эгалари ислохот натижасида камроқ зарар кўрдилар. Қарорда яна шундай банди бор эди: Пул ислохотининг ишчи ва хизматчиларнинг иш ҳақиға, шунингдек деҳқонларнинг давлатга маҳсулот топшириб олган даромадлари ва аҳолининг барча табақалари меҳнат қилиб топган бошқа даромадларига тааллуқи йўқ ва уларга янги пул билан аввалги миқдорда тўлаб берилади [2:Б.1].

Олиб борилган озиқ-овқатлар нарх-навоси борасидаги ислохотлар аҳолининг иқтисодий турмуш тарзигагина таъсир этибгина қолмай, меҳнат фаолиятига ҳам ўз таъсири ўтказди. Бу ўз навбатида меҳнат унумдорлигига ҳам олиб келди, натижада урушдан кейинги дастлабки йилларда саноат ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши соҳасида янги муваффақиятларга эришилганлиги, меҳнат унуми ортганлигига маҳсулотларнинг таннархи камайганлиги асосий омил сифатида қараш мумкин. Бундан ташқари пул ислохоти ўтказиш билан бир қаторда, 1947 йил 16 декабрдан бошлаб озиқ-овқат ва саноат молларини билан таминлашда карточка тизимини бекор қилинди, хусусий савдо учун белгиланган савдо нархлари тугатилди. Озиқ-овқат ҳамда саноат молларини чаканалаб сотиш юзасидан пасайтирилган ягона давлат нархлари жорий қилинди, иккинчидан озиқ-овқат ва саноат молларини чаканалаб сотиш юзасидан ягона давлат баҳоларини белгилаш вақтида қуйидагилар асос қилиниб олинди: а) нон ва уннинг нархини шу вақтдаги (1947 й) паёк [3:Б.10] баҳоларига нисбатан ўрта ҳисоби билан 12 % га камайтирилди б) крупа ва макароннинг нархини шу вақтдаги паёк баҳоларига нисбатан ўрта ҳисоби билан 10 % га камайтирилди в) гўшт, балиқ, ёғ, қанд, ширинликлар, туз, картошка ва сабзавотлар нархлари айни дамдаги паёк баҳолари даражасиди сақланди с) сут, тухум, чой, мевалар айни дамдаги хусусий савдодаги ва жуда паст баҳолари бекор қилиниб, айни вақтдаги асосий озиқ-овқатларига белгиланган паёк баҳолари даражасига муофиқ янги баҳолар белгилансин д) пивонинг нархи айни дамдаги нархларга нисбатан ўрта ҳисоб билан 10 % га камайтирилсин е) ароқ ва винонинг айни дамдаги нархи сақлансин [4:Б.1] деб белгилаб қўйилди.

Ислохот давом эттирилди ва ВКП (б) Марказий комитети кўп истеъмол қилинадиган озиқ-овқат ва саноат молларининг давлат чакана нархларининг 1950 йилнинг 1 мартидан бошлаб яна учинчи марта камайтириш мумкин деб топди. Унга кўра: доимий кундалик озиқ-овқат маҳсулот турларидан жавдари буғдойдан пиширилган қолипчи нон ҳамда жавдари буғдой ва кепакчи буғдой унидан пиширилган ҳар хил навли нон 25,9 %, навли буғдой унидан пиширилган нон 30%, бухонкалар, тешик кулча, сушки, сухари ва навли буғдой унидан пиширилган бошқа хил

бухонкалар 30 %, хамиртуруш 20 %, унлар, кепакли буғдой уни ва кепакли жавдари буғдой уни 25 %, Биринчи нав ва аъло нав буғдой уни 30 %, купчатка буғдой уни 20%, буғдой унининг бошқа навлари 25%, шунингдек жўхори, арпа уни ва бошқа хил унлар 25 %, крупа, гуруч ва дуккакли донлар: тарик 14,8 %, қора буғдой крупаси, бошқа хил крупалар, нўхот ва дуккакли донлар 20%, гуруч 12 %, макарон маҳсулотлари ва макарон 25 %, угра 25 %, озиқ-овқат концентратлари, нўхотли шўрва масаллиғи ва ёғли тарик бўтқаси 15,2 %, болалар овқати учун ишлатиладиган ун 14,5%, картошка крахмали 14,6 %, толқон, геркулес, жўхори оқшоғи, саго, қуруқ кисел, бошқа хил озиқ-овқат концентратлари 15 %, дон, жавдар буғдой, арпа, буғдой ва бошқа хил донлар 20%, сули 22,7 %, кепак 22%, гўшт ва гўшт маҳсулотлари: ўртача семиз ва семиз мол гўшти 22%, ўртачадан паст даражадаги мол гўшти 30%, ўртача семиз ва семиз қўй гўшти 28%, ўртачадан паст даражадаги қўй гўшти 35%, чўчқа гўшти 24%, парранда гўшти 24%, қуён гўшти 30 % ўртача семиз ва семиз гўштнинг бошқа навлари 24%, ўртачадан паст даражадаги гўштнинг бошқа навлари 30%, калла-поча 24%, қази 24%, сосиска ва сарделька 30%, дудланган гўшт 27%, Москва катлети 35%, гўштли овқатнинг бошқа турлари 25%, гўшт ва гўшт-ўсимлик консервалари 25%, тухум ва тухум порошоғи: тухум 15%, тухум порошоғи, қанд, кондитер ва баққоллик моллари: шакар 15%,чақмоққанд 12%, қуйма монпансье ва қоғоссиз карамел 8%, какао маҳсулотлари қўшилмаган қоғозли карамель 11%, юмшоқ конфетлар, шоколад, мармелад, печенье ва пряник 20%, какао, пирожное ва торт 16.7%, бошқа хил кондитор моллари(вафли,кекс, рулет, шарқ ширинликлари, парҳез, шифо таомлар ва бошқалар)18%, мураббо, қиём, повидло ва желе 25%, витаминлар 20%, майда туз ва ош тузи 40%, йирик туз 50%, соф чой 10%, чой, кофе ва какао ичимликлари 18%, ароқ ликёр ва вино: ароқ 16.7%, ликёр 25%, наливка, настойка ва ширин кремлар 18%, аччиқ настойка 20%, коньяк 25%, ошхона винолар 35%, ўткир ва диссерт винолар 49%, совет шампан виноси 30%, цимлянск виноси 30%, мевадан тайёрланган винолар 20%, пиво, мева сувлари ва квас: пиво 30%, соф шарбатли ва сиропли ичимликлар 16%, нон кваси 22%, бошқа хил ичимликлар 20%, ичиладиган сода 21%, мевалар:олма ва нок 20%, узум 25%, мандарин ва апельсин 15%, қуруқ мевалар ва ёнғоқ 20%, мева консервалари ва шинни 30%, қанд қўшиб музлатилган шафтоли, ўрик, олхўри, қора маймунжон ва бошқалар 20%, қанд қўшилмай музлатилган бошқа хил мевалар 30%, картошка ва сабзавотлар: картошка 10%, карам 14.7%, сабзи 14.7%, лавлаги 10%, кўк нўхат 32 %, бошқа хил сабзавотлар 10, ачитилган карам 16.7%, тузлаган ачитилган ва сиркаланган бошқа сабзавотла 13%, қуритилган картошка 11.1%, қуритилган карам 20.8%, қуритилган бошқа хил сабзавотлар 13%, консерва қилинган суюқ томат 32% га арзонлаштирилди [5:Б.2].

Кўриниб турибдики, юздан ошиқ кундалик озиқ-овқат маҳсулотлари турларига қийматини пасайтириш сиёсати қўлланди ва бу жараён, албатта,

аҳолининг озиқ-овқат истеъмол молларига бўлган эҳтиёжи, хусусан, уни сотиб олишга ва истеъмол қилишга, кундалик асосий масала бўлган озиқ-овқат маҳсулотларидан кенг фойдаланишга катта имконият яратди. Албатта, бу жараён ўз навбатида озиқ-овқат саноати зиммасига бир мунча масъулият юклади, натижа озиқ-овқат турларини ишлаб чиқариш ва етказиб бериш 1945 йилга нисбатан озиқ-овқат саноати таркибидаги саноат корхоналарининг кўпайишига олиб келди, бу кўрсаткич саноат улушида 1951 йилга келиб 33,7 % етган бўлса, меҳнат унумдорлиги эса 1946 йилга нисбатан 1951 йилга келиб 40 % етди [6:Б.3].

1952 йил 1 апрелда бешинчи марта СССР министрлар совети ВКП (б) Марказий комитети озиқ-овқат молларининг давлат чакана нархларини яна камайтириш тўғрисида навбатдаги қарорни қабул қилди. Унга кўра: Нон ва ун маҳсулотлари: Жавдар буғдойдан қилинган нон 12%, кепакли буғдойдан қилинган нон 12%, жавдар ундан қилинган нон 15%, сортли буғдой ундан қилинган нон, бухонкалар, тешик кулчалар ва бошқа хил нон маҳсулотлари 15%, кепакли буғдой уни 12%, жавдари буғдой уни 12%, эланган жавдари буғдой уни 15, сортли буғдой уни ва бошқалар 15%, макаронлар ва угра 15%, дрожжи 20%, гуруч, крупа, дуккакли донлар ва озиқ-овқат концентрантлари: манная крупа, сули ёрмаси ва арпа 20%, гуруч ва дуккакли донлар 15%, озиқ-овқат концентрантлари 10%, крахмал 15%, гўшт ва гўшт маҳсулотлари: мол гўшти, қўй гўшти, чўчқа гўшти, колбаса, сосиска, сарделка, товук ва бошқа гўшт маҳсулотлари, ўрдак, ғоз ва куркалар 20%, гўшт консервалари ва гўшт-ўсимлик консервалари 20%, совет пишлоғи, швейцар, голланд ва бошқа пишлоқлар 20%, маҳаллий пишлоқлар 10%, ўсимлик мойи 20%, ерёнғоқ ва данак мойлари 30%, маргарин 15%, майонез соуслари 30%, музқаймоқ 15%, тухум 15%, қанд, шакар, кондитор ва баққоллик моллари: қанд-шакар ва рафинад 10%, ўралган конфетлар, карамель, шоколад ва бошқа ширинлик кондитор маҳсулотлар 10%, ўралмаган карамель 15%, печенье, вафли, кекс, тортлар, пирожное, пряник, сухари ва ундан тайёрланган бошқа хил кондитор маҳсулотлар 12%, мураббо, қиём ва желе 10%, витаминлар 10%, натурал чой 20%, натурал кофе ва какао 15%, кофели ичимликлар 10%, туз 30%, сирка эссенцияси 15%, хўл мевалар:олма, нок ва узум 20%, музлатилган мевалар ва резаворлар 20, куруқ ва ёнғоқлар 20%, сабзавот ва мева консервалари: сабзавотдан қилинган табиий консервалар, бодринг, гармдори, кўк нўхат, томат ва музлатилган сабзавотлар 20%, мева консервалари: компотлар, пюре ва пасталар, мева ва томат соуслари 10%, табиий шарбатлар: узум, олма, олхўри шарбатлари 20%, ресторанлар ва ошхоналарда , бошқа умумий овқатланиш корхоналарида [7:Б.3] нарх-наво шунга муофиқ равишда камайтирилиши қарорга банд сифатида киритилди. Навбатдаги жорий қилинган бу сиёсат ўз навбатида аҳолининг ижтимоий қатламларига, боқувчисини йўқотган ва кам таъминланган оилаларнинг кундалик турмуш тарзига, албатта, ижобий таъсир кўрсатди, тўйиб овқат

ейиши юзага келди. Бу ҳолат инсонларнинг соғлом турмуш тарзи яхшиланишига ва жонланишига олиб келди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Заём-қарз асосида давлат бюджетига маблағ тўлаш. . Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент.: ЎзМЭ,. 2007. – Б.123.
2. Сталин ҳақиқати.1947 йил 25 декабр 246 сон . – В. 1
3. Паёк-маълум вақтга белгиланган меъёр билан бериладиган озоқ-овқат. Қаранг: Русча-Ўзбекча изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент.: ЎзССР МЭ,. 1983. – Б.10.
4. Сталин ҳақиқати.1947 йил 25 декабр 246 сон . – В. 1
5. Қизил Ўзбекистон.1946 йил 25 феврал 11 сон . – В. 2
6. Қизил Ўзбекистон.1951 йил 17 январ 14 сон . – В. 3
7. Қизил Ўзбекистон.1952 йил 1 апрел 31 сон . – В. 3

XONQA TARIXI VA TOPONIMI

Umida Zaripboyeva

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'xna va doimo navqiron Xorazmning qadimiy Xonqa tumani tarixi va uning toponimlari haqida bir qator ilmiy adabiyotlar va manbalar orqali ma'lumot berishga harakat qilingan.

Kalit so'z va iboralar: Xorazm, Xonqa, "Avesto", "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqdarga boy o'lka", Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Kat, S.P.Tolstov, V.B.Bartol'd, Yaxyo G'ulomov, Bo'riboy Ahmedov.

Azaldan Xorazm diyori o'zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalar va uzoq zamonlarga borib taqaluvchi o'tmishi bilan ajralib turadi. Xorazm haqidagi ilk ma'lumotlar Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, Eron shohi Doro Ining Behistun tosh bitiklarida, qadimgi yunon mualliflari, arab geograflarining asarlarida uchraydi. Xususan, "Avesto"ning "Yasht" qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqdarga boy o'lka" sifatida madh etiladi.

Xorazm o'lkasida joylashgan Xonqa tumani eng qadimiy o'lkalardan biri. Xonqa bugungi kunda shaharcha, Xonqa tumani markazi. U o'z vaqtida Xiva xonligining tayanch bekligi bo'lgan va hozirda Xorazm viloyatining ilg'or tumanlaridan biridir. Xonqa asrlar davomida vohaning iqtisodiy, madaniy hayotida muhim o'rin egallagan. Xorazm vohasi haqida gap borganda, albatta, Xonqa va xonqaliklar tilga olinadi. Xonqa qadimiyligi jihatdan ko'hna Xorazmning tarixiy poytaxtlari bo'lgan Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Kat va Xiva shaharlari bilan bir qatorda turadi.

Xorazm arxeologiyasining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olim, mashhur arxeolog S.P.Tolstov o'zining qazish ishlari materiallariga asoslanib, qadimiy Qang' davlati Xorazmda tashkil etilgan va uning poytaxti ham shu yerda bo'lishi mumkin degan tarixiy xulosaga kelgan edi. Amudaryoning chap qirg'og'i hududlaridan topilgan Anqa 1, 2, 3, 4, 5 qal'alari mazkur davlat davridan qolgan arxeologik yodgorlik ekanligi va "Xonqa" atamasi "Anqo" so'zining o'zgarish shakli ekanligi haqida taxmin qilinadi. Xorazm o'lkasida joylashgan "Xonqa" atamasining kelib chiqishi, ma'nosi to'g'risida olimlarning fikrlari yakdil emas. Mustaqillik yillarida yurtimiz arxeologlari o'zining so'nggi taxlillari asosida "Qang" davlati Toshkent vohasi hudidida bo'lganligi va Sirdaryoning bir qismini o'z ichiga olganligi, Xorazm

esa unga qaram bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Xorazmlik arxeologlar esa “Anqo” va “Xonqa” so‘zining o‘zgargan shakli deya taxmin qiladilar¹¹.

Xorazm tarixini keng va chuqur o‘rgangan – S.P.Tolstov, V.B.Bartol’d, Yaxyo G‘ulomov, Bo‘riboy Ahmedov kabi bir qator olimlar Xonqa tarixi va toponimlari haqida turli fikrlarni o‘rtaga tashlaganlar. “Mashhur arxeolog Yahyo G‘ulomov o‘zining “Xorazmning sug‘orilish tarixi” asarida “Xonqa” atamasi “Xonaqoh” so‘zidan kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradi. U o‘z fikrini mo‘g‘ullar davrida vayron etilgan machitlardan biri bo‘lgan Sayid ota xonaqosining saqlanib qolganligi va uning atrofiga keyinroq aholi ko‘chib kelib, yashash joyi bunyod etilganligi haqidagi xulosalari bilan tasdiqlaydi. Yahyo G‘ulomovning ma’lumotlariga ko‘ra, “Xonaqo” so‘zi keyinchalik Xonqaga o‘zgargan¹².

Sharqshunos olimlar L.Mankovskaya va V.Bulatovalar Said ota xonaqohi haqida ma’lumot berib, xonaqohni uning o‘g‘illari yoki nevaralari qurgan bo‘lishi mumkin deb taxmin qilishadi. Keyinchalik, mo‘g‘ul bosqinchilari Safardiz qal’asini vayron qilganda ham bu xonaqoh omon qolgan. Vaqt o‘tishi bilan odamlar bu yerga ko‘chib kela boshlaganlar, avval qishloq, keyin Xonqa qal’asi paydo bo‘lgan. Hozirda maqbara madaniy-tarixiy ob’yekt sifatida davlat himoyasiga olingan. Hozirda ham bu ziyoratgoh Xorazm viloyatida eng katta ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda Xonqa nomining kelib chiqishini Said ota nomi bilan bog‘laydilar¹³.

Xonqa toponimi bo‘yicha yana bir qator farazlar mavjud. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, Xonqa – “Zikrxona” so‘zidan olingan bo‘lib, X asrda Darxos deb atalgan. Sharqshunos V.V.Bartol’d, “xonqao” forscha xona so‘zining so‘g‘diylar tilida talaffuz qilinishidir deb qayd etgan. 1981-yil Moskvada nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nomli ikki jildlik yirik asarida “Xonaqoh” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Xonaqoh” – fors – tojik atamasi bo‘lib, masjidning namoz o‘qiydigan keng va kata xonasiga aytiladi¹⁴.

Tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan “Xon(a)qo” so‘zining Xonqa atamasiga aylanib qolishi tabiiy holdir. Lekin masalaga tarixiy nuqtayi nazardan qaraladigan bo‘lsa va dunyoning turli joylarida Anqa, Xonqa, Qanxa, Kangxa, Safardiz nomi bilan ataluvchi joy nomlarining mavjudligi masalaning ancha munozarali ekanligidan dalolat beradi.

Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori Zarifboy Do’simov “Xonqa” atamasi masalasiga aniqlik kiritib, shunday deb yozadi: “Xonaqo so‘zining Xonqaga aylanishi hodisasini fonetik jihatdan izohlash qiyin. Chunki “a” harfi so‘z o‘rtasida puxta o‘rnashib qolgan va uning tushishi Xorazm shevalari

¹¹ Nurjanov K., Jumaniyozova M. Xonqa tarixi. – Urganch, “Xorazm” nashriyoti, 2015. – B. 11.

¹² Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1959.

¹³ Хонқа тарихи. – Урганч: “Хоразм”, 1995. – Б. 14.

¹⁴ Rajabboyeva Dilnoza Maqsud qizi. Xonqa tumanidagi joy nomlari toponimlari. 2022-yil.

uchun xarakterli emas”¹⁵. Umuman turkiy tillarda undoshlar orasidan unli tovush tushishi deyarli uchramaydi. Shunday ekan, Xonqa eron tillariga xos “Kantxo” – qishloq, mustahkamlangan shahar so‘zi bilan bog‘liq¹⁶.

S.P. Tolstovning ta’kidlashicha, VII – VIII asrlarda Xorazm shaharlari butunlay yo‘qolib ketganligini, VIII – IX asrlarda esa ularning o‘rnida yirik savdo-hunarmandchilikka asoslangan yangi ko‘rinishidagi qo‘rg‘on tipidagi qasrlari vujudga kelganligini ta’kidlaydi.

Xorazmga sayohat qilgan arab va fors sayyohlari Al-Muqaddasiy, Al-Istaxriy, Ibn al A‘zam, At-Tabariylar bu mamlakatdagi 30 dan ortiq shahar va shahar tipidagi savdo-hunarmandchilik markazlarining nomlarini tilga oladilar. Mualliflardan Al-Istaxriy ta’riflagan “Safardiz” qal’asi o‘zining geografik koordinatalari bo‘yicha hozirgi Xonqa tumani hududiga taxminan mosdir. “Safardiz”, – deb yozadi Istaxriy – Xivadav 5 farsax, Kat qal’asidan (hozirgi Beruniy shahri) uch farsax yo‘ldir. V.V. Bartol’d va Y. G‘ulomovning yozishlaricha, 1220 – 1221-yillarda Safardiz mo‘g‘ul istilosi tufayli butunlay vayronaga aylantirilgan. Bu yerda Saidota xonaqosigina omon qolgan. Xonqa hududi XVI – XVII asrlarda Safardiz deb atalgan. Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarida G‘oziobod, Polvon yoplarining qurilishi va uning Safardiz qal’asidan o‘tganligi haqida gap boradi. Nodirshoh Xivaga hujum qilgan davrda Xonqani o‘z qarorgohiga aylantirilgan.

XVII asr o‘rtalaridan boshlab rus manbalarida “Xonqa” atamasi tilga olinadi. 1669-yilda bu yerga kelgan rus savdogari Ivan Feodotov Xonqadan ipak va paxta sotib olganligini yozib qoldirgan. Xonlikning Xiva, Yangi Urganch, Toshxovuz, Xonqa, Hazorasp va boshqa shaharlarida sanoat ishlab chiqarish korxonalari qurila boshlangan. 1885-yilda rus ishbilarmoni K.M.Chernikov mahalliy boy Avazboy qozi Madiyorov bilan sherikchilik asosida paxtaga ishlov beruvchi zavod qurgan. 1890-yilda Xonqada rus ishbilarmoni Manuylov yana bir paxta tozalash zavodi qurdirgan. Bundan biroz oldin, 1888-yilda “Bolshaya Yaroslavskaya” manufaktura savdo-sanoat shirkati vakili I.D.Kuzin xon qabulida bo‘lib, paxta tozalash zavodi qurish uchun ruhsat olgan. Shu maqsadda Yangi Urganchlik Yoqub Ibrohimboydan 2,5 tanob yer sotib olinib, paxta tozalash va moy zavodi qurila boshlangan. Bug‘ bilan ishlaydigan va AQSHdan keltirilgan 5 ta jin, 2 ta yarim avtomat tarzda ishlovchi press bilan jihozlangan korxona 25 ming pud paxtani tozalash quvvatiga ega bo‘lgan¹⁷.

Xonqa tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil qilingan. 1962-yil Yangiariq tumaniga qo‘shib yuborilgan. 1973-yilda 26-dekabrda qayta tashkil qilingan.

¹⁵ Do’simov Z., Egamov E. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 1977. – B. 142.

¹⁶ Do’simov Z. “Xorazm toponimlari”. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 26.

¹⁷ Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi. – T.: Sharq, 2004. – B. 78.

Tuman tashkil qilingan yili Xorazm viloyatida 4 ta shahar va 6 ta tuman tashkil qilingan. Tuman tarkibiga 14 ta qishloq punkti kiritilgan¹⁸. Bular: Abduvais, Navxo‘z, Saddullaobod, Sohoboda, Saidniyozbiy, Durvadik, Qoramozi, Sarapayon, Qiryop, Shatqiyot.

Bugungi kunda Xonqa tumani Xorazm viloyatining qishloq xo‘jaligi, sanoat taraqqiy etgan va madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurjanov K., Jumaniyozova M. Xonqa tarixi. – Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 2015.
2. Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1959.
3. Хонқа тарихи. – Урганч: “Хоразм”, 1995.
4. Rajabboyeva Dilnoza. Xonqa tumanidagi joy nomlari toponimlari. URDU, 2022.
5. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 1977.
6. Do‘simov Z. “Xorazm toponimlari”. – Toshkent: Fan, 1985.
7. Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi. – T.: Sharq, 2004.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xonqa_tumani

¹⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xonqa_tumani

MUHAMMADYOR IBN ARAB QATAG'ONNING "MUSAXXIR UL-BILOD" ASARI VA UNDAGI DAVLATCHILIK MASALASI, TARIX VA TAHLIL

Mamasidiqov Fazliddin Muzaffar o'g'li

*Namangan davlat universiteti, 70220301 – tarix
(yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) magistratura
Mutaxassisligi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixchi Muhammaddiyor ibn Arab Qatag'onni "Mussaxir ul bilod" asarida keltirilgan Shayboniylar davlatchiligiga oid ma'lumotlar keltirilgan va o'zbek xonligida bo'lgan ayrim lavozimlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: devonbegi, Abulvaffo, bahodir, Shayboniylar, Muhammad Shayboniyxon, Qulbobo Ko'kaldosh, Muhammadyor ibn Arab Qatag'on.

MUHAMMADYAR IBN ARAB QATAGAN'S WORK "MUSAXHIR UL-BILAD" AND THE ISSUE OF STATEHOOD IN IT, HISTORY AND ANALYSIS

Mamasidikov is the son of Fazliddin Muzaffar

*Namangan State University, 70220301 - history
(by direction and type of activity) master's specialty
1st grade student*

Annotation: In this article, the information about the Shaybani statehood given in the work "Mussakhir ul Bilad" by the historian Muhammaddiyar ibn Arab Qatag'han is given and information is given about some positions in the Uzbek Khanate.

Key words: Devanbegi, Abulaffa, Bahadir, Shaibanis, Muhammad Shaibanikhan, Qulbobo Kokaldosh, Muhammadyar ibn Arab Qatagan.

ПРОИЗВЕДЕНИЕ МУХАММАДЬЯРА ИБН АРАБ КАТАГАНА "МУСАХИР УЛ- БИЛАД" И ПРОБЛЕМА ГОСУДАРСТВЕННОСТИ В НЕМ, ИСТОРИЯ И АНАЛИЗ

Мамасидиков – сын Фазлиддина Музаффар

*Наманганский государственный университет, 70220301 - история
(по направлению и виду деятельности) специальность магистра
Первоклассник*

Аннотация: В данной статье приводятся сведения о государственности Шайбани, данные в труде «Мусахир ул Билад» историка Мухаммаддияра ибн Араб Катагона, а также приводятся сведения о некоторых позициях в Узбекском ханстве.

Ключевые слова: Деванбеги, Абулаффа, Бахадир, Шайбанис, Мухаммад Шайбанихан, Гулбобо Кокалдош, Мухаммадьяр ибн Араб Катаган.

Muhammadyor ibn Arab Qatag'on Shayboniylar davlatchiligiga oid muhim manba yozib qoldirgan shaxs hisoblanadi. Muhammadyor “Musaxxir ul-bilod” asarida Shayboniylarni harbiy boshqaruvi haqida ajoyib manbalar bergan, u o‘z asarida davlat mansablari va ularni olib borgan ishlari haqida ma’lumotlar berib o‘tgan. Manbada o‘zbek davlatchiligiga oid mansab va unvonlar haqida ma’lumotlar berilgan. Lekin, tarixchi mansablarni qanday vazifani bajarishi haqida ma’lumot berib o‘tmagan. Shu boisdan ham biz asarda lavozim nomlarini bilib olishimiz mumkin.

Asarda asosan Shayboniylarni Movarounnahrdagi to‘rt xonadoni, aniqrog‘i Abulxayrxonni to‘rt farzandini avlodlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, ularni o‘zaro munosabatlari va ularga xizmat qilgan shaxslar, ular xizmat qilgan lavozimlar haqida ma’lumot beriladi. Asar aynan o‘zbek davlatchiligi tarixida qimmatbaho asarlardan hisoblanadi. Bugungi kunda asarni ikkita qo‘lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan va ular biri-ikkinchisini to‘ldiradi. Birinchi qo‘lyozma O‘zbekiston fanlar akademiyasini Sharqshunoslik institutida saqlansa, ikkinchisi Rossiya fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutini Sankt-Peturburg bo‘limida saqlanadi. Birinchi nusxani muqaddimasi va birinchi bobi yo‘q bo‘lsa, ikkinchi nusxasining V-VI boblari mavjud emas, shu boisdan ham bu ikki nusxa biri-ikkinchisini to‘ldiradi.

Asar olti bobdan iborat bo‘lib, har bir bob Abulxayrxonni o‘g‘illari Shohbudoq, Xo‘ja Muhammad, Ko‘chkunchixon, Suyunchi sultonlar haqida ma’lumot beradi. Xususan:

1. Asarning birinchi bobida Abulxayrxonning birinchi o‘g‘li Shohbudoq sulton va uning vorislari Muhamamd Shayboniyxon, Mahmud sultonlar, ularning vorislari haqida ma’lumot beriladi.

2. Ikkinchi bobda Abulxayrxon va Robiya sultondan tug‘ilgan Ko‘chkunchixon(Ko‘chumxon) va uning Samarqandda hukmronlik qilgan vorislari tarixi haqida ma’lumot beradi.

3. Uchinchi bob Ko‘chkunchixonni ukasi Suyunchixon va uning vorislari haqida ma’lumot bersa.

4. To‘rtinchi bobda Xo‘ja Muhammad sulton va uni vorislari haqida ma’lumot beradi.

5. Beshinchi bobda Abdullaxon haqida ma’lumot beriladi.

6. Oltinchi bobda esa, Buxoroni ko‘zga ko‘ringan joylari va ulammolari haqida ma’lumot beriladi.¹⁹

Asarda har bir Shayboniy hukumdorni hayotiga to‘xtalib o‘tiladi, shuningdek ularni qaysi hududni boshqarganligi qaysi hududlarda hukmronlik qilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. Xususan “Musaxxir ul-bilod” asarida shuni kuzatishimiz mumkinki, har bir Shayboniy biror-bir hududga hokim etib tayinlansa, uni o‘zini devoni va harbiy bo‘linmasi bo‘lgan. Hattoki, Shayboniyxon davrida ham har kim o‘z devoni bilan va qo‘shini bilan o‘zi idora etgan viloyat yoki tumanda hokimlik qilar ekan, oliy hukumdorga bo‘ysungan va uni buyruqlarini o‘z devoni bilan bajargan.²⁰ Oliy hukumdorni devoni eng katta, devon bo‘lib, xon turli xil shaxslarni devondagi mansablarga tayinlagan. Xonlikning eng yuqori lavozimidagi shaxs devonbegi hisoblanib, manbada yozilishicha devonbegi xon bilan birga bo‘lishi kerak bo‘lgan. Xususan, “Musaxxir ul-bilod” asarida 1507-yildagi mulklarni qayta taqsimlash paytida shunday deyiladi: *“Xiroat xukumati va dorug‘aligi Jon Vafobiyga topshirildi. Ul o‘lkaning vazirlik ishi Xoja Xurd laqabli xoja Abulvafo qo‘liga berildi...”*²¹. Abdulvafo laqabi “Xo‘ja xo‘rd” 1507-yildan boshlab Shayboniylarni devonbegisi etib tayinlanadi. Bu haqida Xondamir asarida ham quydagicha ma’lumot beriladi *“Hiroat hukumati va dorug‘aligi mansabi Jon Vaf mirzoga taalluq topdi va bul o‘lkaning vazirlik ishlari Xo‘ja xo‘rd laqabi bilan ham tanilgan Xoja Abulvafoga berildi.”*²² Bundan tashqari asarda ayrim lavozimlar haqida ham to‘xtalib o‘tilgan, shuningdek asarda lavozim egasi egallab turgan lavozimi ismiga qo‘shib aytilganligi to‘g‘risida ham aytiladi. Misol uchun Abulvafoni keyinchalik Abulvafo devon deb atashadi. Devonbegi o‘z navbatida devonga ma’sul bo‘lib, xonlikda ijroyi hokimyatni idora qilgan.

Asarda yana ba’zi mansab egalari haqida ham ma’lumot berilgan, Abdullaxonni emikdoshi Qulbobo ham xonlikdagi oliy mansablardan biri ko‘kaldosh lavozimida faoliyat olib borgan. Bu lavozim xonlikda xonni bir onani emgan emikdoshlari orasidan tayinlangan. Ular xonni eng ishongan sodiq kishilar bo‘lib, xonni xavfsizligi, davlat xavfsizligini ta’minlashi va xon siyosatiga xalqning munosabatini o‘rganishi kerak edi. O‘z davrida Qulbobo Ko‘kaldosh Abdullaxonni

¹⁹ A.Madramov, G.Fuzalova. Manbashunoslik. T.: O‘zbekiston, 2008.– B. 244.

²⁰ <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/287-musahhir-al-bilod.html>

²¹ Мухаммддиёр ибн Араб Қатағон. “Мусаххир ал-билод” (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова. – Б. 108.

²² Ғиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар. Т.: Шарқ, 2011. – Б. 216.

ko‘plab janglarida qatnashadi. 1588-yil Hirotni egallanishida ishtirok etib, ushbu shaharni egallashda o‘zini ko‘rsata oladi.

1598-yilda Abdullaxonni o‘rniga kelgan Abdulmo‘min Qulbobo Ko‘kaldoshni qatl ettiradi. Asarda harbiy qo‘shin boshliqlari sifatida biz Shayboniy sultonlar va amirlarni ko‘rishimiz mumkin, ya‘na shunisi qiziqarlilik Shayboniyxon davrida harbiy sarkardalar orasida Bahodir deb nomlangan harbiy unvonlar bo‘lgan. Asarda faqat bir Bahodir haqida ma‘lumot berib o‘tiladi. boshqa joylarda qolgan Shayboniylarni sarkardalariga Bahodir unvoni berilmagan. Asardagi shaxs Elomon Bahodir hisoblanib. Asarda faqat, Elomon Bahodirni 1506-1507-yillardagi harbiy yurishi haqida ma‘lumot berib o‘tilgan. Asarda:1506-1507-yillarda Elomon Bahodirni Marv vohasiga hujumi haqida ma‘lumot berilgan, unga ko‘ra u Amudaryodan o‘tganda Husayn Bayqaroni o‘g‘illari go‘yoki Shayboniyxon daryodan kechib o‘tib, Xurosonga yurish qildi deb o‘ylashgan. Bu hol shundan dalolat beradiki, Elomon Bahodir katta qo‘shin bilan Marvga bosqin qilgan, shuning uchun Mirzolar tajribali Zunun Arg‘unbekni unga qarshi jo‘natishadi. Bundan tashqari ilg‘ori bo‘linmaga boshchilik qilishi ham Elomon Bahodirni Shayboniyxonni eng katta lashkarboshilaridan ekanligidan dalolat beradi. Bu jangda kuchlar o‘zaro jang qiladi va ikkala tomon ham g‘alaba qozonmaydi. Bu hol ham Elomon Bahodir Zunun Arg‘undek tajribali temuriy sarkardaga qarshi turganligini o‘ziyoq uni mohir lashkarboshiligini ko‘rsatadi. 1508-yil Xurason to‘liq egallanganidan so‘ng Shayboniyxon unga Tushriz viloyatini hokimligini beradi. Asarda shundan keyin Elomon Bahodir haqida ma‘lumotlar uchramaydi. Biz asarda shuni ko‘rishimiz mumkinki bahodir unvoni Temuriylar davridagi singari harbiy unvon bo‘lib, bahodir unvoni yoki mansabi Temuriylarnikiga nisbatan ancha farq qilganligi sabab, Temuriylar davrida bahodir unvoni jangda faol qatnashgan askarlarga berilgan bo‘lsa, Shayboniylar davrida esa bahodir yirik mansabdor, aniqroq qilib aytilsa viloyat hokimi bo‘libgina qolmay qo‘shin qo‘mondoni ham bo‘lgan.²³ Asarda, boshqa bahodir unvoni haqida ma‘lumot berilmaydi. Shuni, ta‘kidlab o‘tish kerakki Ashtarxoniylar davrida ham bahodir unvoni bo‘lgan. Samarqand hokimi Yalangto‘shbiy ham bahodir unvoniga sazovor bo‘lgan.

Muhammadyor ibn Arab Qatag‘onni “Mussaxir ul-bilod” asarida ko‘plab lavozimlar otaliq lavozimi haqida ham ma‘lumot berilgan. Otaliq shahzodalar tarbiyasi bilan, shug‘ullanganligi va biror viloyatga shahzodalar tayinlansa ular balog‘atga yetkunicha viloyat idoralari bilan ham shug‘ullangan. Shuningdek, valiahd taxtga chiqqanidan so‘ng o‘z otalig‘ini tayinlagan. XVI asr oxrida taxt uchun kurashlar davrida otaliq xondan keyingi shaxsga aylangan. Asarda yana bir nechta

²³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Musaxxir_al-bilod

lavozim haqida ma’lumot berilgan, biroq afsuski Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on lavozim egalari haqida yozganda, lavozim egasini nima qilganligi haqida ma’lumot bermagan. Lekin, asar ozmi-ko‘pmi o‘zbek davlatchiligining bir bo‘g‘ini bo‘la olgan Shayboniylar davlatchiligi haqida ma’lumot berib o‘tilgan tarixiy asarlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. “Мусаххир ал-билод” (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д.Сангирова. –Б. 429.
2. Ғиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус сийар. Т.: Шарқ. 2011. – Б. 302.
3. A.Madraimov, G.Fuzalova. Manbashunoslik.T.: O‘zbekiston. 2008. –B. 263.
4. <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/287-musahhir-al-bilod.html>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Musaxxir_al-bilod

**IKKINCHI SHO‘BA.
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY DAVLATCHILIGINING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

**QO‘QON XONLIGIDA OLIY KENGASHNING MARKAZIY BOSHQARUV TIZIMIDA
TUTGAN O‘RNI**

Xaydarov Zaxriddinbobir Umarovich

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi
Tel: 94 155-35-56*

Annotatsiya: Qo‘qon xonligi tarixining turli masalalari bo‘yicha tadqiqotlarda muammoning ayrim jihatlariga to‘xtalsa-da, ularda xonlikning ma‘muriy – boshqaruv tizimi to‘liq o‘z aksini topmagan. XIX – XX asrlar oralig‘ida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklarini bosib olish siyosati va bu siyosatga mahalliy hukmdorlarning munosabatlarini o‘rganish orqali Rossiya bosqinining ilk qurboniga aylangan Qo‘qon xonligining ma‘muriy – boshqaruv tizimi, uning zaif tomonlari masalalariga oydinliklar kiritadi.

Kalit so‘zlar: Beklik, amirlashkar, xonlik, oqsaqollik, amin, sarkorlik va oqsoqollik, ma‘muriy bo‘linish, ma‘muriy markaz, evolyutsiya.

**РОЛЬ ВЕРХОВНОГО СОВЕТА В ЦЕНТРАЛЬНО-АДМИНИСТРАТИВНОЙ
СИСТЕМЕ В КОКАНСКИХ ХАНТЫ**

Хайдаров Захриддинбобир Умарович

*Доцент Наманганского государственного педагогического института,
кандидат исторических наук
Тел: 94 155-35-56*

Аннотация: Хотя некоторые аспекты проблемы затрагиваются в исследованиях по различным вопросам истории Коканского ханства, административная и управленческая система ханства не нашла в них полного отражения. Изучая политику завоевания Российской империей среднеазиатских ханств в XIX - XX веках и отношение местных правителей к этой политике, административно-управленческую систему Коканского

ханства, ставшего первой жертвой русского нашествия , проливает свет на его слабые стороны.

Ключевые слова: Беклик, амирак, ханство, старость, амин, саркарлик и старость, административное деление, административный центр, эволюция.

THE ROLE OF THE SUPREME COUNCIL IN THE CENTRAL ADMINISTRATIVE SYSTEM IN THE KOKAN KHANTY

Haydarov Zakhriddinbobir Umarovich

*Candidate of history sciences,
docent of Namangan state pedagogical institute
Tel: 94 155-35-56*

Abstract: *Although some aspects of the problem are touched upon in the research on various issues of the history of the Kokan Khanate, the administrative and management system of the Khanate is not fully reflected in them. By studying the policy of the conquest of Central Asian khanates by the Russian Empire in the 19th - 20th centuries and the relations of local rulers to this policy, the administrative and management system of the Kokan Khanate, which became the first victim of the Russian invasion, sheds light on its weaknesses.*

Key words: *Beklik, amirakar, khanate, eldership, amin, sarkarlik and eldership, administrative division, administrative center, evolution.*

O‘rta Osiyoda Temuriylardan so‘ng hukmronlik tizginini qo‘lga olgan Shayboniylar davriga kelib davlat boshqaruv tizimi o‘zgara boshladi. Shayboniylarga qadar o‘tgan sulolalarning markaziy boshqaruv tizimiga nazar solinsa, u dargoh va devondan iborat bo‘lganini kuzatish mumkin. Dargoh – hukmdor boshliq eng oliy davlat idorasi, devonlar esa ma’lum bir doiradagi vazifalarni boshqaruvchi vazirliklar hisoblanar edi. Mukammal tartibga keltirilgan bunday boshqaruv tizimi Buxoro xonligida Ashtarxoniylar davriga kelib to‘liq o‘zgarganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Azamat Ziyoning ta’biri bilan aytganda, bu davrda «...mazkur tizim (dargoh va devonlar) yo‘qqa chiqqan va ijroiya vazifalari to‘g‘ridan – to‘g‘ri saroydagi u yoki bu lavozimda yoki biron bir arbob faoliyatida mujassamlashgan» edi[1]. Demak, turli amaldorlar faoliyat yuritgan maxsus vazirliklar zimmasidagi vazifalarni birgina shaxsga yuklatish bilan devonlar faoliyatiga chek qo‘yilgan. Bu holat boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida ham

kuzatiladi. Jumladan, bu davrda Xiva xonligining davlat boshqaruvi ham shu usulda amalga oshirilgan[2].

Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining zaiflashuvi oqibatida vujudga kelgan Qo‘qon xonligi davlat boshqaruvida ham aynan shu tizim shakllanib borgan.

Tarixiy manbalar ma‘lumotlari Qo‘qon xonligida shakllangan markaziy boshqaruv tizimi xususida quyidagilarni aniqlashga imkon berdi. Qo‘qon xonligida hukumat qarorgohi xon o‘rdasida joylashgan bo‘lib, davlat ahamiyatiga molik barcha masalalar ushbu saroyda hal qilingan. Markaziy boshqaruv tizimi ham to‘laligicha o‘rdada mujassamlashib, unda faoliyat yurituvchi barcha amaldorlar xon xuzuridagi Oliy kengash tarkibiga kiritilgan. Markaziy boshqaruv oliy hukmdor, keyin maslahat organi bo‘lgan kengash, undan so‘ng ijroiya vazifalaridagi mas‘ul amaldorlardan iborat bo‘lgan.

Davlat o‘zining ichki va tashqi siyosati, jamiyat bilan olib boruvchi aloqalarini asrlar davomida shakllanib, mukammallashib borgan murakkab boshqaruv organiga tayanib amalga oshirgan. Bu organ O‘rta Osiyo xonliklarida hukmdorlarning huzuridagi Oliy kengash bo‘lib, tarixiy manbalarda u «maslahat», «xos majlis», «mashvarat», «majlisi sultoniy» kabi so‘zlar bilan ifoda qilinadi.

Qo‘qon hukmdorlari huzuridagi kengash haqida XIX asrda xonlikda bo‘lgan rossiyalik zobitlar, elchi va sayyohlar, kengashda ko‘rilgan masalalar haqida esa mahalliy mualliflar tomonidan muhim ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. 1813 – 1814 yillarda Qo‘qonda bo‘lgan Sibir korpusi tarjimoni F. Nazarov o‘zining esdaliklarida kengash haqida tasavvur qilishga xizmat qiluvchi qiziqarli holatni bayon etadi. Uning yozishicha, «hukmdorning yuqori kengashini tashkil etuvchi bir qator vazirlar va davlat amaldorlari taxti – ravon yoniga solingan gilamlar ustida darajalariga ko‘ra o‘tirar edilar»[3].

F. Nazarovning kengash haqida bergan ushbu ma‘lumoti nafaqat Qo‘qon xonligiga, balki Markaziy Osiyoda o‘sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa davlatlarga ham xos umumiy xususiyatdir.

Qo‘qon xonligidagi Oliy kengashning tarkibi haqida so‘z borar ekan, uning tarkibiga markaziy davlat boshqaruvidagi barcha mansabdorlar a‘zo etib kiritilganligini alohida ta’kidlamoq lozim. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Qo‘qon xonligining bosh vaziri bo‘lgan mingboshi hamda oliy diniy mansabdor – shayxulislom kengashning doimiy a‘zosi bo‘lgan. Shuningdek, xonlikning bosh qozisi, ya’ni qozikalon va harbiy ishlar bo‘yicha ikki sudya – qozi askar ham kengashda ishtirok etgan[4]. XIX asrning 30–yillariga kelib markaziy davlat boshqaruvida muhim vazifalar qatoriga kirgan dasturxonchi va risolachi

ham kengash a‘zosi ekanligi haqida V.V. Velyaminov-Zernov o‘z asarida qayd etadi[5].

Markazlashgan davlat tuzishda bir qator islohotlarni amalga oshirgan Umarxon (1810 – 1822) bir necha ulamolarga ham kengashda ishtirok etish uchun joy bergan. Bu haqda «Tarixi Shohruhiy» asarida «...hukmi shar’iyni joriy aylab, har vaqt amirning (Umarxonning – Sh.M.) majlisida ulamoyi muhaqqiqlar (haqiqat izlovchilar) bo‘lib», – deya qayd etiladi va bir qator yuqori mavqe‘ga ega bo‘lgan din peshvolari va davlat arboblari, jumladan, Zokirxo‘ja eshon, domla Mirzo Kalon, domla Mo‘minjon Mavlaviy, Sultonxon To‘ra Ahroriy, Mahmudxon To‘ra Axroriy, Ma’sumxon To‘ra va Jahongirxon To‘ra kabi shaxslarning nomlari keltirib o‘tiladi[6].

XIX asr tadqiqotchisi V. Grigoryevning ma’lumotiga ko‘ra, Xudoyorxonning birinchi hukmdorligida kengash to‘rtta qipchoqdan iborat bo‘lgan[7]. Musulmonqul yosh Xudoyorxonni taxtga o‘tqazgandan so‘ng otaliq unvoniga ham ega bo‘lib, davlat boshqaruvini to‘laligicha qo‘lga kiritadi. U markaziy davlat boshqaruvidagi muhim vazifalar – parvonachi, dasturxonchi, risolachi kabi mansablarga qipchoqlardan tayinlab, o‘z hukmronligini mustahkamlab oladi. Mahalliy manbalarda Musulmonqul 1845 yil hukmronlikni o‘z qo‘liga olgan davrda markaziy davlat boshqaruvida qipchoqlarning ulug‘lari bo‘lgan Muhammad Diyor, Mullo Xolbek dasturxonchi, Raxmonquli dodxohlar haqida ma’lumotlar berilgan. Demak, bundan ko‘rinadiki, Xudoyorxon xukmronligining dastlabki yillarida Musulmonqul ushbu mansabdorlar bilan kengashni olib borgan. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, XIX asrning 60 – yillariga kelib kengash kengaytirilib, markaziy davlat boshqaruvidagi 12 kishidan iborat mansabdorlar kengash tarkibiga kiritiladi[8].

Ushbu ma’lumotlar Qo‘qon xonligining har bir hukmdori davrida kengash a‘zolari, ularning soni va a‘zolarining tarkibi o‘zgarib turganligini ko‘rsatadi. Buning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin edi. Yuqoridagi kabi holat butun hokimiyat birgina vasiyning qo‘lida to‘plangan hollarda, jumladan, Musulmonqul mingboshi kabi shaxsning hokimiyatni o‘z qo‘lida uzoqroq ushlab turganida kuzatiladi. Ular boshqaruvning qattiq usullarini qo‘llab, markaziy boshqaruv organining maslahat organi sifatidagi vakolatini cheklab qo‘yganlar. Bu holat ularga mamlakatni avtoritar tarzda boshqarishga imkon bergan. Shuningdek, ushbu holat siyosiy kuchlar qarama – qarshiligi va kurashi, aholining turli ko‘rinishlardagi noroziliklariga olib kelgan[9].

Tarixiy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ba’zi paytlarda xonlik markaziy davlat boshqaruvidagi muhim mansablarni egallagan qushbegi yoki

parvonachi kabi mansabdorlar biror viloyatga hokim etib tayinlanganda oliy hukmdor huzuridagi Oliy kengashda ularning o‘rni vaqtinchalik bo‘sh turgan. Bunday hollarda ularning vazifasini bir amaldor bajargan, ya’ni uning zimmasiga ikki turdagi vazifani bajarish yuklatilgan.

Qirg‘izistonlik huquqshunos S. Soodanbekov «Qo‘qon tarixiga bevosita va bilvosita aloqador bo‘lgan manbalar, shuningdek, arxiv materiallarida Umarxon hukmronligi davrigacha bo‘lgan vaqtga oid biron bir kengashning davlat organi sifatidagi faoliyati haqidagi ma’lumotlar yo‘q»[10] – deb yozadi. Afsuski, S. Soodanbekov Qo‘qon tarixiga oid mahalliy manbalarda Umarxondan oldin Abdukarimbiy (1733 – 1750) va Erdonabiy (II – davri 1753 – 1762) lar hukmronligi davrida ham Oliy kengash faoliyat yuritgani haqida ma’lumotlar borligini bilmagan. Aniqrog‘i, u ushbu tadqiqotida faqatgina XIX asrda chop etilgan Rossiyalik tadqiqotchilarning ma’lumotlaridan foydalanib, mahalliy manbalarni umuman e’tiborga olmagan.

«Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» asarida Abdukarimbiy huzurida kengash mavjud bo‘lganligi tasdiqlanib, bu kengashda «umaro va fuzalolar pinhoni maslahat»[11] qilishlari va muayyan masalalar yuzasidan qaror chiqarishlari haqida xabar beriladi.

Mahmud Hakim Yayfoni ham Qo‘qon hukmdorlari davlat ahamiyatiga molik masalalarni hal qilishda kengashga tayanib ish yuritganliklarini tasdiqlaydi. U Erdonabiy (II – davri 1753 – 1762) davlat boshqaruvida har qanday masalalarni hal qilishda har doim kengashga tayanganligini qayd qiladi[12].

Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, Qo‘qon xonligida Umarxon davrida emas, balki Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari huzurida ham davlatning ichki va tashqi masalalarini hal etishda maxsus kengash faoliyat yuritgan degan fikrni ilgari surish mumkin.

Fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, davlatning salohiyatini ko‘tarib, har jihatdan taraqqiy ettirish, xorijiy yoki qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy diplomatik munosabatlar o‘rnatish davlatchilikning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Hukmdorlar davlat boshqaruvida ijobiy islohotlar olib borishga intilganlar. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayot va davlatning tashqi aloqalari masalalarida salohiyatli mansabdorlarning maslahatlari hukmdorlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo‘qon hukmdorlari huzuridagi kengashning faoliyati xususida, ya’ni, unda qanday masalalar ko‘rilgan, degan savolga ham mahalliy muarrixlar asarlarida mavjud bir qancha ma’lumotlarga suyanan holda ba’zi aniqliklarni kiritish mumkin. «Tarixi Turkiston» asarida shunday ma’lumot keltiriladi: «[Olimxon] ko‘p

ulamo va fuzalolardin o‘rdaga taklif aylab, majlisi xos barpo aylab, qo‘shin voqiyoti va dushman ahvolotini va ul dushmanning daf‘i va Farg‘onaning osoyishtalig‘i va raoyoning besaranjon bo‘lmasligi va xifzi mamlakat hususidagi maslahatni botariqa iltimosi arz qilgan...»[13]. Qo‘qon hukmdorlarining kengash bilan ayrim masalalar yuzasidan maslahat qilgani haqidagi ma‘lumotlardan yana birini Avaz Muxammad Attorning «Tarixi Jahonnamoyi» asaridan topish mumkin. Uning yozishicha, Buxoro amirligi viloyati bo‘lgan Shahrisabzni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng uning hokimi Bobobek Qo‘qonga qarab yo‘l oladi. Bu xabarni eshitgan Xudoyorxon tang ahvolda qoladi va Bobobekni Qo‘qonda qoldirish yoki Qashqarga o‘tkazib yuborish masalasida markaziy boshqaruv tizimidagi mansabdorlar bilan maslahat qiladi[14].

O‘zbekiston davlatchiligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan hukmdor Amir Temurning «... davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan bajo keltirilishini angladim», degan so‘zlari kengashning davlat boshqaruvida juda muhim o‘rin tutganligidan dalolat beradi. Qo‘qon hukmdorlari uchun ham kyengash faoliyati va qarori muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo‘qon xonligida ham Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridagi kabi hokimiyat tepasida oliy hukmdor – xon turgan va Oliy kengashning markaziy figurasi hisoblangan. Tarixdan ma‘lumki, oliy hukmdorlik otadan bolaga, akadan ukaga yoki biror qarindoshga nasib etishi mumkin bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, yangi hukmdor tayinlanishida hukmron doira vakillari shuningdek, Kengashning ta‘siri kuchli edi. Shu o‘rinda Qo‘qon xonligida davlatning boshqaruv tizimiga turli shaxslarni mansabdor etib tayinlash, ularning bu mansablarga tayinlanish vaqtida o‘tkazilgan marosim va udumlar ham o‘zbek davlatchiligining qadimiy an‘analari bilan bog‘liqligini ta‘kidlab o‘tish lozim. Davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutgan udumlardan biri oliy hukmdorni tayinlash, ya‘ni «xon ko‘tarish» marosimi bo‘lib, bu marosim o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi.

«Xon ko‘tarish» marosimi aniq bir tartiblar asosida va doirasida amalga oshirilgan. Tarixiy manbalar O‘rta Osiyo xonliklarida oliy hukmdorni oq kigizga o‘tqazib, xon ko‘tarish tadbiri uzoq vaqtdan beri qo‘llanib kelinganidan dalolat beradi. Masalan, VI asrga oid manbalar ma‘lumotlariga ko‘ra, bu davrda O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan Turk hoqonligida yirik amaldorlar taxt vorisini kigizga o‘tqazib, quyosh harakatiga monand ravishda to‘qqiz marta aylantirganlar va har bir aylanishda marosim ishtirokchilari yangi hoqonga ta‘zim qilganlar[15].

Qo‘qon xonligida, boshqa O‘rta Osiyo xonliklaridagi kabi, hukmron doiradagi mansabdorlar ushbu marosimda yangi hukmdorga o‘z itoatkorliklarini bildirib,

bay‘at (qasamyod – Sh.M.) qilishgan, so‘ngra uni oq kigizga o‘tqazib ko‘tarishgan. Marosimdan so‘ng yangi xon xalqqa e‘lon qilingan[16].

Ushbu marosim haqida «Tarixi Turkiston» asarida muhim ma‘lumotlar mavjud. Asar muallifining yozishicha, Umarxonni (1810 – 1822) taxtga o‘tqazish marosimi quyidagicha kechgan: «Umarxonni o‘zbek xonlari rasmicha oq namadga solib, qorilar «Anna fattahna» surasini o‘qib, ko‘tarib, Farg‘ona taxtiga o‘tqazib, tamomi jam bo‘lgan haloyiqlar tahniyat va muborakbod ovozasini arshu a‘log‘a yetkurubdurlar»[17].

«Xon ko‘tarish» marosimida oq kigizning to‘rt uchini jamiyatning turli vakillari ushlab turganlar. Buni yorqin ifodalovchi ma‘lumotlardan birini Mirzo Olim Mushrif keltirib, quyidagilarni qayd etadi: «Sheralixon arkoni davlat o‘rdag‘a doxil bo‘ldilar ersa, daftan tamomi ulamo va fuzalo, va mashoyix va xoja va mulla va boylar jamoat bo‘lib, duo aylab, muborak qilib, yana boshqadin oq kiygizga solib, xon ko‘tarib, sanai bir ming ikki yuz ellik sakkizda taxti murassag‘a o‘lturg‘uzdilar»[18].

Xonlik markaziy boshqaruv tizimida ham mansabga tayinlanish turli tartiblarda amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin. Aksariyat hollarda yangi tayinlangan mansabdorga kimxob to‘n kiydirilib, oliy hukmdorning muhri bosilgan yorliq berilgan. Qo‘qon xonligida boshqa xonliklardan farqli o‘laroq faqat hudaychi mansabiga tayinlanish o‘zgacha usulda bo‘lgan. Hudaychi mansabiga tayinlanayotgan kishiga kimxob to‘n va yorliqdan tashqari oltin hassa ham berilgan. Buni «Tarixi Shohruhiy» asaridagi «Muhammad Nurxo‘ja tojikni boamali xudaychiga sarofroz qilib, qo‘lig‘a oltin aso berdilar»[19] – degan ma‘lumotdan bilish mumkin.

Tahlil etilgan tarixiy ma‘lumotlar Qo‘qon hukmdorlari o‘z ichki va tashqi siyosatini o‘ziga xos maslahat organi – Oliy kengashga tayanib yuritganliklari, bu organ xonlik tashkil topgan davrlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelganligi, ayrim tarixiy davrlar va sharoitlarda uning faoliyati yanada yuqori bosqichga ko‘tarilgani yoki hukmronlikning avtoritar usullarni kuchli qo‘llagan hukmdorlar davrida esa imkoniyat doirasi yanada torayganligi, tarkibida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xonlik boshqaruv tizimidagi maslahat organi – Oliy kengashning mavjudligi Qo‘qon hukmdorlari xonlikni tarixiy vorisiylik, o‘zbek davlatchiligi an‘analari asosida boshqarishga harakat qilganliklarini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati

1. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи, Т., 2001, –Б. 295.

2. Қаранг: Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Т.: 1959.
3. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. «Наука», М., 1968г., -С. 41.
4. Обзорение Кокандство ханство в нынешнем его состоянии // Зап РГО, 1849г.,-С. 205.
5. Вельямнов-Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед - Али до Худаярхана, СПб. 1856г., -С. 20
6. ЎЗР ФА ШИ қўлёзма, инв. № 4463. -121а варақ.
7. Григорьев В.В. Современные монеты Кокандского ханства // Труды Восточного отделения императорского археологического общества. 1856г. Вып. 2. Ч.2 СПб. – С. 116.
8. Кокандское ханство по новейшим известиям // Туркестанский сборник, Т. 23. – С.65.
9. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. Т., 1973. -С. 39 - 45.
10. Сооданбеков.С.С. Общественный и государственный строй Кокандского ханства. Бишкек. 2000 г. – С. 86.
11. Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус - салотин ..., –Б. 17.
12. Махмуд Хаким Яйфоний. Хуллас ут–таворих. Хўқанд. 1913, –Б. 7.
13. Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Қарши. 1992, –Б. 29.
14. Аваз Мухаммад Аттор. Тарихи Жахоннамои // Шарқ юлдузи. 1991., №8, –Б. 137.
15. Қаранг. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.2001. –Б. 83.
16. Бу маросим Бухоро ва Хива хонликларида ҳам шундай тарзда амалга оширилган.
17. Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Насаф. 1992. –Б. 36 - 37.
18. Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус - салотин ..., –Б. 23.
19. ЎЗР ФА ШИ қўлёзма, инв. № 4463. -97б варақ

USTRUSHONANING TARIXIDAGI MIGRATSIYALAR VA UNING USTRUSHONA MADANIYATIDAGI O‘RNI (QOVUNCHI MADANIYATI TADQIQOTLARI MISLOLIDA)

Lapasova Maftuna Sanaqul qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: maftuna.lapasova.1991@inbox.uz

tel: +998(94) 570 56 59

Annotasiya: Maqolada (Qadimgi Ustrushona): antik va ilk o‘ta asrlarda yurtimizda bir tomoni shimoli sharqiy yo‘nalishda Farg‘ona vodiysi tomon ochiladigan geografik darvoza, janub tomoni Zarafshon daryosi yuqori oqimining o‘ng qirg‘og‘i, shimol tomoni Sirdaryo, g‘arb tomoni Mirzacho‘l bilan o‘ralgan tarixiy-madaniy o‘lka bo‘lgan. O‘rta asrlarda ham bu o‘lka geografik o‘rni xususiyatlariga ko‘ra turli siyosiy, iqtisodiy vaziyatlarda o‘ziga xos mavqega ega bo‘lganligi, bronza davrining oxirlarida shimoliy hududlardan O‘rta Osiyoga kirib kelgan ko‘chmanchi qabilalar cho‘l va dasht zonalariga joylasha boshladilar. Bu migratsiyalar migratsiyalar natijasida, bu paytda Ustrushonada ham mahalliy an‘analar asosida tayyorlangan ashyoviy manbalarda sifat o‘zgarishlari kuzatilib, ko‘chmanchilarga xos xususiyatlar, bazan esa to‘liq ko‘chmanchilarga taaluqli buyumlar uchray boshlaydi. Va aholining etnik hamda etnomadaniy jarayonlar qorishuvi, boshqa tamondan. Ko‘p asrlik etnik qorishuv natijasida ilk shakllanganligi, Qovunchi madaniyati, nafaqat, kirib kelgan ko‘plab xalqlar va mahalliy aholini madaniyatining qorishuvi, O‘zbekiston xalqlari jumladan Ustrushona xalqlari tarixi moddiy va ma‘naviy hayoti muhim ahamiyat kasb etganligi tarixida yoritilgan

Kalit so‘zlar: “Qadimgi Ustrushona”, “Qang‘ davlati”, “Qovunchi madaniyati, Migratsiyalar, Turkiyzabon.

Ustrushona davlati tabiiy-geografik hamda strategik jihatdan joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Arab geograflari va Xitoy mualliflarining Ustrushona va uning chegarasiga doir ma‘lumotlari asosan IX-X asrlarga ta‘lluqli bo‘lib, davlatning VII-VIII asrlardagi chegarasidan deyarli farq qilmagan. Agar bugungi kun ma‘muriy xaritasiga nisbatan olinsa, unda Ustrushona tarkibiga Tojikiston Respublikasi Sug‘d (avvalgi Leninobod) viloyatining Ayniy, Matchin, Shahrison, O‘ratepa, Nou tumanlari, O‘zbekiston Respublikasining Jizzax (Fag‘non), Xavas, G‘allaorol (Xarakana), Zomin, Qirg‘iziston Respublikasining Laylak tumanlari va janubdan Turkiston tog‘ tizmalari bilan chegaralangan hududlarni o‘z ichiga

olgan.[N.N.Negmatov. Ustrushana v drevnosti i rannem srednevekov'ye, Stalinabad, 1957, 15-str] Ushbu geografik hududidagi migratsion jarayonlar quydagicha kechgan: bronza davrining oxirlarida shimoliy hududlardan O'rta Osiyoga kirib kelgan ko'chmanchi chorvador qabilalar cho'l va dasht zonalariga joylasha boshladilar. Vaqtlar o'tishi bilan tubjoy aholining o'troq hayoti va dehqonchilikka asoslangan xo'jaligi chorvadorlarning turmush tarziga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ular asosan Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi havzalarida, tog' yon bag'irlaridagi soy bo'ylarida istiqomat qilganlar. Miloddan avvalgi VII-III asrlarda saklar atrofdagi davlatlarning kuchli bosimiga duch kelganligi tufayli ko'p marta g'arbdan sharqqa va sharqdan g'arbga ko'chishga majbur bo'lgan. Saklarning birinchi marta sharqqa tomon ko'chishiga mil. avv. IV asrdagi yunonlarning qilgan hujumlari sabab bo'lgan[Gumilev L.N. Qadimgi turklar .(Tarjima, kirish so'z mualliflari va nashrga tayyorlovchilar B. O'rdabekli va A.Ayritomiy) – Toshkent: Fan, 2007, – B. 359.]. Saklar birinchi marta g'arbdan sharqqa ko'chgan bo'lsa, ikkinchi marta sharqdan yana g'arbga qaytishga majbur bo'lgan.

Keyingi yillarda Xitoy va Yapon olimlarining qadimgi Xitoy yozma manbalari asliyatida olib borgan izlanishlari tufayli masalaga birmuncha oydinliklar kiritildi, ya'ni O'rta Osiyoga Yevroosiyo dashtlaridan kirib kelgan etnik guruhlar haqiqatda turkiy zabon qabilalar ekanligi aniqlandi. Ularning shimoldan janubga kirib kelishi doimiy xarakter tusini olgan. Mil.avv. VII-III asrlarda bu migratsion jarayonlar o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, natijada Sirdaryoning quyi va o'rta havzalari ikki tilli (sug'diy va turkiy) etnik guruhlar chegara maydoniga aylandi [Inomov O.U. Qovunchi madaniyati va uning o'zbek xalqining shakllanishdagi roli. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori. (PhD) diss. Aftoriteti. Toshkent, 2019. B. 15]

Mil.avv. III-II asrlarda Sirdaryoning suv zaxiralari keskin kamayib ketadi. Oqibat natijada Sirdaryo quyi havzalaridan, uning o'rta havzalari tomon turkiy etnik guruhlarining ko'chishi ommaviy tus oladi. Sirdaryo o'rta havzasining janubiy qismi hisoblangan Toshkent vohasi turkiy qavmlarning zich joylashgan markaziga aylanadi. Bu tarixiy va etnomadaniy jarayon o'z navbatida Sirdaryoning o'rta havzalarida Qovunchi madaniyatini shakllanishiga olib keladi. Bu o'zgarishlarni yuz berishida shimolning sarmat qabilalari va ularning Proxorov madaniyatining ta'siri katta bo'ldi. Antik davrda kechgan bu jaryonda yuechji, usun, xun va boshqa qabilalarning O'rta Osiyoning ichki rayonlariga, ayniqsa janubiy mintaqalarga kirib borishi bilan bog'liq. Bu paytda, ko'plab chorvador aholi ommaviy tarzda, Sharqiy Turkistondan chiqib Farg'ona, Shosh Ustrushona va So'g'diyona viloyatlarini

oralab, dastlab, Shimoliy Baqtriya va to Shimoliy Hindistongacha kirib borganlar [Asqarov A.A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi... –B. 277.]. Mil. avv. III-II asrlarda Xitoyning shimoli g‘arbida sodir bo‘lgan siyosiy voqealar turkiy qabilalarning kuchayib ketishiga sabab bo‘ladi. Mil. avv. II asr boshlarida Xun davlati kuchayib, g‘arbidagi 26 ta davlatni o‘z tobeliga oladi, hatto ular qang‘arlar bilan quda-andachilik rishtalarini ham o‘rnatadi. Shu kezlarda xunlarning Qang‘ davlatini ichki tumanlariga tinch osoyishta kirib borishi faollashadi. Xun yabg‘ulari o‘zaro ochiq raqobatlashib yurgan kezlarda, Markaziy hokimiyat zaiflashib, Xan sulolasi hukmdorlari xunlar ustiga harbiy yurishlar uyushtiradilar. Ikkala davlat o‘rtasidagi janglarda xitoyliklarning qo‘li baland kelib, xunlar Qang‘ davlati hududlariga chekinishga majbur bo‘ladilar [Sagdullaev A.A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: 1999. – B. 82.]

Tadqiqotchi F.E. Toshboevning yozishicha, O‘rta Osiyoga kirib kelgan qabilalardan ko‘pchilikni yuechji qabilalari tashkil etgan. Bu davlatni tuzgan qabilalar tarixiy adabiyotlarga etnik nom sifatida kirib qolgan. Miloddan avvalgi III asrda ushbu davlat xunlar tomonidan tugatilgan. Xunlarning g‘arbga siljishi yuechji qabilalarining O‘rta Osiyoga kirib kelishini tezlashtirgan. Shundan so‘ng ular Choch, Farg‘ona, Shosh, Ustrushona va Sug‘dga kirib boradilar. Sirdaryoning o‘rta va yuqori havzasidagi saklarni siqib qo‘ygan yuechjilarning asosiy qismi- Katta yuechjilar janubga Amudaryo havzasidagi Yunon-Baqtriya viloyatlarini istilo qiladilar.

Arxeologik ashyolarning ko‘rsatishicha, yuechjilarning bir qismi Sirdaryo havzasida qoladilar, ba‘zi qabilalar Sirdaryo bo‘ylab g‘arbga siljiydilar. Bu davrga oid arxeologik materiallar o‘rta Sirdaryo bo‘yining turli madaniyat vakillari uchun kontakt makoni vazifasini o‘taganligini ko‘rsatadi. Xitoy manbalarida ushbu kirib kelgan xalqlar, usun, se va dayuechji deb atalgan. Antik davrga oid Xitoy manbalari solishtirilganda faqat toxarlardan dayuechji va sakarauklar “se” ga mos keladi. Shu manbada, usunlarning O‘rta Osiyo shimoliy sharqida o‘z vataniga yaqin joylarda qolgani, yuechjilarning esa O‘rta Osiyo janubiga borib joylashganligi eslatiladi. Antik davr mualliflari asarlarida ham asii – Yuechji (ro‘ze-g‘o‘zerlik)larning janubga harakat qilib Yunon-Baqtriya davlati bilan to‘qnashib bu yerdan yunonlarni surib chiqarganligi qayd etiladi.

Tadqiqotchi F.E. Toshboevning yozishicha, O‘rta Sirdaryo hududida o‘rganilgan mozorqo‘rg‘onlar materiallarida mil. avv. II-I asrlarda, marhumlar boshini shimoliy yo‘nalishda dafn etish ko‘p qayd qilingan. Arxeologik ma‘lumotlar va tog‘ qoyalarda saqlanib qolgan suratlarga ko‘ra, ro‘zie (go‘zer)liklar sochlarini o‘zun qilib o‘stirishgan va boshlariga uchli qalpoq kiyishgan. Bosh kiyimiga chiroyli

qush patlarini taqib yurishgan. Ustiga teridan tikilgan va ot minishga qulay bo'lgan kiyimlar kiyishgan. O'lganlarning boshini teri bilan o'rab, shimolga qaratib dafn etishgan. Ularda oilaviy qabr yoki bir avlodga tegishli qabriston qilish odati bo'lgan. Mozorqo'rg'onlarda qayd qilingan shimoliy yo'nalishda dafn etish va jasad yoniga qo'yilgan buyumlar (qilich va xanjar)ning yuechjilar madaniyatiga yaqinligi, yoki marhumlarni qabrda yoki uni atrofida yoqish va boshqalar ularni yuechjilar yoki ular ta'sirida bo'lgan qabilalarga tegishli, degan taxminlarimizni yanada oshirmoqda. Fikrimizni Farg'onada siyosiy hokimiyatning mil. avv. I asrning ikkinchi yarmida katta yuechjilar qo'lida bo'lganligi haqidagi qarashlar yanada boyitadi[Anorboev A.A. Farg'onaning antik va o'rta asrlar davri shahar madaniyati. Ma'ruza shaklidagi doktorlik dissertatsiyasi.Toshkent, 2017.B. 66.].

F.Toshboyev tadqiqotlarida ushbu migratsiya jarayonlarida O'rta Osiyo dashtlarida yashovchi ko'chmanchi (sak) lar bilan xitoyliklar oralig'ida joylashgan usunlarning ham katta ta'siri bo'lganligini ko'rsatadi[Xo'jaev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar... – B.197.]. Manbalar ushbu migratsiyalarda xun qabilalarining katta guruhi qatnashganligini ko'rsatadi. Bunga shunday izoh berish mumkinki, tarixiy vaziyat o'zgarib, xunlar bilan bo'lgan janglarda endi, xitoyliklarning qo'li baland keladi va xunlar g'arbga chekinishga majbur bo'ladilar. Shu bois xunlar Mil. avv. I asrning ikkinchi choragida Qang' davlati hududlariga ommaviy ravishda kirib kelishi tabiiy bir hol edi [O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi–B. 308.]. Manbalarda ko'rsatilishicha Xitoy bilan tinimsiz urushlar natijasida, O'rta Osiyoga kirib kelgan xunlar ancha kuchsizlangan va tinch hayotni istab kelgan bo'lib ularning soni 200 ming atrofida bo'lgan [Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия... – С. 80.] O'sha payt uchun bu katta salmoq bo'lib, bu ulkan aholi guruhi etnik hayotga katta ta'sir ko'rsata olar edi.

Ushbu davrdagi urbanizatsiya jarayonlarida, ko'chmanchilarning, Quyi Sirdaryo orqali kirib kelishi ham e'tiborga loyiqdir. O'rta Sirdaryo bo'yidagi yodgorliklarning vujudga kelishida sarmatlarning ham o'rni bo'lgan. Mil. avv. III asrda O'rta Osiyoda sodir bo'lgan tektonik ko'tarilishlar natijasida, Sirdaryoning quyi oqimi landshaftida keskin o'zgarishlar sodir bo'lgan va daryo o'zani hozirgi davrdagi ko'rinishni olib Orol dengizidagi shimol tomondan quyila boshlagan. Sirdaryoning janubiy irmoqlari- Oqchadaryo, Quvondaryo, Inkordaryo qurib qolgan va buning natijasida, Chirikrabot madaniyati sohiblari sarmat-dahlar yurti qurg'oqchiilk sababli inqirozga yuz tutgan. Natijada, yarim o'troq, yarim ko'chmanchi tarzda hayot kechirgan dahlarning katta qismi Sirdaryoning yuqori oqimi tomon ko'chgan. Mil. avv. II asrda O'rta Osiyo aholisi bilan sarmatlar o'rtasida savdo, madaniy aloqalari mavjud bo'lganligi aniqlangan. O'z navbatida

O‘rta Osiyoning janubiy mintaqalarida keyingi davrlarda ham Jetiosor madaniyati jamoalarining kirib kelishi davom etganligi kuzatiladi[Toshboyev F.E. Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi.o‘quv qo‘llanma. “Yosh avlod matbaa” nashriyoti. Toshkent, 2021. B.127.] Mil. avv. 40-30 yillarda turli yo‘llar bilan xitoyliklar xunlar va usunlarni o‘zlariga tobe qilib oladilar. Ammo qang‘arlar xitoyliklarning bosqinchilik siyosatigiga qarshi bo‘lib ular bilan faqat rasmiy ravishda va teng huquqli bo‘lib aloqa qilish tarafdori edi[Shoniyozov G.K. Qang‘ davlati va qang‘lilar... – B.97.]. Mil. avv. 36 yili Qang‘ hukmdori Xitoyga o‘z o‘g‘lini ham garov tariqasida qo‘shib elchi yuboradi. Lekin, bu elchilikdan qang‘uylar kutilgan natijaga erisha olmaydilar. Bunga sabab, Xitoyning g‘arbiy o‘lkalardagi noibi Go Sxunning qang‘uylar haqidagi maktubi edi.

Ilk o‘rta asrlarda yurtimizga kirib kelgan qabilalardan yirigi hisoblangan eftalitlar, milodiy V asrning boshlarida Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi joylarga ko‘chib kelib joylashadilar. Eftalitlar haqida rus, arman, arab tillarida chop etilgan asarlarda eftalitlar haqida anchagina ma‘lumotlar mavjud.

Eftalitlarning etnik kelib chiqishi masalasida xitoy manbalarida 4 xil fikrni yuzaga keltiradigan ma‘lumotlar mavjud. Bularning birinchisiga ko‘ra, ular yuechjilar avlodi bo‘lgan. Xun xoqonligi tashkil topgunga kadar ularning davlati Sharqiy Turkiston va Xeshi yo‘lagi hududidagi yirik hokimiyat bo‘lgan.

O‘rta Osiyoga kirib kelgan qabilalarining antropologisi haqida to‘xtalsak, Ammian Marselin xioniylarning dafn marosimlari haqida ham ma‘lumot qoldirgan. T.K. Xo‘jayevning yozishicha, nomlari qayd etilayotgan qabilalarga tegishli qabristonlardan qazib olingan odamlar kalla suyaklari xalqasimon aylana shaklga ega. Ikkinchidan, kalla suyaklar g‘oyat xushbichim bo‘lib, yevropoid Sharqiy O‘rtayer dengizi irqiga mansub. Shunday qilib, xioniylar janubiy viloyatlarning mahalliy o‘troq dehqonchilik aholisiga xos yevropoid turkumliligi bilan ajralib turadi [T.Q. Xo‘jayev,G.Q.Xo‘jayeva. O‘zbek xalqining antropologiyasi va etnik tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Universitet”,1995.]. Yuqorida aytilgandek V-VI asrlarda O‘rta Osiyo yangi qabilalar ko‘chishlarining markazi bo‘lib qolgan edi. Xioniy, kidariy va eftallarning kirib kelishi moddiy madaniyatda nisbatan sust aks etgan.

Shunday qilib, so‘nggi antik va ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo hududida yashagan eftalitlar, xioniylar va kidariylar yevropoid qiyofada bo‘lib, bu paleoantropologik va yozma manbalar, haykal ashyolaridagi ko‘pgina ma‘lumotlar bilan tasdiqlanadi. Ilk o‘rta asrlarda Movarounnahrning ichki viloyatlariga xioniylar, kidariylar, eftaliylarning ko‘chib kelishi Turkiy tilli qabila va elatlarning uchinchi yirik to‘lqini bilan bog‘liq hisoblanadi.

Ularning moddiy madaniyati izlari ayniqsa 4 – 5 asr yodgorliklarida yaqqol ko‘rinadi. Turkiyzabon aholiga tegishli Qovunchi madaniyati tasirida Buxoro viloyatining shimoliy – g‘arbida “Qizilqir madaniyati” tashkil topgan. Bu davrda so‘g‘dning hunarmandchilik an‘analari o‘rnini yarim o‘troq chorvador turkiy qavmlarga mos moddiy madaniyati dunyosi egallaydi. Bunday holat nafaqat Ustrushona, Sug‘dda, Farg‘ona balki qadimgi Xorazm hatto Baqtriya hududlarida ham ko‘zga tashlanadi.

Bu sulolalar davrida qishloq jamoalari bilan chegaradosh hududlarda, tog‘ oldi, cho‘l-dasht mavzelarda O‘rta Osiyoni boshqa o‘lkalarida bo‘lgani kabi Ustrushonada ham chorvadorlar uchun hayotiy zaruriyat hisoblangan yaylovlarning asosiy qismi qabila va urug‘ jamoalari oqsoqollar – biylarning qo‘l ostida bo‘lgan. Ustrushonaning markazi shimoliy va g‘arbiy Viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha IV –V asrlarda dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o‘rnashgan qabilalarning ommaviy ravishda o‘troqlashuv kuchayadi. Bu paytda yangi o‘zlashtirilgan yerlarda o‘troqlashgan chorvadorlar yoki mahalliy dehqonlarning ko‘shklari atrofi mustahkam devorlar bilan o‘ralgan qo‘rg‘onlari, mukammal istehkomga ega, hashamatli qasrlari qad ko‘taradi. Keyinchalik vohada ustivor mavqega ega, mamlakatda katta imtiyoz va harbiy kuchga ega bo‘lgan zamindor dehqonlar qo‘l ostidagi rustoqlarga asos solinadi. Aynan shu davrda O‘rta Osiyoga navbatdagi yangi siyosiy kuch Turk hoqonligi qo‘shinlari kirib kela boshlaydi.

Ilk o‘rta asrlarga oid tangalarni o‘rgangan olimlar fikricha, kidariylar Tohariston va Gandxarani 412-437 yillar oralig‘ida o‘z qo‘llari ostida birlashtirganlar. Aftidan kidariylar xioniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va o‘z tajovuzlarini Xuroson tomonga kengaytirishga harakat qilgan va Ustrushona siyosiy hayotiga ta‘sir ko‘rsata olmaganlar. Chunki manbalarda ularning asosan, yuechjilar egallagan hududlar va janubiy o‘lkalar (Eron)tomon ko‘plab yurishlar qilganligi eslatiladi [Toshboyev F.E. Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi.o‘quv qo‘llanma. “Yosh avlod matbaa” nashriyoti. Toshkent, 2021. B.48.]

Xoqonlik davrida Farg‘ona, Sug‘d va Ustrushonada aholining bir qismi tog‘-kon ishlari bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. Bu yerlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. VII asr boshlariga kelib, Xitoyda Tan sulolasining hokimiyatga kelishi bilan O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasida aloqalar jonlanadi. Elchilik munosabatlari yangidan yo‘lga qo‘yiladi. VII asrning birinchi choragida G‘arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, Janubiy chegarasi esa Hind daryosi bo‘ylariga borib taqaladi. Xoqon To‘n yabg‘u

davrida (618-630) boshqaruv tartiblari isloh qilinadi [O'zbekiston tarixi davlatchilik ocherklari, T, Sharq, 2001. 46 bet].

Shunday qilib, antik va ilk o'ta asrlarda yurtimizda bir tomoni shimoli sharqiy yo'nalishda Farg'ona vodiysi tomon ochiladigan geografik darvoza, janub tomoni Zarafshon daryosi yuqori oqimining o'ng qirg'og'i, shimol tomoni Sirdaryo, g'arb tomoni Mirzacho'l bilan o'ralgan tarixiy-madaniy o'lka bo'lgan. O'rta asrlarda ham bu o'lka geografik o'rni xususiyatlariga ko'ra turli siyosiy, iqtisodiy vaziyatlarda o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Bu hoat faol etnik jarayonlar kechishiga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inomov O.U. Qovunchi madaniyati va uning o'zbek xalqining shakllanishidagi roli.
2. Masson M. Ye. K istorii gornogo dela na territorii Uzbekistana . Tashkent, 1953; on je. Axangaran. Arxeologo-topograficheskiy ocherk. – Tashkent, 1953.
3. Pardaev M. Jizzax voxasining VII-VIII asrlardagi kulollik idishlari
4. Pardaev M.X. Qadimgi Jizzax voxasida o'troq dehqonlar va ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati
5. Pardaev M.H. Shimoli-g'arbiy Ustrushona kishlok qurilishi me'morchiligining ilk o'rta asrlardagi ayrim xususiyatlari
6. Гритсина А.А. изучение курганов в Сирдаринский области
7. Гритсина А.А. Уструшански были. –Ташкент: Издательство народного наследия им А. Кадири, 2000.,
8. Toshboev F.E. Ustrushona ko'chmanchi chorvador xalqlari dafn udumlari haqida ba'zi mulohazalar. // O'zbekiston tarixi va madaniyati. Toshkent, 2011.
9. Toshboev F.E. Ustrushona chorvadorlarining zoolatrik tasavvurlar bilan bog'liq dafn udumlari // Tarix va milliy o'zlikni anglash //. Toshkent, 2017. B. 127-134., Toshboev F.E. Ustrushona qadimgi xalqlarining it va bo'ri bilan bog'liq dafn marosimlari. Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi muammolari Samarqand 2018..
10. Negmatov N.N. Историческо – географическое очерк Уструшаны очерк с древны времен ро X веков.н // МИА. –М.: 1953. –№ 37., Negmatov N.N., Ye.D. Saltovskaya, T.P. Kyatkina. Izuchenie pogrebalnykh pamyatnikov kochevnikov na territorii Ustrushany // ART. Stalinabad: 1961. – № VI (1958g), –S. 137-154.

XIVA XONLIGIDA CHET EL ELCHILARIGA XIZMAT KO'RSATISH TARIXI

Polvonov Jurabek Abdurahmonovich
tadqiqotchi, (Toshkent "Temurbeklar maktabi"
harbiy-akademik litseyi bosh o'qituvchisi)
Tel: 97 774-68-74
E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola Xiva xonligiga xorijiy mamlakatlar elchilarini chegarada kutib olish, oziq-ovqat, uy-joy va xavfsizligini ta'minlash xizmati tarixi asosiy e'tiborni qaratilgan va bu borada shu davrda yozilgan ilmiy ishlar, elchilik kundaliklari va mahalliy tarixchilar asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan birlamchi manba sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Elchi, Rossiya, missiya, mehmon, XIX asr, Yalangrik, Mehtar, 1851-yil, 1862-yil, 1986-yil, Anqara, Mehmet Amin Afandi, Muhammad Rahimxon II Feruz, Sayid Ahamad Otojon To'ra, Sayyoh, Turkiston general-gubernatori, 1873-yil.

ИСТОРИЯ СЛУЖБЫ ИНОСТРАННЫМ ПОСЛАМ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ

Полвонов Журабек Абдурахмонович
научный сотрудник, (Ташкент "Школа Темурбеков"
военно-академический лицей)
тел: 97 774-68-74
Электронная почта: polvonovjurabek@e-mail.ru

Аннотация: В данной статье рассмотрена история приема Хивинским ханством иностранных послов на границе, обеспечения продовольствием, жильем и охраной, и она основана на первичных сведениях, представленных в научных трудах, посольских дневниках и трудах краеведов.

Ключевые слова: Посол, Россия, миссия, гость, XIX век, Ялангрик, Мехтар, 1851, 1862, 1986, Анкара, Мехмет Амин Эфанди, Мухаммад Рахимхан II Феруз, Сайед Ахамад Отоджон Тора, Турист, Туркестанский генерал-губернатор, 1873.

HISTORY OF SERVICE TO FOREIGN AMBASSADORS IN KHIVA KHANATE

Polvonov Jurabek Abdurahmonovich
researcher, (Tashkent "School of Temurbeks"
military-academic lyceum)
Phone number: 97 774-68-74
E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

Abstract: *This article focuses on the history of the Khiva khanate's reception of foreign ambassadors at the border, providing food, housing and security, and it is based on the primary information provided in scientific works, embassy diaries and works of local historians. analyzed as a source.*

Key words: *Ambassador, Russia, mission, guest, XIX century, Yalangrik, Mehtar, 1851, 1862, 1986, Ankara, Mehmet Amin Efandi, Muhammad Rahimkhan II Feruz, Syed Ahamad Otojon Tora, Tourist, Turkestan General Governor, 1873.*

Xiva xonligi hududiga tashrif buyurgan elchi, mehmon, olim va rasmiy shaxslar tegishli tartibda kutib olinganligi xususida ushbu tadbir ishtirokchilarining xotiralarida batafsil yoritilgan[1]. Elchilik vakillari asarlarining tahlili xonlikda missiya vakillarini kutib olish va joylashtirish, ularning martabasi, mavqidan kelib chiqib belgilanganligini ko‘rsatadi. Ya’ni, xonlik hududiga ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borish maqsadida tashrif buyurgan shaxslar uchun qabul oddiy tartibda amalga oshirilgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi va boshqa davlatlarning yuqori martabali amaldorlari yoki ularning ishonchli vakillari esa elchilik tartiblari asosida qabul qilingan. Tarixdan ma’lumki, lozim topilgan hollardagina chet davlat elchilari shaxsan davlat boshlig‘i tomonidan qabul qilingan. Ba’zan, hatto, rasmiy topshiriq bilan kelgan elchilar davlatning yuqori darajadagi mas’ul vakili bilangina muloqotda bo‘lib, hukmdor qabuliga kira olmay qaytgan[2].

Shunisi e’tiborlik, O‘rta Osiyoga kelgan har bir kishi – elchilik missiyasi a’zosi, savdogar va boshqalar hukumat idoralaridan maxsus ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalar olib, ularda saroy hayoti, mahalliy amaldorlarning nufuzi va ularning xonga ta’siri masalalarini o‘rganishga e’tibor qaratish kerakligi alohida ta’kidlangan[3].

Xonlik ma’muriyati tomonidan mamlakat hududiga tashrif buyurgan mehmonlar va elchilarni joylashtirish masalasi ham alohida nazorat qilingan. Xiva xonligi hududiga tashrif buyurgan missiya vakillarining xotiralarida xonlikdagi elchilik xizmati to‘g‘risida muhim qaydlar uchraydi. Bu turdagi manbalarni tadqiq etish xonlik hududiga tashrif buyurgan mehmonlarni joylashtirish, ya’ni ularga uy yoki xona ajratish elchilik qabulining asosiy tarkibiy qismini tashkil etganligini ko‘rsatdi. Elchilik vakillari uchun ajratiladigan uy yoki xona ularning qayerda qabul qilinishiga qarab alohida elchilik uyi yoki bekliklardagi elchilar uchun ajratilgan xonalardan iborat edi. Xiva xonligida xorijlik elchilarni qabul qilish tartiblari XIX asrga kelib mukammal bir marosim darajasiga yetadi. Bu davrda xonlikning xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlari kengayib, o‘zaro elchilik munosabatlari rivojlangan edi. Xonlikda elchilarni kutib olish va qabul qilish masalalari bu elchilik missiyalari tarkibida bo‘lgan kishilarning hisobotlarida, asarlarida keng yoritilgan. Ularga tayangan holda bu masalani ko‘rib o‘tamiz.

Odatda xorijlik elchilar Xiva shahriga ularni kutib olishga ma’sul bo‘lgan amaldorlar va otliq sipohlar kuzatuvida kirib kelishgan. Erondan kelayotgan

elchilarni ham Bekniyoz mahram va qirqta otliq Xiva ostonasida kutib olishib, shaharga kiraverishdagi joyda bir bog' ichidagi "Yalangrik" nomi bilan ataluvchi imoratga joylashtirilgan. Shundan keyin, belgilangan qoidaga binoan, Mehtar tomonidan tayinlangan kishilar elchilarni va ularning kuzatib kelayotgan kishilarni mehmon qilishgan. Elchilarga qarab turish uchun maxsus nozir tayinlangan. Unga xonlik xazinasidan elchilarning kundalik xarajatlari uchun ajratilgan mablag'ni to'g'ri sarflash vazifasi ham yuklatilgan[4].

Elchilarni kutib olish, xonga murajaat qilish tartiblari haqida Eron elchisining kundaliklarida yozib qoldirilgan. Elchining ma'lumotlari shuni tushunish mumkinki, xon kelgan elchini huzuriga chaqirishdan oldin yuborilgan vakillardan elchilarning xon qabuliga yolg'iz yoki homrohlari bilan kirish istagini so'rashga kelgani, elchilarning ma'lumotlari maxfiy yoki maxfiy emasligini bildiradi, degan fikrga keldik. Elchilarni mehmon qilish ham boshqa davlatlar tartibidan farq qilar edi. Elchilar o'z yurtiga ketish oldidan Xiva yaqinidagi bog'larning birida mehtar va naqib tomonidan xorijlik elchilar sharafiga tushlik ziyofati berilgan. Elchilarga ketishga ruxsat berishdan oldin ularga sovg'a va xil'atlarini berilgan. Elchilar ketishidan uch kun oldin elchilik missiyasini chegaragacha kuzatib boradigan mehmondor tayin qilinib, Eron podshohi maktubiga javob va boshqa xatlar ham tayyorlanadi. Bu ham Eron davlati bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatishga Xivada jiddiy qarashganidan dalolat beradi. Elchilarga ruxsat berishdan oldin xon o'z huzuriga chaqiradi, suhbatdan keyin elchilarga qaytishga ijozat berilgan[5]. Shundan so'ng elchilar Eronga xon buyrug'i bilan elchilarni kuzatib borish topshirilgan Taka turkman jamoati oqsoqollaridan ikki nafari hamrohligida Saraxs orqali Mashhadgacha yetib borishgan. Demak bu ma'lumot orqali shuni bilish mumkinki, elchining chegaragacha kuzatib borilishiga sabab xafsizlik masalasi edi. Elchining bu elchlikdan maqsadi Eron qullarini ozod qilish edi, shuni hisobga olsak elchi bu yerdagi qullar bilan til biriktrib davlatga qarshi isyon amalga oshirishi mumkin degan fikr ham bor. Shu sababdan ham elchini chegaragacha otliq qurollangan soqchilar kuzatib borishgan. Eron elchisi o'z safarnomasida yana bir qancha e'tiborga loyiq ma'lumotlarni keltirib o'tadi[6].

1851-yilda Eron hukmdori Nasriddinshoh tomonidan Xiva xoni Muhammad Aminxon huzuriga yuborilgan Rizoqulixon Hidoyat ham o'z asarida xonlikdagi qabul marosimlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Xorazmda to'rt oy davomida bo'lib muzokaralar olib borgan bu elchining qayd etishicha, Xiva xonining birinchi qabuli Xiva yaqinidagi Angarik bog'idagi qasrda uyushtirilgan, Ikkinchi uchrashuv esa xonning Xivadagi qabulxonasida bo'lib o'tgan. Elchi xon tomonidan xalat va sarupolar berilgan[7].

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar Xiva xonligida xorijlik elchilarni kutib olish, saroyda qabul qilish va kuzatish tartiblari haqida yetarlicha tasavvur uyg'otadi. Bu ma'lumotlar Xiva xonligiga kelgan boshqa elchilar kundaliklari, asarlarida keltirilgan ma'lumotlar bilan yanada boyitildi va to'ldirildi. Xorijdan kelgan, lekin biror bir rasmiy elchilik missiyasi tarkibida bo'lmagan kishilarning qabuli masalalari, xonlikda o'rnatilgan odatga ko'ra, xorijdan kelgan savdogarlar,

sayyohlar, darvishlar va boshqalar, agar ular rasmiy elchilik missiyasi tarkibida kelmagan bo'lsa, Xivadagi karvonsaroylardan biriga joylashtirilgan. Yirik shaharlardagi karvonsaroylar nafaqat savdogarlarning vaqtincha yashaydigan joyi, balki savdo-sotiq ishlari olib boriladigan, kerakli soliqlar yig'ib olinadigan joy vazifasini ham bajargani ma'lum. Xivadagi karvonsaroylarda bojxona to'lovlari ham yig'ilib, kelgan kishilar haqida batafsil ma'lumot (qayerdan kelayotgani, kimligi, kelishdan maqsadi, safar muddati va boshqalar) to'plangan. Bu holatda ayniqsa xorijliklar kelgan karvon boshlig'i bergan ma'lumotlarga katta ahamiyat berilgan. Xivada bosh bojxonachi vazifasini birinchi Mahram bajargan[8].

Xonlikka kelgan xorijliklar haqidagi xabar tegishli idoralar orqali xonga yetkazilgan. Shundan keyin xon ularni qabul qilish yoki qilmaslik haqida qaror qabul qilgan. Agar xorijdan kelgan kishi xon va saroy nufuzini ko'tarishi uchun ahamiyatli deb topilsa, unday kishilar xon qabuliga kirish huquqiga ega bo'lgan. Bunday holatda xonning qabul haqidagi qarorini va qabul vaqtini qabul qilinuvchiga maxsus amaldor – Yasavul yetkazgan. 1862-yilning yozida Xivaga Istambullik Rashid afandi nomli darvish sifatida kelgan Venger sayyohi A.Vamberi asarida ham bu masalalar haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Undagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali Xiva xonligidagi saroy qabul marosimlaridagi o'ziga xos an'analar haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. A.Vamberining yozishicha, Yasavul (saroy zobiti) u joylashgan xonoqohga kelib, unga Xon sovg'asini topshiradi va kechqurun Arkka Xon qabuliga borish lozimligi haqida xabar beradi. Xon qabulidan maqsad Muqaddas yerdan kelgan darvish Quronning birinchi surasini o'qib, Xonni duo qilishi edi. Belgilangan vaqtdan biroz oldin A.Vamberi saroyga yo'l olganini, yo'lda Xiva xonining Istambulda elchisi sifatida bo'lib, u yerda bir necha yil yashagan Shukrullabiy bilan saroyga kirib borganini, Yo'lda Shukrullabiy saroyda Xon qabuli paytida o'zini tutish, belgilangan tartib qoidalar haqida tushuntirish berganini yozadi[9].

Belgilangan tartibga ko'ra, A.Vamberi dastlab xonlikda nufuzli amaldor bo'lgan Mehtar bilan uchrashib, Mehtarga o'zining Usmonli Sulton tomonidan berilgan muhrli farmonni ko'rsatadi. Mehtar bu farmonni berishdan oldin uni o'pib, peshonasiga surtadi. Mehtar bu farmonni olib Xon huzuriga kirib ketadi va ma'lum vaqtdan keyin A.Vamberini Xon qabuliga taklif etadi. Xon Istambuldan kelgan darvishni juda iliq qabul qilgani asarda batafsil tasvirlangan.

Xiva xonligi va Turkiya davlatlari o'rtasidagi elchilarini qabul qilish tartiblarining o'ziga xos jihatlari, o'zaro aloqalari tarixni yoritishda Mehmet Amin Afandining "Istanbuldan O'rta Osiyoga sayohat"[10] nomli asar ahamiyatga molikdir. Bu asar turk tilida Riza Akdemir tomonidan 1986-yilda Anqarada nashga tayyorlangan. Asarda ayniqsa, xonlikni Rossiya imperiyasi bosib olgandan keyingi elchilik masalalar haqida ma'lumotlar ham bor. Ushbu asarni yozgan sayyoh Mehmet Amin Afandi O'rta Osiyoga hijriy 1295-yil (milodiy 1878-yil) kelgan. Mehmet Amin Afandi o'z ixtiyori bilan sayohatga chiqib, Yevropani kezib, u yerdagi shaharlar hayotini, boshqaruv usullarini O'rta Osiyodagi shaharlar hayotiga va boshqaruviga qiyoslagan. Mehmet Amin Afandi Xiva shahriga qaysi yo'nalishda

kelganligi haqida ma'lumot berib o'tadi. Yana shuni ta'kidlaydiki, devonbegi, Muhammad Rahimxon II Feruz, Sayid Ahamad Otojon To'ra qabulida bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Mehmet Amin Afandining yozishicha, unga sayohat davomida xafsizlik, yo'l boshchi xonlik hududiga kirganda biriktrilgan. Aytishicha, Ko'hna Urganch yaqinida yashovchi Oshiqberdi degan shaxs sayohat davomida yo'l boshchilik qilgan. Mehmet Afandining asarida o'zi bilan suhbatdosh bo'lgan shaxslarning hikoyalarini ham asarida yozib qoldirishi xonlik tarixi uchun juda muhim sanaladi [11].

Mehmet Afandi xonlikka kelgan elchi, olim, sayyoh va boshqa shaxslar uchun hamma sharoyidlar borligini quyidagi ma'lumot bilan isborlasa bo'ladi: -bu yerlar Osiyoning aholisi eng gavjum yerlari bo'lgani uchun yo'llar cho'llardagi kabi bo'm-bo'sh emas edi. Hatto yo'lovchilarning dam olishlari uchun har bir yoki yarim soatlik yo'lda choy ichin va chilim chekish uchun "qahvaxonalar" bor edi. Xiva xonligida bo'lgan Eron elchisi Rizoqulixon (1851) ham Xiva xonligi qahva bilan tanish ekanligi qayd etgan bo'lsa-da, aslida bu chiyxona bo'lishi mumkinligi haqida S.Turayeva [12] maqolasida qayd qilib, o'z musosabatini bildirgan. Sayyoh Xiva kelganini shunday qayd etadi, - bu yerdagi izzat-ikrom dunyoning hech bir joyida yo'lovchiga ko'rasatilmaydi, deb ta'riflaydi.

Xiva xonligida elchilar xavfsizligi, davlat tarkibidagi xususiy kuchlar tomonidan ta'minlanib kelgan edi. Xiva xonligi davrida, elchilar ko'plab xavfsizlik tizimlari bilan ta'minlangan edi. Birinchi navbatda, Xiva xonligi kuchlari tomonidan xonlikda xavfsizlikni ta'minlash uchun ko'plab ishlar amalga oshirilgan edi. Xonlik kuchlari, shahar va shahar atrofidagi qishloqlar uchun politsiya tarkibida xususiy turli kuchlar tashkil etganlar. Bu kuchlar, elchilar va sayyohlar xavfsizligini ta'minlash uchun shahar va qishloqlarda kuzatishlar o'tkazishganlar. Ikkinchi navbatda, elchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun, elchilikni bajarish uchun belgilangan xonadonlarda yashash shart qo'yilgan edi. Bu xonadonlarda yashovchi elchilar, shahar sarkardalari tomonidan kuzatilgan va xonadonlarga kirish va chiqishlar nazorat qilinagan.

Shuningdek, Xiva xonligi davrida, elchilar o'zlarining va mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun belgilangan xususiy huquq va shartlarni o'z ichiga olgan elchilik guvohnomasi tuzilgan. Bu guvohnoma elchining to'g'risida ma'lumotlar va uning elchilik huquqlarini o'z ichiga oladi.

Xonlik ma'muriyati elchilik vakillari to'g'risida dastlabki ma'lumotni chegaradosh hudud hokimlaridan, keyingi asrlarda esa Turkiston general-gubernatori devonxonasining diplomatik qism vakilidan, 1873-yil avgustdan e'tiboran amirlikda o'z faoliyatini boshlagan Rossiya imperatorining Xivadagi siyosiy agentligidan olgan. Ushbu ma'lumotlar rasmiy hukumatlararo yozishmalarda ham bayon etilgan. O'zaro yozishmalar natijasida xonlik ma'muriyati ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun hudud hokimlariga tegishli ko'rsatmalar bergan. Elchilik a'zolarining xotira va hisobot shaklida yozilgan asarlaridagi ma'lumotlarning barchasida holislik mavjud deb bo'lmaydi. Bu asosan mahalliy an'ana va urf-odatlar, xon qabuli, yuqori darajadagi uchrashuvlarga

bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Bir shaxs qarashlarining mahsuli hisoblanadi.

Tabiiyki bunga xotira muallifining ijtimoiy mansubligi, ya’ni qaysi lavozim va darajadagi shaxs ekanligi ham ta’sir etgan. Yuqorida yillar kesimida xonlik qabulida bo‘lgan chet el elchillarining nomlari va egallagan lavozimlari to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlar keltirilib o‘tildi. Shunga asoslanib, oliy qabulda ishtirok etish maqsadida Turkiston general-gubernatorining adyutantlari, diplomatik amaldorlar, xonlik bilan chegaradosh hudud ma’murlari, tarjimon hamda tadqiqotchilar yuborilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilganlarga xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Xiva xonligida nafaqat xorijlik elchilarni, shu bilan birga mamlakatga kelgan sayyohlar va savdogarlarni ham saroyda qabul qilish odati bo‘lgan. Bu qabul tartiblari o‘ta noziklik bilan, Sharq diplomatiyasiga xos an’analarga muvofiq o‘tkazilgan.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. Madirimov R.X Xiva xonligining Afg‘oniston va Eron bilan aloqalari // O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari yosh olimlar tadqiqotlarida: asosiy yo‘nalishlar va yondashuvlar nomli Res.kon.. –T., 2010. B – 85., Muhammad Alixon G‘afur. Xorazm safari kundaligi (mualliflar N. Polvonov va I. Bekjonovlar) – T: “Yangi asr avlodi”, 2009., Saydi Ali Rais. Mirotul-mamolik. -. T., 1963., Mexmet Emin Efendi. Istanbul’dan Oрта Asya’ya seyahat. – Anqara, 1986., Залесов Н. Посольство в Хиву подполковника Данилевского // Военный сборник. № 11. - СПб. 1861. - С. 1-34; Описание Хивинского ханства. Составлено в 1843 г. подполковником Генерального, штаба Г.И.Данилевским // Записки ИРГО. Кн. В. - СПб., 1851. - С. 62- 153., James Abbot Narrative of a Mission to Khiva, Moscow and St. Petersburg. –London, 1867. Volume 1. – R. 89., Connolly. A. Journet to the North of India overland from England through Russia, Persia and Afghanistan. London, 1838. – R. 103.

2. Allayeva N. Xiva xonligi va Usmonli davlati o‘zaro aloqalari tarixidan // O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari yosh olimlar tadqiqotlarida: asosiy yo‘nalishlar va yondashuvlar nomli Res.kon.. –T., 2010. B – 82.

3. Кличев О. Дипломатик муносабатларга доир материаллар: Россия империяси ва Бухоро амирлиги ўртасидаги елчилик қабуллари тарихини ўрганиш манбаси (1867–1917 йй). Тарих фан. док. дисс. – Бухоро: 2023. 35 б

4. Муҳаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги (Муҳаммадшоҳ Қожар ва Оллоҳқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 13–52.

5. Муҳаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 19-21.

6. Сайид Ҳомид Тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. – Тошкент: Академия,

2002. – Б. 49.

7. Mexmet Emin Efendi. Istanbul’dan Orta Asya’ya seyahat. – Anqara, 1986.,

8. Mexmet Emin Efendi. Istanbul’dan Orta Asya’ya seyahat. – Anqara, 1986.,

9. Turayeva S.T XIX asr Xiva xonligi shaharlari istanbullik sayyoh talqinida // Sharqshunoslik. – T., 2011. -№ 1. B-80

10. Mexmet Emin Efendi. Istanbul’dan Orta Asya’ya seyahat. – Anqara, 1986. 121-b.

11. Агзамова Г.А. Среднеазиатские ханства и Россия: к истории караванной торговли (XVI – первая половина XIX вв.) Россия – Узбекистан. История и современность. Спецвыпуск. – М., 2008. – С. 15, 22-23.

12. Ўзбекистон МА, И-1 фонд, 3-руйхат, 249-йиғмажилд, 4-варақ.

BIR YARIM MING YILLIK SAG‘ANA

Saydullayeva Nilufar

Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumani

12-maktab tarix fani o‘qituvchisi

Isaboyeva Mohidil

Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumani

12-maktab geografiya fani o‘qituvchisi

tel raqam:+998934508079

“O‘tmishni bilish boshqa har qanday fanlardan ko‘ra kishilarga tezroq foyda keltirishi mumkin, tarixdan o‘rganib olingan saboqlar esa ma‘rifatga olib boradigan eng to‘g‘ri yo‘ldir”.

(Polibiy, yunon tarixchisi, miloddan avvalgi II asr)

O‘zbekiston - go‘zal bir diyori. Shoir aytganidek, “chiroylidir go‘yo yosh kelin, ikki dary yuvar kokilin”. Farg‘ona vodiysi esa uzuk ko‘ziga yarashib tushgan durdonasidir. Zeroki, Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonninggina emas, Markaziy Osiyoning eng so‘lim eng go‘zal, g‘oyat boy tarixga ega bo‘lgan markazlaridan biridir. Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos arxeologiyasi va etnografiyasi bor, juda ko‘plab tarixiy obidalari bor, ularning ayrimlari hali o‘rganilmagan. Biz bu tarixiy obidalarni, arxeologik topilmalarni yaxshiroq o‘rganishimiz kerak. Pop tumani Farg‘ona vodiysidagi qadimiy, tarixiy joylardan biridir.

Pop yozma manbalarda ilk bor arab geograflari va sayyohlari tomonidan yozilgan tarixiy-geografik asarlarda, chunonchi, Ibn Xordadbek IX asr) va Istahriy (X asr)lar tomonidan “Bob” deb tilga olingan. 983-yilda noma‘lum muallif tomonidan Balx yaqinidagi Juzjon viloyatida yozilgan “Xudud ul-olam” (“Olam chegaralari”) nomli jami 60 bobdan iborat kitobning “Movarounnahr viloyati va uning shaharlari” deb nomlangan yigirma beshinchi va yigirma oltinchi boblarida “Pob” deb yozilgan. Asarda Pob Shimoliy Farg‘onaning savdo yo‘lida joylashgan obod shaharlardan biri deb ta‘riflashgan.

Vatandoshimiz Z.M.Boburning “Boburnoma”sida Pop qo‘rg‘oni haqida ma‘lumotlar uchraydi. Chunonchi Bobur shunday deb yozadi: “Axsining berk qo‘rg‘onlaridan biri Pop qo‘rg‘onidir. Poplik(lar) Pop qo‘rg‘onini berkitib bizga kishi yiborib turlar. Axsining yuqorigi kentlarining to‘g‘risidin daryodan o‘tib borib Pop qo‘rg‘oniga kirdilar”. Binobarin, Pop shahri eramizning boshlarida

Sirdaryoning o'ng sohilida hozirgi G'ovasoy vohasining eng so'lim joylaridan birida vujudga kelganligi ma'lum bo'lmoqda.

Tarixiy yozma manbalarning guvohlik berishicha va arxeologik topilmalarning tasdiqlanishicha, eramizning IV-VII asrlariga kelib Pop, G'ovasoy sug'orma dehqonchilikning markazi sifatida yanada rivojlanadi. Munchoqtepa aslida to'rtta bir-biriga tutashgan tepalik bo'lib, ularning ikkitasi paxta kasofati tufayli buzib tashlangan bo'lib, hozirda ularning o'rni paxtazordan iborat. Qolgan ikkitasi ham butun qolmagan, shikastlangan bo'lsada boy arxeologik materiallar bermoqda.

Munchoqtepa yoxud Pop sag'anasi, ba'zan Danu dafinasi deb nomlangan xazina o'chog'i 1989-yil may oyi oxirlarida B.Matboboyev boshliq Namangan arxeologiya ekspeditsiyasining Pop bo'limi xodimlari shu tepalikning shimolida joylashgan ikkinchi tepalikdagi V-VII asrlarga oid qabristonni kovlayotib tasodifan sag'ana topib olishadi. Arxeologlar ehtiyotkorlik bilan qazish ishlarini olib borishadi. Sag'anada hammasi bo'lib 47 ta tobut qo'yilgan ekan. Ular 5 qavat ustma-ust qilib qo'yilgan. Ularning 45 tasi saralangan qamishlardan yasalgan bo'lib, bu tobutlar har xil yoshdagi erkaklar va ayollar jasadining qoldiqlari yotardi. Ana shu tobutlardan 22 tasinigina saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar, xolos.[2.-B.46]

Qamish tobutlar har bir marhumga mos qilib yasalgan. Qolgan ikkitasi uzunchoq savat bo'lib, ularda yangi tug'ilgan chaqaloqlar dafn etilgan. Har bir tobutga bittadan jasad qo'yilgan. Ko'pgina marhumlar boshi ostiga matodan tikilgan yostiqlar qo'yilgan. Ba'zi bir hollarda esa yostiqlar o'rnini bir tutam gulpechak egallagan.

Marhumlar tobutlarga ust-boshlari, qurol-yarog'lari, zeb-ziynatlari va asbob uskunalari bilan qo'yilganlar. Bulardan tashqari, yonlariga savatda oziq-ovqat, qo'y va har xil parranda go'shtlari qo'yilgan.

Mevalarda shaftoli, o'rik, xurmo, gilos, yong'oq, xandon pista va yer yong'oqlar mavjuddir. Topilmalar ichida paxta ko'saklari alohida ahamiyatga egadir. Ko'saklarning hammasi (4 ta) uch chanoqlidir. 80 ga yaqin yangiday turgan idish-tovoqlar kulolchilik bu aholi hayotida muhim rol o'ynaganini tasdiqlab turibdi. Ular kulolchilik charxida va yopma usulda yasalgan bo'lib, ba'zilariga jimjimador qilib gul solingan.

Qadimgi Pop aholisi orasida to'qimachilik alohida hunarmandchilik sohasi sifatida keng rivojlangan ekan. Bizga ikki xil matohdan(ipak, paxta) qilingan ust-bosh qoldiqlari ma'lum, xatto ikkita ayol ko'ylagi butunligicha saqlanib qolingan. To'quv dastgohining qoldiqlari qadimda bu yerda markazlashtirilgan to'qimachilik

ustaxonalari bo‘lganligidan dalolat beradi. Yigiruv ishlaari bilan xotin-qizlar shug‘ullanganligiga ayol tobutida uchraydigan urchiqlar misol bo‘la oladi. Pop topilmalari O‘rta Osiyo ipakchilik, paxtachilik va to‘qimachilik tarixida yangi sahifalar ochishi muqarrar.

Topilmalar ichida eng ko‘pi munchoqlardir. Ular hozir 10 ming donaga yetdi. Munchoqlar qimmatbaho toshlardan, hayvon suyaklaridan ustalik bilan ishlangan. Ba‘zilariga hilma-xil gul solingan. Bulardan tashqari metal (temir, bronza)dan qilingan bilakuzuklar, sirg‘alar, uzuklar ham topildi.

Topilmalar ichida har-xil kattalikdagi naqshli yog‘och idishlar, murakkab kamonlar, tarozi pallalari , hayvon suyaklaridan yasalgan turli- tuman qurol-aslaha dastalari, o‘q-yoy bo‘laklari, jimjimador naqsh bilan bezatilgan pichoq dastalari mavjud.

Sag‘anadan qamishdan yasalgan ko‘hna muzika asboblari jumladan qo‘shnay topildi. U yog‘ochdan qilingan g‘ilof ichida juda yaxshi saqlangan, hozirgi etnografik qo‘shnaydan deyarli farq qilmaydi.

Sag‘analarga va yakka holdagi qabrlarga qadimdan Farg‘ona vodiysida yashab istiqomat qilib kelayotgan o‘zbeklar, hozirgi Farg‘ona o‘zbeklarining ota-bobolari qo‘yilgan.

Go‘zal, nafis va bir-biridan chiroyli arxeologik topilmalar V-VII asrlarda shahar aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti yuksak daraajada bo‘lganligidan darak berish bilan birga, odam o‘lgandan keyin ham “narigi dunyoda uning ruhi abadiy yashaydi, degan tushuncha hukm surganligini bildiradi. Shu boisdan marhumlar kiyim-boshlari, zebi-ziynatlari va boshqa ashyolari bilan birga ko‘milgan. Bunga etikdo‘z, kamonchi, naychi va boshqa tobutlar misol bo‘la oladi.

Yurtimizda, shu jumladan Farg‘ona vodiysida topilgan yodgorliklar bir necha ming yillik tariximizning sirli sahifalari, ota-bobolarimizning qadoq qo‘llari va aql-zakovatlarining ona zaminda qolgan o‘chmas izlari madaniy merosidandalolat beradi. Vodiya saqlanib qolgan xoh kattadir, goh kichik har bir tarixiy-arxeologik xarobalar farg‘onaliklarning o‘tmishdagi madaniyat, san‘ati va dinining sirlarini saqlab saqlab qolgan bebaho xazinalardir. Qadimgi Farg‘onaning ilk poytaxtlari Eylaton va Mingtepa, keyingi poytaxt Axsikent, Popdagi Munchoqtepa va Balandtepalar, boringki, hamma arxeologik yodgorliklar xalqimizning tarixi, madaniy va ma‘naviy boyligidir.

Arxeologik topilmalar Farg‘ona xalqlarining, xususan Popliklarning ilk O‘rta asr tarixini yoritishga imkon beradi. Mazkur topilmalar farg‘onaliklar madaniyatining o‘ziga xosligidan hamda qadimiy an‘analarga boy bo‘lganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat biz bu topilmalarni ko‘proq o‘rganib kelajak avlodga

yaxshiroq yetkazib berishimiz darkor. Buning uchun tarix darslarida o‘quvchilarga kengroq tushuntirish, arxeologik topilmalar topilgan tarixiy joylarga o‘quvchilar bilan ko‘proq sayohatlar uyushtirish kerak. Tariximizning jonli guvohi bo‘lgan arxeologik yodgorliklar, o‘quvchilarda shonli tariximizning turli davrlari haqida tasavvur uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. I.A.Karimov Toshkent, O‘zbekiston – 1998 y.
2. Qadimgi Farg‘ona sirlari. Y.Qosimov Namangon-1992 y.
3. O‘zbekiston tarixi. A.Asqarov “O‘qituvchi” nashriyoti -1994 y.

www.ziyouz.com kutubxonasi.

ROSSIYANING HINDISTON TOMON YURISHI VA UNDA XIVA XONLIGINING TUTGAN O‘RNI

Razzaqov Jaxongir Nasimjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan Rossiya imperiyasining Hindistonni bosib olish maqsadlari va unda O‘rta Osiyoning ayniqsa Xiva xonligining muhim o‘rin tutganligi masalasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Katta o‘yin siyosati, Marv, Xiva xonligi, Hindiston, Britaniya imperiyasi.

THE ROLE OF THE KHANATE OF KHIVA IN THE MARCH OF RUSSIA TOWARDS INDIA

Annotation: In this article, the author explains the goals of the Russian Empire's conquest of India and the importance of Central Asia, especially the Khanate of Khiva, in it.

Key words: Big game politics, Marv, Khanate of Khiva, India, British Empire.

РОЛЬ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В ПОХОДЕ РОССИИ НА ИНДИЯ

Аннотация: В данной статье автор объясняет цели завоевания Российской империей Индии и значение в ней Средней Азии, особенно Хивинского ханства.

Ключевые слова: политика «большой игры», Марв, Хивинское ханство, Индия, Британская империя.

XVI asrdan boshlab tarix sahnasida muhim iz qoldirgan O‘rta Osiyo xonliklaridan biri Xiva xonligidir. Xiva xonligi Buxoro amirligi kabi o‘zining geografik jihatdan qulay joyda joylashganligi va suv yo‘li bilan taminlanganligi sababli O‘rta Osiyodagi eng rivojlangan davlatlardan bo‘lgan²⁴. Shuningdek, Xiva xonligi Britaniya Hindistoni va kengayayotgan Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi “ajratib turuvchi” hudud edi. Inglizlar fikricha Rossiyaning janubga qarab

²⁴ Toshtemirov O‘A. Qo‘ng‘irot inoqlari hukumronligi davrida Xiva xonligining ichki va tashqi siyosati. Toshkent. TDPU. 2014. – B. 45

ekspansiya maqsadlari jiddiy bo'lgan va ruslarni Hindistonga suqilib kirishlarini oldini olishda ushbu hudud juda muhim hisoblangan.

Turkiston Rossiya uchun ham Britaniya uchun ham harbiy ahamiyatga ega edi. Rossiyaning Hindistonga chiqishida Markaziy Osiyo katta rol o'ynar edi. Hindiston masalasi Ingliz – Rus raqobatidan ancha avvalroq boshlangan. Hindistonning bitmas-tugalmas afsonaviy boyliklari haqida Yevropada ko'plab afsonalar to'qilgan edi. Angliya, Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Daniya va Fransiya kabi mamlakatlar bu hududga yo'l ochishni va o'z mustamlakalariga aylantirishni istaganlar. Aynan Hindiston masalasi Buyuk Geografik Kashfiyotlarga olib kelgani tarixdan ma'lum. Hindistonga yetish va unga egalik qilish masalasi hatto Rossiyani ham befarq qoldirmagan. Rossiyaning Hindiston haqidagi dastlabki taassurotlari Afanasiy Nikitin sayohatidan boshlangan. So'ngra Ivan III ning o'g'li va keyingi Rus hukmdori Vasiliy Ivanovich va Boburiylar o'rtasida aloqalar o'rnatilgan edi²⁵.

1498-yilda Vasko Da Gama ilk bor Afrika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi. F.Magellan esa Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga Tinch okeani orqali yo'lni aniqlagan edi. Rossiya boshqa Yevropa mamlakatlaridan farqli ravishda dengizorti mustamlakalarni egallamagan. Bunga Rossiyaning geografik o'rni xalaqit berar edi. Negaki, Rossiya Atlantika okeaniga chiqish masalasida anchagina oqsar edi. Vaholanki, Hindistonga borish mumkin bo'lgan yagona dengiz yo'li o'sha davrda Atlantika okeanidan o'tgan. Vasko Da Gama sayohatidan so'ng Portugaliya butun sharqdagi dengizlarda monopol huquqni qo'lga kiritadi. Shimoliy Muz okeanidan esa noqulay geografik hudud bo'lgani bois Hindistonga yo'l topib, bo'lmas edi. Rossiya uchun yagona yo'l quruqlikdan bo'lib, ruslar Hindistonga yetish uchun uch yo'l mavjud deb hisoblaganlar:

- a) Kavkaz orqali Eron, so'ngra Hindiston;
- b) Kaspiy Dengizi orqali Mang'ishloq, Xuroson, Afg'oniston va Hindiston;
- c) Qozoqlar yeri, Xiva xonligi yoki Buxoro amirligi orqali Afg'oniston, so'ngra Hindistonga chiqish.

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyo Hindistonga chiqish uchun Rossiyaga eshik vazifasini bajarar edi.

1694-yilda Pyotr I Hindistonga Simon Malinki nomli savdogarni sovg'alar va pul bilan Boburiylar bilan aloqa o'rnatish uchun yuborgan. Ammo bu elchilik qanday natija bilan tugagani haqida bizga hech nima yetib kelmagan²⁶.

²⁵ An Indian Officer. Russia's march towards India. London. Sampson Low. 1894. – P. 8.

²⁶ An Indian Officer. Russia's march towards India. London. Sampson Low. 1894. – P. 27.

1713-yilda Xiva xonligiga elchi sifatida yuborilgan Bekovich-Cherkaskiyga xonni biri Buxoroga, ikkinchisi Boburiylar saltanatiga chiqishga imkon beruvchi ikkita karvon yo‘li ochib berish uchun ko‘ndirish yoki majburlashi kerak edi. Pyotr I Bekovich Cherkasskiyga yozgan maktubida unga quyidagi talablar ham bor edi: “Imkon qadar Amudaryonining boshlanish qismiga yetib borish; agar unga boshqa daryolar ham quyilsa uni bilish (Hindiston tomon suv yo‘li uchun); yana boshqa noma‘lum daryolar bo‘lsa, uni aniqlash va xaritaga tushirish; Hindistondan eksport qilingan har qanday ziravorlarni nomini yozib olish...”.

Bekovichning o‘zi 1717-yilda Astraxandan yo‘lga chiqqan. Ammo uni Xiva xoni Sherg‘ozixon Xivaga kelganda o‘ldirtirib yuborgan.

Pyotr I Astrobodni egallash niyatida edi. Negaki, agar Astrobod egallansa, Rossiya Kaspiy dengizi ustidan to‘liq o‘z hukmronligini o‘rnatar edi. Agar ozgina masofa yo‘l yurilsa, Hindistonga yetib kelar edi. Pyotr I Portugaliya, Gollandiya, Angliya va Fransiyaning Hindiston bilan savdodan katta daromad olganini bilgan. Uningcha, Rossiya Hindistonga yetib bora olsa, o‘sha davrdagi eng yaqin yo‘l Rossiyaga nasib qilar edi. Negaki, bu davrda hali dengizlar to‘la o‘rganilmagan va okean osha savdo juda xatarli edi. 1722-yilda Pyotr I xatto Astrobodni egallash uchun qo‘shin ham yuborgan edi. Bu yurish muvaffaqiyat bilan tugagan. Ammo oradan xech qancha vaqt o‘tmay Eron shohi Taxmasp tomonidan Astrobod qaytarib olingan. 1725-yilda Pyotr I vafoti va 1736-yilda Eron taxtini buyuk Nodirshoh egallashi bilan O‘rta Osiyo va Afg‘oniston masalasida Rossiyaning ta‘siri susayib ketgan²⁷.

1790-yillar oxirida Fransiya hukmdori Napoleon Bonapart va Rossiya hukmdori Pavel o‘rtasida shartnoma paydo bo‘ladi. Unga ko‘ra, Fransiya va Rossiyaning birlashgan armiyasi Hindistondan Ost India kompaniyasini haydab chiqarishi va Hindistonda Rossiya va Fransiya hukmronligi o‘rnatilishi kerak edi. Rejaga muvofiq, Pavel 1801-yilda Don kazaklari yo‘lboshchisi Vasiliy Petrovich Orlov 22000 kazaklar bilan Orenburgga qarab yuradi. U bu yerdan Xiva va Buxorodan o‘tib Hindistonga qadar yetib olishi kerak bo‘lgan. Orlov qo‘shini Orolga yaqinlashganda Pavelni to‘satdan vafot etib qolgani bois ortga qaytib ketgan²⁸. Shu tariqa ushbu yurish amalga oshmay qolgan.

Rossiya Hindiston tomon asrlar osha sekin, ammo muntazam odimlab borgan²⁹. 1813-yilda Rossiya va Eron o‘rtasida Britaniya manfaatiga zid bo‘lgan Guliston shartnomasi imzolangach, Rossiya Kaspiy dengizini nazorati ostiga

²⁷ Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – P. 46-51.

²⁸ <https://cbkwgl.wordpress.com/tag/franco-russian-invasion-of-india>

²⁹ Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – P. 145.

olgan³⁰. Britaniya mahfiy agenti mayor Nappier Astrobod qozisi Sayid Ahmadga Eron uchun kechayotgan kurashga to'htalib shunday degan edi: "Rossiya bugun Astrobodni oldi. Agar Tehrondagi Britaniya elchihonasida o'rnatilgan ingliz bayrog'i bo'lmaganda edi, ertaga Eron ham zabt etilgan bo'lar edi³¹". Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida Eron va Hindiston hududi uchun boshlangan kurash keyinchalik O'rta Osiyoga ko'chgan.

XIX asr birinchi choragidan boshlab esa, Britaniya va Rossiya o'rtasida O'rta Osiyo, Eron, Tibet, Afg'oniston va Hindiston uchun chinakam raqobat boshlandi. Britaniya Imperiyasi birinchi navbatda Hindistonni qo'ldan chiqarmaslik uchun O'rta Osiyoni egallashi zarur edi, chunki Rossiya Imperiyasi Hindistonga qanchalik hududi bo'yicha yaqinlashsa hindlar yurti ham ruslar qo'liga qaram bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lar edi³². Ammo O'rta Osiyo Rossiya va Britaniya uchun faqat Hindiston tufayligina kerak bo'lgan degan fikrni berishdan yiroqmiz.

Hindistonda mustahkam o'rnashib olgan ingliz mustamlakachilari o'zlari tuzgan Ost-Indiya (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi orqali O'rta Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning o'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish xamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi³³.

Ammo boshqa bir muallif ya'ni 1873-yilda Rossiyaning Xiva xonligiga yurishlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan Makgahan Rossiya Xiva xonligini bosib olishi Hindistonga yurish qilishda kamroq ahamiyat kasb etganigini qayd etgan. Uning fikricha, rus chegaralari orqali Hindistonga borish uchun ikki yo'l mavjud. Birinchisi Kaspiy dengizining janubiy sohillari bo'ylab Eronning shimoliy chegaralari orqali Hirotga va Hindistonning g'arbiy hududlariga chiqish. Ikkinchisi, Samarqanddan Buxoro amirligi, Karki, Amudaryodan o'tib Qunduzga va Hindistonning shimoliy qismlariga chiqish. Xiva orqali ham Karkiga chiqish mumkin bo'lsa-da, asosiy qismi sahrolardan iborat bo'lgan bu hudud orqali harbiylarni olib otish eng oson yo'l bo'lmagan³⁴.

Ammo rus amaldorlarining o'zi bunday fikrda bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin. Rus askari Hind okeanida etigini yuvishni ko'zlar edi. Bu shuni anglatar ediki, Rossiya butun Osiyoni ikkiga ajratib qo'yishi mumkin bo'lgan hududlarni egallashi mumkin edi. Rossiya o'zining O'rta Osiyodagi yurishlari sababli Hirot ostonasiga kelib qolgan edi. Rossiyalik general Skobolev shunday degan: "Markaziy

³⁰ Boulger Ch.D. England and Russia in Central Asia. W. H. Allen. London. 1879. Volume II. – P. 375.

³¹ Yetisgin Memet. How the Times of London covered and interpreted Russian expansion into Central Asia in The second half of the nineteenth century. A dissertation in history. Texas. 2000. – P. 73.

³² [www.wikipedia.org/katta_o`yin.html](http://www.wikipedia.org/katta_o`yin.html)

³³ [www.wikipedia.org/katta_o`yin.html](http://www.wikipedia.org/katta_o`yin.html)

³⁴ Mac Gahan. J.A. Campaigning on the Oxus and fall of Khiva. London. Sampson Low, Maeston, Searle, & Rivington. 1876. – P. 424.

Osiyoda biz qancha mustahkam bo‘lsak, Britaniya Hindistonda shuncha kuchsizlanadi. Keyinchalik Yevropada ham”³⁵.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan zabt etilgach, qarama-qarshilik yanada kuchaydi. Britaniya Bosh Vaziri Benjamin Dizraeli Qirolicha Viktoriyaga xat yuborib Rus armiyasini Kaspiy dengizigacha quvib yuborib o‘z pozitsiyasini mustahkamlamoqchi ekanini aytdi³⁶.

1880-yildan boshlab Rossiyaning turkmanlar yeriga jiddiy ekspansiyasi boshlandi. 1884-yilda xatto Marv shahri egallandi. Ingliz rasmiylaridan biri Lord Kurzon shunday degan edi: “Marv shahri Hirot uchun kalit, Hirot esa Qandahor uchun, Qandahor esa Hindiston kalitidir. Rossiya Marvni egallab turibdi. Agar u Britaniya bilan urushni istasa, Hirotga kiradi. Rossiya Marvni egallash orqali unga egalik qilishni emas, balki, Saraxs (Eron) va Panjob (Hindiston) ga yahshi pozitsiyaga ega bo‘lishni ko‘zlamoqda³⁷”.

1885-yilda Rus-Ingliz dushmanligi eng kuchli pallaga keldi va o‘sha yil “Afg‘on Inqirozi” deb nom oldi. General Aleksandr Komarov Rus armiyasini Marv tomonga boshlab bordi va Panjde tomonga yaqinlashib bordi. O‘z navbatida Britaniya tomoni Afg‘on Amiridan ruslarni janubdan quvib chiqarishni talab qildi. Rossiya agarda Fors ko‘rfazi yoki Arabiston dengizigacha yetib bora olsa Hind okeaniga chiqish imkonini qo‘lga kiritar va savdoda katta imkoniyatlarga ega bo‘lar edi. Bundan tashqari Rossiyaning geografik jihatdan zabt etgan yerlari dunyo xaritasida joylashgan eng ulkan qit‘a Osiyoni Yevropadan ajratib qo‘yish imkonini berib, Sharq va G‘arbning quruqlikdagi savdosi faqat Rossiya istagiga qarab belgilanar edi³⁸.

1885-yilning 18-mart kuni bo‘lib o‘tgan “Ko‘shk jangi³⁹” dan so‘ng ikki tomon o‘rtasida muzokaralar boshlandi. 1889-yilda Rus vakili B.L. Grombchevskiy va Britaniya vakili Frensis Yanghusband o‘rtasida o‘zaro chegaralar belgilab olindi⁴⁰.

Yevropadagi boshqa bir davlat Germaniyaning Britaniya, Fransiya va Rossiyaga mustamlaka borasidagi da‘vosi rus bosqinining yanada janubga siljishiga xalal bergan. Germaniyaga qarshi birlashish zaruriyatga aylangach, endi dushman tomonlar kelishuv yo‘lini qidira boshlashgan. 1869-1870 yillarda Rossiya

³⁵ Кубанов К. Г. Проекты Российских военных экспедиций в Индию в XIX века .: Причины и цели. Томского Государственного Университета. 2006. – С. 1.

³⁶ www.wikipedia.org/katta_Oyin.html

³⁷ George Nathaniel Curzon, Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question. London: Frank Cass and Company Limited, 1967. – P. 120-121.

³⁸ Marvin Charles. Russia’s Power of attacking India. Lodon. W.H.Allen Co.1886. – P. 22.

³⁹ Тареев Б.Л. Русские над Индией. Очерки и рассказы из боевой жизни на памире. – М.: Воениздат. 1900. – С. 5.

⁴⁰ Seymour Becker. Russia’s protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva,1865-1924. Routledge Curzon. New York. 2004. – P. 123.

imperiya Tashqi ishlar vazirligi Angliya bilan Afg‘oniston va O‘rta Osiyodagi chegaralarni belgilash to‘g‘risida muzokaralar olib bordi. Natijada chegaralar Amudaryo bo‘ylab Panj tumanidan o‘tkazilishiga kelishildi. 1885-1887 yildagi muzokaralar natijasida chegaralarni belgilash bo‘yicha ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilashni nixoyasiga yetkazdi. 1907-yilda esa Angliya va Rossiya o‘rtasidagi Antanta shartnomasi imzolangan Rossiya Hindistonga da’vosidan voz kechgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. An Indian Officer. Russia’s march towards India. London. Sampson Low. 1894. – P. 8.
2. Toshtemirov O‘A. Qo‘ng‘irot inoqlari hukumronligi davrida Xiva xonligining ichki va tashqi siyosati. Toshkent. TDPU. 2014. – B. 45
3. Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – P. 46-51.
4. Boulger Ch.D. England and Russia in Central Asia. W. H. Allen. London. 1879. Volume II. – P. 375.
5. Yetisgin Memet. How the Times of London covered and interpreted Russian expansion into Central Asia in The second half of the nineteenth century. A dissertation in history. Texas. 2000. – P. 73.
6. Mac Gahan. J.A. Campaigning on the Oxus and fall of Khiva. London. Sampson Low, Maeston, Searle, & Rivington. 1876. – P. 424.
7. Кубанов К. Г. Проекты Российских военных экспедиций в Индию в XIX века.: Причины и цели. Томского Государственного Университета. 2006. – С. 1.
8. George Nathaniel Curzon, Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question. London: Frank Cass and Company Limited, 1967. – P. 120-121.
9. Marvin Charles. Russia’s Power of attacking India. London. W.H.Allen Co.1886. – P. 22.
10. Тареев Б.Л. Русские над Индией. Очерки и рассказы из боевой жизни на памире. – М.: Воениздат. 1900. – С. 5.
11. Seymour Becker. Russia’s protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva,1865-1924. Routledge Curzon. New York. 2004. – P. 123.
12. <https://cbkwgl.wordpress.com/tag/franco-russian-invasion-of-india>
413. www.wikipedia.org/katta_o‘yin.html

⁴¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. “Sharq”, 1998-yil, 9-bet

IJTIMOIIY JARAYONLARDA XORIJDA TAHSIL OLGAN JADIDLAR AHAMIYATI

Olimova Ra'noxon Rasuljon qizi

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Tel: 93 938-70-47

E-mail: mirjalolrustamaliyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari haqida tadqiqot olib borilgan.

Kalit so'zlar: Ovrupo, jiyda xaltalar, maorifparvar, Tarbiyai atfol, teatr truppasi, spektakl, Dorilu ojizin, milliy muxtoriyat va jumhuriyat.

СТУДЕНТЫ ЗА РУБЕЖОМ В СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ ЗНАЧЕНИЕ

Олимова Ранахан Расулжоновна

научный сотрудник Наманганского государственного университета

Телефон: 93 938-70-47

Электронная почта: mirjalolrustamaliyev@gmail.com

Аннотация: В данной статье интеллигенция Туркестана, страны, впавшей в состояние политического, культурного и экономического кризиса в конце XIX - начале XX века, с низким уровнем развития из-за колониализма, пытались избавиться от колониальной тирании царской России, создать собственную национальную государственность, экономическую и проводились исследования по открытию пути к культурному развитию и принятию мер по распределению благ среди народа.

Ключевые слова: Европа, рюкзаки, педагог, Тарбияй атфол, театральная труппа, спектакль, Дорилу Оджизин, национальная автономия и республика.

STUDENTS ABROAD IN SOCIAL PROCESSES SIGNIFICANCE

Olimova Ranakhan Rasuljonovna

Researcher of Namangan State University

Phone: 93 938-70-47

E-mail: mirjalolrustamaliyev@gmail.com

Abstract: *In this article, the intellectuals of Turkestan, in a country that fell into a state of political, cultural, and economic crisis at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, with a low level of development due to colonialism, tried to get rid of the colonial tyranny of Tsarist Russia, establish their own national statehood, economic and a study was conducted on opening the way to cultural development and taking measures to distribute the goods to the people.*

Key words: *Europe, backpacks, educationalist, Tarbiyai atfol, theater troupe, performance, Dorilu Ojizin, national autonomy and republic.*

Ovrupoda Turkiston o'quvchilari. So'nggi kunlarda yurtni idora qilarliq siyosiy, ilmiy, fanniy muqtadir kuchlarimizning yo'qlig'i ochiq va qattig' sezildi.

Zamonimiz Turkistondan o'zi-ni o'zi idora qila olaturg'on ustolar talab qila boshladi. Mana shul hollarni ko'rgan Turkiston yoshlari borliq hayotimiz, najotimiz maorifda, maorif ham Ovrupoda ekanligini bilib, Ovrupo sari og'ila boshladilar. Natijada, Kavkaz Bokuda 50 ga ortiq, Maskov Peterburg'da 150 ga dan ortiq, Berlinda 70 dan ortiq, butun Ovrupoda borlig'i 270 ga yaqin Turkiston o'quvchilarni ko'ramiz.

Bu ko'rinish har holda Turkistonning kelgusini porloq, tarixining jonliq ekanligini bildiradir. Unday bo'lsada bir oz umid bog'latadi. Biroq, hayhotki bu sonlar boshqalarg'a qaraganda yo'q darajasidadir.

Yaqinda Berlinda o'quvchi bir o'rtog'imizdan kelgan xatda faqat Germaniyada o'quvchi boshqa mamlakat bolalarini quyidagicha ko'rsatadir ki biz o'z sonimizg'a qarab uyalsoq, qizorsoq bo'ladir. Ruslar 10000, yaponlar 4000, usmonli turklari 2000, misrlilar 300, hindistonliklar 500, arablar 200, eronliklar 500, afg'onlar 500, butun Turkistondan 70 talaba ilm oladi.

Turkiston o'quvchilarining ko'pini Buxoro ta'min etadir. Maskovdagi hisobsiz oliy, o'rta maktablarda o'quvchi shogirdlar orasida turkistonlilar dengizdan bir tomchi qabilidadir. Bular hammasi boshqa millatlarning shogirdlari bilan to'liq.

O'tgan yil Turkiston o'quvchilari Maskovda yolg'iz 10 ta bo'lg'onlari holda, bu yil Peterburg', Maskov o'quv yurtlarida 100 kishilik stipendiya ochilib, yaxshig'ina ta'min etilganlar.

Chetda o'quvchi bolalarini yo'qlab turg'on boshqa millatlar kabi bizning Turkiston ziyolilari, maorifparvarlari ham o'zlarining "jiyda xaltalari" bilan

chetdagi o'quvchilarini yo'qlasalar, yordam etsalar yaxshi bo'lur edi. yurti, elidan uzoq turg'on o'quvchilar Turkistondan shuni kutalar. Shunday bo'lsa, istipentiyasiz turg'on yuzlab o'quvchilarimizga bir oz madad bo'lur edi. Yurtidagi kamchiliklarni ko'rib, yuragi achinaturg'on yoshlarimizning kundan-kun, yildan-yilga ko'payishi lozimdir (Shokir Sulaymon Turkiston. 1923-yil 1-yanvar)[1].

O'lka o'zbek bilim yurti esda tutilsin! Har bir tushungan kishining qulog'ig'a o'zbek bilim yurti nomi eshitilganda o'zida bir shodliq hissi uyg'onishi tabiiydir. Lekin, bu shodliq hissining uyg'onishi o'zbek uchun va o'zbekning ilmiy iste'dodgohi bo'lg'on o'zbek bilim yurti uchun foydaliq natijani bera olmaydir.

O'zbek bilim yurtining davom va baqosi uchun quruq his uyg'onishigina kifoya qilmasdan uyg'ong'on hisning ta'siri bilan o'zbek bilim yurtiga moddiy va ma'naviy ko'mak berish bilangina millatning ehtiyojig'a foydaliq javob berish mumkindir. Bo'lmasa quruq his, uyg'ong'on yerida qotib qola beradir. O'zbek bilim yurti ochilg'on yilidan ko'ra bo'lur o'z boshidan g'oyat og'ir kunlarni kechirdi. Maktab ma'naviy quvvat bilan ta'min qilinmag'oni kabi moddiy quvvatida juda zaif va bo'shdir. Bultur o'lkaning har tomonidan kelgan o'quvchilar ming qiyinliq bilan qishdan chiqqanlarida, oldilaridan imtihon kelib chiqishi ularning qaytadan o'z joylariga qaytishlariga bois bo'lib, o'qushlar to'xtag'on edi. Endi bo'lsa, o'qish mavsumida bir tomondan ochliq, ikkinchi tomondan ba'zi o'quvchilarning kasalligi, o'quvchilarning ruhini sindirib bu yilgi o'qish mavsumining qiyinliq bilan o'tishiga komilan ishontirmoqdadir.

O'quvchilarning turmushida hozirgi qiyin hollar mushohada qiling'on bir holda qishqi holimizg'a voy deyishga to'g'ri keladir. O'zbek bilim yurtining tevaragidagi bilim yurtlarining holiga kelsak, bizning bilim yurtining holidan busbutun bo'lakchadir.

Ular moddiy yoqdan qancha ta'min qilingan bo'lsalar, ma'naviy tomondan ham juda qanoatlanarlkdirlar. Biz o'qig'uvchilarning birgina tilagi bor: butun o'zbek mas'ul ishchilari o'zbek bilim yurti degan bir ilm manbai borlig'in va bu manbadan foydalanish uchun bilim yurtining moddiy va ma'naviy yoqdan boy bo'lishi lozimlig'in ko'zda tutib, o'zbek bilim yurtini har soat, balki har minut esda tutub turishlari lozimdur (Talaba Turkiston. 1922 yil 24 sentabr)[2].

Har qanday harakatda bo'lgani kabi bu harakat ham o'z iqtisodiy asosiga ega. Aks holda u, bu darajada rivojlanmagan bo'lur edi. Uning iqtisodiy ta'minot manbaini madaniy-ma'rifiy xayriya jamiyatlari, boy-badavlat kishilar tomonidan savob olish va millat nufuzini ko'tarish uchun berilgan beminnat ehsonlar tashkil etdi. Jadidchilik va jadidlar asosan o'rta hol musulmon ziyolilari hamda dunyo ko'rgan ilg'or ruhdagi savdogardan iborat bo'ldi. Toshkentlik Saidkarim

Saidazimboy o‘g‘li, turkistonlik Saidnosir Mirjalilov (taniqli yozuvchi Oybekning qaynotasi), andijonlik Mirkomil Mirmo‘minboev va boshqa boylar jadidchilik harakati rivojlanishiga katta iqtisodiy hissa qo‘shdilar[3].

Jadidlar har xil xayriya jamg‘armalarini tashkil etish, boy va badavlat kishilarning ortiqcha mabla g‘larini millat va Vatan manfaati yo‘lida sarflashga ham katta e‘tibor berdilar.

Toshkentda 1909 yilda “Ko‘mak”, 1913 yilda “Dorilu ojizin” Buxoroda 1910 yilda “Tarbiyai atfol” xayriya jamiyatlari tashkil etiladi. Ularning oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad sarmoya topib, jadid maktablariga yordam berish va iqtidorli yoshlarni Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborishdan iborat bo‘ldi.

“Ko‘mak”ning ta‘sischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Xasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo‘jaev va Toshxo‘ja Tuyuqboevlar bo‘ldi. Bu va “Tarbiyai atfol”ning yordamida 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta turkistonlik iqtidorlik yoshlar Istanbulda o‘qiganligi haqida ma‘lumot bor[4].

Jamiyat o‘z a‘zolaridan tushadigan puldan tashqari har xil ishbilarmonlik yo‘llari bilan ham pul topadi. Masalan, gramofon jamiyati bilan kelishib, bir necha xalq hofizlari va o‘z tarbiyasidagi maktab bolalarining ashulalarini gramplastinkalarga yozdirib, sotish bilan, ularning har biridan o‘n tiyindan foyda oladi. 1913-yilda qo‘yilgan birgina spektakldan 600 so‘mga yaqin, Ramazon bayrami kuni “Tomosha kechasi” tashkil qilib esa, 1087 so‘m 17 tiyin foyda olinadi.

Musulmon jamiyati “Ko‘mak” ustavida kambag‘al o‘quvchi va yetim bolalar, qari va nogiron musulmonlarga ma‘naviy hamda moddiy yordam berish, ularga boshpana, oshxona, kasalxona va ambulatoriya ochish, shuningdek, maktab o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun nafaqa (stipendiya)lar ta‘sis etish ko‘rsatilgan edi.

Toshkentda Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar 1911-yilda tashkil etgan ko‘p tarmoqli “Turon” nomli jamiyat sovet hokimiyatining dastlabki yillarigacha samarali faoliyat yuritadi. Uning qoshida teatr truppasi (1913-y.), “Turon” nomli kutubxona va nashriyot (1913-y.) ham tashkil etiladi. Bular butun Turkiston bo‘ylab ma‘rifat va ziyo, ilm-fan tarqalishi, kitob chop etish va bosmaxona ishlari rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o‘z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqloлга ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g‘oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni tar g‘ibot qilishni to‘ g‘ri yo‘lga qo‘yadilar.

Ilm-ma'rifatni yanada keng yoyish maqsadida jadid maktablari ochila boshlaydi.

Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiya hamda ilm o'zaro uy g'unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o'tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy – dunyoviy ilmlarini o'rgandi. Jadid maktablarida Qur'oni Karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o'qitila boshlandi.

Jadid maktablari to'rt (boshlang'ich) va yetti yillik edi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan holda jadid maktabida o'qituvchi, maschitlarda imom bo'lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o'quv yurtlarida o'qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo'lib ishlash malakasiga ega bo'lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo'qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi.

Jadid maktablari pullik edi. Har oyiga ota-onalar baholi qudrat, ellik tiyindan bir yarim so'mgacha pul to'ladi. Bu o'rinda har ota-ona o'zlarining boylik va kamba g'allik darajalarini shariat asosida belgilab pul beradilar. 35 foizgacha kamba g'al va nochorlarning bolalari tekin o'qitildi. O'ziga to'q oilalar esa o'z hohishi bilan uch so'mdan va undan ham ko'p pul bergan. Bulardan tashqari jadidlarning o'zlari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mabla g' bilan ta'minlab turgan.

Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro' qozondilar. Jadid maktablari qat'iy nizom va dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etdilar. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirganlar. Jadid maktablari ochilishi bilan ba'zi joylarda qadim maktablari bo'shab qoldilar. Natijada qadim va jadid maktabdorlari o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo'ldi. Bunga mutaassib qozi mulla va ulamolar ham qo'shildilar.

Jadidchilikning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda zamonaviy (yevropacha) oliy ta'limni yo'lga qo'yish bo'ldi. Universitet tashkil etish g'oyasi Turkistonda ilk bor 1892-yilda Ismoilbek Gaspirali tomonidan olg'a surildi[5].

Jadidlar oliy ta'limning asosi-universitet tashkil etish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar. Munavvarqori, Fitrat, M.Behbudiy, U.Asadullaxo'jaev va boshqa jadidlar milliy dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini o'z asar

va maqolalarida keng tar g‘ibot-tashviqot qiladilar. Oliy ta’limga zamin yaratish uchun, jadid maktablarida dunyoviy ilmlar o‘qitildi, xorijga yoshlar o‘qishga yuborildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. An’analar, din va ayollarning ijtimoiy maqomi. // O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining ahvoli to‘g‘risda ma’ruza. – T.: Gender va rivojlanish, RBEC // Undz. 1999.
2. Ирзаев Б. Туркистон жадиждларининг «Ко‘мак» ташкилоти - Тошкент : Тошкент ислом университети, 2016. – Б. 37-40.
3. Baldauf I. XX asr o‘zbek adabiyotiga qarashlar. // Mas’ul muharir: N.Karimov. T.: Ma’naviyat. 2001. – 12 b.
4. Rasulov A., Isoqboyev A., Nasretdinova D. Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida tatarlar. T.: Turon-iqbol. 2019. B. 34.
5. Qozoqov T. Namanganlik jadidlar muallima Habibaxon aya (Birinchi maqola). // Namangan sadosi. 2024 7-mart. №5.

TARIXNI ANGLASH - MUSTAHKAM KELAJAK POYDEVORI

G'ofirjonova Muslima

*Namangan davlat chet tillari instituti,
Jahon tillari fakulteti talabasi
e-mail: gofirjonvamuslima@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temur va Temuriylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan olib borilgan islohotlar, shuningdek uch-xonlik davridagi madaniy hayot va Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining asosiy sabablari batafsil yoritib o'tiladi.

Annotation: In this article, socio-economic and cultural reforms during the period of Timur and Timurids, as well as the cultural life during the three khanates and the main reasons for the occupation by the Russian Empire are explained in detail.

Аннотация: В данной статье подробно освещены социально-экономические и культурные реформы в период Тимура и Тимуридов, а также культурная жизнь в период трех ханств и основные причины оккупации Российской империей.

Kalit so'zlar: Siymolar, musiqa san'ati, tasviriy san'at, xattotlik, adabiyot, sivilizatsiya, tarixshunoslik, madrasa, me'morchilik, teatr, mulkchilik, sanoat, jahon bozori, ichki bozor, yer egasi, kutubxona, rasadxona va hokazo.

Key words: figures, music art, fine art, calligraphy, literature, civilization, history, madrasa, architecture, theater, property, industry, world market, domestic market, landowner, agriculture, library, observatory, etc.

Ключевые слова: деятели, музыкальное искусство, изобразительное искусство, каллиграфия, литература, цивилизация, история, медресе, архитектура, театр, собственность, промышленность, мировой рынок, внутренний рынок, землевладелец, сельское хозяйство, библиотека, обсерватория и т. д.

Tarix bizni o'tmishdan kelajakka eltadigan asosiy yo'l hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, tarixchi mutaxassislarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi "Nega jahonga Ahmad Farg'oni, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulugbek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi 3 asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi, ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay Chor Rossiyasining o'lkamizni nisbatan oson zabt etilishida mana shu qoloqlikni ham o'rni

bo'lmaganmikan"⁴². Xususan shuni aytishimiz joizki, bu qoloqlikni tub ildizlari, sabablari bordi. Agar Temuriylar davri va 3 xonlik davri tarixiga nazar tashlasak, ular o'rtasida madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ulkan farqini his etamiz. Darhaqiqat, XVI-XIX asrlarda yurtimiz fan, madaniyat taraqqiyotida bir necha yutuqlarga erishdi.

Ammo bu davr mobaynida yakdillik, birdamlik bo'lmagan. O'zbekiston respublikasi Birinchi Prezidenti "Tafakkur" jurnali muxbiri bilan qilgan suhbatda shunday g'oyani ilgari surgan edi: "siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham, fanda ham vacuum-bo'liq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ya'ni agar o'z g'oyang bo'lmasa, sening yurtingda chet g'oya kelib hukmronlik qiladi"⁴³ Agar tahlil qiladigan bo'lsak bu davrda 3 ta xonlik o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtining bir parcha yerini talashib-tortishib yotgan bir paytda jahon sivilizatsiyasida boshqa davlatlar ulkan yutuqlarga erishayotgan edi. Buni biz Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, bu mamlakatlardagi amaldorlar o'z manfaatlarini ko'zlab yashashlari, o'z xalqini o'ylamasliklari, harbiy nochorlik Chor Rossiyasini bosib olishga qulaylik tug'dirardi.

Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek Hoji tilidan quyidagi alamli so'zlarni bayon qilgan edi: "Ittifoq nima ekanligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb-ichgan mansabparast va shuxratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmasdan turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holatda ketadigan, bir-birimizning tagimizga suv qo'yadigan bo'lsak, yaqindirki, podsho istibodi Turkistonimizni egallar"⁴⁴

Bu holatni Amir Temurdan keyingi vorislarida ham kuzatishimiz mumkin. Uning vafotidan so'ng, hududlar, mulklar bo'lindi va aka-ukalar o'rtasida o'zaro urush, nizo va parokandalik avj oldi, Temuriylar saltanati butunlay yemirildi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan Shayboniylar Movarounnahrda o'z hukmronligini o'rantishdi. Bu holatv uch xonlik davrida yana takrorlandi. Buning asosiy sababi bu o'lkani boshqarib turgan shaxsga bog'liqdir.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" kitobining hukmdorlarga bag'ishlangan "Salotin bobida" nomli 3-maqoratida shoxga qarata: "Raiyat(xalq) poda bo'lsa, sen cho'ponsan, u mevali daraxt bo'lsa, sen-bog'bon, agar cho'pon qo'ylarini asramasa, ular och bo'rilarga yem bo'ladi. Podani bo'rilardan asrab, bog'ni suv berib yashnatgan, deydi". Hukmdor kim bo'lmasin, mamlakat va xalqning taqdiri uning faoliyati, xatti-harakatiga bog'liq.⁴⁵

Temur va Temuriylar davrida ma'naviy madaniyat, ilm-fan yuksak darajada gullab-yashnagan.

⁴² O'zbekiston tarixi. Q.Ergashev, H.Hamidov. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2015. 26-bet

⁴³ O'zbekiston tarixi. U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. 4 nashr 2019, 152-bet

⁴⁴ 9-sinf adabiyoti. Q.Yo'ldashev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov 3 nashr "Temuryo'l poligraf servis" Toshkent 2014, 63-bet.

⁴⁵ Vatan tarixi 1-kitob R.Shamsutdinov (Shodi Karimov) 2-nashr "Sharq" 438-bet

Taniqli filolog olim Ochil Tog‘ayev « Oltin daraxt » maqolasida « O‘rta Osiyoda madrasa ta’limi X -asrlarda paydo bo‘lgan , ammo uning haqiqiy mukammal rivoji Amir Temur davriga to‘g‘ri keladi. Ba’zi manbalarda uni Sharqda oliy ta’lim asoschisi deb ataydilar. Amir Temurning harbiy , nazariy va amaliyot sohasidagi kashfiyotlarning o‘zi dorilfunundir» , deb ta’kidlaydi ⁴⁶ Temuriylar davrida ilm-fan , adabiyot , ma’naviy madaniyatning bu darajada barq urib rivojlanganining sababi nimada ekan ? Buning sababi Amir Temur o‘qimishli , savodxon va ma’rifatparvar inson bo‘lgan. Uning o‘zi ham ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli savodli ,ma’rifatparvar insonlarga, olim-u ulamolarga alohida e’tibor berib, hurmat qilgan. Xalqning madaniy va ma’naviy kamolotida ilm-fan va ma’rifatning ahamiyatini qadrlagani bois, ularning o‘sib - rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan. Bu xususida «Temur tuzuklari» da quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin: «Yettinchisi -sayyidlar , ulamo- yu mashoyih, oqil- u donolar , muhaddislar, xabarchilar (tarixchilar) ni tanlagan e’tiborli odamlar hisoblab, izzat -u hurmatlarini joyiga qo‘ydim»

Temuriylar davrida ayniqsa falakiyotshunoslik fani yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda Ulug‘bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar ijodining kamolot cho‘qqisiga erishganini alohida ta’kidlash joiz. Ayniqsa Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining tengi yo‘q inshootlaridan biri bo‘lgan . Bu rasadxona slindr shaklida bo‘lib, uch ashyonli qilib qurilgan. Uning aylanasi 47, balandligi esa 31 metrda edi. Rasadxona qurilishiga Ulug‘bekning shaxsan o‘zi, u yo‘q paytlarda bo‘lsa Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar boshchilik qilib, yurgizishgan. Ulug‘bek Samarqanda birinchi akademiyaga asos soldi. Yer kurrasini o‘lchashni buyurib, falakiyotshunoslik jadvallarini tuzishda ishtirok etadi. Darhaqiqat, Temur va Temuriylar davrida ilm-fanning barcha sohalari gurkirab o‘sdı. Har bir sohada bir qator buyuk olimlar yetishib chiqdi. Ular musiqa san’ati, tasviriy san’at xattotlik san’ati, tarixshunoslik, madrasa, me’morchilik, teatr va boshqalarda ulkan yutuqlarga erishib, jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shdilar. Shuni aytishimiz kerakki, albatta, Amir Temur davrida ijodkor uchun yaratilgan bunday sharoit, g‘amxo‘rlik tufayli Movourunahr poytaxti bo‘lgan Samarqand dunyoning ma’rifat markazlaridan biriga aylanadi. Buni eshitgan ilmga ixlosmand ijodkorlar o‘z ixtiyori va tashabbuslari bilan ma’rifat markazi Samarqandga kela boshlashgan. Amir Temurning tarixga bo‘lgan katta hurmati va e’tiqodi sababli, Turon zaminida tarixshunoslik fanining buyuk nomoyondalari yetishib chiqqan. Hozirgacha yetib kelgan fors tilida yozilgan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» , Ibn Arabshohning arab tilida yozilgan «Ajoyib al -mavdur fi tarixi Taymur» asari , Hofizi Abro‘ning «Zubdat at- tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» , Xondamirning « Habib us-siyar » asarlari bunga yaqqol misol bola oladi .Tilshunoslik va badiiy ijod ham bundan mustasno emasdir. Xususan Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy,

⁴⁶ Vatan tarixi 1-kitob. R.Shamsutdinov (Shodi Karimov) "Sharq" 2-nashr Toshkent -2010 481-482- betla

Koshifiy, Atoulllo Husayniy va boshqalar yuksaklik martabasini zabt etgan insonlardir.

Ayniqsa nafis kitob va xattotlik san'ati Temur va temuriylar vaqtidagi tarixni ochib beruvchi bir ko'zgu hisoblanadi. Manbalardan shuni bilishimiz mumkinki, uzoq o'tmishda kitoblar qo'lda ko'chirilgan. Ular nafaqat mazmuman balki tashqi ko'rinishi va bezagi jihatidan hamda kitobxonlarning talab-ehtiyojlari va didiga javob berishi shuningdek ma'naviy-estetik dunyoqarashni shakllantirishiga xizmat qilishi lozim edi. Uni yaratish jarayonida qog'oz kesuvchi xattot (kalligraf), musavvir, lavvoh (lavha chizuvchi), sahhof (muqovachi) ishtirok etgan. Otabobolarimiz tomonidan yaratilgan nafis kitoblar Samarqand, Buxoro qog'ozlarining dovrug'ini olamga doston qilgan. XIV - XVI - asrlarda nafis kitob va xattotlik san'atining ulug' nomoyondalari yetishib chiqqan. Jumladan Mir Ali Tabriziy, Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqalam, Shoh Muzaffar, Behzod, Mirak Naqqosh, Rafiqiy, Halvoiy, Sulton Ali Handon va boshqalar.

Temuriylar sulolasining eng ulkan muvaffaqiyatlaridan biri XIV - XVI asrlarda tasviriy san'atning gurkirab rivojlanganidir. Bahzod, Mirak Naqqosh, Xo'ja Muhammad Naqqosh, Qosim Ali, Maqsud Muzahhib va boshqa tasviriy san'at nomoyondalari barakali ijod qilganlar. Ularning go'zal va nafis bo'lgan bu asarlarida o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, rasm-portretlarida haqiqiy hayot voqeligi o'z aksini topgan.

Temur va temuriylar davrida madaniyatning yuksak pog'onasiga erishgan sohalardan biri bu musiqa san'atidir.» Buyuk Sohibqiron Amir Temur haqidagi manbalarda va xalq rivoyatlarida uning musiqa san'atiga juda katta e'tibor bilan qaraganligi, turli mamlakatlardan poytaxti Samarqandga ko'plab san'at shinavadalarini to'plab, bazmi jamshid davralarini musiqa va qo'shiq ixlosmandlari bilan qurganligi hikoya qilinadi.» Bu davrda musiqa san'atining rivoj topganligini shu narsadan ham bilsa bo'ladiki Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida xalq qo'shiqchiligining 8 turi bo'lganligini yozadi. Bu - tuyuq, changi, turkiy, orzuvoriy (yoki oruzvoriy), muhabbatnoma, mustazod va boshqalardir. X - XII asrlarda vujudga kela boshlagan musiqa san'atining yangi 12 maqom turi bu davrga kelib yuksak bosqichga ko'tarildi, yangi kuylar bilan boyidi. O'n ikki maqom ko'pgina kuylar birikmasidan tashlik topgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Rost, Isfaxon, Iroq, Zirafkan, Buzruk, Hijoz, Busluk, Ushshoq, Xusayniy, Zangula, Navo, Rahoviy. Bu maqomlarning har biri ikki shuba (qism) dan iborat bo'lib, jami 24 shubani tashkil etadi: Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Muxayyar, Hisor, Muboraki, Nayrez, Nishopurak, Royi Iroq, Mag'lub, Rakb, Bayot, Zabul, Avj, Navro'zi Xora, Ma'mur, Ashiron, Navro'zi Sabo, Xumoyun, Nuhuft, G'azal, Arabon va Ajam. Xalq o'rtasida «Shashmaqom» (olti maqom) nomi bilan kuylanib kelinayotgan musiqa asarlari yuqorida sanab keltirilgan o'n ikki maqom zahirida shakllangandir.⁴⁷

⁴⁷ Vatan tarixi. R.Shamsutdinov, (Sh.Karimov) 2-kitob, 2-nashr "Sharq" Toshkent -2019

Temur va temuriylar davrida qurilish ishlari, me'morchilik misli ko'rilmagan darajada o'sdi va rivojlandi. Bu davrda Samarqand, Toshkent, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi Turkistonda, Xurosonning markazi Hirot, Mashhad, Nishopur, Kobul va boshqa shaharlarda buyuk yaratuvchilik ishlari olib borilgan. Sohibqironning buyrug'iga asosan 1365-yilda Qarshi, 1370-yilda Samarqand, 1380-yilda Kesh shaharlari atrofida mudofaa devorlari barpo etiladi. Bu bunyodkorlik ishlariga Turkistonda Ahmad Yassaviyga atab qurilgan maqbara, madrasa, Oqsaroy, Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, Bibixonim masjidi (Saroymulkxonim), Go'ri Amir maqbarasi va boshqalar diqqatga sozovordir.

Ayni damda ma'lum bir manbalardan shuni bilishim mumkinki, 3xonlik davri (Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, Xiva xonligi) dam ham madaniy-ma'rifiy o'sish bo'lgan. XVII-XIX asrlarda xo'jalik tushkunlikka tushib borayotgan va aholi turmushi tobora qiyinlashayotgan bo'lsada, me'morchilik va san'at ishlarida bir qator ibratli ishlarning amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Bu davrda qurilgan ulkan va go'zal me'morchilik yodgorliklari hozirgi kunda ham kishining diqqat-e'tiborini jalb etadi. Masalan Buxoroda qurilgan ajoyib me'morchilik ansambli-Registonning kun botish tomonida 1712-yilda yaratilgan Bolohovuz masjidi o'sha davrning ulkan inshooti bo'lgan. Bundan tashqari Xazoraspdagi Rahmonqul inoq saroyi, Ko'rinishxona, Xivadagi Ichan qal'a va Dishan qal'a O'rta Osiyoning eng go'zal inshootlari hisoblanadi. Bunga qo'shimcha tarzda, teatr san'atida masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi tomosha ko'rinishlari keng tarqalgan. XVIII-XIX asrlarda Sayfulla Masxara, Zokir Masxara, Ergach Masxara kabi artistlar, «Rays», Sudxo'rning o'limi», «Ko'histonlik domla», «Murabboshi» singari asarlarni mohirlik bilan sahnada ijro etganlar.

XIX asrlarda qo'g'irchoq teatrining Shosolihi, G'afur Halfarang (Qo'qon), Orifjon qo'g'irchoqboz, Azim burun, Doniyor (Toshkent), Shomuhitdin Shoazimov, Tursunboy Abduljabborov (Marg'ilon), Siddiq Kalon, Jo'ra Qayroq, Hamro qog'irchoqboz (Samarqand) Zarif misgar, Sharif Sayyoh, Qori Hoji (Buxoro), Qilich (Shahrisabz) va boshqa shular singari ustalar bo'lgan.

Xonliklar hududida raqs san'atining Farg'ona, Xorazm va Tog'li usullari bo'lib oziga xos janr va turlarga bo'linadi.

Qo'qon xonligining markazi Qo'qon shahrida, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutibxonalar qurilgan. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo'llanib, shiftlarga bo'yoqli naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o'yib solish keng tarqalgan. Bu davrda uchala xonlikda ham inshoot qurilishi, hunarmandchilik san'atining turli yo'nalishlari rivoj topdi. Bundan tashqari yog'och va misga o'yib nozik naqshlar solish, sopol va chinini, yarog'-aslahalarni yasash va har xil uy-ro'zg'or buyumlari, matolar to'qish o'z rivojini topgan.⁴⁸

⁴⁸ O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. R.Shamsutdinov, P.Ravshonov, K.Usmonov, "Sharq" 2000. 52-53 - betlar

Bu madaniyat, ulkan yutuqlar, ilm-fan rivoji yuksak darajada o'sgan bo'lsada, bu muddat uzoqqa cho'zilmadi. Chor Rossiyasi bosib olgandan so'ng, boshqa mamlakatlardan rivojlanishda ortda qoldi. Agar bunga to'xtaladigan bo'lsak, asrlar davomida bir bo'lib kelgan mamlakatning yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalqning 3 ga bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar, har bir xonlik ichidagi boshboshdoqlik va hokimiyat uchun o'zaro tinimsiz davom etgan inchi nizo va urushlar shubhasiz butun mamlakatni vayron qiladi. Agar 3 ta xonlik birlashib yagona bir mamlakat bo'lishganida edi, xalqning ongiga birdamlik tushunchasini singdirishganida edi, hokimiyat tepasida turgan podshoh odil va adolatli bo'lsa edi va uning atrofida turgan amaldorlarni g'aflat uyqusi bosmaganida edi, xalq parokanda bo'lmas edi. Xususan bu paytda Yevropadagi mamlakatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi, zavod-fabrikalar qurilib, zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Odamlarning moddiy va ma'naviy turmush tarzi anchayin o'sdi. Yurtimizdagi ichki nizolar guruhbozlikni keltirib chiqaradi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir xalq bo'lib qovushishiga, jipslashishiga xalaqit berdi. Xullas bu qoloqlikning asosiy sabablari bor edi.

Birinchidan yagona xalq, yagona vatan tushunchasining qadri anglab olinadigan edi, Chor Rossiyasi bizning mamlakatimizda o'z hukmini o'tkazmagan bo'lardi.

Ikkinchidan asrlar davomida O'rta Osiyo davlat boshqaruvining tizimi, usuli o'zgarmadi, tor doirada fikrlaydigan hukmdorlar zulmi taraqqiyotga to'sqinlik qilaverdi. Boshqa tarafdin qaraganda O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida ichki iqtisodiy jihatdan yagona savdo birligi shakllanmadi. Hukmdorlar hammasi alohida-alohida tangalar zarb etdi. Ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy jihatdan yagona bo'lmagan bu xalqni chet ellik savdogarlar, xufiyalar sinchiklab o'rganib chiqishgach, bosib olishga qulay payt poylashdi.

Uchinchidan, O'rta Osiyo xonliklarida mulk shakllari va dehqonchilik shakllari asrlar mobaynida o'zgarmadi, yerga xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarishsiz qolaverdi. Xonliklarda oliy hukmdor yerning birdan bir egasi bo'lib, yer ishlovchilarga, dehqonlarga ijara tarzida xatlab biriktirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olinadigan hosilning egasi edi xolos. Shu sababli dehqon yerni asrab-avaylashga, uning unimdorligini oshirishga intilmadi. Hukmdor yeni foydalanish uchun mahalliy yer egalari va masjidlarga ulashardi.

To'rtinchidan, xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash davom etardi. O'rta Osiyo Jahon bozorlaridan ajralib qolgani ustiga, bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmadi.

Beshinchidan, XIX - asr ikkinchi yarmidan Vatan istiqboli uchun qayg'uradigan, odamlarni bir g'oya va bir ezgu maqsad yo'lida birlashtira oladigan yo'l boshchi sardor bo'lmadi. Buxoro amirligida ham Qo'qon va Xiva xonligida ham shunday arbob tarix sanasiga chiqmadi. Bosqinchilarga ko'ksini qalqon qilib ko'hna

Turon jangovor shavkatini namoyish qila oladigan va Turkistonni bir umumiy makon, uy deb bilgan yurtboshi topilmadi.⁴⁹

Tahlillardan shu ko‘rinib turibdiki, harbiy jihatdan siyosiy tanglik, madaniy qaloqlik, parokandalik, o‘zaro urush va nizolar natijasida O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. I.A Karimov T. «Sharq», 1998- yil . 30- bet
2. Vatan tarixi 1- kitob. R. Shamsutdinov (Shodi Karimov) 2- nashri. «Sharq» nashriyot-Matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent- 2010. 438-481-482-betlar.
3. Vatan tarixi 2- kitob. R. Shamsutdinov (Shodi Karimov) 2- nashri. «Sharq» nashriyot-Matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent 2010 145-146-betlar.
4. O‘zbekiston tarixi (Qo‘ldosh Ergashev, Hojiakbar Hamidov, G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2015 3-nashr 431-bet
5. O‘zbekiston tarixi (Usmon Jo‘rayev, Qamar Usmonov, Gulira‘no Jo‘rayeva, Naim Norqulov) Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4- nashr 2019. 152- bet.
6. O‘zbekiston Yangi tarixi. Birinchi kitob Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. (R. Shamsutdinov, P. Ravshanov, K. Usmonov) T.,»Sharq» 2000- yil 52-53-betlar.
7. 9- sinf adabiyot (Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov) Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3- nashri «Yangiyo‘l poligraf servis» Toshkent- 2014. 63-bet.

⁴⁹Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 3.

UCHINCHI SHO‘BA.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOIIY SIYOSAT

ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАР МЕҲНАТИ ВА МАЖБУРИЙ МЕҲНАТНИ ТУГАТИШ СИЁСАТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

Баҳром Джалолов

НамДУ эркин тадқиқотчиси

Изоҳ: Ушбу мақолада болалар меҳнати тугатиш ва мажбурий меҳнатга барҳам беришда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг олиб борган қатъий сиёсати ва бу борада олиб борган чоратadbирлари кўрсатиб берилиб, болалар меҳнатининг Ўзбекистон ҳаётида қолдирган салбий асоратлари ва пайдо бўлиши тарихи танқидий, таҳлил қилиб берилиб, совет мустамла-качилиги тузумининг болалар меҳнатидан фойдаланишдаги мудҳиш сиёсати очиб берилади.

Калит сўз ва иборалар: Болалар меҳнати, мажбурий меҳнат, Конституция, миллий мониторинг, парламент назорати, пахта яккаҳокимлиги сиёсати, таълим ва тарбия.

ПОЛИТИКА ИСКОРЕНЕНИЯ И ПРИНУДИТЕЛЬНОГО ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Баҳром Джалолов

Внештатный научный сотрудник НамГУ

Премечание: В данной статье показана жесткая политика Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева и принятые в этом отношении меры, критически проанализирована история негативных осложнений, остановленных детским трудом в жизни Узбекистана, история его появления, ужасная политика советской колониальной системы в использовании раскрыт детский труд

Ключевые слова и фразы: Детских труд, принудительный труд, Конституция, национальный мониторинг, парламентский контроль, политика хлопковой монополии, образование и обучение.

THE POLICY OF ENDING CHILD LABOR AND FORCED LABOR IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Bakhrom Djalolov
NamSU freelance researcher

Note: *In this article, The President of the Republic of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoev's strict policy and the measures taken in this regard are shown, the history of the negative complications left by child labor in the life of Uzbekistan and the history of its appearance are critically analyzed? And the terrible policy of the Soviet colonial system in the use of child labor is revealed*

Key words and phrases: *Child labor, Forced labor, Constitution, national monitoring, parliamentary control, cotton monopoly policy, education and training.*

Ўзбекистон тарихида Ш. М. Мирзиёевнинг Президент сифатида ўз фаолиятини бошлаши янги даврни бошлаб берди ва бу даврда халқимиз ижтимоий-иқтисодий ҳаёти-да катта тарихий бурилиш ясади. Президентимиз Ш. М. Мирзиёев раҳбарлигида жа-мийатимиз, давлатимиз олдида Янги Ўзбекистонни қуриш ва унинг амалга ошириш чора-тадбирлари ҳамда ҳаракатлар стратегияси ишлаб чиқилиб, босқичма-босқич, уни амалга ошириш тадбирлари белгилаб берилди.

Бунинг учун асосий эътибор, давлатимизнинг устивор вазифасига айланган, де-мократик ислохотларни чуқурлаштириш, инсон ҳуқуқлари ва эркинларини таъмин-лаш, фуқароларнинг фаровон яшашларини таъминлаб бериш, шунингдек, бу соҳада ўз ечимини кутиб ётган муаммоларни ҳал этиш керак эди.

Халқимиз тарихидан чуқур ўрин олган ва узоқ вақтлар давомида ечими кутилаёт-ган муаммоларидан бири, юртимизда мажбурий меҳнатни тугатиш ва болалар меҳна-тига барҳам беришдек масалага Президентимиз Ш. М. Мирзиёев фаол жамоатчилик-нинг диққатини қаратди.

Ҳолбуки, 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конс-титудиясининг 37-моддасида республикада мажбурий меҳнат тақиқланганлиги-нинг белгилаб қўйилганлиги [1. –Б 83], бироқ ушуб модданинг ижроси бўйича 25 йил давомида ҳеч қандай тадбир олиб борилмаганлигининг тарихнинг ўзи кўрсатиб берди.

Президентимиз фаолиятининг дастлабки йилларидаёқ, Конституциясининг 37-моддасида белгиланган қоидага қатъий амал қилиш учун бир қатор ишлар амалга ошириб, хусусан, таъсирчан парламент ва жамоатчилик назорат ўрнатилди ҳамда фуқароларнинг кафолатланган меҳнат ҳуқуқларини таъминлаш масалалари бўйича Парламент комиссияси

тузилиб, депутат ва сенаторлардан иборат ишчи гуруҳлар республикамизнинг барча ҳудудларига чиқиб, болалар меҳнати ва мажбурий меҳнатга йўл қўймаслик бўйича парламент назорати амалга оширилиши белгилаб қўйилди[2.-Б 21].

Болалар меҳнати ва мажбурий меҳнат сиёсати, Ўзбекистонда узоқ вақтлар даво-мида сақланиб қолинганлиги, аслида унинг келиб чиқиш илдизлари совет мустамлака-чилиги даврига бориб тақалиб, коммунистук тузумнинг республикада пахта яккаҳо-кимлигини ўрнатиш эҳтиёжларидан келиб чиққанлиги ҳеч кимга сир эмас албатта.

Республиканинг барча аҳоли қатламлари, жумладан, болалар ҳам пахта етиш-тириш манфаатларига бўйсундирилган бўлиб, Президент таъкидлаганидек, яқин-яқин-гача ҳар йили тахминан 6-7 миллион одам пахта етиштиришга мажбуран сафарбар этилар, юз йил давомида ўзбек халқи эгилиб, пахта теримига мажбур этилди, ҳатто мактаб болалари ҳам пахтага ҳайдалди[3.-Б 19].

Совет ҳукумати пахтага бўлган эҳтиёжларини қондириш мақсадида, Ўзбекистон-ни пахта етиштириб берувчи республикага айлантирди. Айниқса Иккинчи жаҳон уруши (1941-1945 йй.) ва урушдан кейинги йилларда пахтани кўпайтириш каби талаб-лар кучайиб бориб, оқибатда бу йўлда болаларни меҳнатидан фойдаланиш каби “ташаббус”лар рағбатлантирилиб борилди.

Жумладан, 1945 йилги матбуот саҳифаларида, болаларни пахта теримига даъват қилувчи тарғибот кампаниялари олиб борилди, хусусан “Болалар, пахта теримини тезлатишда ота-оналарингизга фаол ёрдам берингиз” дея бонг урилиб, Ўзбекистон раҳбарияти қарори билан 20 ноябрига қадар, республикадаги барча 4-8 синф ўқувчи-ларини пахта теримига сафарбар этиш кўрсатилган. Масалан, Наманган вилоятидан 10 мингдан ошиқ бола пахтага чиқиши белгилаб қўйилди. [4].

1945 йилда, Ўзбекистон халқи ишчи кучи етишмай, ўз болаларини пахта теримига жалб қилишга мажбур бўлган дея кўпчиликда фикр туғилиши мумкин, бироқ урушдан кейинги йилларда ҳам, совет ҳукумати болалар меҳнатидан фойдаланишни тўхтатмади.

Совет ҳукумати раҳбари И. Сталин мажбурий меҳнат сиёсатини қанчалик муҳим-лигини ва уни ҳар бир фуқаро мажбурияти эканлигини таъкидлаб, шундай дейди:;-“фақат бизда, Советлар мамлакатадагина меҳнаткаш киши ҳурматланади...Меҳнаткаш киши яхши ишлаб, жамиятга

кўлидан келган хизматини кўрсатса, меҳнат қаҳрамони бўлади, унинг шон-шуҳрати ортади”[5].

Сталиннинг юқоридаги фикрлари мустабид ҳокимиятнинг ифодаси бўлиб, бола-ларни меҳнатидан фойдаланиш йўлидаги мудҳиш сиёсатини оқлашга уринади. Гарчи Сталиндан кейинги раҳбарлар ҳам, болалар меҳнатидан унумли фойдаланиш масала-сида оғишмай амал қилишди.

Жумладан, 1954 йил 20 сентябрда СССР Министрлари Советининг “1954 йилги пахта ҳосилини териш ва тайёрлаш тўғрисида” қарори қабул қилиниб, унга кўра, жой-ларда 1954 йил 10 октябргача ўрта мактабларнинг 5, 6, 7, 8, 9 синф ўқувчиларини пахта теримига жалб қилиш ҳуқуқи берилиши, ўқувчиларни пахта теримига жалб қилиш масаласи юзасидан маҳаллий раҳбарларнинг “илтимос”ларини қатъият билан қараб чиқишлари ва фақат жуда зарур бўлиб қолгандагина ўқувчиларни пахта теришда ишлашга жалб қилишни жойларда рухсат этишлари белгилаб қўйилди[6. -Б 50].

Ушбу қарорда кўрсатилган “зарур бўлиб қолганда”гина эмас, зарур бўлмаган вақтларда ҳам, қарийиб 50 йил давомида ушбу қарор банди тўла тўкис ижроси таъ-минланди бу борада вилоят, туман ҳамда колхоз раислари ташаббускор бўлишди.

Баъзида болаларни манфаатларини ва ҳуқуқларини таъминлаш, уларни оғир меҳ-натлардан ҳимоялаш ҳақида ҳам совет ҳукумати томонидан тақлифлар бўлгани ҳам кузатиш мумкин. Хусусан, СССР Олий Совети Президиумининг 1956 йил 26 майида 16 ёшдан 18 ёшгача бўлган ўсмирларни меҳнат шароитини янада яхшилаш мақсадида мамлакат миқёсида 1956 йил 1 июлдан бошлаб, 16 ёшдан 18 ёшгача бўлган ишчи ва хизматчилар учун олти соатлик иш кунини белгилаш ҳақида фармони қабул қили-нади[7].

Бироқ Ўзбекистон шароитида бу фармонни ижросини таъминлаш қишлоқ жойларида имконсиз эди, пахта майдонларидаги ишлар, чопиқ, ягана, чеканка ва пахта теримида бирор-бир ўзбек боласи, бир кунда 6 соат ишлаб, дам олганини эслолмаса керак ва бунга маҳаллий раҳбарлар ҳам йўл беришмаган.

Йил давомида пахта майдонида ўқувчиларни ушлаб туриш таълим-тарбия сифа-тига ҳам ўз салбий таъсирини ўтказган, айниқса пахтага ишлов бериш ва ҳосилни йиғиб олишда йил давомида, болалар мактаб юзини кўришмади, Президент Ш. М. Мирзиёев таъкидлаганидек, “ўқитувчи бир ойда ўртача 80 сат дарс ўтадиган бўлса, 4 ой давомида 320 соат дарс

йўқотадиган вазият вужудга келганлиги, ўз навбатида ўқувчи бир ойда 136 соат сабоқ оладиган бўлса, 4 ойда 544 соат дарсни бой беришга мажбур бўлганлиги, бошқача айтганда, ўқувчиларимиз мактабда 11 йил ўрнига мажбу-рий меҳнат туфайли, атиги 7 йил ўқиганлиги”[8.-Б 74] таълим жараёнини ачинарли ҳолатга олиб келиб қўйганлигини кузатиш мумкин эди.

Совет мустамлакачилиги даврида республикамиздаги бундай ҳолатларга барҳам беришга уринган виждонли, маҳаллий раҳбарлар ҳам бўлганлиги, улар ҳатто ўз дав-рида болалар меҳнатидан воз кечишга таклифлар ҳам беришди. Масалан, 1984-1987 йилларда Наманган вилоятида раҳбарлик қилган Назир Ражабов жасорат кўрсатиб, мактаб ўқувчилари ва талабаларни пахта теримига жалб қилишни тўхтатди[9.-Б 46].

У бу сиёсатини қатъият билан олиб бордики, уни бу таклифига бефарқ қараган маҳаллий раҳбарлар жазоланди, хусусан, 1985 йил пахта йиғим-теримида, ўқувчи-ларни далага олиб чиқишга уринган Чуст тумани раҳбарини ишдан олиб ташлади [10.-Б 44].

Бироқ совет ҳукуматига бундай дадил, миллат шаъни ва обрўсини ўйлайдиган маҳаллий раҳбарлар ёқмас эди, Назир Ражабовнинг компартия розилигини олмай, амалга оширган бундай тадбирлари уни бир умрлик сиёсий фаолиятига якун ясади.

Республикада қўл меҳнати асосида йиғиб олинадиган пахтани йиғиб олишда пах-та териш машиналаридан унумли фойдаланиш ишларига алоҳида эътибор қаратил-мади. Қўлда териладиган пахта сифати яхши бўлганлиги учун маҳаллий раҳбарлар кўпроқ ишчи кучини пахта далаларига жалб қилишни маъқул кўришган.

Жумладан, 1984 йилда юртимизда 37 минг пахта териш машинасидан 17 мингтаси терим даврида фойдаланилмади. Аксинча, одамларни пахта теримига чиқариш йил-дан-йилга кўпайиб бориб, 1982 йилда 650 минг, 1983 йилда 850 минг, 1984 йилда 980 минг четдан пахта терими даврида қишлоқ хўжалиги ишига жалб қилинди[11.-Б 77].

Ўзбекистон ўз мустақиллигини эълон қилиб, ўзинин истиқлол ва тараққиёт йўли-ни қуришга киришди. Бу тараққиёт йўли халқимизнинг фаровон келажагини таъмин-ламоғи ва болаларимизни шоду-хуррамликда юришини кафолатламоғи керак эди.

Совет мустамлакачилигининг барча сиртмоқларидан халос бўлган Ўзбекистонга биргина оғир асорат, яъни мажбурий меҳнатни тугатиш ва

болалар меҳнатига барҳам бериш муаммоси амалиётда боши берк кўчага кириб қолди.

Фарзандлар ҳали ҳамон мажбурий меҳнат зуғумларидан халос бўлмаётган эди.

Юқорида таъкидлаганидек, Мустақил Ўзбекистон Республикаси Конституцияси-нинг 37-моддасида кўрсатилган мажбурий меҳнатни тақиқланганлиги ҳақидаги фикр қоғозда қолиб кетиб, коммунистик тузумдан мерос бўлиб қолган бу “оғир тош”ни йўлдан олиб ташлаш масаласи 25 йил давомида халқимизга юк бўлиб келаётган эди.

Президент Ш. М. Мирзиёев фаолиятининг илк давридаёқ бу “оғир тош”ни йўлдан олиб ташлашнинг уддасидан чиқди ҳамда юртимиз тарихининг саҳифаларида узоқ вақтлар давомида илдиз отиб, фарзандларимизни ўз домига тортиб турган, мажбурий меҳнатнинг барча шаклларига қарши, ўзининг стратегик ва қатъиятли сиёсати билан кураш олиб борди ва жаҳон ҳамжамияти олдида Ўзбекистоннинг юзини ёруғ қилди. Ўзбекистон фарзандларини ўқишга таълим-тарбияга етакловчи ўқитувчиларимиз-нинг жамиятдаги мавқеи оширила бошланди, жамиятдаги барча қатламлар ўз вазифа-сини аралашувларсиз, эркин ва холисона амалга ошира бошлади.

Янги Ўзбекистонни қуриш йўлида болалар келажаги ва тараққиёти учун, ҳеч қачон уларга мажбурий меҳнатнинг асоратлари соя солмаслиги учун, 2023 йилнинг 30 апрелида, халқимизнинг ҳоҳиш-иродасига кўра, Янги Конституция қабул қилиниб, унинг 44 моддасида “Болалар меҳнатининг боланинг соғлиғига, ҳафсизлигига, ахлоқига, ақлий ва жисмоний ривожланишига хавф солувчи, шу жумладан, унинг таълим олишига тўсқинлик қилувчи ҳар қандай шакллари тақиқланади”[12.-Б 18] деб белгилаб қўйилди.

Халқимиз тарихида бир асрдан бери оғриққа айланган бу муаммо яна қайта юзага келмаслиги учун, давлатимиз ва кенг жамоатчилик томонидан ҳуқуқий ва маънавий кафолат сифатида, Конституциясига зарҳал ҳарфлар билан ёзиб қўйилди ва том маънода, Ўзбекистоннинг энг янги тарихида содир бўлган бу оламшумул ютуқда Президент Ш. М. Мирзиёевнинг ўрни ва роли беқиёс бўлди, десак муболаға бўлмайди.

Манбалар ва адабиётлар/Источники ва литература/References:

1. Ўразаев. Ш. “Мустақил Ўзбекистон Конституцияси”. Тошкент.:“Адолат”. 1994.

2. Мирзиёев. Ш. “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир”. Танланган асарлар. 2-жилд. Тошкент.:Ўзбекистон. 2018.
3. “Янги Ўзбекистон:демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда”. Тошкент.:“Ўқитувчи”. 2021.
4. Сталин ҳақиқати. 1945 йил 2 ноябрь.
5. “Сталин ҳақиқати”. // 1947 йил 15 апрель
6. Наманган вилоят давлат архиви. 275 жамғарма. 1-рўйхат. 1007-иш
7. “Сталин ҳақиқати”. 1956 йил 30 май.
8. Мирзиёев. Ш. “Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик”. Тошкент.:
“Ўзбекистон”. 2023.
9. Шарипов. А. “Мен кўрган дунё”. Наманган.:2002.
10. Ражапов. Қ. “Назир Ражабов”. Тошкент.:“Бодомзор-Инвест”. 2021
11. Зокиров. А. Жўраев. А.“Фан-техника ва пахтачилик”. Тошкент.:“Меҳнат”.1987
12. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент.:Ўзбекистон. 2023.

NAMANGAN VILOYATIDA TARIXIY TURIZMNING RIVOJLANISH OMILLARI

Muzaffar Norinov,

Namangan muhandislik – texnologiya instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.

Telefon (telegram): +998 94 504 20 26

e-mail: norinovmuzaffar56@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maolada Namangan viloyatidagi turizmning tarixiy-arxeologik ahamiyatidagi manzilgohlar jumladan, Axsikent, Munchoqtepa, Mug‘tepa, Mug‘qal’a, Uchtepa-Buloqmozor, Buonamozor kabi yodgorliklarning viloyat tarixiy turizmini yuksaltirishdagi o‘rni xususida ma’lumotlar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Tarixiy turizm, Axsikent, Munchoqtepa, Mug‘tepa, Mug‘qal’a, Uchtepa-Buloqmozor, Buonamozor.*

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab ilm fan va ta’lim sohalari qatorida turizm sohasini ham rivojlantirish uchun islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz”⁵⁰.

O‘zbekiston boy tarixiy o‘tmishga egadir. Namanga viloyatida 250 ortiq tarixiy-madaniy obyektlar mavjud bo‘lib, respublika rahbariyatining turizm rivojiga berayotgan e’tibori kun sayin ortib bormoqda. Respublikamizning boshqa viloyatlari kabi Namangan viloyatida ham turizmning tarixiy-arxeologik ahamiyatidagi manzilgohlar mavjud bo‘lib, jumladan, Axsikent, Munchoqtepa, Mug‘tepa, Mug‘qal’a, Uchtepa-Buloqmozor, Buonamozor kabi yodgorliklarning viloyat tarixiy turizmini yuksaltirishda alohida o‘rnga egadir. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016 yil 2 noyabr kuni Namangan viloyatidagi saylovchilarning vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvida viloyatdagi mavjud qadimiy yodgorliklarning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tganligi ham viloyatda turizmini rivojlanishiga zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017 yilning 16 oktyabrida viloyatning To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Axsikent manzilgohini muhofaza qilish hamda tadqiq qilish uchun yodgorlik majmuasini yaratish borasida maxsus qaror qabul qilinishi esa Axsikent ochiq osmon ostidagi muzeyni turistik hudud sifatida

⁵⁰ Анарбаев А. Ахсикент- столица древней Ферганы.-Ташкент: Тафаккур, 2013.-С.506.

o‘rin olishiga zamin yaratdi. Axsikent manzilgohi Namangan viloyati, umuman, Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik bo‘lib, uning paydo bo‘lish sanasi miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi⁵¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yilning 28 fevralida Axsikentga tashrifi, ushbu tarixiy yodgorlikni ichki hamda xalqaro turizm maskaniga aylanishi uchun turtki bo‘ldi.

Axsikent vodiyni qadimiy poytaxti, madaniy, siyosiy, iqtisodiy markazi va Buyuk ipak yo‘lidagi asosiy manzillardan biri bo‘lgan, bu hususida, XVI asrning mashhur tarixchi olimi Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy esa, Axsi Farg‘ona shaharlarining ichidagi eng qadimiysi hisoblanishini yozib qoldirgan edi⁵².

Turizmning global ahamiyatini hamda uning iqtisodiy samaradorligini hisobga olgan holda mahalliy hamda xalqaro turizmni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan normativ hujjatlarda turizmni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, ziyorat turizmi hamda ichki turizmning boshqa sohalarini ham rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilishini ko‘rsatib o‘tildi⁵³.

Bu yerda “Navro‘z”, “Mustaqillik”, “Yangi yil”, Ramazon va Qurbon hayiti kabi bayramlarni o‘tkazish, “Qovun sayli”, “Shirinlik bayrami”, “Anor sayli” kabi milliy bayramlarni, turli darajadagi yubiley larni ham o‘tkazish rejalashtirildi.

2019-yilning dastlabki oylarida majmuada turizm sohasini rivojlantirish maqsadida ikki nafar xalqaro toifadagi turizm mutaxassislari jalb qilindi. Shu bilan birga bu yerda 20 ga yaqin turizmning turli tarmoqlarini rivojlantirish mumkinligi isbotlandi. Mazkur vaqtda direksiya tarkibida “Turizm bo‘limi” tashkil etildi. “Gid va ekskursionlar kursi”i ochildi. Ushbu kursda 2019 yilning dastlabki 2 oyida o‘ttiz besh nafar uyushmagan yoshlar tinglovchi sifatida jalb qilinib, ulardan o‘n bir nafari majmuada ish bilan ta‘minlandi. 2018 yilning 3-5 oktyabr kunlari esa, direksiyaning xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan turoperatorlari Toshkent shahrida “Buyuk Ipak Yo‘lida Turizm: Toshkent – 24”, deb nomlangan xalqaro turizm yarmarkasida ishtirok etib qaytdilar. Festivalda yetmish besh nafar mahalliy va o‘ttiz besh nafar xorijiy turistik firmalar bilan shartnomalar imzolandi⁵⁴.

⁵¹ Мирза Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашиди.-Ташкент: ФАН, 1996.-С.53.

⁵² Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабрь.

⁵³ Отажонов Н., Қозоқов Т., Рустамов А. Маданий мерос Президент нигоҳида //Наманган ҳақиқати, 2021 йил 27 ноябрь.

⁵⁴ Туризм в Узбекистане 2018 (Сборник).- ООО «MITRA TRAVEL» по заказу Государственного комитета Республики Узбекистан по развитию туризма Номер регистрационного свидетельства № 10-4152 of 07.05.2018, зарегистрировано в Агентстве по печати и информации Республики Узбекистан.-Ташкент, 2018.-С.5.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qaroridan kelib chiqib, bu yerda xalqaro turiztik maskan bunyod etish borasida rejalar ishlab chiqildi. Shuningdek, majmuada muhim tarixiy sanalarga bag‘ishlangan turli tadbirlar tashkil etildi.

Turizm sohasi ko‘p tarmoqli ekanli bo‘lib, bugun respublikamizda uning ko‘plab tarmoqlari jadal taraqqiy etmoqda. Xususan, Axsikent va unga yondosh hududlarda turizmning quyidagi shakllarini tashkil etish mumkin:

- tarixiy turizm;
- ekoturizm;
- daryo turizmi;
- ziyorat turizmi;
- muzey turizmi;
- agroturizm;
- tog‘ turizmi va boshqalar.

Mamlakatga kirib keluvchi turistlar oqimini ko‘paytirish, sohani milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylantirish, respublikaning tarixiy-madaniy merosi hamda tabiiy boyliklarini keng tashviq qilish yo‘lida O‘zbekiston Prezidentining e‘lon qilgan Qaror va farmonlarni o‘rni beqiyos albatta.

Hozirda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish borasida davlat va hukumat tomonidan ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Masalan, faqatgina 2018 yilning o‘zida Respublika Prezidentining turizm sohasiga oid to‘rtta farmoyishi, oltita qarori, bitta farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa o‘n bitta qaror, ikkita farmoyish e‘lon qilindi⁵⁵.

Dunyo miqyosida turizmga nafaqat madaniy-ma‘rifiy tarmoq sifatida, balki iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida qaraadi. Masalan, turizmni mamlakatlar Yalpi ichiki mehnat mahsulotga qo‘shadigan salmog‘ini quyidagilardan ham bilish mumkin. Fransiya YAMM 7 foizi turizmga to‘g‘ri kelib, 1 mln.dan ortiq fuqaro ushbu sohaga jalb qilingan. Mamlakat chet elliklar tashrifidan 40 mld. Dollor atrofida daromad oladi. Quyidagi mamlakatlar daromadlarining 50 foizidan ortig‘i turizm hissasiga to‘g‘ri keladi: Bagam orollari (53,6), Seyshel (54,5), Maldivi (61,3), Aruba (70), Angilya (71), Antigua i Barbuda (75,8) va Makao (89,5). Ba‘zi davlatlarda ushbu sohadan keladigan daromad katta miqdorni tashkil etadi. Misol uchun, Gretsiyada turizmdan keladigan daromadning qiymati 37,5 mlrd yevroga teng bo‘lib, bu YAIMMning 20 foizini tashkil etadi⁵⁶.

⁵⁵ <https://ria.ru/20190506/1553304200.html>

⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3514-Қарори “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” //Халқ сўзи, 2018 йил 7 феврал.

Hozirda mamlakatimizda ichki turizm tarmog‘ini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu borada qator farmon va qarorlari e‘lon qilindi. Ayniqsa, 2018 yilning 7 fevralida qabul qilingan “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga ko‘ra, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” turizmning rivojlantirish dasturi e‘lon qilindi⁵⁷. Munchoqtepa va Mug‘tepalar qadimgi Koson shahri tarixidan so‘zlovchi yodgorliklar hisoblanadi. Munchoqtepaning o‘rganilishi natijasida Koson shahri tarixini tiklash va qadimgi Koson yodgorliklarining turistik imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar olish mumkin.

Buonomozor yodgorligi. Uning o‘rganilishi yo‘lida olib borilayotgan tadqiqotlar Buonomozor Farg‘ona vodiysi bobodehqonlarining muhim manzilgohi ekanligidan darak beradi. Manzilgohning turistik imkoniyatlari nihoyatda keng bo‘lib, mahalliy tuizimni rivojlanishiga salmog‘ini qo‘shmoqda.

Munchoqtepa, qadimgi Pop manzilgohlaridan biri bo‘lib, uning o‘rganilishi, turistik imkoniyatlarini ochib beradi. Manzilgohda ilk o‘rta asrlarga oid sag‘analarning topilishi va o‘rganilishi, qamish tobutlar ularni saqlanish holatlari tadqiqotchilarni o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Xulosa. Darhaqiqat, ushbu yodgorliklar qadimiy boy ma‘naviy merosning ko‘zgusi bo‘lishi bilan birga, turizm taraqqiyoti uchun ham g‘oyatda ahamiyatli omil hisoblanadi. Qadimiy manzilgohlarni tadqiq etish tarixiy turizm saloxiyatini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 3.
2. Анарбаев А. Ахсикент- столица древней Ферганы.-Ташкент: Тафаккур, 2013.-С.506.
3. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашиди.-Ташкент: ФАН, 1996.-С.53.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабрь.
5. Отажонов Н., Қозоқов Т., Рустамов А. Маданий мерос Президент нигоҳида //Наманган ҳақиқати, 2021 йил 27 ноябрь.
6. Туризм в Узбекистане 2018 (Сборник).- ООО «MITRA TRAVEL» по заказу Государственного комитета Республики Узбекистан по развитию туризма Номер регистрационного свидетельства № 10-4152 of 07.05.2018, зарегистрировано в Агентстве по печати и информации Республики Узбекистан.-Ташкент, 2018.-С.5.

⁵⁷ <https://lex.uz/docs/-3026246>

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3514-Қарори “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” //Халқ сўзи, 2018 йил 7 феврал.

8. <https://ria.ru/20190506/1553304200.html>

XX ASRNING OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA FARG'ONA VODIYSI EKOLOGIK HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR **(Tarixiy tahlil)**

Norkuziyev Dadaxon Raxmonjonovich

Namangan davlat universiteti

Tarix kafedrasi o'qituvchisi, PhD

e-mail: dnorkuziyev@inbox.ru

Telefon: +998973758180

Annatatsiya: *Ushbu maqolada tarixiy yondashuv asosida XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida Farg'ona vodiysi sanoat markazlarining ekologiyagasi hamda sanoat korxonalari va boshqa infratuzilma obyektlari nisbatan zich joylashganligi natijasida yuzaga kelgan ayrim ekologik muammolar va ularning yechimiga doir amalga oshirilgan ishlar haqida to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, ekologik muammo, atrof-muhiti, zararli chiqindi, ammiak, oltingugurt, atmosfera, azot oksidi, suyuq xlor, gidroliz, yer osti suvlari, urbanizatsiya.*

Аннотация: *На основе исторического подхода в данной статье рассматривается экология промышленных центров Ферганской долины в конце XX – начале XXI веков, а также некоторые экологические проблемы, возникшие в результате сравнительно плотного расположения промышленных предприятий. и других объектов инфраструктуры, а также проведенная работа по их решению.*

Ключевые слова: *Ферганская долина, экологическая проблема, окружающая среда, вредные отходы, аммиак, сера, атмосфера, оксид азота, жидкий хлор, гидролиз, подземные воды, урбанизация.*

Annotation: *Based on a historical approach, this article focuses on the ecology of the industrial centers of the Fergana Valley in the late XXth - early XXIst centuries, as well as some environmental problems that arose as a result of the relatively dense location of industrial enterprises and other infrastructure objects, and the work carried out to solve them. raised*

Key words: *Fergana Valley, ecological problem, environment, harmful waste, ammonia, sulfur, atmosphere, nitrogen oxide, liquid chlorine, hydrolysis, underground water, urbanization.*

Bugungi kunda respublikada bozor tuzilmalarini yaratish, iqtisodiy faoliyat va mulkning turli shakllarini tashkil etish va rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlarning tobora kuchayib borayotgan sharoitida o'sishning ob'ektiv omillarini hisobga olgan holda shaharlar va aholi, transport vositalarining keskin

ko'payishi, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini intensivlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi eng muhim davlat vazifasi, aholi salomatligini muhofaza qilish, normal hayot sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylandi. Global ekologik muammolarni vujudga kelishi shuni ko'rsatadiki, ular dastlab mahalliy xarakterga ega bo'ladi va ko'lami jihatidan kengayishi natijasida global ahamiyat kasb eta boshlaydi. Orol muammosini buning yorqin isboti sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Xususan, XX asrning oxiri – XXI asrning boshlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Farg'ona vodiysi atrof-muhitining ifloslanishini ham mahalliy xarakterga ega muammo deb hisoblashimiz mumkin. Lekin shuni alohida aytish kerakki, atmosfera havosining ifloslanishi hozirgi kunda ko'plab ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Masalan: suv havzalarining ifloslanishi, o'simlik va hayvonot dunyosining kamayib borishi, tuproq tarkibining buzilishi, insonlar salomatligining yomomonlashuvi va boshqalardir.

Farg'ona vodiysi viloyatlari aholisi, sanoat korxonalari va boshqa infratuzilma obyektlari nisbatan zich joylashganligi bilan Respublikanning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Hududda har bir kv. km.ga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot nihoyatda yuqori bo'lib, bu esa mintaqa yukining og'irligidan dalolat beradi. Shu sababdan bu mintaqada ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashtirish va rivojlantirishni noto'g'ri tashkil qilish aholi salomatligiga va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Vodiy viloyatlarining o'zida ham Farg'ona viloyati mintaqaning boshqa hududlariga nisbatan atmosfera havosining ifloslanish darajasini yuqoriligi tashvishli holatdir. Farg'ona vodiysining shaharlar atmosfera havosining ifloslanishida sanoat, transport, maishiy chiqindilar asosiy o'rinni egallaydi. Zararli chiqindilarni ko'plab chiqaradigan sanoat korxonalarining bir joyga to'planishi vodiyning o'ziga xos iqlim xususiyatlari atmosfera havosining kuchli ifloslanishiga sabab bo'lmoqda.

XX asrning oxiri – XXI asr boshlaridagi ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, sanoatlashgan shaharlar havosida benzoprin, ammiak, oltingugurt ikki oksidi va azotning miqdori sanitar me'yoriga nisbatan ikki-uch marotaba ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona vodiysi sanoatlashgan hududlarning XX asrning oxirlari va asrimizning boshlaridagi atmosferaga chiqarilgan chiqindilarni tahlil qilsak, qo'rsatkichlarning hozirga kunda ham o'sib borayotganligini kuzatish mumkin. Farg'ona vodiysi shaharlarining ekologik vaziyati bu mintaqada tashkil topgan, rivojlanayotgan sanoat tarmoqlari va bular asosida vujudga kelgan shaharlar qurilishi hamda ularning faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Vodiyning katta shaharlari Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Asaka kabi shaharlarida hozirgi kunda ko'plab sanoat korxonalari faoliyat yuritib ular shaharlar ekologiyasiga ta'sir ko'rsatayotganligi sir emas albatta.

Birgina, Farg'ona shahrida 50 ta sanoat korxonasi 2001-yilda 44,0 ming tonna, 2002-yilda esa 62 ta sanoat korxonasi 46,6 ming tonna atmosferaga chiqindi chiqarilganligi tashvishli holatdir[1, – B. 94.].

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Farg'ona vodiysi shaharlarida havoning ifloslanishi (1999-2004 yy.)[2, – B. 67.].

№	Shahar nomlari	1999 y	2000 y	2001 y	2002 y	2003 y	2004 y
1	Andijon	4,01	2,99	3,22	2,94	2,34	7,11
2	Namangan	3,54	4,13	2,67	2,67	1,91	1,85
3	Farg'ona	5,00	5,94	5,84	5,06	4,98	4,70
4	Qo'qon	4,65	4,60	4,64	4,37	4,72	5,39

Farg'ona viloyatining sanoatlashgan hududlarida Quvasoy sanoat shahrini oladigan bo'lsak atmosferaga marganets, azot oksidi, sement changi me'yoridan ortiqcha chiqarilgan. Xuddi shunday holatni Qo'qon sanoatlashgan hududida uglerod oksidi, azot oksidi belgilangan me'yordan ortiqcha chiqarilganligida ham ko'rish mumkin. Farg'ona viloyati sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'siri natijisida Toshloq va Quva tumani atmosfera havosi turli chiqindilar bilan ifloslandi.

Bundan tashqari, Farg'ona viloyatida ichimlik suvi tarkibida neft mahsulotlarining uchraganligi kuzatiladi. Masalan: Toshloq, Oltiariq, Quva va Farg'ona shaharlari hududida ichimlik suvi tarkibida neftning konsentratsiyasi 0,5-2,4 mg/l ni tashkil qilgan[3, – B. 107.].

Farg'ona vodiysida sanoatning hududiy mujassamlashuvi bo'yicha Farg'ona shahri ajralib turadi. Farg'ona shahrida sanoatning turli tarmoqlari, shu jumladan, kimyo va neftni qayta ishlash sanoati yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari, vodiylarining Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon, Uchqo'rg'on, Pop, Asaka, Quva kabi shaharlarida ham sanoat korxonalari ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Bu shaharlar ayni vaqtda muhim transport tugunlari ham hisoblanadi.

Farg'ona vodiysidagi sanoat va transport vositalari bu yerdagi ekologik vaziyatga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, Andijon shahrining markazida, temir yo'l stansiyasi atrofida gidroliz zavodi, yog'-moy ishlab chiqarish korxonasi va mashinasozlik zavodi joylashgan bo'lib, bu korxonalardan chiqayotgan ko'plab sanoat chiqindilari shahar ekologik holatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Ayniqsa Farg'ona shahridagi neftni qayta ishlash zavodi, Farg'ona "Azot" va Qo'qon shahrida joylashgan "Qo'qon superfosfat" ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga ta'siri yuqoriligini ko'rish mumkin[4, – B. 81.].

Shuningdek, 1998-yilning 26-mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Atrof-muhit va tabiatni mahofaza qilish qo'mitasida Namangan viloyatida tegishli qonun hujjatlari qanday bajarilayotgani xususidagi masala muhokama qilingan. Aynan shu masalada, "Pop tola", "Uchqo'rg'on tola", "Qo'g'ay tola" hissadorlik jamiyatlari, Namangan shahridagi "Namangan yog'" hamda Namangan shahri markazida joylashgan 3-paxta tozalash zavodlarida sanitariya

himoya mintaqalari mavjud emasligi tanqid qilinib, ana shu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi[5].

Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysida yengil sanoat korxonalari faoliyati ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishiga qaramay, sanoatning bu turi ham atrof-muhitga o‘zining ba‘zi salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Masalan, XX asrning 90-yillarida Farg‘ona vodiysi shaharlarida joylashgan ko‘nchilik va to‘qimachilik korxonalarinig chiqindi suvlarini tozalash bo‘yicha hal qilinmagan masalalardan tashqari shoyi to‘qish fabrikalarida ham oqindi suvlarni tozalash va takroran ishlatish jiddiy muammo bo‘lib kelgan. Pilla tortish sexlaridan chiqqan va tarkibida zaharlovchi mikroskopik o‘simliklar bo‘lgan oqindi suvlar avvaldan tozalanmay va zararsizlantirilmay yana ishlab chiqarishga qaytadi. Bunga misol sifatida, Marg‘ilon shoyi kombinatining pillatitish sexlaridan oqindi suvlarning 80 foizi tozalanmasdan qayta ishlatilgan. Bu esa suv bilan ishlaydigan ishchilar orasida kasalliklarning ko‘payishiga olib keldi. Ishlab chiqishda hosil bo‘lgan chiqindilar, shuningdek, tozalash inshootlaridan chiqayotgan cho‘kindilar zararsizlantirilmagan to‘plab qo‘yilgan, natijada hududdagi yer osti suvlari va tuproq ifloslangan[6, – B. 82.].

Xuddi shunday holat ham to‘qimachilik fabrikasida va “Farg‘onapivo” uyushmasi va go‘shkombinatida rivojlanmoqda. Farg‘ona shahridagi bosh suv olish omborida suyuq xlorning saqlash shartlari belgilangan talablarga javob bermagan, ularning miqdori belgilangan me‘yor talablaridan 2 barobar ortgan. Marg‘ilon temir yo‘l stantsiyasida suyuq xlor bilan konteynerlarni tushirishda xavfsizlik to‘liq ta‘minlanmagan[7, – B. 46.].

Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolarini hal qilishning dolzarbligi respublikaning iqtisodiy hayotida so‘nggi yillarda yuzaga kelayotgan va keskin suv tanqisligiga olib kelgan salbiy hodisalarning ko‘payish tendensiyasi bilan izohlanadi. Tabiiy resurslar, sanoat, qishloq xo‘jaligi va maishiy chiqindilar bilan ifloslanish darajasining oshishi, tuproq unumdorligining ayrim holatlarining pasayishi, O‘zbekistonning aksariyat shaharlarida havo holatining yomonlashishi bilan bog‘lanadi[8, – B. 135.].

2002-yil mobaynida o‘lchab va hisobi olib boriladigan barcha ingredientlar bo‘yicha atmosfera havosining ifloslanish darajasi Farg‘ona vodiysining Namangan hamda Marg‘ilon shaharlarida sanitariya-gigiena normalariga muvofiq bo‘lgan bo‘lsa, Andijon va Farg‘ona kabi sanoat shaharlarida boshqacha holat kuzatilgan. Masalan, Farg‘ona shahrida fenol bo‘yicha, Andijon va Farg‘ona shaharlarida ammiak bo‘yicha atmosfera havosining ifloslanishi pasaygan bo‘lsada, hamon sanitariya-gigiena normalaridan ancha yuqoriligini kuzatish mumkin[9, – B. 236.].

Statistik ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jihatdan olib qaraganda atrof-muhitga sal‘biy ta‘siri bo‘yicha Farg‘ona shahri Olmaliq shahridan keyingi ikkinchi o‘rinda turishi sir emas. 2005-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra birgina, Farg‘ona shahrining sanoat korxonalaridan atmosferaga chiqadigan chiqindilar bir yilda o‘rtacha 45,2 ming tonnani tashkil etadi. Andijonda esa bu ko‘rsatkich 12,5 ming

tonnani, Namanganda 2,4 ming tonna, Qo'qonda 5,1 ming tonnani tashkil etgan[10].

Katta shaharlarda atmosferaning chang, qum, gaz va tutunlar bilan ifloslanishi tufayli quyoshning to'g'ri radiatsiyasi 40% gacha kamayadi. Shahar aholisining chang, qum va boshqa qattiq zarrachalar bilan ifloslanishi kondensatsiya yadrosi vazifasini o'taydi. Shaharlar va shahar aholisining soni oshib borishi bilan havo sifati ham salbiy tomonga o'zgarishi sir emas. Har yili dunyo bo'yicha bir million kishi shahar havosining ifloslanishi oqibatida vafot etadi[11].

Xulosa o'rnida, bugungi kunda jahon shaharlari Yer shari quruqlik qismining 3 foizinigina egallab turibdi. Ammo, ular jami energiya 60-80 foizigacha iste'mol qiladi. Urbanizatsiyaning yuqori sur'atlari chuchuk suv zaxirasi, kanalizatsiya tizimlari, atrof-muhit va sog'liqni saqlash kabi masalalarda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shunday ekan, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish nafaqat davlatning balki, butun insoniyatning muhim vazifasi bo'lmog'i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуназаров Л., Бердиев Ғ., Эгамова М. Фарғона вилояти саноатлашган ҳудудларида атмосфера ҳавосининг ифлосланиши // Фарғона водийси табиатини муҳофаза қилишнинг экологик-географик асослари Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган: 2003. – Б. 94.

2. Yormatova D., Norqulov A., Avazov Sh., Sultonova H. Sanoat ekologiyasi – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. – B. 67.

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O'zR MA), M.114-fond, 1-ro'yxat, 116-yig'ma jild, 107-varaq.

4. Исаев А., Артиқов З. Фарғона минтақаси саноат ва транспорти ривожланишидаги экологик муаммолар // Фарғона водийси табиатини муҳофаза қилишнинг экологик-географик асослари Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган: 2003. – Б. 81.

5. Наманган ҳақиқати 1998 йил 1 август.

6. O'zR MA, M.114-fond, 1-ro'yxat, 35-yig'ma jild, 82-varaq.

7. O'zR MA, M.114-fond, 1-ro'yxat, 31-yig'ma jild, 46-varaq.

8. O'zR MA, M.114-fond, 1-ro'yxat, 36-yig'ma jild, 135-varaq.

9. O'zR MA, M.37-fond, 1-ro'yxat, 7821-yig'ma jild, 236-varaq.

10. Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

11. Shaharlarda aholi sonining oshib borayotganligi muammolarga sabab bo'lmoqda / <https://kun.uz/82261211> Murojaat etilgan sana: 02.04.2020-yil.

12. Norkuziyev D.R. Mustaqillik yillarida O'zbekiston atrof-muhit muhofazasida tashkiliy tizim va hamkorlik masalasi / Zamonaviy jahon

tarixshunosligida Farg‘ona vodiysi tarixi va madaniyatining yangi tadqiqotlari hamda yondashuvlari” mavzusida xalqaro ilmiy anjumani materiallari, 2024. – Namangan, – B. 352-358.

TO‘RTINCHI SHO‘BA.

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHI VA SIYOSIY ISLOHOTLAR

DAVLAT BOSHQARUVI – JAMIYAT BARDAVOMLIGI KAFOLATLARIDAN BIRI

Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o‘g‘li

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Tel: 93-675-97-20

E-mail: mirjalolrustamaliyev@gamil.com

Annotatsiya: Jamiyatni aniq mo‘ljal va maqsad atrofida birlashtirish va yo‘naltirish, barqarorligi va xavfsizligini ta‘minlash, qolaversa, uning yaxlit bir tizim sifatida mudom yuksalish va rivojlanishi yagona muqobilsiz kuch va qurol ekanligini davlat allaqachon kerakli darajada isbotlab ulguriganligi mazkur maqolada yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Immanent, millenium, boshqaruvlar iyerarxiyasi, korporativ manfaat, globallashuv, gumanitar harakat, pandemiyasi, politolog.

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ – ОДНА ИЗ ГАРАНТИЙ УСТОЙЧИВОСТИ ОБЩЕСТВА

Рустамалиев Мирджалал Хайруллаевич

научный сотрудник Наманганского государственного университета

Телефон: 93-675-97-20

Электронная почта: mirjalolrustamaliyev@gamil.com

Аннотация: В данной статье подчеркивается тот факт, что государство уже в необходимой степени доказало, что объединение и ориентация общества вокруг определенной цели и задачи, обеспечение его стабильности и безопасности, его непрерывного подъема и развития как целостной системы является единственным выходом. Альтернативная сила и оружие.

Ключевые слова: Имманент, тысячелетие, иерархия администраций, корпоративные интересы, глобализация, гуманитарное движение, пандемия, политолог.

PUBLIC ADMINISTRATION IS ONE OF THE GUARANTEES OF SOCIETY'S SUSTAINABILITY

Rustamaliyev Mirjalal Khairulloyovich

Researcher of Namangan State University

Phone: 93-675-97-20

E-mail: mirjalolrustamaliyev@gamil.com

Annotation: *This article highlights the fact that the state has already proved to the necessary extent that the unification and orientation of society around a specific goal and purpose, ensuring its stability and security, and its continuous rise and development as a whole system is the only alternative force and weapon. .*

Key words: *Immanent, millennium, hierarchy of administrations, corporate interest, globalization, humanitarian movement, pandemic, political scientist.*

Insoniyat, milliy davlatlar bunday murakkab sharoitda qaysi, qanday ijtimoiy-siyosiy kuch bugun asqotishi mumkin. Bunday qaraganda, muammo bo'yicha jahon hamjamiyatida, xalqlar va millatlar o'rtasida umumiy fikr shakllanib bo'lgan. Xavf-xatarlarning oldi olinib, nisbatan osoyishtaroq yo'lga chiqishdan barcha manfaatdor. Shunchaki bir individdan to xalqaro global birlashmalargacha shunga moiyl. Qolaversa, ularning har birida u yoki bu darajada salohiyat ham, resurslar ham mavjud. Ammo bu kamlik qilayapti. Shunchaki xohish va intilishdan boshqa narsa emas. Misol uchun, nufuzli xalqaro iqtisodiy, harbiy-siyosiy birlashmalarni, hatto jahon hamjamiyati nomidan ish yuritadigan Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda uning sohaviy xalqaro muassasalari. Boz ustiga qudratli xalqaro-mintaqaviy transmilliy biznes hamjamiyatlar va korporatsiyalar. Barcha-barchasi faoliyat yuritishga doir qulaylikni orzu qilishadi. Lekin ularning barchasining harakat maydoni belgilab qo'yilgan, qolaversa, insoniyat, jahon hamjamiyati manfaatlaridan o'zlarining korporativ manfaatlari va mo'ljallariga baribir ustuvorlik berishadi.

Jamiyatni aniq mo'ljal va maqsad atrofida birlashtirish va yo'naltirish, barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash, qolaversa, uning yaxlit bir tizim sifatida mudom yuksalish va rivojlanishi yagona muqobilsiz kuch va qurol ekanligini davlat allaqachon kerakli darajada isbotlab ulgurdi. Davlat shu maqomda inson hayotiy faoliyatining jami sohalari (iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ijtimoiyot) va shuningdek, inson ongi, shuuri, tafakkuri hamda qadriyatlari olamida mahkam o'rnashdi. Insondek bemisl dunyoqarash, tafakkur rang-barangligini o'zida jo

etgan, cheksiz aql quvvatiga ega jonzotni siyosiy mushtarak eta olishga qodir omil ham davlat instituti. Odam Ato va Momo Havo zamonidan buyon jamiyatni birlashtirish, maqsadga yo‘naltirishda undan boshqa biror kuchni bashariyat ko‘rgani va bilgani yo‘q. Bu jabhada “davlat mashinasi” – Gobbsning Leviafani bilan bellashishga da’vo qilgan kuchlar ham mavjud. Biroq ular tarixning turli bosqichlari (hozirda ham uchrab turadi)da birin-ketin barham topishdi, yaroqsizlikka yuz tutishdi. Taniqli davlatshunos olim Svyatoslav Kasjev aytganidek, biroq davlat qanday bo‘lsa, shunday qoldi[1].

Qabila, etnos, sosium yoki ularning barini bir muddat qamrab olgan nodavlat ijtimoiy birlashmalar, aglomeratu konglomeratlar boshiga falokat yog‘ildi deguncha, uzlatga birin-ketin ketgach, sosiumni resursga ega davlat saqlab qoldi. Shu bo‘lski, ajdodu avlodlar ildizi qurimasdan bugungi kunga yetib kelishdi. Davlatning nimalarga qodir ekanligi, uning kuchiga kuch qo‘shgan buyuk hukmdorlarga ham doir turli-tuman ma’lumotlar (yozma yoki og‘zaki – folklor, eposlar)ni keksa tarix asrab-avaylab davrimizgacha yetkazib bermoqda. Qaytarish bo‘lsada, aytmoqchimiz, davlat nima bilan ozuqlanadiki, u hamon odamzot yer yuzida mavjud ekan, shu kuch-qudratda qolishda davom etaveradi. Muammo qayerda? Savolga javob batafsil bo‘lmasada, ba’zi zaruriy umumlashmalarni qog‘ozga tushirish lozim bo‘ladi.

Yuqoridagi fasllarda zikr etilganidek, individ / shaxs tabiatan, mohiyatan siyosiy fenomen sifatida biqlik / izolyasiya holatida yashay olmaydi va jamoa bilan birga bo‘lishi shart. Kundalik mo‘ljal-maqsadlarni jamoa mo‘ljal-maqsadlari bilan birlashtirishga to‘g‘ri keladi. Shu zayl indvidlarning shaxsiy manfaatlari va rejalaridan, intilishlaridan jamoa xohish-irodasi, intilishlari vujudga keladi. Tabiiy turli-tuman manfaatlar, stixiyali bo‘lsada, konsentrlashib, barcha guruh a’zolarini qanoatlantirishga qodir tegishli moddiy va ma’naviy ehtiyojlar tizimi shakllanadi. Ehtiyoj va intilishlar majmuasi atrof-muhit bilan funksional bog‘liq va dinamik o‘zgaruvchanligi bois o‘z tashuvchisini keltirib chiqaradi. Ana shu omil aynan davlat bo‘lib, jamoa xohish-irodasi va jamoaviy intilishlarning konsentratsiyasi bosh ifodachisi maqomida o‘zini namoyon eta boshlaydi.

Davlat sosiumning siyosiydashgan, institusiyalashgan shakldagi ko‘rinishi. O‘ziga xos to‘laqonli legitim institut bo‘lganligi va rag‘batlantirilganligi boisdan ichki va tashqi tashkiliy noqulayliklar girdobida ham biror bir kuch uning oldini to‘sa olmaydi, o‘ziga xos tub qurilmasi sifatida avvalgidek jamiki siyosiy jarayonlarda o‘zini namoyon qilishda davom etaveradi[2]. Shuningdek, ijtimoiy hayotning biror bir sohasi davlat hokimiyati ta’siri doirasidan chetda qolmaydi. Davlatning “aralashuv” qamrovi darajasi esa odatda u yoki bu ijtimoiy jabha

qamroviga proporsional. Jamiyatda shunday sohalar borki, ular siyosiy hokimiyatdan muntazam e’tibor talab qiladi. Sabaki, u soha boshqalardan farq qilib, jamiyat xavfsizligi, barqarorligi va yashovchanligini saqlashdek muqobilsiz fundamental jihatga bevosita taqaladi. Bundan chiqadigan fikr hayotiy faoliyatning nisbatan har doim uchrab turadigan kundalik tomonlari borki, balki ular davlat hokimiyati uchun favqulodda zarurlik darajasida emas.

Biroq jamiyatning abadiyligini ta’minlash, xalqning / millatning umumjahon tarixiy jarayoni faol ishtirokchisiga aylanishi, dunyoni asrash yo’lida bashariyat sa’y-harakatiga uning immanent daxldorligini his etish darajasiga chiqish-chiqmasligi oddiy masala emas. Uning muqobilsiz tashuvchisi bu davlat boshqaruvi. Shu bois uning o’rniga allaqanday boshqa bir moddiy yoki ma’naviy resursni tiqishtirish tamoman besamar, sosium barqarorligi manfaatlari nuqtai nazaridan vayronkor ekanligi allaqachon tasdiqlangan. Xullas, davlat shunday kuchki, uning misli, “o’rindoshi” yo’q[3], u noyob voqelik va feneomen.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Каспэ С. Жизнь, смерть, государство // Россия в глобальной политике. Т. 20. – №1 (113). – Январь-февраль, 2022. – С. 9.
2. Кузнецов В.А. ИГ – альтернативная государственность. Чем объясняется притягательность радикалов для жителей Арабского Востока // Россия в глобальной политике. – 2015. – №5. – С. 14.
3. Федотова В.Т. Меняющаяся современность: всемирность и социальность // Вопросы философии. – 2020. – №11. – С. 5-14.

1917-1924-YILLARDA TURKISTON JADIDLARINING FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI SIYOSIY AHAMIYATI

To'xtasinov Shukurjon Shavkatjon o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Tel: 93-670-45-45

E-mail: shukurjon4545@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi Turkiston jadidchilik namoyandalarining faoliyatini o'rganish, ularning o'lka aholisining asriy orzusi bo'lgan mustaqillik yo'lidagi kurashlari, Sovet istibdodiga qarshi olib borgan siyosiy faoliyati, turkiston jadidlarining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi siyosiy ahamiyati va ularni kelajak avlodga yetkazib berishdan iborat etib belgilandi.

Kalit so'zlar: Jadid, cherkov, jug'rofiyasi, dorilfunun, bolshevik, siyosiy drama truppasi, bosmachilik harakati, aksilinqilobiy kuch, dramaturg.

ПОЛИТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЖАДИДОВ ТУРЦИИ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В 1917-1924 ГОДЫ

Тухтасинов Шукурджон Шавкатджонович

Докторант Наманганского государственного университета

Телефон: 93-670-45-45

E-mail: shukurjon4545@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность представителей туркестанского джадидизма в начале XX века, их борьба за независимость, которая является вековой мечтой народа страны, их политическая деятельность против советской диктатуры, Изучено политическое значение туркестанского джадидизма в развитии гражданского общества и его передаче следующему поколению.

Ключевые слова: Джадид, церковь, география, дорилфун, большевик, политическая драматическая труппа, полиграфическое движение, контрреволюционная сила, драматург.

THE POLITICAL SIGNIFICANCE OF THE JADIDS OF TURKEY IN THE DEVELOPMENT OF THE CIVIL SOCIETY IN THE YEARS 1917-1924

Tokhtasinov Shukurjon Shavkatjonovich

Doctoral student of Namangan State University

Phone: 93-670-45-45

E-mail: shukurjon4545@gmail.com

Abstract: *In this article, the activities of the representatives of Turkestan jadidism at the beginning of the 20th century, their struggle for independence, which is the age-old dream of the people of the country, their political activities against the Soviet dictatorship, the political importance of Turkestan jadidism in the development of civil society and their transfer to the next generation are studied. was defined as delivery.*

Key words: *Jadid, church, geography, dorylfun, Bolshevik, political drama troupe, printing movement, counter-revolutionary force, playwright.*

Har qanday ijimoiy tuzum maktab-maorif, ilm-fan va shu kabi muhim soha vazifalarini hal etmasdan istiqbol sari ko'z tikolmasligi ayondir. Shu bois sovet hokimiyati mutasaddilari ham bu masalalarga ahamiyat berar ekanlar, avvalo, ularni o'z sinfiy manfaatlaridan kelib chiqib hal etishga intildilar. Ayniqsa, yangi tuzum xalq ta'limi tizimini o'z sotsialistik maqsad va g'oyalari ruhida shakllantirishga alohida urg'u berdi.

1918-yil noyabrida Turkiston sovet hukumatining cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risidagi dekreti chiqdi. Unga ko'ra o'lkadagi mavjud xususiy, eski diniy maktablar faoliyati taqiqlanmagan bo'lsa-da, biroq yangi sovet maktablarini tashkil qilish, ularni ko'paytira va kengaytira borish, ta'limning sinfiy mohiyatiga e'tibor tobora ustuvor ahamiyat kasb etib bordi. Maktab ikki pog'onaga bo'lindi: 1-pog'ona bilim yurtlari dastlabki uch sinfni o'z ichiga olardi va 2-pog'ona yana 4 sinfdan iborat edi. O'rta maktab ham mavjud bo'lib, keyingi uch sinfni o'z ichiga olardi. Biroq bunday maktablar juda oz edi. Ko'proq 1-pog'ona maktablari eng ko'p tashkil etilgan edi. Shu bilan birgalikda maktablarning moddiy bazasi nochor ahvolda bo'lgan. Ularda o'quv qurollari, dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar, yetuk bilimli o'qituvchi kadrlar yetishmasdi[1].

Turkiston xalq ta'limi bo'limi mudirlarining 1920-yil mayida bo'lib o'tgan 1qurultoyida ham bular aniq e'tirof etilgandi. Hokimiyat mutasaddilarining o'qituvchilarni turli yumushlarga, jumladan, harbiy harakatlarga tez-tez safarbar etishi ham ular sonining kamayib borishiga sabab bo'layotgandi. Buning orqasida ko'plab maktablarda o'qituvchilar tarkibi 75% va undan ham ko'proqqa qisqarib

ketdi. Buning ustiga jiddiy moddiy ta‘minotning yo‘qligidan xo‘jako‘rsinga tashkil etilgan maktablar mahalliy bolalarni o‘z bag‘riga jalb qila olmadi. Masalan, o‘lka bo‘yicha maktab yoshidagi bolalarning 70% dan ko‘pi maktabga tortilmay qoldi. Hatto poytaxt Toshkentda, uning eski shahar qismida maktab yoshidagi 40 ming boladan faqat 10 ming nafari, ya‘ni 25%i o‘qirdi, xolos. Shunga qaramay, millatimiz fidoyilari xalq ta‘limi tizimini yaxshilash, mahalliy aholi farzandlarini yangi sovet maktablariga ko‘proq jalb qilish, ularga puxta bilim va tarbiya berish borasida astoydil faoliyat ko‘rsatdilar.

Bu o‘rinda O. Sharafiddinov, J. Odilov, T.Shermuhammedov, S.Sodiqov, K.Dadamuhammedov, Qori Niyoziy singari taniqli xalq ta‘limi namoyandalari nomlarini tilga olib o‘tish joizdir. Bu davrda Turkistonda oliy ta‘lim tizimini tashkil etish ham g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etardi. Ko‘plab Vatan fidoyilari sovet hokimiyati organlari bilan murosas-yu madoraga borib bo‘lsa ham yurt kelajagi, istiqbolini o‘ylab, bu hududda oliy o‘quv yurtini yuzaga keltirishga bel bog‘ladilar. 1918-yil 21-aprelda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq universiteti bu harakatlarning natijasi bo‘ldi. Universitet tarkibida tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo‘jaligi va texnika fakultetlari mavjud edi.

1920-yilga kelib unda ta‘lim oluvchilarning 60%ini mahalliy yoshlar tashkil etardi. Universitetning ta‘lim-tarbiya jarayonida Munavvarqori, Ahmad Fayziy, Burhon Habib, Ibrohim Tohiriy, Usmon Xo‘jayev, Hodi Fayziy singari yurt allomalari fidoyilik ko‘rsatdilar. 1918-yil noyabridan boshlab Toshkentda yana bir oliy o‘quv yurti — Sharq instituti faoliyat boshladi. Institutga dastlab 234 nafar talaba, shu jumladan, anchagina mahalliy millatlar yoshlari qabul qilinib, ular Sharq dunyosi tarixi, falsafasi, jug‘rofiyasi, madaniyati, adabiyoti, san‘ati sohalari bo‘yicha yetuk mutaxassis kadrlar bo‘lib yetishishlari ko‘zda tutilgan edi. O‘lkaning shu davrdagi adabiy-madaniy hayotiga nazar tashlar ekanmiz, bunda XX asr boshlaridan e‘tiboran shakllanib, faollashib borgan ilg‘or mahalliy nashrlarning xalq dardi, orzu-armonlarini ifodalab faoliyat yuritganligi ko‘zga yaqqol namoyon bo‘ladi[2].

Turkistonning ilg‘or jadid namoyandalaridan Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Validiylarning matbaachilik faoliyati bundan yorqin dalolat beradi. O‘lkadagi bolsheviklar hokimiyati matbuotning ta‘sirchan g‘oyaviy kuchini o‘z ta‘sirilariga olish, uni o‘z maqsadlari sari yo‘naltirish uchun alohida intildilar.

Shu bois 1918-1920-yillarda o‘lkada bolshevikcha ruhdagi ko‘plab gazeta va jurnallar nashr etildi. Bular jumlasiga o‘zbek tilida chiqa boshlagan «Ishtirokiyun», «Xalq dorilfununi» (Toshkent), «Ishchilar qalqoni» (Namangan), «Xalq gazetasi»

(Qo‘qon), «Mehnatkashlar tovushi» (Samarqand) singari matbuot nashrlarini nisbat berish mumkin. Milliy vatanparvar ziyolilar bolshevistik g‘oya va mafkuraning har qanday tazyiqi va to‘sqinligiga qaramay, o‘z asarlarida xalq dili, ruhiyati, kayfiyati va uning intilishlarini ifoda etdilar. Cho‘lpon, Fitrat, Tavallo, M. Siddiqiy ijodiyotida buni yaqqol kuzatish mumkin.

Shuningdek, 1919-yilda Fitrat tomonidan tuzilgan «Chig‘atoy gurungi» tashkiloti va uning tevaragiga uyushgan ilg‘or ziyolilar ham milliy birlik va mustaqillik g‘oyasiga sodiq bo‘lgan holda qizg‘in faoliyat yuritdilar. O‘zbek ziyolilari va ijodkorlari qiyin va murakkab sharoitlarda ham o‘z ijodlariga yo‘l topib, xalqchil asarlar yaratib, yorqin iste‘dodlarini namoyon etib bordilar. Mashhur shoir va dramaturg Hamza Hakimzodaning 1918-yilda Farg‘onada tuzgan «O‘lka musulmon siyosiy drama truppasi», atoqli aktyor va rejissyor Mannon Uyg‘urning Toshkentda tashkil qilgan «Turon» truppasi kurtak yozib borayotgan o‘zbek milliy san‘atining ilk namunalari bo‘ldi[3].

Xususan, bu truppalarga uyushgan Muhiddin Qori Yoqubov, Hoji Siddiq Islomov, Tamaraxonim, Abror Hidoyatov, Obid Jalilov, Sayfi Olimov va boshqalar keyinchalik milliy teatr san‘atimizning yetuk darg‘alari bo‘lib yetishdilar. Shunday qilib, sovetlar hokimiyatining Turkistonda o‘z hukmronligini kuchaytirish, o‘lka hayotining barcha sohalarini o‘z izmiga bo‘ysundirish yo‘lida yuritgan qattiqqo‘l siyosati, ko‘rgan murosasiz chora-tadbirlariga qaramay, yurtning dovyurak, o‘z istiqloli va kelajagiga ishongan iste‘dodli odamlari o‘z millatini ma‘nan va ruhan ko‘tarib, madaniy va ma‘naviy sohalarida ham muayyan o‘zgarishlarni amalga oshirib bordilar. Turkistonning yaqin o‘tmishi tarixida yorqin sahifa yozgan hamda xiyla uzoq davom etgan, qonli, fojiali voqealarga to‘lib-toshgan sovet hokimiyatiga qarshi harakat ko‘p zamonlar noxolis, g‘ayriilmiy nuqtayi nazardan yoritilib kelindi.

O‘z safiga erk va hurlikka tashna, vatan mustaqilligi yo‘lida jonini tikkan millionlab yurt fidoyilarini birlashtirgan bu qudratli harakatning mazmunmohiyatini kelgindi, qizil sovet mustamlakachilari muttasil buzib, noto‘g‘ri talqin qilib, soxtalashtirib keldilar. Uni sho‘rolar terminida «bosmachilik harakati», «aksilinqilobiy kuchlar bosqini», «bir to‘da yurt buzg‘unchilari harakati» va shu singari nomlarda «ta‘riflab», «tavsiflab» kelish sovet tarixshunosligida o‘ziga xos odatiy tusga kirgandi. Biroq xalqimizda «oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi» deyilganidek, ajdodlarimizning el-u yurt erki, ozodligi uchun olib borgan bu mardona kurashi to‘g‘risidagi tarixiy haqiqat milliy istiqlool sharofati bilan to‘liq tiklanib, o‘z haqqoniy, xolis bahosini topdi.

Bu harakat sovetlar mafkurasi to'qib chiqargan shunchaki «bosmachilik» harakati emas, balki sovet hokimiyatining g'ayritabiiy siyosati va zo'ravonlikka asoslangan amaliyotga qarshilik ko'rsatish harakatidir. Xo'sh, bu harakatning Turkiston zaminida yuzaga kelishining muhim ijtimoiy omillari, sabablari nimalardan iborat edi? Nega 1918-yil bahoridan Farg'ona vodiysida boshlangan bu qurolli harakat asta-sekin alanga olib, Turkistonning keng hududlari bo'ylab yoyildi? Bu harakat mohiyatiga shu nuqtayi nazardan yondashar ekanmiz, uni bir qator muhim sabablar keltirib chiqarganligiga amin bo'lamiz: birinchidan, xalqimiz 1917-yilda sodir etilgan fevral va oktabr o'zgarishlariga katta umidvorlik bilan ko'z tikkandilar. Ular ilg'or jadidchilik harakati rahnamoligida Rossiyada rivojlanib borayotgan demokratik harakatlardan foydalanib, erk, ozodlikni qo'lga kiritmoqchi, o'lka xalqlarini mustaqillikka olib chiqmoqchi bo'lgandilar. Biroq sovet hokimiyati o'rnatilgach, mahalliy xalqlarni sariq chaqaga arzitmasdan, ularni siyosiy faoliyatdan oshkora chetlatib zo'ravonlikni avjga mindirishi yaqqol ko'zga tashlandi. Ikkinchidan, mahalliy xalqqa butunlay yot kommunistik mafkurani bayroq qilib olgan sovet zulmkorlari aholining milliy qadriyatlarini, udumlari, diniy e'tiqodini tahqirlash, kamsitish, masjid, madrasalar, ziyoratgoh joylarni oyoqosti qilish, noyob ma'naviy bisotlarni talash, dindorlarni ta'qib-u quvg'in ostiga olish kabi nomaqbul ishlar bilan shug'ullandilar. Uchinchidan, o'lka xalqlarining xohishirodasi ifodasi sifatida vujudga kelib, ularning milliy manfaatlari yo'lida ilk qadamlar qo'yib borayotgan Turkiston Muxtoriyatining qonga belanishi, yurt farzandlarining qirg'in qilinishi, Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlar begunoh aholisining ayovsiz talon-taroj qilinishi va fojiaga giriftor etilishi mahalliy xalq sabr kosasini limmo-lim etib yuborgan edi. O'z otameros zaminida o'z milliy davlatchiligini barpo etib, boshqa millatlardek emin-erkin yashashga bel bog'lagan, yurt jilovini qo'lga olishga intilgan xalqqa, uning vatanparvar rahnamolariga nisbatan sovet tuzumi uyushtirgan bunday g'ayriqonuniy qirg'in-barotlar butun Turkistonni oyoqqa turg'izdi. Dilda toptalgan vatan, xalq dardi, armoni jo'sh urgan yuz minglab kishilarning qo'lda qurol bilan sovetlar zo'ravonligiga qarshi kurashi mana shu zaylda boshlanib ketdi[4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T.: Sharq, 2000.
2. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob -T.: Sharq, 2000.
3. Usmonov Q, Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yy) T.: "Sharq", 2007.

4. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.
2-kitob. –T.: Sharq, 2000.

ЎЗБЕКИСТОН ССР ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТИНИ МАФКУРАЛАШТИРИШДА ОАВ ВОСИТАЛАРИНИНГ РОЛИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Жўраев Ўткир Ортиқбоевич

Мустақил тадқиқотчиси

Tel: 94 447-42-42

E-mail: jorayevotkir@mail.ru

Аннотация: *Мазкур мақолада совет даврида Ўзбекистон ССРда “Ижтимоий бюртма” тизимининг шаклланиши ва уни аҳолига сингдиришда оммавий ахборот воситаларининг ўрни ва бу борада олиб борилган ишлар таҳлил қилинган.*

Калит сўз: *социализм, мафкура, тарғибот, оммавий ахборот воситалари, партия.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль средств массовой информации в становлении системы «Социальный заказ» в Узбекской ССР. В советский период и ее внедрении среди населения, а также работа, проводимая в этом направлении.*

Ключевые слова: *социализм, идеология, пропаганда, средства массовой информации, партия.*

Annotation: *This article analyzes the role of the media in the formation of the “Social Order” system in the Uzbek SSR. During the Soviet period and its implementation among the population, as well as the work carried out in this direction.*

Key words: *socialism, ideology, propaganda, media, party.*

СССРда ижтимоий буюртма юқоридан шакллантирилган. Бутун совет тузуми даврида мавжуд тузумнинг асосларини тарғиб қилиш совет оммавий ахборот воситаларининг асосий вазифасига айланди. Совет давлатининг бош мақсади янги типдаги инсонни – совет кишисини, индивидуалистик эмас, коллективистик тамойилларга амал қилувчи, кўнгилли равишда шахс манфаатларини жамият манфаатларига бўйсундирувчи ва жамият равнақи учун ўзини қурбон қилишга тайёр, материалистик ва атеистик дунёқарашга амал қилувчи, комунистик жамият доирасида амалга ошириш кўзда тутилган келажак авлодларнинг бахтли ҳаётини ўзининг олий мақсади деб билган шахсни шакллантириш эди[1].

Совет давлати ягона мафкурага асосланганлиги сабабли жамият ҳаётининг барча жабҳалари – сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маънавий соҳалар шу мафкурага бўйсундирилган эди. Оммавий ахборот воситалари совет тузумининг мафкуравий асосини ташкил қилган марксизм-ленинизм назариясига асосланган коммунистик мафкурани тарғиб қилиш оммавий ахборот воситаларининг асосий вазифаси ҳисобланган.

Аммо совет сиёсий тузумида юз берган ўзгаришлар билан бирга ижтимоий буюртманинг ҳам мазмун-моҳияти ўзгариб борди. Сталинизм, “илиқлик”, “турғунлик”, “қайта қуриш” даврларида шаклланган ижтимоий буюртма ва уни тарғибот қилиш усуллари турлича бўлиб, партиянинг шу давр учун яратилган мақсад ва вазифаларига жавоб берар эди.

1953 йили СССРда ҳокимият алмашгандан сўнг бутун иттифоқдаги сингари Ўзбекистонда ҳам «ижтимоий буюртма»нинг мазмуни ва йўналишида ўзгаришлар юз берди. Сталин даврида совет жамиятининг барча ғалабаларини битта шахс – Сталин номи билан боғлаш ва оммавий ахборот воситалари орқали шу фикрни омма онгига сингдириш аста-секин барҳам топди. КПССнинг XX съезидан сўнг эса оммавий ахборот воситаларининг қудрати “шахсга сиғиниш”ни танқид қилишга, Сталин даври жинойтларини очиб ташлашга қаратилди. Шу тариқа жамиятда янги “ижтимоий буюртма” пайдо бўлди.

1954 йили СССР раҳбарияти эътибори илмий-атеистик ташвиқот масалаларига қаратилди. Н.Хрушчев ўз сафдошлари билан Л.Берияни четлатганидан сўнг, у КПССнинг етакчиси сифатида ўз эътиборини мафкуравий ишларга қаратди. Н.Хрушчев ҳам бошқа кўплаб партия функционерлари қатори мамлакатдаги юқори диндорлик даражаси бу динга қарши ташвиқотнинг етарли даражада олиб борилмаётганлиги, КПССнинг пасивлиги ва руҳонийлар ҳамда диндорларнинг ҳаддан зиёд фаоллиги оқибатида, деб тушунарди. Демак, мамлакат раҳбарининг фикрича, аҳоли ўртасида фаол тарбиявий ишни йўлга қўйиш бу соҳада позитив натижа бериши мумкин эди[2].

Бу даврда Ўзбекистонда ҳам советларнинг узоқ йиллардан бери олиб бораётган атеистик сиёсати ва ташвиқотига қарамасдан, аҳоли орасида диний кайфият ҳамон жуда кучли эди. “1950-йиллар охирида расман мавжуд бўлган масжид ва қадамжолар билан бир қаторда, 270 та масжид ва 160 та қадамжолар республика ҳудудида норасмий фаолият юритарди, уларда норасмий муллалар хизмат кўрсатарди, талабалар ва ёшлар ўртасида диний кайфиятнинг ўсганлиги кузатилади. Рўза ҳайити ва Қурбон ҳайитида фақат

рўйхатдан ўтган масжидларга 1955 йили 164 минг, 1958 йили эса 288 минг киши ташриф буюрган. Самарқанддаги Ҳадиса Зумрад масжидида 1956 йил 19 июлда Қурбон ҳайити намозида 12 минг киши қатнашган, шунинг ярмини 25 ёшдан кичик ёшлар ташкил қилган. Тошкент шаҳар партия комитетининг маълумотига кўра, 1959 – 1960-йиллари турмуш қурган ёшларнинг 90 фоизи диний никоҳдан ўтишган”[3].

Бундай маълумотлар Ўзбекистоннинг партия раҳбарларини ҳам аҳоли, айниқса ёшлар орасида атеистик ташвиқотни кучайтиришга ундади. Бунда албатта газеталарнинг роли катта бўлди. Ўзбекистонда совет ҳокимияти йилларида газеталар сони кескин кўпайди. Агар Биринчи жаҳон уруши арафасида Ўзбекистон ҳудудида ҳаммаси бўлиб 14 та газета ва 3 журнал, жумладан, ўзбек тилида фақат 1 та газета ва 1 та журнал чоп қилинган бўлиб, газеталар ҳафтада икки марта ва 500 нусхадан чиққан бўлса, 1970 йилга келиб Ўзбекистонда ўзбек, рус, тожик, қорақалпоқ ва бошқа тилларда 226 та газета чоп этилар эди[4]. Бу газеталарнинг барчаси олдида совет турмуш тарзини, партия қарорлари ва бошқа расмий сиёсат йўналишларини кенг тарғиб қилиш вазифаси қўйилган эди. Агар бошқа мамлакатларда газета у ёки бу воқеа тўғрисида бир нечта муқобил фикрларни бериб борган ва шу билан ўз обуначилари сонини кўпайтиришга уринган бўлса, СССР, жумладан, Ўзбекистонда газеталар партиянинг тарғибот қуролига айлантирилган эди. Газеталар тезкор хабарлар бериш билан бирга “коммунистик партия ғояларини аҳоли оммасига етказиб берувчи тарғиботчиларга” айлантирилди. Айни пайтда зиёли кадрлар тайёрлаш, уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш коммунистик партия сиёсатининг муҳим таркибий қисмини ташкил қилди. Бунда кенг билимли эмас, балки партия ғояларига содиқ авлодни тарбиялаш ишларига алоҳида аҳамият берилди[5].

Бу даврда атеистик тарбия ўзига хос “ижтимоий буюртма” бўлиб, бунда назарий ташвиқотга алоҳида эътибор қаратилди. Назарий ташвиқотнинг сифати ва самарадорлиги, унинг юксак илмийлиги, ҳаёт билан боғлиқлигини таъминлашга эътибор кучайтирилиши совет кишиларида қизиқиш ва партиянинг дастурий мақсадларини амалга оширишга онгли ёндашувни, жамиятнинг ҳар бир аъзосида буржуача ва ревизионистик мафкурага барқарор иммунитетни тарбиялаш эҳтиёжидан келиб чиқади. Агар матбуот – коммунистик қурилиш инструменти, омманинг илмий дунёқараши ва ғоявий иродасини тарбиялаш қуроли бўлса, матбуотдаги

назарий ташвиқот – ҳаётни билиш ва уни ўзгартиришнинг ўтқир қурол, энг муҳим воситаларидан бири, олий даржадаги ахборот манбаи.

Ўзбекистонда ҳам 50 – 60-йилларнинг бошларида бир қатор қарорлар қабул қилиниб, уларда жамиятни мафкуралаштиришда оммавий ахборот воситаларининг роли ва ўрни белгилаб берилди. Хусусан, 1952 йил февралда бўлиб ўтган Ўзбекистон Компартияси МКнинг X пленуми жамиятда ғоявий-сиёсий тарбияни кучайтиришга қаратилган қарор қабул қилди. 1954 йилдан эса атеистик тарғиботни кучайтириш оммавий ахборот воситаларининг асосий вазифасига айланди.

Дастлаб ахборот етказишнинг кенг тарқалган воситаси радио эди. Ўзбекистонда радио эшиттиришлари 1927 йилдан бошлаб олиб борилган. Уруш йилларида радио фронтдан хабарлар етказишнинг энг тезкор ва оммавий воситасига айланди. Урушдан кейинги йилларда, 1950 – 1960-йилларда ҳам радио ахборот етказиш ва коммунистик ташвиқотнинг шундай муҳим воситаси бўлиб қолаверди. Аҳоли республика асосий газеталарининг шарҳи билан ҳам дастлаб радио орқали танишар ва шундан сўнг газеталарни сотиб олишга киришар эди. Бу даврда телевидение кенг тарқалмаган бўлиб, радио коммунистик тарғиботнинг энг муҳим воситаси бўлиб қолаётган эди.

Шу сабабли 1960 йил 29 январда КПСС МКнинг “СССРда радиоэшиттиришларни янада яхшилаш тўғрисида”га қарори қабул қилиниб, унда аҳолини ғоявий тарбиялашда радиоэшиттиришларнинг роли катта эканлиги эътироф этилиб, мафкуравий тарғибот ва ташвиқот эшиттиришларига янада кўпроқ вақт ажратилиши вазифаси белиглаб берилди. 1950-йилларнинг бошларида қишлоқларда ҳали радиоприемниклар кенг тарқалмаган, фақат айрим хонадонлардагина бор эди. 50-йилларнинг иккинчи ярмидан хонадонларга оммавий равишда радиоузеллар ўтказиш бошланди ва айна пайтда радиоприемниклар ишлаб чиқариш ҳам кескин ортди. Ҳали телевидение оммалашмаган пайтда ўз уйида радиоприемникга эга бўлиш ахборотни танлаб олиш имкониятини берар эди. Аммо шу даврда чет эл радиоэшиттиришларига қарши радио тўлқинларни тўсиш ҳам авж олган эди.

Бу даврда радиоэшиттиришларнинг давомийлиги 12 соатни ташкил қилган. Умумий эшиттириш вақтининг 60 фоизини кўнгилочар дастурлар ташкил қилган бўлса, 40 фоизи жамият онгига коммунистик мафкурани сингдиришга қаратилган кундалик ва ҳафтада бир марта бериладиган “Комунистик ахлоқ ва тарбия” каби эшиттиришлар ташкил қилар эди[6].

Ҳокимиятга келган Л.Брежнев командаси фаолиятнинг ягона позитив дастурига эга эмасди. «Илиқлик» даврининг жамиятда, айниқса зиёлилар орасида таъсири кучли бўлганлиги учун брежневчилар сталинизмни очиқчасига реставрация қилиш йўлидан бормади. Айни пайтда ҳаёт мафкуравий йўриқларнинг маълум даражада модернизация қилинишини талаб қиларди. Зеро, КПСС XXII съездида қабул қилинган янги дастурга биноан СССР 1970 йили аҳоли жон бошига маҳсулот ишлаб чиқариш бўйича дунёнинг ривожланган мамлакатларини қувиб ўтиши, 1980 йилга келиб эса коммунизмнинг моддий-техник базасини яратиш лозим эди. Бундан ташқари «илиқлик» йиллари шахсга сиғинишнинг фош қилиниши узоқ йиллар давомида аҳоли онгига сингдирилган постулатларнинг ёлғонлигини очиқ ташлади. Шу сабабли 1960-йилларнинг иккинчи ярмида КПСС идеолог-лари бу саволларга жавоб берадиган концепцияни яратиши лозим эди.

Натижада ривожланган социализм концепцияси яратилди. Бу концепция, биринчидан, партия бошчилигида мамлакат «катта ютуқлар»га эришганини таъкидлаш, иккинчидан, халқ фаровонлигини ошириш, жамиятни демократизациялаш, жамиятнинг ўзини ўзи бошқаришга ўтиши ҳақида бирон бир аниқ фикр билдирмаслик имконини берди. Жамиятдаги мавжуд тартибларни ижтимоий тараққиётнинг олий ютуғи деб эълон қилган ривожланган социализм концепцияси тоталитар тизимни кўр-кўрона мақташ ва абадийлаштириш учун назарий асос яратди.

Оммавий ахборот воситаларининг бутун қудрати социализм ҳақида яратилган янги постулатларни тарғиб қилишга йўналтирилди. ОАВларининг барча турларида янги йўналишлар, рубрикалар ва мавзулар пайдо бўлди. Республика радиоси “коммунистик мафкурани халқ онгига сингдириш” билан шуғулланиб турган бир вақтда хориж мамлакатлари радиоларида Ўзбекистон ҳамда иттифоқдош республикаларнинг ҳаёти ҳақида, миллий республикаларга нисбатан совет ҳокимиятининг олиб бораётган сиёсатининг аслида қандай эканлигига қаратилган эшиттиришлар мунтазам бериб борилди. Совет ҳукумати эса бу маълумотларни инкор қилиш мақсадида республика радиоси оммавий тарғибот бўлими ходимлари олдида совет турмуш тарзи, унинг кун сайин “янада яхшиланиб бораётанлиги, эришилаётган “ютуқлар” тўғрисидаги маълумотларни радиоэшиттириш дастурларида кенг ёритиш ҳақида кўрсатма берди. Шу мақсадда республика радиосида “Совет турмуш тарзи”, “Улуғ Октябрь байроғи остида”, “Коммунизм йўлидан 60 йил”, “Меҳнат

сулолалари шажараси”, “Дўстлик – олмосдан мустаҳкам”, “Ўзбекистон дўстларимиз кўзи билан” каби бир қатор эшиттиришлар берилди[7].

Шунингдек, Ўзбекистоннинг социализм қуриш йўлидаги ютуқлари чет давлатлар, айниқса мустақилликка эришган ва ўз тараққиёт йўлини излаётган Осиё ва Африка мамлакатларига намуна қилиб кўрсатилди. Бу тарғибот ишида радио ҳам катта роль ўйнади. 1950-йиллар ташкил қилинган чет элларга радио эшиттириш бўлими 1970-йиллари дунёнинг 80 га яқин тилларида бутун дунёга эшиттиришлар берарди. Уларда, албатта, Ўзбекистон совет даврида эришган иқтисодий, ижтимоий ва маданий ютуқлар кўз-кўз қилинди, учинчи дунё мамлакатларини социализм йўлидан боришга ташвиқот қилинди.

Бу даврда жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ва маънавий ҳаётини мафкуралаштириш янада кучайди. Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий ва маданий жараёнлар сиёсий тус олиб, улар батамом КПСС мафкурасига хизмат қилишга бўйсундирилди. Сиёсий раҳбарият бутун совет жамиятида социалистик мусобақани кенг қулоч ёйдириб, коммунистик меҳнат учун ҳаракат қилишга, “коммунистик қурилишнинг янги ютуқларини “буюк саналар орқали нишонлаш”га даъват этди. Аммо “Улуғ Октябрнинг 50 йиллигига тайёргарлик тўғрисида”, “В.И.Ленин туғилган кунининг 100 йиллиги” каби бундай тадбирларнинг моҳияти қуруқ сафсата ва расмийчиликдан иборат эди, холос. Қолаверса, улар меҳнат жамоалари, ишчилар, колхозчиларга юқоридан мажбуран юклатилган бўлиб, Ўзбекистон жамиятида бу бирор ташаббускорликни келтириб чиқармади.

Бутун СССРда бўлгани сингари Ўзбекистонда ҳам аҳоли орасида коммунистик тарғибот ва ташвиқот турғунлик йилларида ўзининг энг юқори нуқтасига чиқди. 1970-йилларга келиб телевидение бутун республика ҳудудини қамраб олди ва теледастурлар муттасил кенгайиб борди. Давлат телевидениени қўллаб-қувватлаш учун жуда катта иқтисодий, интеллектуал ва бошқа ресурсларни йўналтирди ва бу совет сиёсий тузумида телевидениенинг муҳим ролини инобатга олганда, табиий ҳол эди.

Хуллас, совет жамиятида инқирозли жараёнлар яққол кўзга ташланиши билан ижтимоий буюртманинг ҳам мазмуни ва шакли ўзгариб борди. Аммо ҳар бир давр учун социализмнинг устунлигини, совет турмуш тарзининг афзалликларини тарғиб қилиш оммавий ахборот воситаларидаги ташвиқотларнинг асосини ташкил қилди. 1982 йили Л.Брежнев вафот этгандан сўнг жамиятдаги камчиликларни танқид қилиш, айрим иллатларни очиқ айтиш кучайган бўлсада, совет ташвиқотининг кўтаринки

руҳи, аҳолини социализмнинг келажагига ишонч руҳида тарбиялашга қаратилган чақириқ ва шиорлар билан чиқиш кун тартибидан бутунлай олиб ташланмади. Ижтимоий буюртма ҳам такомиллашиб, шаклан ўзгариб борган бўлсада, унинг мазмун-моҳияти совет тузуми қулагунча ўзгаришсиз қолди. Унинг асосини коммунизмга ишонч ташкил қилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Идеология, пропаганда и агитация в СССР: Справочное пособие / Авт.-сост. Д. В. Кузнецов. [Электронный ресурс]. – Б.м.: Б.и., 2019. С. 61.
2. Горбатов А.В. Пропаганда и СМИ в период хрущевской антирелигиозной кампании // Вестник Кемеровского государственного университета 2014 № 3 (59) Т. 2. С. 157.
3. Левитин Л. Узбекистан на историческом повороте. – Т.: “Узбекистан”, 2001. С. 202.
4. Союз нерушимый: Справочник. – М.: Политиздат, 1982. С. 137.
5. Қаранг: Хакимов Н. Политическая культура личности // Агитатор Узбекистана – 1990, № 4. С. 26.
6. Рўзметов А. Радио интернационал тарбиянинг таъсирчан қуроли//Ўзбекистон Коммунисти, 1983 йил 7 июнь. – Б. 90.
7. Темирова М. Совет ҳукумати даврида радионинг коммунистик мафкура тарғиботи воситасига айлантирилиши //Ўтмишга назар, 2020 йил, 3-жилд, 2-сон. Б. 68.

КИБЕРЖИНОЯТ ВА РАҚАМЛИ КРИМИНАЛИСТИКА

Собирова Насиба Авазовна

Ўқитувчи

(И.Ибрат номидаги Наманган давлат чет тиллар институти)

Аннотация: Ушбу мақолада рақамли криминалистиканинг асосий муаммолари ёритиб берилган. Шу билан бирга, ахборот технологиялари ва телекоммуникация тизимларидан фойдаланган ҳолда амалга оширилаётган ижтимоий муносабатларнинг аҳамияти, ушбу соҳага жалб қилинган пул ва моддий оқимларнинг қиймати ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: ахборот, телекоммуникация, технология, коммуникация, дастур, микроблок, идрок, эксперт, муаммо, маълумот.

Инсоният жамияти ўз рақамли ривожланиш босқичига жадал кириб бормоқда. Анъанавий ижтимоий муносабатлар тобора янги ахборот технологияларидан фойдаланиб амалга оширилмоқда ва улардан фойдаланмасликнинг деярли имкони йўқ. Афсуски, ушбу соҳани замонавий ҳуқуқий тартибга солиш технологиянинг ривожланиши суръатларидан тобора ортда қолмоқда. Амалдаги ҳуқуқий механизмлардан фойдаланишга бўлган уринишлар самарасиз бўлиб, керакли натижани бермаяпти. Шу билан бирга, ахборот технологиялари ва телекоммуникация тизимларидан фойдаланган ҳолда амалга оширилаётган ижтимоий муносабатларнинг аҳамияти, ушбу соҳага жалб қилинган пул ва моддий оқимларнинг қиймати уларнинг жиноий тажовуз объекти бўлиб қолишига олиб келади. Жиноят маълумотлари статистикаси юқори технологиялар (компьютер маълумотлари) соҳасидаги жиноятлар, уларнинг аниқланиш даражаси пастлиги ва уларга етказилган зарар миқдори муттасил ўсиб бораётганлигини тасдиқлайди. Мазкур муаммолардан келиб чиққан ҳолда ушбу тоифадаги жиноятларни аниқлаш ва тергов қилишнинг самарали усуллари ишлаб чиқиш долзарб бўлиб қолмоқда. Ахборот технологиялари ва телекоммуникацияларнинг энг илғор ютуқларидан кенг фойдаланиш билан боғлиқ ушбу тоифадаги жиноятларнинг ўзига хос хусусияти ушбу масалани янада кескинлаштирмоқда. Биринчи навбатда бундай жиноятларни содир этувчи ва ташкиллаштирувчи шахслар юқори маълумот даражаси, ностандарт ижодий ёндашиш, шунингдек, компьютер ускуналари

ва радио жиҳозларидан фойдаланиш бўйича, чуқур назарий билим ва амалий кўникмаларга эга эканликлари билан ажралиб туради.

Ҳозирги шароитда ахборот ва телекоммуникация технологиялари соҳасидаги жинойтчиликка қарши кураш инновацион ёндашувлар ва муҳим ўзгаришларни талаб қилади. Биринчидан, бу жинойтларнинг ушбу тоифасини аниқлаш ва тергов қилиш бўйича амалдаги жиноий процессуал тартибга солишдаги ўзгаришлар, махсус билимларни жалб қилиш шаклларини такомиллаштириш, шунингдек, жиноий таъқибнинг барча иштирокчиларининг махсус техник тайёргарлиги даражасини кескин ошириш зарур. Амалдаги жиноий-процессуал қонунчилик нафақат ахборот ва телекоммуникация технологиялари соҳасидаги жинойтларни аниқлаш ва тергов қилиш учун зарур бўлган махсус билимларнинг таркиби тўғрисидаги маълумотларни, балки махсус билим тушунчасининг умумий таърифларини ҳам қамраб олмаган. Шу билан бирга, махсус адабиётларда турли олимлар томонидан кўп йиллик илмий изланишлар натижасида ушбу тоифага нисбатан аниқ тушунчалар етарлича келтирилган. Мавжуд таърифларнинг ичида энг аниқ ва қисқача тавсифни Э.Р. Россинская тақдим этган бўлиб, бу ерда махсус билимлар "жиноий, фуқаролик ишлари бўйича суд процесслари жараёнида юзага келадиган масалаларни ҳал қилиш учун зарур бўлган махсус тайёргарлик ва касбий тажриба натижасида олинган маълум бир фан ёки технология, санъат, ҳунармандчилик соҳасидаги назарий билимлар ва амалий кўникмалар тизими" деб таърифланади. Ахборот ва телекоммуникация технологиялари соҳасига мувофиқ, ушбу таърифда суриштирувчи ёки терговчи муайян процессуал ҳаракатларни мустақил равишда бажаришга қарор қилишда ёки жалб қилинган мутахассис ёки эксперт томонидан зарур бўлган махсус билимларнинг мавжудлигини баҳолашда қарор қабул қилишда эътиборга олиш керак бўлган бир қатор асосий хусусиятларни таъкидлаш ўринлидир. Биринчидан, махсус билимлар соҳаси информатика соҳасида маълум ва мавжуд бўлган нарсалардан фарқ қилиши, умумий таълим ва оддий одамнинг кундалик тажрибасиданда кенгроқ бўлиши лозим. Кўп маротаба таъкидланганидек, махсус билимлар умумий маълум бўлган билимлардан фарқ даражаси одамлар ўртасида жуда ўзига хос ва ўта субъектив мавзу ҳисобланади. Бундан ташқари, вақт ўтиши билан (ўрганиш чоралари бўйича) бир хил одам учун махсус билим аста-секин одатий ҳолга айланади ва ҳеч қандай муаммо ёки қийинчилик туғдирмайди. Аммо, бизнинг фикримизча, маҳаллий ўрта таълимни ислоҳ қилиш ва информатика ва ахборот-коммуникация технологияларига ўрта

(тўлиқ) таълим стандартларини жорий этиш, шунингдек, ягона давлат имтиҳонидан сўнг, бу ёки бошқа билимларнинг қанчалик аҳамиятли эканлигини баҳолашга имкон берадиган аниқ қонуний асос пайдо бўлди. Кўрсатиб ўтилган стандартни синчковлик билан ўрганиш шуни кўрсатадики, ўрта (тўлиқ) умумий маълумотга эга бўлган оддий шахс (суриштирувчи, терговчи, адвокат ва судьяни англатади) нафақат информатика ва ахборот технологияларининг асосий тушунчалари ҳақида тасаввурга эга бўлиши, балки уларни амалий кундалик фаолиятида қўллаш кўникмаларига ҳам эга бўлиши керак. Стандарт матнида таъкидланганидек, улар "информацион муҳитда автоматлаштирилган ахборот тизимлари ва алоқа фаолиятини автоматлаштиришда қўллай олиш қобилиятига эга бўлиш лозим. 2012 - 2013 йилларда информатика фанидан ўтказилган имтиҳоннинг аниқ мисоллари мазмуни шуни кўрсатадики, ўрта мактаб битирувчисининг тайёргарлиги даражаси ахборот ва телекоммуникация технологиялари соҳасидаги жиноятларни тергов қилишда учрайдиган жуда муҳим ҳаракатлар мажмуасини амалга ошириш учун етарли бўлиши керак. Шу билан бирга, стандартнинг деярли бирор бир қисми билан (информатика фанлари ва АКТ соҳасидаги имтиҳон мисоллари) операцион тизим, почта мижозлари, браузерлар ва бошқалар билан амалий жиҳатдан боғланмаганлиги эътиборни тортади. Бироқ, сўнгги йилларда рақамли криминалистика (digit forensics) воситалари ва технологияларининг фаол ривожланиши билан, рақамли ташувчи воситалардан криминалистик маълумотларни қидириш ва ажратиб олиш автоматик ёки ярим автоматик махсус дастурий ва аппарат воситалари мажмуаларидан фойдаланиб амалга оширилмоқда. Бундай ҳолда, қоида тариқасида, қурилманинг (дастурнинг) стандарт ишлаш режимини ёқиш / ўчириш учун бирон бир махсус кўникма ёки махсус билим талаб қилинмайди. Шунинг учун бундай операцияларни бажариш учун мутахассисни жалб қилиш ёки экспертиза тайинлаш талаб қилинмайди. Терговчи бу ҳаракатларни ўзи мустақил равишда бажара олади. Адолат нуқтаи назаридан, шунга қарамай, бир нечта жуда муҳим жиҳатларга эътибор қаратиш зарур[10]:

Мавжуд қурилма ёки дастур криминалистик муаммоларни ҳал қилишга мўлжалланган бўлиши лозим, яъни ушбу қурилмалар ва дастурларни ишлаб чиқувчилар ишлатиладиган махсус билимларни олдиндан аппарат ёки дастурий кодда қайд этишган бўлади. Криминалистика воситасида бундай хусусиятларни мавжудлигини текширишнинг идеал усули бу уни амалий фойдаланишдан олдин махсус сертификатлашдир. Афсуски, ҳозирги вақтда

рақамли криминалистика воситаларини сертификатлаштиришни тартибга солиш усуллари мавжуд эмас.

Терговчи ушбу воситалар билан таниш бўлиши ва улардан фойдаланиш асосларини билиши лозим. Бироқ, унинг ҳаракатлари оддий стандарт операциялар чегарасидан чиқмаслиги керак. Иккинчидан, ахборот технологиялари, компьютер ускуналари объекти, дастурий тизимларнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги назарий билимлар аниқ технологиялар ва дастурий-техник воситалар билан ишлашда амалий кўникмаларга эга бўлиши шарт. Махсус илмий салоҳият, ҳаттоки илмий даража ва ахборот технологиялари соҳасидаги мутахассис унвонига эга бўлишлик ҳам унинг маълум бир ахборот тизимидан фойдаланиш бўйича юқори малакали эканлигини кафолатламайди. Масалан, операцион тизимлар назарияси бўйича дарс берадиган ва уларнинг тузилиши ва ишлашининг барча хусусиятларини мукамал тушунадиган ўқитувчи ёки профессор, маълум бир операцион тизимда дастурий таъминотни амалга ошириш тафсилотларини билмаслиги мумкин. Шундай қилиб, ҳатто ғоявий жиҳатдан ўхшаш, POSIX операцион тизимининг дастурий таъминотига мос келадиган оилада ҳам муайян функцияларни амалга оширишда жуда катта фарқларга эга бўлган ўзига хос вариантлар (Linux, FreeBSD, Solaris ва бошқалар) ажралиб туради. Бундан ташқари, ушбу тафовутлар криминалистик маълумотларнинг ўта муҳим манбаи бўлиши мумкин. Шундай қилиб, ахборот ва телекоммуникация технологиялари соҳасидаги "махсус билимларга эга бўлиш" мутахассиснинг нафақат назарий тайёргарлигига, балки маълум бир жинойт ишида пайдо бўладиган муайян ахборот тизимида ишлашнинг амалий кўникмаларига эга эканлигини англатади. Терговчи ёки суриштирувчи керакли мутахассисни (экспертни) маълум процессуал ҳаракатларни бажаришга жалб қилиш учун танлашда, маълумот ва маълумот даражасига эътибор қаратмаслиги керак. Бундан ташқари, баъзи ҳолларда, электротехник муҳандис, радиотехника ёки электроника муҳандисни тайёрлашнинг ўзига хос хусусияти унга аниқ кўринмайди. Терговчи учун янада қийин вазифа - бу мутахассиснинг амалий кўникмаларини баҳолаш. Ушбу масалада маълум бир йўналтирувчи аҳамиятни бирор бир ахборот тизимидан фойдаланиш тажрибаси (давомийлиги) ва содир бўлган ғайриоддий вазиятларда унинг ҳаракатларининг хроникасини кузатиш орқали эришиш мумкин.

Учинчидан, ахборот ёки телекоммуникация технологиялари соҳасидаги жинойтларни тергов қилиш жараёнида тергов ёки бошқа

процессуал ҳаракатларга жалб қилинган мутахассис (эксперт), жиноий аҳамиятга эга бўлган маълумотларни (рақамли криминалистика воситалари) тергов қилиш учун ихтисослаштирилган аппарат таъминот ва дастурлардан фойдаланиш бўйича махсус тайёргарликка эга бўлиши керак. Ахборот ва телекоммуникация технологиялари соҳасидаги жиноятларни тергов қилишда терговчи билан содир бўладиган барча нарсалар рақамли криминалистика воситалари призмасидан сезилади: ҳар бир махсус дастурлар ва техник воситалар маълум бир маълумот (математик) моделлари асосида қурилган. Ушбу рақамли криминалистика воситаларининг хусусиятлари олдингиларидан анча фарқ қилади. Масалан, микроблокларни тадқиқ этиш учун ишлатиладиган катталаштириш ойнаси ўрганилаётган объектнинг хусусиятларини, объект ҳақида маълумотни ўзгартирмасдан оддийгина кучайтиргич вазифасини бажаради. Бошқа томондан, рақамли тасвирни криминалистик экспертизаси учун ишлатиладиган дастур (масалан, расмни файл) дастлаб маълум бир маълумотлар тузилмаси (расмни сақлаш формати - jpg, tiff, png ва бошқалар) билан ишлашни ўз ичига олади. Бундан ташқари, агар таҳлил қилинган рақамли маълумотларнинг тузилиши ишлатилган рақамли криминалистика воситаси ғоясига тўғри келса, биз монитор экранда керакли тасвирни кўрамиз ва агар у мос келмаса, биз маъносиз рангли нуқта кетма-кетликка эга бўламиз. Криминалистик маълумотларини идрок этишнинг аналогли версиясида катталаштирувчи ойна мисолига қайтадиган бўлсак, рақамли криминалистика воситасининг иши қуйидагича ифодаланиши мумкин. Текширилаётган объектга акс эттириладиган ёруғлик катталаштирувчи ойнадан ўтиб, алоҳида бўлақларга (спектра) бўлинади. Шу билан бирга, улар жойларни маълум бир кетма-кетликда ўзгартирадилар. Бундан ташқари, уларга янги элементлар қўшимча равишда киритилиб, спектрнинг мавжуд бўлақларини қўшиш / камайтириш (кучайтириш ёки бостириш) орқали олинади. Рақамли криминалистика воситаларининг ишлаши ва уларнинг барча хусусиятларидан фойдаланиш қобилиятини билиш мутахассис (эксперт) олдида турган криминалистик вазифаларни сифатли ҳал қилишнинг энг муҳим шартидир. Юқоридагиларни умумлаштириш учун биз рақамли криминалистикада ишлатиладиган махсус билимлар таркибини аниқлаш учун (ахборот ва телекоммуникация технологиялари соҳасидаги жиноятларни тергов қилишда) қуйидаги вариантни таклиф қилишимиз мумкин. Рақамли криминалистика соҳасидаги махсус билимлар - бу компьютершунослик ва ахборот ва телекоммуникация технологиялари

соҳасидаги назарий билимлар ва амалий кўникмалар тизими, шунингдек, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги жиноий, фуқаролик ишлари, суд ишларини юритиш жараёнида махсус тайёргарлик ва касб-хунар тажрибаси натижасида олинган ахборот тизимлари ва криминалистика технологияларининг криминалистик хусусиятларини билишдир. Афсуски, ахборот ва телекоммуникация технологиялари нуқтаи назаридан махсус билимларнинг классик таърифида бўлгани каби, бизга энди на хунармандчилик, на санъат ҳақида гапирмоқлик ўринли бўлади. Зеро баркамолликка олиб келадиган ҳар қандай фаолият санъатдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Sobirova Nasiba Avazovna Ta'lim jarayonini raqamlashtirishning metodologik asoslari. "Interpretation and researches" / vol.1, 2023, p. 274-277
2. Н.Н Азизхужаева. Педагогик технологиялар ва педагогик махорат. Тошкент: УзЁУАЖ. 2006 й.
3. Фатахова, Д. Р. Мошенничество в сети Интернет / Д. Р. Фатахова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 49 (339). — С. 341-344. — URL: <https://moluch.ru/archive/339/76054/> (дата обращения: 15.12.2023).

BESHINCHI SHO'BA.

ISTIQLOL YILLARIDA O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOTI

ЮРТИМИЗНИНГ ИСТИҚЛОЛ ДАВРИДА МАЪНАВИЙ ВА МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТИ

Хайрулло Нишонов

*Исҳоқхон Ибрат номидаги Наманган давлат
чет тиллари институти биринчи проректори*

Узоқ минг йилликлар тарихи шундан далолат берадики, ўзбек миллий давлатчилиқ тарихи энг аввало маънавият - маърифатнинг жамият ҳаётида муҳим ўрин эгаллаганлиги билан чамбарчас боғлиқдир. Ушбу азалий анъанага мустақиллик йилларида ҳам алоҳида эътибор қадрият даражасига кўтарилди. Қайд этиш лозимки, истиқлолнинг дастлабки даврлариданоқ маданиятнинг усул ва услублари ўзгарди. Агарда, шўролар мустабид тузими даврида маданиятнинг асосий вазифаси жамият аъзоларининг коммунистик мафкура ва сохта ғояга эътиқодини мустаҳкамлашга сафарбар этиш бўлса, истиқлол даврида унинг мақсади мутлақо янгиланди.

Энг аввало маънавият масаласига ҳукумат даражасида, Президентнинг маънавий-маърифий омилларга нисбатан муносабати шаклланди. Жумладан, маънавий-маърифий ислоҳотлар давлат сиёсатининг асосий устивор йўналиши, деб ҳисобланди.

Жойларда маънавият билан боғлиқ ишларнинг амалга оширилиши учун бутун масъулиятнинг ҳокимлар, вазирликлар, идоралар, ташкилотларнинг биринчи раҳбарлари зиммаларига юклатилиши жуда катта ижтимоий аҳамият касб этди.

Маънавияти юксак миллат ва давлатнигина келажаги буюк бўлиши мумкин эканлиги тўғрисидаги ижтимоий фикр шакллана бошланди.

Истиқлолдан бошлаб Маънавият ва маърифат жамиятни поклантирувчи куч эканлиги эътироф этилмоқда

Истиқлол даврида Ўзбекистон жамияти маънавиятининг энг муқаддас мақсадларидан бири келажакни маънавий жиҳатдан мустаҳкамловчи жамоатчилик фикри шаклланди.

Истиқлол даврида маънавиятнинг ҳар қандай сиёсий ҳукмрон мафкуралардан ҳоилигига эришилди.

Биринчи Президентимиз И.Каримовнинг 1992 йил 7 мартдаги Фармони билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси қошида Дин ишлари бўйича қўмита ташкил этилди. 27 март куни Ўзбекистон Президентининг “Рўза Хайитини дам олиш куни деб эълон қилиш тўғрисида” фармон эълон қилинди. 1992 йилдан бошлаб ҳар йили мамлакатимизда рўза хайити умумхалқ байрами сифатида кенг нишонланмоқда. Шунингдек, қурбон хайити ҳам юртимизда дам олиш куни ва байрам қилиб нишонланадиган бўлди. Энг муҳими, халқимиз ўз тарихида биринчи марта бевосита ҳукумат ёрдамида ҳар йили муқаддас Ҳаж ва Умра амалларини адо этиш шарафига муяссар бўлмоқда. 1995 йил 19 майда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси қарори билан Тошкентда халқаро ислом тадқиқот Маркази ташкил этилди.

Ўзбекистонда истиқомат қилаётган кўп миллатли халқларнинг маданий тараққиёти, уларнинг ўзликларини англаш жараёнларига бўлган интилишларини қонуний-ҳуқуқий асосда қондириш масалалари ҳам мамлакат ҳукумати олдидаги энг муҳим вазифалардан бири бўлди. Шу ўринда 1989 йили маданият вазирлиги ҳузурида республика миллатлараро маданий марказнинг ташкил этилишини алоҳида таъкидлаш лозимдир.

Агарда 90-йилларнинг бошларида Ўзбекистонда 12 та миллий - маданий марказ фаолият кўрсатган бўлса, ҳозирги кунга келиб уларнинг сони 80 дан ортди. Мустақиллик йилларида миллий-маданий марказлар фаолияти устидан мувофиқлаштирувчи ишларнинг қўлами ҳам ортди ва 1992 йил январ ойида ҳукумат қарори билан Республика Байналмилал Маданий маркази ташкил этилди. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон ҳукумати маданиятдаги миллийлик ва байналмилаллик нисбатини сақлашга муҳим вазифа сифатида муносабатда бўла бошлади. Айти пайтда 130 га яқин миллат ва элат яшаётган Ўзбекистонда ҳар бир миллат равнақи, унинг барқарор тараққиёти, хавфсизлиги ва яшаш кафолотларига ҳар қандай таҳдидларнинг олдини олиш, у ёки бу миллатга мансуб кишилар гуруҳининг худбинлик кайфиятларини муқаррар тарзда бошқа миллат, халқ имкониятларини зўравонлик ва зуғум билан чегаралаб қўядиган давлат сиёсатининг ишлаб чиқилиши бу борадаги амалий ишларнинг самарасини оширди.

Юртимизда маънавий меросни тиклашга бағишлаб амалга оширилган улкан ишлардан бири Аҳмад ал-Фарғонийнинг 1200 йиллик, Имом Исмоил ал-Бухорийнинг 1225 йиллиги ҳамда Амир Темурнинг 660 йиллиги юбилейлари тантаналарини нишонлаш, уларнинг фаолиятини ва ижодини

тўлиқ ёритиб халқимизга баён этиш ҳамда номларини абадийлаштириш бўлди. Ҳукуматимиз қарори билан 1996 йил Амир Темур йили деб эълон қилинди. Унинг юбилей тантаналари нафақат Ўзбекистонда балки халқаро миқёсда улкан кўтаринкилик билан нишонланди. Амир Темурнинг ҳаёти, фаолиятига доир бир неча ўнлаб асарлар яратилди. Ўзи туғилган Шаҳрисабзда ҳамда Тошкентнинг марказида улкан ҳайкали ўрнатилди. Шунингдек, ниҳоятда хашаматли тарзда Темурийлар музейи биноси қад кўтарди. Амир Темур нишони таъсис этилди.

Бу қилинган ишлар шуни билдирадики, мустақиллик шарофати билан кўплаб ҳақиқатлар юзага чиқмоқда, яъни, шулардан энг йириги - шўролар даврида ғирт босқинчи, каллакесар, газанда деган номлар билан ниқобланиб келинган Амир Темур номи ўзининг ҳақиқий йирик тарихий шахс, интизомли иқтидорли ҳукмдор, этук саркарда, бунёдкор, йирик, марказлашган туркий давлат асосчиси деган ҳақиқий обрў-эътибори ва мавқеини тикланди.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, аجدодларимиздан қолган маданий тарихий меросга эътибор кучайди, тарихий ёдгорликлар давлат назорати остига олинди. Истиқлол йилларида Бухоро, Самарқанд, Термиз, Хива, Тошкент, Қўқон, Шаҳрисабз каби шаҳарларда улуғ аجدодларимизнинг юксак истеъдоди билан бунёд этилган обидалар ўзининг ҳақиқий кадр-қимматини топди, уларни таъмирлаш ва асл қиёфасини тиклаш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди.

Топталган тарихимиз, қутлуғ қадамжолар, ҳатто номлари ҳам унутилаёзган обидалар таъмирланди, қайта тикланди. Имом ал Бухорий, Имом ат-Термизий, Абу Мансур ал-Мотурудий, Аҳмад ал-Фарғоний, Бурҳониддин ал-Марғилоний, Маҳмуд аз-Замахшарий каби улуғ алломаларимизнинг шаънларига муносиб ёдгорлик мажмуалар яратилди. Тошкент, Самарқанд ва Шаҳрисабзда Соҳибқирон Амир Темур, Тошкентда Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Урганчда Жалолиддин Мангуберди, Термизда Алпомиш ҳайкаллари қад кўтарди.

Бугунги кунда мамлакатимизда этти мингдан ортиқ ёдгорлик, шу жумладан, 2500 та меъморий обида, 2700 тадан ортиқ монументал санъат асари давлат муҳофазасига олинган. 1991 йилдан Хивадаги Ичонқалъа қўриқхонасидаги, 1993 йилдан Бухоро шаҳри марказидаги, 2000 йилдан Шаҳрисабз шаҳри марказидаги ёдгорликлар Юнесконинг “Умумжаҳон маданий мероси” рўйхатига киритилди. 1860 йилларда бунёд этилган маданий мерос объекти хисобланган Ғойибназар қози мадрасасида

жойлашган “Исҳоқхон Ибрат – Қатағон қурбонлари хотираси” музейи Шавкат Мирзиёв ташаббуси билан Намангандаги илм, маърифат масканига асос солинди. Халқимизнинг муқаддас зиёратгоҳига айланиб, яхшилик ва эзгуликка, тинчлик ва осойишталикка, ўзаро аҳил ва ҳамжиҳат бўлишга хизмат қилмоқда.

Мамлакатимиз ҳудудида мавжуд бўлган тўрт мингдан зиёд моддий-маънавий обида умумжаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйҳатига киритилган. Аجدодларимиз тафаккури ва даҳоси билан яратилган энг қадимги тошёзув ва битиклар, халқ оғзаки ижодидан тортиб, бугунги кунда кутубхоналаримиз хазинасида сақланаётган минг-минглаб қўлёзмаларгача бизнинг буюк маънавий бойлигимиздир. Бунчалик катта меъросга эга бўлган халқ дунёда камдан-кам топилади.

O'ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN'ATINI TADQIQ ETISH JARAYONIDA YOSHLAR TASHABBUSLARI VA YUTUQLARI

Kurbanov Ravshan Raimjonovich

*Namangan viloyati yuridik texnikumi yoshlar bo'limi uslubchisi 3-darajali yurist
O'zbekiston tarixi- (Tarix) ixtisosligi bo'yicha mustaqil tadqiqotchi*

E-mail: kurbanovravshan@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlarning tashabbuslari, yutuqlari ularda ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, taraqqiyot, xalqaro festival, tanlov, umumjahon, islohot.

СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ В ОБНОВЛЯЮЩЕМ ОБЩЕСТВЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Курбанов Равшан Раимжонович

*Дизайнер молодежного отдела Наманганского областного юридического
технического университета, юрист 3-го уровня, независимый исследователь
по специальности История Узбекистана- (История)*

Электронная почта: kurbanovravshan@gmail.com

Аннотация: В данной статье освещаются масштабные реформы, реализуемые в нашей стране, инициативы, достижения молодежи, дальнейшее развитие ее творчества и творческих способностей, ее отношение к национальным и духовным ценностям.

Ключевые слова: Культура, развитие, международный фестиваль, конкурс, всеобщий, реформа.

SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN A RENEWING SOCIETY: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Kurbanov Ravshan Raimjonovich

Designer of the youth department of the Namangan Region Legal Technical University, 3rd level lawyer, independent researcher on the specialty History of Uzbekistan- (History)

E-mail: kurbanovravshan@gmail.com

Abstract: *In this article, the large-scale reforms implemented in our country, the initiatives, achievements of young people, the further development of their creativity and creative abilities, and their relationship to national and spiritual values are highlighted.*

Key words: *Culture, development, international festival, competition, universal, reform.*

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'li ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bilan chambarchas bog'liq. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"⁵⁸ Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam.

O'zbekiston madaniyati va san'atini o'rganishda yoshlar tashabbuskor guruhlari faoliyati asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar tashabbuslarining yutuqlaridan biri O'zbekistonning madaniy merosini saqlab qolishdir. Ko'plab milliy urf-odatlar va marosimlar yo'q bo'lib ketish arafasida edi, ammo yoshlar tashabbuskor guruhlarning sa'y-harakatlari tufayli ular saqlanib qolindi va kelajak avlodlarga yetkazildi. Eng yorqin misollardan biri – shohi-Zinda maqbarasi, Registon va boshqalar kabi qadimiy me'moriy yodgorliklarni tiklash va saqlash bo'ldi⁵⁹.

Shuningdek, yoshlar tashabbuslarining yana bir yutug'i-O'zbekiston madaniyati va san'atini o'rganishda yangi texnologiyalardan foydalanishidir⁶⁰.

O'zbekistondagi muvaffaqiyatli yoshlar tashabbuslarining bir misoli-2018 yildan beri har yili o'tkazib kelinayotgan "Tangri chiqqon garmoniya" (osmondan eshitiladigan Garmoniya) milliy madaniyat festivalidir. Festival O'zbekistonning turli mintaqalaridan kelgan yoshlarni madaniyat va san'at bilan bog'liq ijodiy loyihalari bilan chiqishlari uchun birlashtiradi. Bu yerda siz milliy musiqa va

⁵⁸ Shohmanov M. Madaniy meros va zamonaviylik. Toshkent, 2013. - B.28

⁵⁹ Nazarov A. Madaniyat va san'at loyihalarini boshqarish. Toshkent, 2015. – B.89

⁶⁰ Xolmatov M. Madaniyatshunoslik. Toshkent, 2011. – B.56

qo‘shiqlarni eshitishingiz, raqslarni ko‘rishingiz, milliy liboslar va xalq hunarmandlarining mahsulotlarini ko‘rishingiz mumkin.

Yoshlar tashabbusining yana bir misoli-2020 yilda tashkil etilgan “devorsiz muzey” loyihasi. Ushbu loyiha yoshlarga o‘zbek madaniyati va san‘atini uydan chiqmasdan o‘rganish imkonini beradi⁶¹.

O‘zbekiston madaniyati va san‘atini o‘rganishda yoshlar tashabbuslarining yana bir yutug‘i yoshlarning muzeylar, arxivlar va kutubxonalar ishida faol ishtirok etishidir. Yoshlar tarixiy va madaniy artefaktlarni saqlash va qayta ishlashga yordam berib, odamlarga O‘zbekiston madaniyati va san‘atiga chuqurroq kirib borish imkonini beruvchi yangi ko‘rgazmalar va dasturlarni yaratadi.

Bundan tashqari, yoshlar O‘zbekiston arxitektura va madaniyat yodgorliklarini tiklash va saqlash bo‘yicha turli loyihalarda ham ishtirok etmoqda. Yoshlar noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va tiklash uchun arxitektura va restavratsiya bo‘yicha mutaxassislar bilan birgalikda ishlaydi. Yoshlar o‘z mamlakatlari madaniyati va san‘atini saqlash, targ‘ib qilish va o‘rganishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Madaniyat va san‘at qadimiy va boy tarixga ega bo‘lgan O‘zbekistonda yoshlar milliy merosni saqlab qolish va uni xalqaro maydonda targ‘ib qilishda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston madaniyati va san‘atini o‘rganish jarayonida yoshlar madaniy merosni yosh avlod uchun yanada qulayroq va tushunarli qilish uchun virtual ekskursiyalar, onlayn kurslar va mobil ilovalar kabi yangi texnologiyalar va usullardan faol foydalanmoqdalar.

O‘zbekistonda mamlakat madaniyati va san‘atiga e‘tibor qaratish maqsadida ko‘plab yoshlar tashabbuslari amalga oshirildi. Masalan, 2019 yilda “ko‘cha makonidagi san‘at” loyihasi ishga tushirildi, bu yosh rassomlarga O‘zbekistonning turli shaharlarida ko‘cha san‘ati asarlarini yaratishga imkon berdi⁶².

Yana bir muvaffaqiyatli tashabbus - Samarqandda har yili o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” (Sharq yulduzlari) festivalidir. Ushbu festival xalqaro miqyosda bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab o‘zlarining an‘anaviy musiqa va raqs tartiblarini namoyish etadigan ijodiy jamoalarni birlashtiradi.⁶³

Qolaversa, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bilan 23 dan ziyod davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan shuningdek, 5ta xorijiy davlat tashkilotlari bilan o‘zaro tizimli hamkorlikni

⁶¹ Mirzaxmedov M. Yoshlar va madaniyat: hozirgi tendentsiyalar va qiyinchiliklar. Toshkent, 2020.- B.73

⁶² Nazarov A. Madaniyat va san‘at loyihalarini boshqarish. Toshkent, 2015.- B.45

⁶³<https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ma-naviyatini-yuksaltirishda-ta-lim-tarbiya-berish-tizimini-sifat-jihatidan-yangi-bosqichga-olib-chiqish-usullari>

rivojlantirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlar hamkorlik bitimlarini imzolandi⁶⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-avgustdagi PQ-3206-son Qarori asosida Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutini tashkil etildi. Ushbu institut tashkil etilishi orqali, mamlakatda yoshlar muammolarini o‘rganish, mazkur yo‘nalishda tahliliy va ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, istiqbolli yosh kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan yagona tizim yaratildi. 2017-yilda institutning 4 oylik qayta tayyorlash kurslarida 115 nafari yoshlar tahsil oldirildi. Ulardan 40 nafari vazirlik, idora va hokimliklarning hamda 16 nafari jamoat tashkilotlarining tegishli lavozimlariga tavsiya etildi, 18 nafari yuqori lavozimlarga ko‘tarildi. Bugungi kunda Ittifoq tizimlarida faoliyat yuritayotgan yosh kadrlar, 250 dan ortiq vazirlik, idora va tashkilotlardagi tegishli lavozimlar zaxirasiga kiritildi. “Kamolot” davrida esa bu kabi tajribidan foydalanish imkoni bo‘lmagan. Tahlillarga ko‘ra, 2012-2016 yillar davomida “Kamolot” tizimida faoliyat yuritgan ayrim yosh kadrlar mahalliy hokimliklar va tuman tashkilotlariga ijrochi lavozimlariga tayinlanib borilgan. Shuningdek, mamlakatimizda yoshlarga berilgan e‘tibor natijasida Toshkent shahridagi “Yoshlar ijod saroyi”da 35 nafar O‘zbekiston Davlat mukofoti sovrindorlari hamda 40 nafar “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni sovrindorlari tantanali ravishda taqdirlangan. Mazkur Dasturga muvofiq, har bir mahallada mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, o‘qituvchi-pedagoglar, namunali oilalarning nuroniylari, huquq tartibot organlaridan nafaqaga chiqqan faollardan iborat ishchi guruhlar shakllantirildi hamda doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga xorijiy davlatlarda bo‘lib, qaytib kelgan, ijtimoiy ahvoli og‘ir bo‘lgan oilalarda yashovchi jami 50137 nafar (shundan, 3870 nafari yoshlar voyaga yetmaganlar) yoshlarning turmush tarzi bilan yaqindan tanishildi. Hududlarda yoshlar bilan 5737 marta ochiq muloqotlar tashkil etilib, ularda 1,1 mln. nafar yoshlar qamrab olindi, 35581 ta kamchilik va muammolarning 23955 tasi joyida haletildi. Uyushmagan yoshlarga ijtimoiy psixologik maslahatlar berish, ish topishlariga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida “Yoshlarga imkon” loyihasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Xorijiy mamlakatlarda yurgan 508983 nafar yoshlardan 6933 nafari O‘zbekiston yoshlar ittifoqi ko‘magida yashash joyiga qaytarilib, ularning ish bilan bandligi ta‘minlanishiga amaliy yordam ko‘rsatildi⁶⁵. 2018-yilning 10-yanvaridan boshlab

⁶⁴ <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>

⁶⁵ Хайруллаев М., Шорахмедов Д. Маданият ва мерос. – Т.: Шарқ, 1973. – Б. 27.

209 ta to‘garak tashkil qilinib, ushbu to‘garaklarga jami 10087 nafar yoshlar jalb etildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va hamkor tashkilotlar tomonidan hisobot davrida 3 marotaba “Ta’lim va mutaxassislik” xalqar ko‘rgazmalari tashkil etildi. O‘tkazilgan ko‘rgazmalar davomida 40ga yaqin O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan mahalliy oliy ta’lim muassasalari, 30 ga yaqin nodavlat ta’lim muassasalari hamda xorijiy davlatlarining 50 dan ortiq nufuzli oliy o‘quv yurtlari, ularning O‘zbekistondagi filiallari, xorijda ta’lim olishga ko‘maklashuvchi tashkilotlar, o‘quv markazlari o‘zlarining ta’lim dasturlarini tashrif buyurgan 30 mingga yaqin yoshlarga taqdim etildi. O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasini ilmiy tadqiqotlar asosida rivojlantirish, milliy madaniyatimizni takomillashtirish, moddiy – madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, yurtimizning jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish, yoshlarni yuksak ilm-ma’rifat egalari qilib tarbiyalashda har birimiz mas’ul ekanligimiz, vatanimizning porloq kelajagi yosh olimlar faoliyatiga bog‘liq ekanligi alohida ta’kidlandi⁶⁶.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi sa’y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O‘zbekiston tarixida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Shu o‘rinda birinchi tashabbus-yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo‘yicha yurtimizdagi mavjud 800dan ortiq madaniyat markazlarida 4522 ta to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularga 1762 ta musiqa jihozi yetkazib berilgan. Umumta’lim maktablarida tashkil etilgan 36503 ta to‘garakka 1 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at va musiqa yo‘nalishidagi 36503 ta to‘garaklarga 1,1 mln.nafar (18%) o‘quvchi-yoshlar jalb qilingan. 3 mingdan ortiq musiqa jihozlari yetkazib berilgan. Shu bilan birga matbuot anjumanida qolgan 4 yo‘nalish yuzasidan ham qilingan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tildi.

Jumaladan ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo‘yicha umumta’lim maktablarida 10 ta sport turi bo‘yicha 49196 ta sport to‘garaklari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 1,2 mln nafar o‘quvchi-yoshlar muntazam shug‘ullanib kelishayotganligi hamda 254 ta Bolalar va o‘smirlar sport maktablariga 328875 nafar, 54 ta Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport

⁶⁶ <https://lex.uz/docs/-5234746>

maktablariga 33438 nafar o‘quvchi-yoshlar jalb qilinganligi haqida ma’lumotlar aytib o‘tildi⁶⁷.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha yoshlarni kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishini tashkil etish maqsadida 72 ta “Raqamli texnologiyalar o‘quv markazi” faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi ham yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Ma’rifat karvoni” tadbirlari doirasida 3 mln dan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi, “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida 59 ta nomdagi 590 ming dona badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi. An’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanloviga 2017-2019-yillar davomida 2 mln. 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 8 nafar tanlov g‘oliblari bo‘lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg‘asi “Spark” avtomashinasi sovrindori bo‘lganligi ham yoshlarimizni kitobxonlik ruhiga yana qaytganini yorqin isbotidir.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash ishlarini tizimli tashkil etish yo‘nalishi ham eng dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib bugunga kelib Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va hamkor tashkilotlar tomonidan sohaga oid tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi hususida qizg‘in muzokaralar bo‘ldi. Ilk marotaba yosh xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiri, gender tenglik va ular bandligini ta’minlash maqsadida “Qizlar ovozi” platformasi yaratildi, – deydi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash boshqarmasi boshlig‘i Mukarram Nurmatova. – Forum doirasida mamlakat istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir qizlar safini kengaytirish orqali jamiyatda gender tengligini ta’minlash, shuningdek demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda qizlar faolligini oshirish maqsadida joylarda “Qizlar ovozi” klubi tashkil etildi. O‘tgan davr mobaynida xotin-qizlar uchun jami 170 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi⁶⁸. Hozirgi kunda respublikamizda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar soni 3596 406 nafarni tashkil qilmoqda. Shuningdek, 76,2 mlrd. so‘m imtiyozli mabag‘lar evaziga 76198 nafar yosh xotin-qizlar ish bilan ta’minlandi, 15935 nafar yosh xotin-qizlar kasb-hunarga o‘rgatildi⁶⁹.

⁶⁷ <https://lex.uz/docs/-5234746>

⁶⁸ <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=u>

⁶⁹ O‘zbekiston tarixi Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2006

Hulosa qilib aytganda mustaqillik yillarida mamlakatimizda buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini o‘rganish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, O‘zbekistonda madaniyat va san‘at sohasini ilmiy tadqiqotlar asosida rivojlantirish, ham milliy madaniyatimizni takomillashtirish, moddiy – madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, yurtimizning jahon hamajamiyatiga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash, millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish, yoshlarni yuksak ilm-ma‘rifat egalari qilib tarbiyalash buning uchun yosh rassomlar, musiqachilar, qo‘shiqchilar, raqqosalar va boshqa ijodkorlar o‘zlarining iste‘dodlarini namoyish etishlari, tanlovlar va san‘at festivallarini o‘tkazishda yanada ko‘proq shart-sharoitlar yaratishlarini tashkil qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati:

- 1.Mirziyoyev Sh. M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. – T.: O‘zbekiston, 2019.
2. Каримов И. А. Ватанимиз ва халқимизга садоқат билан хизмат қилиш –олий саодатдир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007.
- 3.Shohmanov M. Madaniy meros va zamonaviylik. Toshkent, 2013.
- 4.Nazarov A. Madaniyat va san'at loyihalarini boshqarish. Toshkent, 2015.
- 5.Xolmatov M. Madaniyatshunoslik. Toshkent, 2011.
- 6.Mirzaxmedov M. Yoshlar va madaniyat: hozirgi tendentsiyalar va qiyinchiliklar. Toshkent, 2020.
- 7.Хайруллаев М., Шорахмедов Д. Маданият ва мерос. – Т.: Шарқ, 1973.
- 8.<https://lex.uz/docs/-3026246>
- 9.<https://lex.uz/docs/-5234746>
- 10.<https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>

JADIDLARNI ANGLASH O'ZLIKNI ANGLASHDIR

Maxsudjonov Otabek Zokirjon o'g'li

Is'hoqxon Ibrat – Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib etish borasida amalga oshirilgan ishlar kabi mavzularni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Is'hoqxon Ibratning ilmiy faoliyati, qozilik ishlari hamda xotirasini abadiylashtirish haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Jadidlar tarixi, Qatag'on qurbonlari, Is'hoqxon Ibrat, "Is'hoqiya bosmaxonasi", "Is'hoqxon Ibrat – Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi.

ПОНИМАНИЕ ДЖАДИДОВ-ЭТО САМОСОЗНАНИЕ

Аннотация: В этой статье мы увидим такие темы, как независимость нашей Родины, свобода и неприкосновенность нашего народа, работа по увековечению памяти наших предков, которые отдали свои родные души в мирной борьбе за обеспечение мирной и благополучной жизни будущих поколений, изучение и пропаганда их деятельности и наследия. Также были высказаны мысли об увековечивании памяти Исхак-хана Ибрата, его научной деятельности, казымских делах.

Ключевые слова: история джадидов, жертвы репрессий, Исаак Хан Ибрат, "типография Исаакия", музей "Исаак Хан Ибрат – память жертв репрессий".

AWARENESS OF JADIDS IS SELF-AWARENESS

Annotation: in this article we can see such topics as the immortalization of the memory of our ancestors, the study and promotion of their activities and heritage, which were repressed during the period of the turbulent regime, fought valiantly on the path to the independence of our motherland, freedom and freedom of our people, the peaceful and prosperous life of future generations. It was also thought about the scientific activities of Isahak Khan Ibrat, the work of qazilik and the perpetuation of his memory.

Keywords: history of the Jadids, victims of repression, is'hoqkhan Ibrat, "is'hoqiya printing house", "is'hoqkhan Ibrat – memory of victims of repression" Museum.

So'ngi yillarda O'zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari juda ham og'riqli bo'lgan davrlarga yani jadidlar, qatag'on qurbonlari tarixiga

bag‘ishlangan juda ko‘plab konferensiyalar, ilmiy amaliy anjumanlar o‘tkazib kelinmoqda. Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta‘minlash yo‘lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag‘on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o‘rganish hamda targ‘ib etish borasida amalga oshirilgan ishlarni yodga oladigan bo‘lsak o‘tgan davrda mobaynida ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta‘lim muassasalari tuzilmasida qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2017-yil 22-noyabrdagi 936-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 8-oktyabrdagi F-5598-sonli farmoyishi, Yurtimizda 2001-yildan buyon har yili 31-avgust — “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida keng nishonlab kelinishi, “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etilishi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta‘lim muassasalari qoshida uning bo‘limlari tashkil etilishi va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanayotgan ko‘plab loyihalar so‘zimiz isbotidir.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari biz uchun judam qayg‘uli va fojialarga boy bo‘lgan davr hisoblanadi. Jadidlar tarixi o‘rganish nimasi bilan bizga foydali bo‘lishi mumkin? Bu tarix bizga o‘sha paytlardagi katta xatolar, og‘ir kulfatlar, voqea va hodisalarni anglashga ko‘maklashadi. Tarixni bilishning xech qanday og‘irligi bo‘lmaydi aksincha juda ham foydali tomonlari ko‘pdur. Tarix bizga o‘tmishdagi xatolarni takrorlamaslikni o‘rgatadi. Tarix o‘tmishdagi shonli davrlar va o‘zlikni anglashga ham yordam beradi. Chunki bizning tariximiz faqat fojialardan iborat emas balki, ulug‘ davlatlar, nihoyatda qudratli saltanatlar, amirlilar, xonliklar qurgan davlat hisoblanadi

XX asrning boshlarida xalqimizning oldida juda ham og‘riqli bo‘lgan bir tanlov turar edi. Bir tomondan qotib qolgan ijtimoiy-madaniy hayot vaziyatni isloh qilishni istamas edi. Ikkinchi tomondan o‘zligimizni inkor qiluvchi imperiya tomonidan taklif qilingan zamonaviy oqim bizning o‘zligimizni saqlashga inkoniyat bermas edi. Mana shunday davrda jadidlar maydonga chiqdilar. Ularning olg‘a surgan takliflari islohatlar o‘tkazish, zamonaviy davlat qurish, ma‘rifat, madaniyat va adabiyotga katta etibor berish orqali milliy uyg‘onishni shakllantirishga, yaratishga ular bel bog‘lagan edilar. Shu o‘rinda Namanganlik jadid ulamolarimizdan Is‘hoqxon Ibratning madaniyat haqidagi masnaviysidan parcha keltirish o‘rinlidir:

Ko‘rdim, Ibrat, jahon mashaqqatini,
Ko‘ramiz emdi aning rohatini.
Madaniyatni ko‘rmay odamdin,

Ketmasak erdi ushbu olamdin.
Madaniyat jahonda osoyish,
Xulq husni anga oroyish.
Madaniyatni(ng) shahrida turmish
Kishi go‘yoki jannat ichra emish.
Madaniyat xaloyiqqa rohat,
Ko‘rmagay g‘amni hech soat.
Madaniyatni(ng) shahri ichra tur,
Dashtda yurma, guliston ichra yur.
Sanga bu olam g‘animatdur,
Barcha ashyosi sanga ne‘matdur.

Jadidlar uchun ularning qo‘llaridagi boyliklar ikkinchi darajali vosita edi holos. Ular o‘zlarida bor barcha boyliklarini millatning tafakkurini o‘zgartirishga, isloh qilishga va Turkistonda juda ham salohiyatli bo‘lgan siyosiy harakat yaratishga bel bog‘lashgan edi.

Jadidlar o‘zliklarimizdan voz kechmagan xolatda o‘zligimizni parvarishlash, o‘stirish, rivojlantirishga harakat qilganlar. Jadidlar o‘zligimiz asosidagi islohot harakati yani zamonaviy yo‘lni shakllantirishga intilgan edilar. Lekin bu yondashuvni mahalliy aholi uchun naqadar jozibador ekanligini va imperiya uchun naqadar tahditli ekanligini bilgan o‘sha davrdagi chor rossiyasi amaldorlari jadidlarni qatag‘on qilgan edi. Bugungi kundagi Toshkent shahri Yunusobod tumani Bo‘zsuv kanali bo‘yida joylashgan Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuasi joylashgan. O‘sha paytlarda Toshkentning xilvat chekkasi bo‘lgan joyda 3 ta qatlgoxda sho‘rolar tomonidan millatning ilg‘or vakillari jadid ajdodlarimiz qatl qilingan.

Bugun O‘zbekiston xalqi va millati oldida juda muhim bo‘lgan vazifalar turibdi bu tariximiz va o‘zligimizni anglash vazifasidir. Tariximizni bilish bizga o‘tmishdagi xato kamchiliklarimizni to‘g‘irlash imkoniyatini beradi. Biz kimmiz degan savolga javob beradi. Bizning do‘stlarimiz kim ya‘ni o‘zlik masalasiga to‘liq javob beradi. Abdulla Qodiriy tabiri bilan aytganda “moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir”. Jadidlarni bilishimiz va bugungi milliy zehnimizga, siyosiy qarashlarimizga o‘tmishdagi, o‘tmish borasidagi bilimlarimizni joylashimiz, singdirishimiz kelajakdagi o‘zimizga bo‘lgan ishonchga va bugungi mustaqilligimiz ulug‘ ne‘mat ekanligini anglashga yordam beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududidan shunday ulug‘ siymolar yetishib chiqdiki, ularning hayoti, ijtimoiy, ma‘rifatparvarlik va adabiy faoliyatini o‘rganganimiz sayin bu davrning tom ma‘noda milliy uyg‘onish davri bo‘lganiga ishonch hosil qilamiz. Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Buxoroda Fitrat, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Sayid Rizo Alizoda, Abduqodir Shakuriy, Farg‘ona vodiysida Is‘hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Ibrohim Davron, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy kabi ziyolilarning aynan shu

tarixiy davrda maydonga chiqishi mustamlakachilik, jaholat sharoitida yashayotgan xalq taqdirini o‘zgartirib yubordi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Milliy uyg‘onish davrining yetuk namoyandalaridan biri, noyob iste’dod egasi, ko‘plab Sharq va G‘arb tillarining bilimdoni, o‘lkamizdagi ilk matbaachilardan biri sifatida Vatan taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan Is‘hoqxon Ibrat nomini abadiylashtirish maqsadida hamda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil Namangan viloyatida bo‘lib o‘tgan saylovoldi uchrashuvida ilgari surgan ustuvor vazifalar ijrosi doirasida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi 208-son qarori asosida Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida atoqli ma‘rifatparvar jadid bobomiz Is‘hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasi bunyod etilgan. Atoqli ma‘rifatparvar Is‘hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasida “Is‘hoqxon Ibrat – Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi”, “Is‘hoqxon To‘ra Ibratga atab zamonaviy bog‘, yodgorlik majmuasi hamda xorijiy tillarni o‘rganish maktabi tashkil etildi. Is‘hoqxon Ibrat muzeyi To‘raqo‘rg‘on tumanidagi madaniy meros obyekti bo‘lgan G‘oyibnazar Qozi madrasasi negizida tashkil etilgan. Dunyoviy bilimlarni chuqur o‘rgangan, yetti tilni mukammal bilgan serqirra ijodkor, olim va shoir, pedagog Ishoqxon Ibratning hayoti va ijodi yoshlar uchun chinakam ibrat maktabidir. Ibrat muzey ochilishida Prezidentimiz allomaning “Olti tilli lug‘at”, “Xatlar majmui”, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Zamon tarozusi” singari 14 ta tilshunoslikka oid, ilmiy-tarixiy, badiiy hamda ma‘rifiy asarlari haqidagi ma‘lumotlar bilan tanisharkan, domlanning ko‘plab kitoblari qatag‘on yillari yoqib va ko‘mib yuborilgani adabiyotimiz uchun katta yo‘qotish bo‘lganini afsus bilan ta’kidlaganlar.

Darhaqiqat, Ibratning ilk matbaachi, yangi usuldagi maktab asoschisi sifatidagi bemisl xizmatlari tahsinga sazovor. U 1908-yilda Orenburg shahridan litografik mashina xarid qilib ming mashaqqatlar bilan Namanganga olib kelgan va “Is‘hoqiya bosmaxonasi”ga asos solgan. Mazkur bosmaxonada o‘tgan asrning 60 yillariga qadar turli ilmiy-ma‘rifiy kitob va risolalar, “Turkiston viloyati gazetasi”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” singari gazetalar chop etilgan.

Shuningdek, Ibrat shoir sifatida ham devon tartib bergan. Ming taassufki, uning “Devoni Ibrat”i bizgacha yetib kelmagan. O‘z davrida el orasida yuksak e‘tibor topib, qozilik martabasiga erishgan, biroq, ayrim g‘alamisliklar bois tazyiqqa uchragan ma‘rifatparvar bobomiz 1937-yilda 75 yoshida hibsga olinib, vafot etadi.

Ayni paytda ushbu Ibrat muzeyida buyuk ajdodimizning qo‘lyozmalari, risolalari, foydalangan buyumlari, suratlari, liboslari, o‘quv qurollari va uy-ro‘zg‘or jihozlari hamda bir qator qimmatli va nodir manbalar o‘rin olgan.

Oqni qoradan ajratish hammaning ham qo‘lidan kelaveradigan ish emas. Adolat go‘yo tarozi, uning ikki pallasini o‘nga ham, chapga ham og‘dirmasdan muvozanatda ushlab turishga qodir insonlar hamisha el yurtida obro‘ e‘tiborga ega bo‘lganlar xuddi Ibratdek. Musulmon qavmida shariy va noshariylik tushunchasi adolat mezonining mustahkam poydevoriga aylanganini anglasak, o‘tmishdagi

qozilar zimmasida shu ikki narsani juda chuqur va puxta bilish, xukmi ajrimda undan chetga chiqmaslik, birini biriga aralashtirib quymaslik yagona shart edi. Bu kitob ko‘rgan, o‘qimishli ziyolilarning uncha munchasining qo‘lidan kelmaydigan ishga, ko‘plab odamlarni ichidan saralab saylash ham, tanlab tayinlash ham qiyindan qiyin masala. Hukm masuliyati kimning yelkasida bo‘lsa, o‘sha barchasiga javobgar bo‘lishi tabiiy. Axir ming-minglab murojatga muhtojlarni qanoatlantirish ma’suliyati qayerdayu, buning o‘rniga arzchida norozilik kayfiyatini uyg‘otib “qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqaradigan” kimsalarga xalq taqdirini topshirish qayoqda. Ibrat yashagan zamonda yuqoridagi ikki toifa qozilar ish yuritganini xech inkor qilib bo‘lmaydi. Yaxshilarga yondashib yaxshilarni yanada yaxshilab, yomonlarni yomonlikdan qaytarib janjalli masalalarni janjalsiz hal etilishiga yo‘llab, adolat tantanasini taminlashga intilganidanmi Is’hoqxon To‘ra To‘raqo‘rg‘on va Xonabodda qozilik lavozimini XX asrning birinchi choragida yigirma yilcha bajardi. Is’hoqxon To‘ra eng odil, eng faqirparvar qozi edi. U boyni ham, kanbag‘alni ham bir xilda tinglar va hukm chiqarar edi. O‘n yillar Is’hoqxon To‘raning xizmatida bo‘lgan Mulla Iskandar domla Abdulvaxob o‘g‘lidan yozib olinga ma’lumotda shunday deyiladi; Men o‘n yil to‘ramning xizmatida bo‘lib biron marta pora olganini, boylarga yon bosganini bilmayman, aksincha kambag‘al beva bechoralarning mushkulini yengillashtirishga harakat qilardi. To‘g‘ri poraxo‘r qozilarga o‘rganib qolgan xalq yuqori talabaqa pul turli tuman narsalar olib kelar edi. Lekin Is’hoqxon to‘ra bu narsalarni egasi bilan qaytarib yuborar edi. Shuning uchun ham boylar Is’hoqxonning o‘rniga ularga yon bosuvchi Mamatqul xojini qozilikka saylamoqchi bo‘ldilar. Lekin ularning so‘zi o‘tmay qoldi. Natijada, Mamatqul hoji Is’hoqxonga umrining oxirigacha dushman bo‘lib yurdi. Is’hoqxon to‘ra faqat xalq manfaati uchungina qozilik mansabida ishlagan. Uning uyida qozixonasida rus huquqshunosligiga oid kitoblar ham bo‘lib ruscha sud qonun qoidalaridan ham habardor edi.

Shu o‘rinda musulmon xalq hayotini nazoratga va tartibga solib turuvchi qozilar sudiga hukmronlikni qo‘lga olgan rus ma’murlari tomonidan nega yana yo‘l berilgan ekan? degan savol xayolimizda paydo bo‘ladi. “Malumki, O‘rta osiyo chor rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin ham qozilar sudi saqlanib qolindi va shariat qoidalar asosida sud ishlari olib borish imkoniyati eskiligicha qoldirildi, - deya izohlaydi ibratshunos Ulug‘bek Dolimov. – bu bilan chorizm yerli xalqqa nisbatan “odil”, o‘zini yerli xalqlar “panoxi” qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Lekin davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan jinoiy ishlarni qozilar sudida ko‘rish man etildi. Qozilik mansabi yuqori tabaqaning boyish manbalaridan biri edi. Qozilar boylar bilan bir yoqadan bosh chiqarib, xalqni talar, bor yug‘ini shilib olar, yuqori tabaqa manfaatlarini ko‘zlab ish ko‘rar, poraxo‘rlik bilan kun kechirar edilar.

Ibratning nainki hayotida, ijodida ham dalil va isbotga to‘la haqgo‘yligi manaman deb turishidan dalolatdir. Bu ikki talabni mahkam ushlagan Ibratning qozilik faoliyatida huquqshunoslikning adolat tig‘ini hamisha baland ko‘tarishida qo‘sh omili bo‘lib xizmat qilgani shak shubxasiz.

Albatta, tarixsiz kelajak bo‘lmaydi. Aytmoqchimanki, bugungi tinch va osoyishta hayotimizda ajdodlarimizning fidoyiligi, Vataniga bo‘lgan sadoqati, bu yo‘ldagi jasorati hech birimizga sir emas. Bugun kunda Is‘hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tasarrufidagi “Is‘hoqxon Ibrat – Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi o‘z faoliyatini to‘laqonli amalga oshirib kelmoqda. Muzeyning asosiy maqsadi ajdodlarimizning bosib o‘tgan yo‘llari va ularning mustaqillik va adolat tantanasi yo‘lidagi tengsiz jasoratlari xususida yaqindan tanishtirish. Yana bir ahamiyatli jihat qatag‘on qilingan jadidlar xotirasini abadiylashtirish, ularning hayot yo‘llari va faoliyatini keng jamoatchilikka ayniqsa, yoshlar e‘tiboriga asosli va to‘laqonli yetkazish bu kabi ma‘naviy maskanlarimizdan kutilgan natija sanaladi. Albatta, bunday ajdodlarimiz, Vataniga sadoqat, jasorat ko‘rsatganlar doimo bizga o‘rnakdir.

ISTIQLOL YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY VA MADANIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT MASALASI

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

“Alfraganus university”

Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

+998990347902

ORCID: 0009-0002-8931-1341

Annotatsiya: Maqolada, mustaqillik yillarida ajdodlarimiz moddiy va ma’naviy merosiga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Tasavvuf falsafasi, tasavvuf allomalarining asarlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, tasavvuf falsafasi, milliy g‘oya, ma’naviy meros, qadriyat.

ВОПРОС ОТНОШЕНИЯ К ДУХОВНЫМ И КУЛЬТУРНЫМ ЦЕННОСТЯМ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Турсункулова Шахноза Туйчиевна

“Alfraganus university”

доцент кафедры социальных наук

+998990347902

ORCID: 0009-0002-8931-1341

Аннотация: В статье рассматриваются изменения в отношении к материальному и духовному наследию наших предков за годы независимости. Анализируются философия суфизма, труды учёных-суфистов.

Ключевые слова: Суфизм, философия суфизма, национальная идея, духовное наследие, ценности.

THE ISSUE OF ATTITUDE TO SPIRITUAL AND CULTURAL VALUES IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Tursunkulova Shakhnoza Tuychievna

Alfraganus university

Associate Professor, Department of Social Sciences

+998990347902

Annotation: *The article examines changes in attitudes towards the material and spiritual heritage of our ancestors over the years of independence. The philosophy of Sufism and the works of Sufi scholars are analyzed.*

Keywords: *Sufism, philosophy of Sufism, national idea, spiritual heritage, values.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma'naviy-madaniy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, ajdodlarimizning moddiy-ma'naviy merosini o'rganish davlat miqyosidagi islohotlarning asosiy mazmunini aks ettirdi. Eskilik sarqiti deya toptalgan dinimiz, diniy qadriyatlar, muqaddas kitoblarni o'rganishga erkinlik berildi, diniy ulamolarning muhim asarlaridagi tarixiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy va qadriyatli jihatlarni ochib beruvchi yirik ilmiy izlanishlar olib borildi. Ajdodlarimiz merosini tub mohiyatini tushunish, ularda aks etgan insonparvarlik va hayot falsafasi bilan sug'orilgan o'z davrining teran fikr va chuqur falsafasi ifodalangan asarlari bilan tanishish imkoniyati yaratildi. Ta'lim sohasi, kutubxonalar fondi ajdodlarimiz ma'naviy merosi, ular yaratgan asarlarning nusxalari, tarjimalari bilan boyitila boshlandi. Ommaviy axborot vositalarida keng miqyosda ajdodlarimiz tarixi, ularning asarlari, faoliyati va ijodi keng yoritila boshlandi. O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlovchi milliy asoslar milliy tarixning haqiqatlari o'zini namoyon etgan davr sifatida istiqlol yillarida olib borilgan ma'naviy hamda madaniy sohadagi o'zgarishlar muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda buyuk allomalarimizning ziyoratgohlari tiklanib, ularning ilmiy meroslarini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Hakim Termiziy, Abduxoliq G'ijduvoni, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Suzuk ota kabi allomalarimiz nomlari bilan bog'liq qadamjolar obodonlashtirildi.[2] Ajdodlarimiz nomlari bilan bog'liq tarzda davlat siyosati doirasida katta tadbirlar amalga oshirildi. Bu hodisa mamlakatimizda ma'naviy-madaniy qadriyatlarga bo'lgan hurmat, o'zlikni anglash vositasi, mustaqillikni mustahkamlashning muhim poydevori hisoblanadi.

Masalan, Movarounnahr tarixida uchmas iz qoldirgan tasavvuf ta'limotining badiiy, falsafiy, diniy-madaniy, axloqiy-estetik mohiyati chuqur tadqiq etilishi kuzatilib, jarayon hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Hududimizda tasavvuf ta'limotining yashash davri 1200 yillik tarixiy davrni (XII asr) o'z ichiga olgan.

Tasavvufning asosiy mohiyati, rivojlanish tendensiyalari, tasavvufiy tafakkurda sodir bo‘lgan sifatiy o‘zgarishlarni tasavvuf allomalari ijodi va faoliyatida, ular yaratgan durdona asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tasavvufiy asarlarda xalqimizning boy ijtimoiy-ma’naviy tajribalarini, dunyoqarashini ko‘rish va falsafiy idrok etish mumkin. Tasavvuf ta’limotida borliq, olam, tabiat, jamiyat va inson muammolari diniy va dunyoviylik nuqtayi nazaridan, shu olam muammolaridan ajralmagan holda konseptual izchillikda, tizimlilikda asoslab berilgan. Bu jarayon tasavvufiy qarashlarning ta’limot, ilm darajasiga ko‘tarilishiga, paradigmal tushuncha va tamoyillarning ishlab chiqilganligiga ta’sir ko‘rsatgan. Tasavvuf ta’limotidagi eng ko‘p ishlatilgan termin, asosiy jihatlardan biri go‘zallik haqidagi qarashlardir.

Tarixdan ma’lumki, XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlar dunyoqarashida tasavvufiy tafakkur tarzi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Tasavvuf manbalari 1) nazariy 2) falsafiy 3) badiiy shakllarga bo‘linadi. Tasavvuf falsafiy ta’limoti diniy xarakterga ega bo‘libgina qolmasdan, unda dunyoviy masalalar, antropologik, sotsiologik, ijtimoiy, madaniy, aksiologik muammolar ham aks etgan. Mustaqillik yillaridan boshlab tasavvuf ta’limoti, tasavvuf allomalar hayoti va ijodi, asarlari tadqiq etila boshlandi. Quyidagi ba’zi tasavvuf allomalar asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritdik:

1. Husayn Voiz Koshifiy (1442(46)-1505) “Futuvvatnomai sultoni” asarida tasavvufning amaliy axloqqa ta’siri, mardlik va fidoyilikka asos bo‘lishini tadqiq etadi. Tasavvuf ta’limoti targ‘ibotchilari bo‘lgan so‘fiylarning turli-tuman aqida, tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lishiga qaramay, tasavvuf falsafasining soflik, ezgulik, haqiqat, go‘zallik va kamolot idealini targ‘ib qilishi va bu ideallarning axloqiy-estetik ijodiyotda aks etganligi diqqatga sazovordir. [2.115]

2. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni shariat va tariqat ahli bo‘lish bilan birga ma’rifat va haqiqat ahli ham bo‘lgan. U doimiy toat va ibodat, Haq va xalq xizmatida bo‘lgan, odamlarni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat etgan, ustoz-shogirdlik kabi ezgu amallar bilan shug‘ullangan, o‘zidan boy ma’naviy meros qoldirgan. Ayniqsa, uning “Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoni”, “Vasoyo” (“Vasiyatnoma”, “Odobi tariqat” nomlari bilan ham mashhur) va “Az guftori Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni” nomli asarlari tasavvuf ta’limotining faqatgina aniq belgilangan rasm-rusumlar, marosimlar va muayyan axloq-odob qoidalaridan tarkib topgan bir majmuadan iborat bo‘lmaganligi, aksincha, bu ta’limot inson, hayot, jamiyat, dunyo, oxirat, borliq, ma’rifat, aql-idrok, tafakkur, hissiyot, ishq... kabi ming yillardan buyon insoniyat diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelayotgan bir qator hayotiy masalalar

va muammolar xususida qiziqarli va ibratli fikrlarni taqdim etganligini kuzatamiz. [3.149-150]

Insoniyat tarixining qaysi davriga oid bo‘lmasin buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish, tadqiq etish bizning mas’uliyatli burchimizdir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Xalq orzusi Aziziddin Nasafiy, Abu Mu’in Nasafiy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Zangi ota, Bahouddin Naqshband, Xoja Axror Valiy kabi aziz avliyo bobolarimizni tarbiyaladi, ularning kamoloti va ezgu faoliyatida o‘ziga xos ma’naviy tayanch bo‘ldi. ...Bu orzu Sohibqiron Amir Temur bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinchi uyg‘onish davri g‘oyalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat g‘oyasida mujassam bo‘ldi”. [1.17]

Tasavvufning ta’limot sifatida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, vazifalari hamda muammolari falsafiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan. Mamlakatimiz olimlari tomonidan tasavvuf ta’limotini o‘rganishda fanlararo yondashuv kuchli bo‘lib, uni adabiyotshunos, tarixchi, faylasuf olimlar tadqiq etishmoqda. XX asrning oxirlarida Najmiddin Komilov tomonidan “Tasavvuf” nomli kitob yozildi. “Komil inson axloqi” (1996-yil), keyin “Tavhid asrori” (1999-yil) nomli kitoblari nashr etilgan. Tasavvuf haqiqiy ma’noda insonparvarlik ta’limoti bo‘lib, insonning kamoloti, ruhiy-ma’naviy yuksalishi uchun qayg‘urib kelgan gumanistik ta’limotlar rivojiga bizning vatandoshlarimiz ham o‘z hissalarini qo‘shishgan. Din, falsafa, adabiyot, san’at va hokazolarning hammasi tasavvufning taraqqiy etishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Tarixiy izlanishlarda asosan tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lish davrlari, tasavvuf allomalar asarlarining miqdori, taraqqiyot bosqichlaridan iborat yillar, asrlar bilan bog‘liq tarixiy ma’lumotlar, mutasavvuflarning asarlari, hayoti va faoliyati tadqiq etiladi. Falsafa va falsafiy fanlar tizimida tasavvuf ta’limotining birmuncha murakkab va chuqurroq mohiyati ya’ni axloqiy, estetik, diniy (ilohiy) va sufiy mazmuni, falsafiy xarakteri (dualizmi, plyuralizmi, gumanizmi) o‘rganilmoqda.

Mamlakatimizda “o‘tgan yillarda xalqimizning ma’naviy merosiga yangicha yondashish va yangicha fikrlash taqozosi tufayli bizga noma’lum bo‘lgan ko‘pgina tasavvuf allomalari bo‘lgan yurtdoshlarimizni kashf etdik. Endilikda ularning ilmiy-ma’rifiy meroslarini o‘rganmoqdamiz, hayotga tatbiq etmoqdamiz va u buyuk zotlarning faoliyatlariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazmoqdamiz.” [5.4]

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy qadriyatlarga munosabat tubdan o‘zgardi, birinchidan milliy o‘zlikni anglash, haqqoniy tariximizni yaratish, ajdodlarimiz moddiy va ma’naviy merosini chuqurroq o‘rganishga kirishildi, ikkinchidan, ajdodlarimiz yaratgan durdona asarlardan xalqimiz bahramand bo‘lishdi, ularning hayot falsafasi, dinga munosabati, borliq va inson to‘g‘risidagi murakkab qarashlari o‘rganildi, uchinchidan, ajdodlarimiz bilan bog‘liq hududlar qadamjolar, ziyoratgohlarga aylantirildi, ularning asarlari tarjima qilinib, jahonga keng tarqalmoqda, to‘rtinchidan, istiqlol yillarida tasavvuf allomalarining hayoti va faoliyati o‘rganildi, asarlarining ko‘pma’noli mohiyati tadqiq etildi. Shu sababli, ajdodlarimiz merosini o‘rganish jamiyatimiz hayotining turli jihatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, insonda vatanparvarlik, insoniylik, ma’naviyatini yuksaltirishda, madaniyatini mustahkamlashda o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 17 b.
2. <http://old.muslim.uz>
3. Samadov A. Shaxs axloqiy-estetik idealining sinkretik xususiyati. Monografiya. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 115 b.
4. Xolmo‘minov J.M. Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta’limoti (Ibn-al-Arabiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Mavlono Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida). Monografiya. – T.: “Tafakkur”, 2020. 149-150 b.
5. Kattayev K. Tasavvuf allomalari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 4 b.

МИЛЛИЙ – МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТ УЧУН КУРАШ

Дилфуза Насретдинова

Наманган муҳандислик-технология
институтини “Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти
nasretdinova.dilfuza@mail.ru
тел: 99-391-24-76

Аннотация: Ушбу мақолада XIX аср охири – XX асрнинг биринчи чорагида Туркистонда Жадидчилик ғояларининг юзага келиши ҳамда халқнинг мустамлакачилик зулмидан сақлаб қолишнинг бирдан-бир чораси маданият ва маърифат билан қуроқлантириш зарурлигини тушуниб етган татар маърифатпарварлари ўлкада маданият соҳасида ислохотлар олиб бордилар. Ўлкага Европача театр санъатини олиб кирдилар ва халқни театр томошалари маънавиятини ўстиришга ҳаракат қилдилар. Бу жараёнларда татар маърифатпарвар аёллари ҳам фаолиштирок этиб, театр саҳналарида роллар ижро этиш, турли ҳил хайрия тadbирларини ташкил этиш ва ундан тушган маблағларни маърифат ва маданиятни ривожлантиришга сарф этдилар. Татар актрисаларининг маҳаллий театр труппалари қилган ҳамкорликлари натижасида ўлкада миллий театр санъатининг вужудга келганлиги ҳақидаги тарихий фактлар адабиётлар таҳлили ва вақтли матбуот нашрлари орқали ёритиб берилади.

Калит сўзлар: Туркистон ўлкаси, жадидчилик ғоялари, миллий маърифатпарварлар, татар маърифатпарварлари, театр санъати, ўзаро ҳамкорлик, хайрия ишлари, ўз устида ишлаш, маданий тараққиёт.

STRUGGLE FOR CULTURAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT

Abstract: In this article, at the end of the 19th century - the first quarter of the 20th century, Tatar enlighteners who understood the need to equip themselves with culture and enlightenment were the only way to save the people from colonial oppression, and carried out reforms in the field of culture in Turkestan. They brought the European theater art to the country and tried to cultivate the spirit of theater shows in the people. Tatar enlightened women took an active part in these processes, performed roles on theater stages, organized various charity events, and spent the proceeds for the development of enlightenment and culture. The historical facts about the emergence of the national theater art in the country as a result of the

cooperation of Tatar actresses with local theater troupes are highlighted through literature analysis and timely press publications.

Key words: *The country of Turkestan, ideas of Jadidism, national enlighteners, Tatar enlighteners, theater art, mutual cooperation, charity work, work on oneself, cultural development.*

БОРЬБА ЗА КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация: *В данной статье в конце 19 века - первой четверти 20 века татарские просветители, понявшие необходимость вооружить себя культурой и просвещением, были единственным путем спасения народа от колониального гнета, и проводили реформы в области культуры в Туркестане. Они привезли в страну европейское театральное искусство и постарались воспитать в народе дух театрального зрелища. Татарские просвещенные женщины принимали активное участие в этих процессах, исполняли роли на театральных сценах, организовывали различные благотворительные акции, а вырученные средства направляли на развитие просвещения и культуры. На основе анализа литературы и своевременных публикаций в прессе освещены исторические факты о зарождении национального театрального искусства в стране в результате сотрудничества татарских актрис с местными театральными труппами.*

Ключевые слова: *Страна Туркестан, идеи джадидизма, народные просветители, татарские просветители, театральное искусство, взаимное сотрудничество, благотворительность, работа над собой, культурное развитие.*

Кириш. Жаиддчилик ғояларининг Туркистонга кириб келиши ва ўлка тараққийпарварлари томонидан қўллаб қувватланиши натижасида, маданий маърифий ишларнинг жадал суръатлар билан мисли кўрилмаган даражада тараққий қилиши мазкур даврнинг муҳим ҳодисаларидан бири бўлди. Жаидд маърифатпарварлари Туркистонда халқни маданий-маънавий эҳтиёжларини қондириш орқали уларда миллий ўзликни англаш жараёнларини шакллантириш мумкин деб ҳисобладилар. Шунинг учун ўлкада европча театр санъатини олиб кирдилар ва маҳаллий миллий театр санъатига асос солдилар. Бу жараёнларда миллий тараққийпарварлар билан биргаликда татар маърифатпарварлари ҳам фаол иштирок этдилар.

-Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). XIX аср охири – XX аср бошларида жаиддчиликни Туркистонга кириб келишида татар маърифатпарварларининг ҳиссаси катта бўлган. Ўша даврга тегишли

бўлган вақтли матбуот нашрлари улар фаолиятини ёритиб беришдаги асосий манбалардан бири ҳисобланади. Татар маърифатпарварларининг фаолиятидаги шундай жараёнга эътиборни қаратиш лозимки, Туркия ва Эронда бўлгани каби улар сиёсий талаблар билан чиқишмаган, балки, ислом дини паноҳида ўлканинг турли ерларида ўқитувчи ёки муллалар тарзида ислохотчилик ишларини олиб борганлар. Чор ҳукумати маҳаллий аҳолининг диний ишларига умуман аралашмаган. Новое время газетасининг 1911йил 26 август сониди ёзилишича, « Туркистон генерал-губернатори К.П.Фон-Кауфман маҳаллий аҳоли диний ишларига аралашмаслик йўлини ҳақиқатда мусулмон аҳолининг диний ҳаётини биз эътибордан четда тутиб, қолоқлик ботқоғига ботган эски мактаблар асрлар давомида сақланиб келган қонун қоидалар асосида болаларни тарбиялаб, улардан рус ҳукуматига қарши руҳдаги тарғибот ишларини олиб борувчи кишиларни етишиб чиқишини кутилмаган ҳодиса эди. Лекин орадан 50 йил ўтиб эски мактабларни ислох қилиш ва маърифатпарварлик орқали тараққиётга эришиш мумкинлигини татар тараққийпарварлари олдиндан тушуниб етган эдилар[1].

Татар театр санъати XIX аснинг иккинчи ярмида пайдо бўлди ва жуда қисқа вақт ичида ўз йўналишига эга бўлиб, сахнада томошалар кўя бошлади. 1905 йилги революциядан сўнг унинг тараққий қилиши янада тезлашган. Татар театр труппалари Туркистонга 1911йилдан кириб келган бўлиб, бундай сафарларнинг тез-тез уюштирилиши натижасида ўлкада профессионал миллий театр вужудга келди[2]. Театрда татар аёлларининг фаолият кўрсатишлари аҳамиятга молик ҳодиса бўлиб, кейинчалик маҳаллий аёллар орасидан ҳам илк актрисаларни етишиб чиқиши ҳамда уларда театр санъатига бўлган ҳавасни ортишида сабаб бўлган дейишимиз мумкин.

Юқоридагилардан маълум бўладики, татар маърифатпарвар аёллари ўлкадаги ижтимоий ва маданий ҳаётда фаол иштирок этиб, ҳайрия ишларини ташкиллаштиришда ва унинг доимий бошқарилишда муҳим ўрин тутишган. 1904 йилнинг 4 апрелида Тошкентда яшовчи подполковник Еникеев уйида Новмиқ Камолнинг “ишқ балоси” спектакли қўйилган. Хонодон эгаси соҳиб Гиреевич асли Бошқирдистонлик татарлардан бўлиб, XIX асрнинг 90- йилларида Асака уезди бошлиғи эди.

Унинг турмуш ўртоғи Саодат хоним Еникеева санъатга қизиққан аёл бўлиб, роял чалишни яхши билган. Кейинчалик маориф жамиятининг раиси, ҳамда Туркистон хотин-қизлар маориф институтининг раиси бўлиб фаолият юргизган. Бу хонадонда доимий равишда санъат кечалари уюштирилиб турилган. Европача театр санъати ўлка халқлари учун ғоят катта янгилик бўлиб, унга бўлган қизиқиш кундан кунга ортиб борган. Тамошаларга халқ жуда кўп йиғилиб, қўйилаётган сахна кўринишларини мароқ билан

кузатишган. Ўлкада бу санъатнинг кенг тарқалиш омилларидан бири татар аёлларининг маҳаллий ҳаваскорлик театр труппалари билан қилган ҳамкорликлари катта ёрдам берган.

Шундай сахна кўринишларидан бири 1918 йилнинг 11-июн куни яъни, ҳайитнинг иккинчи кунида маҳаллий ҳаваскорлик театри билан биргаликда Лола Уралская бошчилигидаги татар театр труппаси билан уюштирилган кеча бўлган. Кеча икки қисмдан иборат бўлиб, унда “Масхараланган хоним” “Хат бўлғонди” номли комедия ва иккинчи қисмда “Она қабри ёнида” трагедиялари ўйналган. Бунда Лола Уралская ўзининг ролини маҳорат билан ижро қилиб, онаси қабри ёнида мунгли шеърини айтиши, унга скрипка навосининг жўр бўлиши тамошабинларда катта таассурот қолдирган. Сахнада шундай сукунат ҳукмрон эдики, гўё барча ўзини унинг қайғусига шерик бўлгандай ҳис қилиб, трагедия якунида актрисани гулдироз қарсақлар билан олқишлаган[9]. Совет ҳокимиятини мустаҳкамлашда унинг тарафдорларини кўпайтиришда, татар аёлларининг хизматларидан ҳукумат унумли фойдаланган

1912 йилнинг кузидан бошлаб, «Нур» труппаси ўзининг гастролларини бошлаб, Бухоро, Чоржуй, Тошкент, Марв шаҳарларида спектаклларини кўяди. Бундай ҳолат эса маҳаллий ҳаваскорлик театр труппаларининг вужудга келишида туртки бўлиб хизмат қилган бўлса ажаб эмас. «Нур» труппасининг Бухоро амирлигига қилган гастроли хақида С.Иззатуллина-Волжская бундай ёзади: «Когонда бир марта, Бухорода икки марта спектакл кўйдик, у чоқда ўзбеклар театр деган нарсани бирда кўрмаганлар, билет олув нима эканини билмас эдилар. Шунинг учун ҳам билетларни айланиб кўлдан сотишга тўғри келарди ... Шундай қилиб, Бухорода ишимиз оғирлик билан борди[11].

«Нур» труппасида ўша пайтда профессионал актёрлардан Фахринисо Самитова, Ильяс Казанский, Луиза Сиртлонова, Зулайхо Богданова ва Фаттох Латиповлар фаолият кўрсатишган. С.Иззатуллина-Волжская труппа репертуарини бойитишга ҳаракат қилиб, кўплаб драматургларни асарларини сахнага олиб чиқди. Хусусан, Ф.Шиллернинг «Макр ва Мухаббат», бошқирд драматурги Баранкуловнинг «Ошқозор» ва бошқа пьесалари сахнада кўйилди. Ф.Шиллернинг «Макр ва Мухаббат» трагедиясида С.Иззатуллина-Волжская Луиза ролини ижро қилган. Унга Абдулла Кориев, Муртазин Ийманскийлар партнёрлик қилишган. С.Иззатуллина-Волжская ҳар бир ролини юксак маҳорат билан ижро қилган. У ўзининг эсталикларида шундай ёзади: «Мен ўзимнинг ишимни севганлигим учун ролларни эркин ва енгил ижро қилардим. Бунинг учун мени ўз устимда кўп ишлашимга тўғри келарди[12].

Унинг таъкидлашича, актёр ҳаётини ҳақиқатни очиқ бериши, ҳар бири ўз йулидан бориб, яратганнинг инъом қилган қобилият ва иқтидорини

тарбиялаб бориши керак. У бошқаларга тақлид қилишни қоралади ва труппадаги актёрларга буни таъқиқлаб, уларга ўзининг қимматли ўғитларини бериб борган. Шунинг учун труппада соғлом муҳит яралган бўлиб, ҳар бир актёр ўз ролини сидқидилдан ижро этган, бундай ҳолатнинг юзага келиши «Нур» труппасининг мавқеини янада кўтарилишига сабаб бўлган.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Юкоридаги маълумотлардан куриниб турибдики, Туркистон ўлкасига европача театр санъатини кириб келишига айнан татар маърифатпарварлари миллий тараққийпарварлари билан ҳамкорликни йўлга қўйишди. Натижада ўлкада миллий театр санъати шакллана бошлаган. Бу жараёнларда татар актрисалари ўта ўзига талабчан, ўз устида тинмай ишлаши ва мавжуд шарт-шароитлардан унумли фойдаланган ҳолда жамиятдаги хайрия ишларини олиб бориши ва турли хил театр кечаларини қўйишларидан тушган маблағларни маърифат ва маданиятни ривожлантиришга сарф этишлари жамиятдаги мавжуд муаммоларни маълум даражада ҳал этишга саба бўлган. Татар маърифатпарвар аёлларининг таъсирида маҳаллий миллат аёлларидан ҳам ўз театр санъатининг дарғалари бўлгн Сора Эшонтўраева, Замира Ҳидоятова, Лутфихоним Саримсоқова каби актрисаларининг етишиб чиқишига туркти берган.

Адабиётлар:

1. Новов Я..Политика игнорирования // Новое Время, 1911, №12735
2. Рахмонов М. Ҳ.Ҳ.Ниёзий ва ўзбек совет театри.Т., 1959, -Б.62
3. Мусулмонча театр// Улуғ Туркистон, 1918, № 137
4. Консерваторияда мусулмон хонимлари //Улуғ Туркистон, 1918. №94
5. Башир З. Тоҳир Зухра // Туркистон, 1923. №183
6. Очлар фойдасина тиётр // Улуғ Туркистон, 1918, №65
7. Болалар эртаси //Улуғ Туркистон, 1918, №48
8. Тиётр // Улуғ Туркистон, 1918, №118
9. Тиётр // Улуғ Туркистон, 1918, №61
10. Кумысников Л. Истоки сценического реализма. Очерк истории дооктябрьского татарского театра. Казан., Тат, кн.изд-во, 1982, -Стр 91
11. Рахмонов М. Ҳ.Ҳ. Ниёзий ва ўзбек совет театри.Т. УЗдавнашр,1959, - Б. 63
12. Кумысников Л. Истоки сценического реализма. Очерк истории дооктябрьского татарского театра.Казан., Тат, кн.изд-во, 1982, -Стр 102-103

O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI MA'NAVIY YANGILANISH JARAYONIGA YOSHLARNING MUNOSABATI

Mashrapov Shahzod Homidjon o'g'li

NamMTI "Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrasining assistenti

Tel: 973730995

E-mail: lutsifer0507@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanishi jarayonida o'zbek xalqi yoshlari munosabatining ijtimoiy-falsafiy tahlili ko'rib chiqilgan. Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan vatandoshlarimizning hizmatlari, yoshlarning tarixiy-me'moriy majmuaga bo'lgan munosabatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: Fan, din, falsafa, san'at, sivilizatsiya, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash, uchinchi renessans.

ОТНОШЕНИЕ МОЛОДЕЖИ К ПРОЦЕССУ ДУХОВНОГО ОБНОВЛЕНИЯ ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Машрапов Шахзод Хомиджон угли

Ассистент кафедры «Социальные науки и спорт» НамМТИ

Телефон: 973730995

Электронная почта: lucifer0507@gmail.com

Аннотация: В данной статье социально-философски анализируется отношение молодежи узбекского народа к процессу духовного обновления общества в новом Узбекистане. Проанализированы заслуги наших соотечественников, внесших большой вклад в развитие национальной и мировой культуры, отношение молодежи к историко-архитектурному комплексу.

Ключевые слова: Наука, религия, философия, искусство, цивилизация, духовность, осознание национальной идентичности, третий ренессанс.

THE ATTITUDE OF THE YOUTH TOWARDS THE PROCESS OF SPIRITUAL RENEWAL OF THE SOCIETY IN UZBEKISTAN

Mashrapov Shahzod Hamidjon ogli

Assistant of the Department of "Social Sciences and Sports" of NamMTI

Phone: 973730995

Abstract: *In this article, the socio-philosophical analysis of the attitude of the youth of the Uzbek people in the process of spiritual renewal of the society in the new Uzbekistan is considered. The services of our compatriots, who made a great contribution to the development of national and world culture, and the attitude of young people to the historical-architectural complex were analyzed.*

Key words: *Science, religion, philosophy, art, civilization, spirituality, awareness of national identity, the third renaissance.*

Mustaqillik yillarida ulkan ma'naviy va madaniy merosga ega bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixi, madaniyati va san'atini o'rganish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu nuqtai nazardan, milliy o'zlikni anglash, xalqlar o'rtasida totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, umumiy barqarorlikni saqlash borasidagi ishlarda tariximizga e'tiborni kuchaytirish uni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston jamiyatini ma'naviy yangilanish jarayonida ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroq, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib qoladi. Fan, din, falsafa, san'at, axloq, huquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyatning aniq shakllari hisoblanadi. Alohida shakldagi ma'naviyatning xususiyati maxsus tuzilish va ma'lum vazifalar majmuidan iborat, har birining ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, fan, din, falsafa, san'at, axloq, huquq, o'ziga xosligida ifodalanadi. Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, san'at) "chegaralanganlikda" farqlanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning aniq sohasiga aylanadi, boshqa shakllarida (axloqiy, estetik) faoliyatning barcha turlari qorishib ketadi.

Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan vatandoshlarimizning xizmatlari haqida yubiley tantanalari o'tkazildi. O'tgan yillarda Navoiy, Bobur, Qodiriy, Behzod, A.Farg'oniy yubileylari nishonlandi. Alohida tantanalar bilan xalqaro miqiyosda Ulug'bekning 600-yilligi, Amir Temurning 660 yilligi, Imom Buxoriyning 1225 yilligi o'tkazildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi va "Alpomish" eposining 1000 yilligi keng nishonlanib, kelinmoqda. Ayniqsa katog'on qurbonlarining begunoh xotirasi tiklanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi[3]. Buning yorqin misoli o'laroq o'lkamiz yoshlari hozirgi davrda ham milliy madaniyatni tiklashga asosiy e'tiborni qaratgan holda O'zbekiston xalqi jahon madaniyati va sivilizatsiyasining zamonaviy yutuqlarini egallashga harakat qilib, milliy va jahon madaniyati rivojiga hissa

qo‘shmoqda. Bu borada jadal amaliy ishlar qilinmoqda: xalqaro konkurs va festivallar o‘tkazildi, chet mamlakatlar madaniyat kunlari va san‘at asarlari ko‘rgazmasi namoyish qilindi. Buning dalili sifatida “Mirzo Ulug‘bek va uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi” (1994). “O‘zbekistonning jahonda tutgan o‘rni va roli”, “Buxoro va jahon madaniyati” (1995), “O‘rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasi” (1998) kabi mavzularda o‘tkazilgan xalqaro konferensiya va seminarlarni ko‘rsatish mumkin. O‘zbekiston o‘zining boy ma‘naviy va madaniy an‘analari va jahon madaniyati jarayonlaridagi faol ishtiroki tufayli uning xalqaro miqiyosidagi mavqei tobora oshmoqda. Buning yaqqol misoli 1997-yilda YUNESKO ijroiya kengashi a‘zoligiga O‘zbekistonning saylanishi va 1998-yil 6-noyabrda Toshkentda YUNESKO ijroya kengashining 155-sessiyasini o‘tkazilishidir. Unda O‘zbekistonning taklifi bilan “Jahon madaniyat va YUNESKO ning a‘zo davlatlaridagi faoliyati” degan hujjat qabul qilindi. Jahon madaniyatining ajlalmas qismi hisoblangan milliy madaniy merosni asrash va o‘rganish rejasi bo‘yicha O‘zbekiston YUNESKO bilan o‘zaro munosabatlarini yanada kengaytirishi va respublikada zamonaviy ta‘lim tizimini takomillashtirishi mo‘ljallangan[4]. Milliy an‘analarni tiklash bo‘yicha ham ko‘plab ishlar qilindi. Navro‘z, hayit kabi qadimgi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga qaytdi. Hayr muruvvat udumlarini davom ettirish va yosh avlodni barkamol o‘stirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi tashkil qilinib, dastlabki ordenini ham shunday ataldi. Nogiron bolalar uchun “Mehribonlik” kabi sahovat festivali muntazam o‘tkazib kelinmoqda. O‘zbekistonda xalqaro kino, teatr va “Sharq taronalari” kabi musiqali festivallar o‘tkazish yaxshi an‘anaga aylanib qoldi. Xalq bahshichilik san‘atiga e‘tibor kuchayib Respublika konkursleri o‘tkazildi.

Aholining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama ma‘naviy barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat‘iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlik hissi shakllangan, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash Yangi O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omilidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: – Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat‘iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi,

baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz[1] – deb, ta’kidlab o‘tdilar. Albatta, bugungi kunda bu borada yurtimizda barcha sohalarda ulkan o‘zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlarimizning bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari, iqtidori va layoqatini namoyon qilishlari uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Albatta, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyasi va Uchinchi Renessans asosini yaratish borasidagi tashabbusi bugun reallikka aylanib bormoqda. Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangrab, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Jumladan, yoshlarimiz o‘zlarining vatanparvarligi, mehnatsevarligi, ilmga chanqoqligi va olib borilayotgan islohotlarda daxldorlik hissini sezgan holda faol qatnashmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. B.14
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022
3. Хайруллаев М. Маданий мерос ва фалсафий фикр тарихи. –Т.: Шарқ, 1985. – Б. 89-90.
4. Azimova Ch., Jo‘rayev F. Tarixiy-madaniy meros o‘zlikni anglash omili sifatida. // Mamlakatimizda uchinchi renessans g‘oyasini keng targ‘ib qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati va o‘rni mavzusida ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. 2022-yil 12-may. – Denov, 2022. – B. 370-372.
5. Topildiyev O. Yoshlar – kelajak bunyodkorlari. – Namangan, 2013.

MUSTAQILLIK ARAFASIDA O‘ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MA’NAVIY HAYOTI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Usmonova Muhsina Alijon qizi

*Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillari instituti 1-kurs talabasi
Tel: 885701596*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillari arafasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayoti haqida ma’lumot beriladi.

Kirish so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy, “Paxta ishi”, sanoat kompleks, “Davlat tili maqomi”, qishloq sanoati, madaniy me’ros.

Annotation: This article provides information about the social, political, economic and spiritual life of the Republic of Uzbekistan on the eve of its independence, and based on specific sources, solutions to existing problems are analyzed.

Key words: social-political, economic-spiritual, “Cotton work”, industrial complex, “State language status”, rural industry, cultural heritage.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об общественно-политической, экономической и духовной жизни Республики Узбекистан накануне ее независимости, а также на основе конкретных источников анализируются пути решения существующих проблем.

Ключевые слова: общественно-политический, экономико-духовный, «Хлопководство», промышленный комплекс, «статус государственного языка», сельская промышленность, культурное наследие.

Mustaqillikka erishish arafasida yurtimiz ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazdi. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy vaziyat va aholining iqtisodiy-ma’naviy hayotidagi muammolar yurtimizning tezroq mustaqil davlatga aylanishiga asos bo‘ldi. Bu vaqtda O‘zbekiston iqtisodiy hayoti juda og‘ir ahvolda, xususan, sanoatning bir yoqlama rivojlanib, «paxta» sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og‘irlashib, onalar va bolalar o‘limining oshib ketishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta’qib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo‘ygan edi. O‘sha davlarda o‘zbeklar hayotida «Paxta ishi» va

«o‘zbeklar ishi» deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar aholining turmush tarzini ayanchli holga olib kelinishiga sabab boldi.⁷⁰

1989-yilda Toshkent, Farg‘ona, Andijonda ro‘y bergan millatlararo mojarolar, Kavkazdagi qurolli to‘qnashuvlar, quvg‘in qilingan xalqlarning o‘znoroziliklaridan razilona manfaat yo‘lida, respublikalarda, shu jumladan O‘zbekistonda paydo bo‘layotgan hurlik ovozi bo‘g‘ish uchun foydalandilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportatsiyaqilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo‘lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg‘ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo‘lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy vamillatlararo munosabatlarda qo‘shimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi.

Farg‘ona voqealaridan keyin O‘zbekistonning I.Karimov boshliq siyosiy rahbariyati bu masalada fojining asl sabablarini ochib tashlash, o‘z xalqining shon-shuhrati vaqadr-qimmatini himoya qilish yo‘lidagi o‘zlarining mashaqqatli urinishlarida ular respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qo‘ya boshladilar.⁷¹ XX asrning 80-yillari oxirida respublika ijtimoiy hayotida jonlanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora ayta olish imkoniyatiga ega bo‘la boshladilar. O‘zbek xalqining dilidagi g‘oya mustaqillik g‘oyasi edi, xalq mana shu g‘oyani ko‘tardi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to‘lqin boshlandi. Tarix taqozosi bilan elim deb, yurtim deb, yonib yashayotgan Islom Karimovdek fidoyi insonning O‘zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berilishiga olib keldi, adolat tiklandi. Islom Karimovning mustaqillik arafasida markazga har doim ham xush kelmaydigan, ammo respublika va uning aholisi manfaatlariga javob beradigan ichki hamda tashqi siyosati, amalga oshirgan chora-tadbirlari, rahbarlik irodasi va siyosatchi sifatidagi aql-idroki tarixiy burilish pallasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

I. A. Karimov respublikamizdagi o‘sha davrdagi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, aholining, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy va ijtimoiy ahvolini birmuncha bo‘lsa-da yaxshilash uchun paxta ekin maydonlarini qisqartirish, uning ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirishni maqsad qilib qo‘ydi.

O‘zbekistonning I.Karimov boshliq siyosiy rahbariyati har qanday masalada fojining asl sabablarini ochib tashlash, o‘z xalqining shon-shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish yo‘lidagi o‘zlarining mashaqqatli urinishlarida ular respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda

⁷⁰ <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/mustaqillikka-erishish-arafasida-o-zbekistondagi-ijtimoiy-iqtisodiy-jarayonlar>

⁷¹ O‘zbekiston tarixi Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2006

muhojirlikka qo‘ya boshladilar. XX asrning 80-yillari oxirida respublika ijtimoiy hayotida jonlanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora ayta olish imkoniyatiga ega bo‘la boshladilar. O‘zbek xalqining dilidagi g‘oya mustaqillik g‘oyasi edi, xalq mana shu g‘oyani ko‘tardi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to‘lqin boshlandi. I. A. Karimov respublikamizdagi o‘sha davrdagi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, aholining, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy va ijtimoiy ahvolini birmuncha bo‘lsa-da yaxshilash uchun paxta ekin maydonlarini qisqartirish, uning ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirishni maqsad qilib qo‘ydi. Shuning uchun 1989-yil 17-avgustda I. Karimov boshchiligidagi respublika hukumatining yig‘ilishida «qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta‘minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida»gi qaror qabul qilindi.⁷²

1989-yil 21-oktyabrda bolgan 11 sessiyasida «O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida» Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o‘rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo‘l ochib berdi. Shu ma’noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo‘lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobiy ta’sir etdi. Davlat tili haqidagi qonun milliy o‘zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo‘lida respublikadagi yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim siyosiy qadam bo‘ldi va milliy mustaqillikning ma’naviy poydevoriga asos bo‘ldi. O‘z-o‘zidan, ushbu Qonun o‘zbek xalqining mavqeini tiklashga, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to‘la amal qilishiga katta imkon yaratdi.⁷³

2019-yil o‘zbek tiliga «Davlat tili» maqomining berilganiga 30 yil to‘ldi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 21-oktyabr kuni «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni qabul qilindi. Unga binoan 21-oktyabr sanasi yurtimizda «O‘zbek tili bayrami kuni» deb belgilandi. Ona tilimiz fidoyilari, butun xalqimiz bu xushxabarni katta xursandchilik bilan qarshi oldi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ndegan edi:

«Bugun jonajon O‘zbekistonimiz «Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari» degan ustuvor g‘oya asosida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo‘ymoqda. Barcha sohalar bilan birga davlat tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Hozirgi kunda o‘zbek tili davlat

⁷² <https://lex.uz/ru/docs/-109394>

⁷³ <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2020/07/25/shavkat-mirziyoyevning-milliy-tiklanishdan-milliy-yuksalish-sari-kitobi-nashr-etildi-1461696>

tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiyijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda faol qo‘llanmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda.⁷⁴

Davlatimiz tomonidan ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish, jumladan, ta’lim tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan o‘nlab farmon va qarorlar o‘zbek tili ravnaqiga bevosita xizmat qilmoqda. Bu haqda gapirganda, keyingi yillarda ona tilimizda faoliyat yuritayotgan yuzlab bog‘chalar, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, yangi gazeta va jurnallar, teleradiyo kanallar, nashriyotlar, madaniy-ma’rifiy muassasalar, kutubxonalar tashkil etilayotganini qayd etish lozim. Aliser Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu yerda folklorshunoslik, dialektologiya, turkologiya, matnshunoslik kabi yo‘nalishlar ochildi. Bu borada yangi o‘quv dasturlari yaratilayotgani, darslik va qo‘llanmalar, risola va monografiyalar nashr etilayotgani, ilmiy anjumanlar, ommaviy axborot vositalari o‘zbek tilining buguni va istiqboli haqida amaliy taklif va tashabbuslar bildirayotgani g‘oyat muhim ahamiyatga ega”. Shuningdek, ushbu ma’ruzada O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a’zo bo‘lganligi, bu o‘z navbatida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, o‘zbek tilining esa xalqaro maqomining yuksalishiga olib kelishi haqida ham to‘xtab o‘tildi.⁷⁵

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi vamavqeini tubdan oshirish tog‘risida»gi Farmonning imzolanishi va unga binoan «Davlat tili haqidagi» qonunning qabul qilinishi xalqimiz hayotida ulkan voqea bo‘ldi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston tarixi Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2006
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/mustaqillikka-erishish-arafasida-o-zbekistondagi-ijtimoiy-iqtisodiy-jarayonlar>
3. <https://lex.uz/ru/docs/-109394>
4. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2020/07/25/shavkat-mirziyoyevning-milliy-tiklanishdan-milliy-yuksalish-sari-kitobi-nashr-etildi>

⁷⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_tili

⁷⁵ Sodiqov X. O‘zligini izlagan inson // Namangan haqiqati. 2011-yil, 5-yanvar.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEK TEATRI SAN’ATIDA YANGI ODIMLAR

Tursunboyev Yahyobek Mahmudjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustqalikka erishilgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasida teatr sohasida amalga oshirilgan ishlar va islohotlar, teatr sohasiga berilayotgan bugungi kundagi e‘tibor haqida ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Teatr, spektakl, madaniyat, dramaturgiya, ma‘naviy hayot, pyesa, repertuar.

1991-yilning 31-avgustida O‘zbekistonni mustaqil davlat deb e‘lon qilinishi qullik zanjirini uzib tashladi. Ozodlik qaror topgan mamlakatda ijtimoiy hayot yangi taraqqiyot yo‘liga kirdi. Milliy davlatchilik aqidalari qayta tiklandi, rad etilgan, quvg‘indagi dinu-diyonat o‘z o‘rniga qaytdi. Qoralangan buyuk siymolarning muborak nomlari oqlandi. O‘tmish va mavjud hayotni adolat va haqiqat nazari bilan baholashga barcha imkoniyatlar yaratildi.

Shuning oqibati o‘laroq teatrlarimiz sahnasida ketma-ket buyuk ajdodlarimiz hayoti, faolyatini yorituvchi piesa va spektakllar yuzaga keldi. Ular orasida Sohibqiron Amir Temur, uning davlat boshqarishda tutgan o‘rni, ma‘naviy dunyosini ochishga jazm etib yo‘zilgan asarlar yetakchi o‘ringa chiqdi. Mustaqillikning dastlabki yiliyoq Qashqadaryo sahnasida To‘ra Mirzoning “Amir Temur” (rej. B.Nazarov, 1991), shu muallifning Farg‘ona teatri sahnasida “Amir Temur va To‘xtamish” (M.Yusupov, 1996), A.Oripovning Milliy akademik teatrida “Sohibqiron” (O.Salimov, 1996), Alisher Navoiy nomidagi Katta opera va balet teatrida A.Ikromovning “Amir Temur” bir pardali operasi, shu kompozitorning “Tanovar” raqs teatrning badiiy rahbari YU.Isamatova bilan hamkorlikda yaratgan “Temuriy malikalar” xoreografik lirik qissa, Abror Hidoyatov nomidagi drama teatri sahnasida Murtazo Bafoyev musiqasi asosida B.Yo‘ldashev, G.Brimlar Sahnalashtirgan “Ipak yo‘li” plastik spektakl, Surxondaryo teatrida Qilich Abdunabiyevning “Amir Temur va Yildirm Boyazid” M.Ravshanov, 1995), Jizzax teatrida O.Yoqubovning “Fotixi Muzaffar” asarlarning sahnalashtirilishi boshqa respublika viloyat teatrlarimiz bilan birga qo‘shni davlat teatrlarini ham Temur va temuriylar mavzusiga e‘tiborini kuchaytirib yubordi. Mavjud hodisani e‘tiborga olgan respublikamiz hukumat idoralari Birinchi prezidentimiz I.Karimovning Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash haqidagi chiqargan farmoniga

hamohang “Navruz-67” O‘zbekiston teatr san’ati festivali o‘tkazishga qaror qiladilar⁷⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 1998-yil 26-martdagi “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998- yilda «O‘zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma’naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otuvchi spektakllar yaratishda, iste’dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko‘maklashdi.

Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995- yilda beg‘araz ajratilgan 47 mln. iyen qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 41 ta professional teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Har bir viloyatda qo‘g‘irchoq teatrlari bolalarga xizmat qilmoqda. 2001-yilda respublika teatr san’atida muhim tarixiy voqea sodir bo‘ldi. Hamza nomidagi O‘zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi. Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e’tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari «Sohibqiron», Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri «Jaloliddin Manguberdi», Abror Hidoyatov nomli o‘zbekdavlat teatri «Buyukipakyo‘li» kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo‘ydilar.

1997-yil oktabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan «Teatr: Sharq-G‘arb» xalqaro festivalida Yaponiya, Hindiston, Gonkong, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san’atkorlarining chiqishlari bo‘ldi.

Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan festivalda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O‘zbekistonlik teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar.

Festivalda A.Oripovning “Sohibqiron” peisasining spektakklari bilan to‘rta – milliy akademik teatr, Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo,

⁷⁶ Sayfullayev N. Teatr va zamon // Teatr. – Toshkent, 2010. – №2. – B.4

Qirg‘zitonning O‘sh viloyat teatrlari, “Amir Temur va Yildirim Boyazid” spektakli bilan Surxandaryo teatri, qo‘shni Qo‘zog‘iston Chimkent viloyat teatrlari Isroil Safarboyevning “Buyuk Temur” piesasing spektakli bilan Sirdaryo viloyat teatri ozorbayjon dramaturgi Husayin Jovidning yigirmanchi yillari yozilib, sahnalashtirilgach (1926) sahnada quvg‘inga uchragach “Amir Temur” dramasning spektakllari bilan ishtirok etishadi. Sohibqiron Amir Temur sahna qiyofasni yoritishda ijrochilardan Tesha Mo‘minov (Milliy teatr), Avaz Rajaboyev (katta opera teatri), Bozorboy Uzoqbergenov (Qoraqalpog‘iston musiqali teatri), Salohiddin Umarov (O‘sh teatri), Hamid Oripov, Baxtiyor Rizoqulov, Xolmat Ikromov (Farg‘ona teatri)lar jiddiy ijobiy natijalarga erishdilar⁷⁷.

O‘tgan asrning yigirmanchi yillarida Turon milliy teatr sahnasida olib tashlangan Cho‘lponning “Yorqinoy”, (N.Otaboyev, 1993) Fitratning “Abulfayzxon” (M.Azimov, 1994) spektakllari o‘zining oshiyoniga qaytarildi. Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasi bilan ketma-ket dramaturgiyaning isyonkor qiyofasi sho‘ro istibdodining qurboni ko‘rinishda U.Azimovning “Kunduzsiz kechlar” (V.Umarov, 1997) pesasi bo‘yicha yaratilgan spektakl misolida qadrdon ona teatri repertuaridan o‘rin oldi. Bu spektakllar safini X.Rasulning qomusiy olim Al Fargoniy hayoti va faolyatidan bahs yurituvchi tarixiy “Piri Koinot” dramasining spektakli (V.Umarov, 1998) to‘ldirdi⁷⁸.

Nomlari keltirilgan spektakllar misolida teatrlarning barcha jamoasi rejissyor, rassom, kiyim-kechak mutaxassisarlari kompazitor ijrochilari bilan birga keng ko‘lamda olmiy izlanish va ijodiy zahmatlarni boshdan kechirib ish tutdilar. Ularning orasida albatta bosh tarixiy qahramonlar ijrochilarga baxt ko‘proq kulib boqdi . Shu jumladan katta, murakkab qismatli timsollar talqiniga ko‘pdan tashna Erkin Komilov ham. U “Abulfayzxon”da Abulfayz, “Piri Koinot”da Al-Zokir timsollar qiyofalarining murakkab siyrati, shu siyratga yarasha munosib salobat va ruhiy qiynoqlarga to‘lib toshgan jismni o‘ta ifodali, ta’sirchan kechinma sahnalari bilan inkishof etdi. Erkin Komilovning “Piri Koinot”dagi qahramon ijobiy emas. Ijobiy qahramon Al Farg‘oniyning Hasad o‘tida o‘rtanayotgan muxolifi. Ammo ijro salobati, hatti-harakati, da1volari mohiyatining badiiy ta’rifi bilan kim o‘zarga ish tutib, qilmishlarini astoydil oqlamoqchi bo‘lib, mahorat bilan ish ko‘radi. Oxir oqibat ijro musobaqasida spektaklning qahramoniga aylanib, tamoshabin tasannosiga sazovar bo‘ladi. Spektaklning boshqa ijrochilaridan T.Mo‘minov (Ma’mun), G‘.Xijiyev (Al.Farg‘oniy), S.Yunusov, Zuhra Ashurova (Firdavs) talqinlari ham o‘z o‘rnida bo‘lib, spektakl bosh g‘oyasini ravon yuzaga chiqarish uchun

⁷⁷ Sattorov L. Ma’naviyat minbari // Namangan haqiqati. 2011-yil 26-mart.

⁷⁸ Усмонов Қ. Ўзбекистон қарамлик ва мустақиллик йилларида. – Тошкент: Фан. 1996. – Б. 74.

hizmat qiladi. Timsollar ijrosidan hayotiylik nafasi ufurib turdi. “Kunduzsiz kechalar”da o‘ttizinchi yillar qatag‘onining sanoqsiz qurbonlaridan biri Abdulhamid Cho‘lponing fojieaviy qismatini ko‘rsatish orqali zamoning ta’rifiga sig‘maydigan zulim, shubhayu-hadiq, chaqumu-hiyonat bilan to‘lib toshgan muhit kirdikorlarini atroflicha ochishga alohida e’tabor berildi. Cho‘lpon rolini M.Abduqunduzov bosiq muhokama, chidam xissi bilan ta’riflasa, rafiqasi Solihani Sh.Ismoilova ko‘proq sabru-toqati tugagan isyonkor ayol ruhida ijro etdi.

Fitrat rolini M.Ismoil bilan G‘Hojiyev, Oybek rolini F.Ma’sudov, Sezgir rolini T.Saidov, NKVD hodimi rolini A.Mahmudovlar olib chiqishdi. O‘ta uvoq, mehr va sadoqatning ramzi, dardu hasratini bayon qilaolish imkoniyatidan mahrum gungsaqov galdir timsolini F.Abdullayev otashin mahorat kuchi bilan ta’sirchan bayon etib berdi⁷⁹.

Mustaqillikning qisqa o‘n besh yillik qisqa tarixi davomida respublika teatrlari, shu jumladan Milliy akademik drama teatri repertuaridan tarixiy mavzudagi asarlar muttasil o‘rin olib keldi. Ana shundaylardan biri Y.Muqimov, X.Rasulning Makedoniyalik Iskandarning yurtimizga bostirib kelishi va unga qarshi Spitamen boshliq tarixiy xalq qo‘zg‘olini rivoyatnoma romantic rih bilan sahnalashtirilgan “Muqaddas Taxtizar” spektakli (A.Ismoilov, 2003) puxtagina rejissyorlik yechimi asosida timsolga erishilgan yutuqlarga boy bo‘ldi. Artistlarda M.Abduqunduzov bilan Q.Abdurahimov Iskandar rolini ikki xil munosabat, siyrat va suvratda sahnaga olib chiqishdi. M.Abduqunduzovning qahramoni o‘ziga haddan ziyod bino qo‘ygan takabbur g‘addor bo‘lsa, Q.Abdurahimov Iskandarning hisob-kitobi o‘zgacha, u ziyrak va tezob. Qotmadan kelgan, nigohida taftish va g‘azab yog‘ib turgan beshafqat fotix edi.

Spektaklda muhim o‘ringa ega Spitamenning xotini Zoroning onasi rolini Sh.Azizova ijro etdi. Bu, hozir marhum aktirsaning Milliy teatr sahnasida ijro etgan so‘nggi rollaridan biri. Sh.Azizova ko‘pdan beri orzun qilib qilib yurgan murakkab qismatli ona rolining ijrosiga shu timsol misolida ilk bor erishib, alohida, qunt va mehr bilan ishladi. Shu timsol misolida aktrisa ona va vatan hissi fojiasini ham og‘ir kechinmali, ham qalb nidosi bo‘lib yangragan ta’sirchan sahnalarda mahorat bilan ochib berdi⁸⁰.

Spektakl chiroyiga T.Karimov, P.Nosirov ijro etgan Donishmand, R.Avazov ijro etgan viloyat sarkori Oqsuvort rollari alohida ko‘rkamlik baxsh etgan bo‘lsa, K.Nasriddinpv talqinidagi Yilqichi timsoli umuman dramaturgiyada yangillik edi. Gap shundaki, yilqichi, umuman yilqichilik motabar kasblardan bo‘lib, jamiyat

⁷⁹ Sayfullayev N. Teatr va zamon // Teatr. – Toshkent, 2010. – №2. – B.3.

⁸⁰ Нурбоев А. Эгуликка елтувчи санъат // Гулистон. – Тошкент: 2004. – №2. – Б.2.

hayotida muhim o'rin tutgan bo'lsa, nima uchundir qalamkash, sahna ahli e'tiboridan chetda qolib kelayotgan mavzular sirasiga kiradi. Mazkur spektakl misolida yilqichi badiiy timsol sifatida tilga olinib, uni K. Nasriddinov vatan elga kerakli kasbning fidoisi, katta kasb egasi, zakovati teran zot darajasida talqin etdi. Spektakl qahramoni Spitamen U.Tillayev bilan M.Rahmonov o'ktam bahodir, bukilmaz irodali ozodlik jarchisining oiladan boshlanadigan xalq, vatan fojiasining hiyonat aralashgan begunoh qurboni sifatida ishonarli, ta'sirchan kechinmalar bilan ochib berishdi. Barcha timsollarning bir-biriga qovushimligi spektaklning xos alomatlari edi.

Tilga olingan davrida milliy va jahon mumtoz merosi namunalari doimo teatrlar e'tiborida bo'lganligi bilan muhimdir. Chunonchi, A.Cho'lponning "Yorqinoy", A.Fitratning "Abulfayzxon" asarlari bilan oldinma-keyin A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani E.Xushvaqto'v ssenariysi bo'yicha sahna yuzini ko'rdi (T.Azizov, M.Abdullayev, 1994). Bu spektaklning o'ziga xos alomati shunda ediki, insseirovka muallifi ham, rejissyorlar ham romanni aynan sahnaga ko'cherish emas, A.Qodiriy nafasi barq urib turadigan teatr ijrochilariga erishishni maqsad qilib, ijrochilarga saralanadi. Biroq hamma o'rinlarda ham ko'zlanggan murodga erishilgan bo'lmasada, ikki timsol talqinida yirik g'alab qo'lga kiritildi. Bu Ra'no bilan Soli Mahdumning talqini bo'lib, spektaklda e'tiborini zabt etgan shularning talqinida edi.

Ra'no rolini ijro etgan uchala aktrisa Z.Ashurova, M.Muxtorova, D.Yusupova o'ziga xos ish tutib, tomoshabin qalbida joy oladigan timsollar yaratdilar. Zuhra Ashurova chinakamiga Qodiriy nafasiga mos, yetuk sahna ustasiga xos jozibador obraz ixtiro edi. Uning ibo pardasiga yashiringan olovli qalbi, sho'x siyrati, Ra'noga mos chiroyi tomoshabin qalbiga jog' tashlar, huzur baxsh etar, ofaringa sazovar bo'lardi. Aktrisaning Ra'nosi Milliy teatr sahnasida ustozlar yo'lini davomidan, rivojidan darak beruvchi hodisa edi.

Madina Muhtorovaning Ra'nosi ham o'ziga xos rangga ega, uning nazokati Zuhranikidan o'zgacha, shudring tomchisidek beg'ubor, farishtadek ma'sum. Lekin unda yana qandaydir sifat va alomatlar bordek ko'rinadiyu buni ijrochi sir saqlaydi. Tomoshabin shu holatni sezadi, talqin shuni bilan purma'no.

G'aybulla Hojiyev ijro etgan Solihmahdum rolining ijrosi aktyor ijdoning yangi fasli boshlanib, kamaolat yo'liga chiqib olganidan guvohlik berdi. Artist mustaqil izlanisha qodirlini ko'rsatdi. U yosh ijrochiga ulug' yoshdagi kishilar tabiatini munosib ifoda usullarini ta'rif etishga xalaqit beruchi to'siqlardan dadil o'tib, qahramoni istagan maqomda, turli jilo bilan ko'rsata bilishni namotish etdi. Ijrodagi samimiyat, ayniqsa o'z qahramoni odatiga, tabiatga munosabatini avvaldan

boshlab, bichib qo‘ymay harakat qilishi obraz tabiiyligi, ayni vaqtda badiiy ta‘sir kuchini oshirib yubordi. G‘Hojiyev ijrosidagi Mahdum bilimdon va zukko odam. Tabiatiga kelsak, undagi xasislik tejamkorlik alomatidek ko‘rinadi. Shuning uchun ro‘zg‘ori saranjom-sarishta, uy ishini ikiridan-chikirigacha o‘zi idora qiladi. Chunki daromadi, toppish-tutishi o‘ziga ma‘lum. Yoshlikdan bu “xasislik” uning qoniga o‘tirib qolgan. Artist Solihmahdumni mulla, tolibi bilimlarga ustoz sifatida ta‘riflab, qora bo‘yoqlar bilan bo‘yamaydi. Xato va nuqsonlar “beayb parvardigor” deganlaridek bandasiga xos. Axir u Anvarni shunday darajaga yetishishning bosh sababchisi, Ra‘noning otasi. Ayni vaqtda o‘z zamonasining e‘tiboridagi kishisi. Jinoyatchi yoki pisand qilmaydigan shaxs emas. Uni tushinish, xatolaridan afsuslanish, ularni xatto qoralash mumkin. Sababi, uning taqdirida zamoning zayli, o‘tgan qaro kunlarning barcha zahmat-illatlati o‘z aksini topgan. G‘Xojiyev talqinidagi Mahdum yaxshi yoki yomon deb baho beradigan emas, kishini o‘ylantiradigan timsol. Tilining ravonligi, fikr bayoniga tomoshabin jalb etabilish artist ijro mahoratining kamolidan dalolat berardi.

Spektaklning yutuqlarning yana biri, bosh qahramon rollariga ko‘plab yosh ijrochilarni jalb etishishidan edi. Shu tufayli yoshlardan Fotih Jalolov Anvar, Durdona Yusupova Ra‘no roller orqali kelajakda qo‘llaridan ko‘p ish kelishi mumkinligini ko‘rsatishda. Anvar rolida F.Jalolov kabi R.Jo‘rayevga dastlabki ijodiy yutuq nasib etdi. Spektakl tomoshabob, muhlislarga zavqu-shavq bag‘shlaydigan bo‘lib chiqdi va teatr repertuaridan o‘rin oldi.

Respublika teatrlari repertuaridan o‘rin olgan ham tarixiy ham zamonaviy mavzularda yozilib sahnalashtirilayotgan asarlar orasida g‘oyaviy va badiiy jihatdan xom-xatolari hiylagina bo‘lsada mavzulari xilma-xilligi ko‘zni quvontiradi. Buning ustiga mustaqillik yillari dramturgiyaga ko‘plab yangi umidli mualliflarning kirib kelganligi ham quvonarli hol. Masalan U.Azim va uning «Alpomishning qaytishi», «Kunduzsiz kechalar», «Bir qadam yo‘l», E.Xushvaqto‘v va uning «Chimildiq», «Mashrab», «Qalliq o‘yin», «Qirmizi olma», S.Sirojiddinovning «Fig‘on» (Nodirabegim), «Hayot eshik ortida», T.Yunusning «Qor odam voqeasi», M.Boboyevning «O‘lim halqasi», K.Avazning «Marvarid taqqan ayol», «Tashliqdagi hangoma», «Jobbi Jo‘jakning hiylasi», «Javlon Jo‘ra», «Avesto – mehr farzandi» singari, X.Xursandovning «Kampir topaymi dadajon», «Bir o‘lib ko‘raychi», S.Imomovning «Superqaynona», «Erginamning orzusi», «Dada demayaman», I.Tursunovning «Bir qanoatlilar», P.Qodirovning «Uchkunli dunyo» singari ko‘plab asarlar shular jumlasiga kiradi⁸¹.

⁸¹ Абдуллаев Ж. Ҳақ йўлида ёниб ... – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.25.

Muhimi mustaqillik uzoq va o‘tmish va hozir, buyuk tarixiy shaxslari-u adabiy-madaniy merosimizdan tortib, xalq udumlarigacha yangi nazar bilan idrok etish imkoniyatini berdi. Ana shu yaratilgan imkoniyatlardan sahna san`atiga aloqador ijodkor va teatr jamolari unumli foydalanish yo‘liga o‘tdilar. Chunonchi, Milliy teatr sahnasida paydo bo‘lgan E.Xushvaqto‘vning «Chimldiq», (T.Azizov, M.Abdullayev, 1996), «Qalliq o‘yin», (T.Azizov, 2002) spektaklari teatr hayotida kutilmagan natijalarni berdi. Masalan «Chimldiq» premyera kunidan boshlab 2000 yilgacha to‘rt ichida 224 marotaba tamosha zali tirband holda ijro etildi.

Yigirma birinchi asrning boshlanishidan e‘tiboran O‘zbekiston teartlari sahnasida yangi bozor iqtisodiyoti sharoitida yuz ko‘rsatayotgan ijtimoiy hayot, insonlar turmish tarzda paydo bo‘layotgan o‘zgarishini aks ettishirga qiziqish ham ortdi. Ana shu mavzular atrofida bahs yurituvchi asarlar soni esa ko‘paya bordi. Milliy teatr sahnasida amalga oshirilgan O.Yoqubovning «Bir koshona sirlari» (T.Azizov, N.Mahmudova, 2000), U.Azimning «Bir qadam yo‘l» (V.Umarov, 2002), J.Jabborovning “Neksiya”, pyesalarining spektakllari shular jumlasiga kiradi⁸².

Shu keyingi besh yillik mobaynida Milliy teatr sahnalashtirgan e‘tiborga molik asarlardan yan biri Shukrulloning «Hasrat bog‘i» pyesasining spektaklidir. (T.Isroilov va S.Umarov, 2006). Qo‘yilma muallifi T.Isroilov rejissyor S.Umarov bilan spektaklni yetmishinchi va saksoninchi voqealari bahonasida butun sho‘ron tuzumi davrida xalq boshiga tushgan fojia va nadomatlar, qirchini qiyilgan, yoki aldov, firib qurboniga aylantirilgan avlodalar qismati xususdagi bir qissa shaklda qo‘shimcha tafsilotlar bilan boyitilgan spektakl qolipida sahnalashtirdilar.

Tamoshabin yigirmanchi – o‘ttizinchi yillardan binoan yetmishinchi-saksoninchi yillar afg‘on bosqini oqibatlarini o‘z ichiga olgan O‘zbekistondagi hayot manzalarini guvohi bo‘ladi. Shu o‘ramda o‘lkda vujudga keltirilgan muhit, shu muhitning turli toifaga oid kishilari tuhmat qurbonlari, sarobiy hayollar bilan jinoyatga sherik qahramonlari, jabridiydalarining noiloj dardkashlari, alamidan ichkilik, qo‘rquvdan hadik va shubhalarga muhtalo devonasifat kimsalari, nihoyat jabr va zulmdan qon qaqshagan ona faryodi jonli qiyofalarda gavdalanadi.

Bu natijaga rejissyor va jamoa muallif bilan hamkorlikda peysa qurilmasini qayta ko‘rib chiqish, yangi sahnlar ijro etish, ta’sirchan plastik yechimlar topish yo‘li bilan erishdi. Spektaklda ko‘tarilgan mavzu, ayniqsa undagi mavjud timsollarni teran va nozik his etish, rollarning ijrosida vaziyatu, munosabat, har qaysi timsolning holat-harakatini o‘rniga qo‘yabilish tufayli yaxlit ansabil vujudga keldi.

⁸² Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 2001. –Б.78-79.

Shuning uchun ham spektakllardagi rollar ijrosini katta-kichikligidan qat’iy nazar birini ikkinchisidan ustun qo’yish qiyin. Bu spektaklning fazilatlaridan biri shunda ham ko‘rinadi.

Mustaqillik bergan imkoniyatlardan Muqimiy nomidagi musiqiy teatri ham unumli foydalandi. Ayniqsa ilgari sahnaga olib chiqish mumkin bo‘lmagan diniy e’tiqod, uning buyuk ustunlari, yorqin tarixiy shaxslar siymolari mavzulariga bu teatrdan ham qiziqish ortdi. Shuning oqibatida mashhur «Avesto» baxs yurituvchi Y.Muqimov, B.Lutfullayevning «Mangu mash’al», N.Qobil, T.Qurbonovlarning Ibrohim alaxissalomning tavalludlari xususidagi «Namrud», X.Davron, B.Lutfullayevning «Boburshoh», N.Qobil, F.Olimovning «Na malakman, na farishta» (Mashrab) tarxiiy va tarixiy rivoyat musiqali dramalari vujudga kelib, sahna yuzini ko‘rdi. Ayni vaqtda teatr an’anaviy musiqali dostonchilik yo‘lidagi izlanishlarni davom ettirib, U.Azim va B.Lutfullayevning «Alpomishning qaytishi» musiqali dramasini tamoshabinga ko‘rsatishga qaror qildi.

Tarixiy mavzudagi asarlar qatorida X.Davron, B.Lutfullayevning “Boburshoh” (Sog‘inch) musiqali dramasining spektakli ham repertuaridan o‘rin oldi. 2003. Spektaklda Bobur rolini R.Ma’diyev, B.Xolmirzayev, Mohibegim rolini M.Bekjonova, Dildorabegim rolini O.Nazrullayeva, Xondamir rolini M.Salimov, T.Beknazarov, Malika Bayda rolini M.Ixtiyorova, Xoja xalifa rolini A.Ro‘ziyev, T.Rahimov, Yusuf tabib rolini S.Po‘latov, X.Nosirovlar olib chiqishdi⁸³.

S.Abdullayev, T.Jalilov, B.Nadejdinlarning teatr sahnasida 1949 yildan binoan chorak asr mobaynida sahnadan tushmay namoyish etilgan “Alpomish” musiqali dramasidan keyin U.Azim, B.Lutfullayevning dostonga boshqacharoq yondashuv bilan yozilgan “Alpomishning qaytishi” teatr sahnasida dostonga yangicha talqin ruhini baxsh etgan spektakl bo‘ldi (V.Umarov, E.Toshmatov, 1999). Mazkur tomoshada sodir bo‘ladigan hodisa, timsollar qilmishlariga baland romantik ko‘tarinkilikda ko‘ra ko‘proq fikrlar kurashi, kechinmali to‘qnashuv sahnalarga o‘rin berib ish tutildi. Zotan drama ham shu mantiqqa amal qilib bitilgan, undan yetakchi qahramonlardan tortib uvoq timsollargacha yuz beradigan hodisalarga munosabatlari aniq belgilangan obrazlar bo‘lib artistlar uchun yayrab, izlanib ish ko‘rish imkoni mavjud edi. Shu bois ham spektakl yorqin ijro etilgan badiiy timsollarga boy tamosha bo‘lib chiqadi. Unda yangi elliginchi yetmishinchi, saksoninchi-ikki minginchi yillar orasidagi avlodga mansub bo‘lib S.Po‘latov, F.Ahmedov, H.Пўлатова, M.Ихтиёрова, Д.Сафаева, O.Назруллаева, Б.Холмирзаев, N.Rustamov, Z.Boyxonova, G.Nosirova, T.Beknazarov, A.Uzoqov singari aktyor - aktrisalari asosiy rollarni ijro etishdi.

* International Organization for Migration (IOM). UN Migration. <https://www.iom.int/>

Mustaqillik davrida kechgan o'n besh davomida zamonaviy mavzuda bitilgan tajribali, shuningdek dramaturgiyaga yangi kirib kelgan mualliflarning ko'pgina musiqali drama va komediyalari sahna yuzini ko'rdi. Bular Shukrullo, N.Norxo'jayevning "To'ydan keyin tamosha", K.Avazov "Diyonatga hiyonat", R.Ma'diyev, F.Olimovning "Taqdir", "Devona", "Baxtli dugonajon", X.Xursandov, F.Olimovlarning "Toptalgan tuyg'u", "O'lding aziz bo'lding", yana X.Xursandovning kompazitor K.Komilov bilan hamkorlikdagi "Muhabbatim qisamtim", S.Imomov, F.Olimovning "Super Qaynona", "Superqaynona-2", S.Sirojiddinov, O.Abdullayevning "Osmon bag'ri keng", "Ne bo'ldi menga", N.Abbosxon, F.Olimovning "Jaydari kelin", G'.SHermuhammad B.Lutfullayevning "Quduq tubidagi faryod", R.Azizxo'jayev, X.Rahimovning "Kelin tanlov", N.Qobil, B.Lutfullayevning "To'da" singari asarlar shular jumlasidandir.

Teatrning 2007-yil repertuaridan adabiyot va sahna merosimizning ikki asari o'rin oldi. Bu A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani bo'yicha J.Jabborovning insenirovkasi, S.Yusupovning musiqa asosida yaratilgan "Otabek va Kumushbibi" musiqali dramasi (R.Ma'diyev, dir. J.Ortiqov, O.Komiljonov, A.To'rayev), A.Qahhor O.Abdullayevning "Tobutdan tovush" dramasi asosida yaratilgan musiqali fars spektakllari edi.

"Otabek va Kumushbibi"da Kumush rolini Zulfiya Umirova, Otabek rolini Muzaffar Hamidov, Yusufbekxoji rolini Fayzulla Ahmedov, O'zbekoyim rolini Maryam Ixriyova, Mirzakarim qutidor rolini Turg'unbeknazarov; "Tobutdan tovush"da Suhrurov rolini T.Beknazarov, Netayxon rolini G'Nosirova, Obidjon rolini K.Umirov, Azlarxon rolini D.Uzoqov, Yusuf rolini T.Pirjonov, Xojar rolini M.Ortiqovlar ijro etishdi. Istiqlol yillarida dramaturgiyada S.Imomov, S.Sirojiddinov, G'.Shermuhammedov, T.Nizom, Ziyon Najmiy, M.Ergashev, U.Qo'chqorov, A.A'zam, B.Islomov, T.Akbarxo'jayev, F.Boboxonova kabi qalamkashlar kirib keldi.

"O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan keyingi paytda o'tkazilgan "Dramaturgiya va zamonaviy qahramon" (2008) Yosh rejissyorlar (2009) ko'rik-festivallari dramaturgiya rivojiga turtki berish qatori o'z teatrini yaratish harakatida bo'lgan Ilhom Normatov, (Jizzah teatri), Ahmadulla Niyozov (Kattaqo'rg'on teatri), Gulruh Majidova (Sirdaryo), Shuhrat Abdullayev (Namangan), kabi yoshlar o'z viloyatlarida o'z istedodlarini namoyon etishlari uchun rag'batlantiruvchi juda muhim tadbirga aylandi.

Bugungi kunda poytaxtdagina emas, shu qatori viloyatlarda ham har bir teatrning o'z dramaturgiyalari tarkibi shakllanib bormoqda. Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san'ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish,

ular ongiga Milliy istiqlol g'oyasini singdirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Sodiqov X. O'zligini izlagan inson // Namangan haqiqati. 2011-yil, 5-yanvar.
2. Sayfullayev N. Teatr va zamon // Teatr. – Toshkent, 2010.
3. Sattorov L. Ma'naviyat minbari // Namangan haqiqati. 2011-yil 26-mart.
4. Усмонов Қ. Ўзбекистон қарамлик ва мустақиллик йилларида. – Тошкент: Фан. 1996.
5. Нурбоев А. Эзгуликка елтувчи санъат // Гулистон. – Тошкент: 2004. – №2.
6. Абдуллаев Ж. Ҳақ йўлида ёниб ... – Тошкент: Шарқ, 2002.
7. Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 2001.

OLTINCHI SHO‘BA.

O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA JAHON HAMJAMIYATI BILAN INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ЯНГИ ДАВР ГЕОСИЁСИЙ МАНЗАРАСИ

Жумаханов Шавкатжон Заиржонович

Наманган давлат университети

*География кафедраси доценти,
география фанлари доктори (DSc).*

E-mail: shavkat_72@mail.ru

Аннотация: *Мазкур мақолада Марказий Осиё минтақасида шаклланган геосиёсий вазият, шунингдек, минтақанинг марказида жойлашган Ўзбекистоннинг геосиёсий ҳолати ва стратегик муносабатлари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *минтақа, давлатлараро муносабатлар, ҳамкорлик алоқалари, ички ишларига аралашмаслик тамойили, қўшничилик муносабати, тенг ҳуқуқлилиқ, стратегия.*

ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЙ ЛАНДШАФТ НОВОЙ ЭРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: *В данной статье проанализирована геополитическая ситуация, сложившаяся в Центральноазиатском регионе, а также геополитическое положение и стратегические отношения Узбекистана, расположенного в центре региона.*

Ключевые слова: *регион, межгосударственные отношения, партнерские отношения, принцип невмешательства во внутренние дела, соседские отношения, равноправие, стратегия.*

GEOPOLITICAL LANDSCAPE OF THE NEW ERA OF CENTRAL ASIA

Annotation. *This article examines the Central Asian geopolitical situation, as well as the geopolitical situation and strategic relations of Uzbekistan, which is located in the region's center.*

Key words: *region, interstate relations, cooperation relations, the principle of non-interference in internal affairs, neighborly relations, equality, strategy.*

Жаҳондаги ҳудудий, иқтисодий-иҷтимоий, тарихий-маданий ва бошқа жиҳатларига кўра яхлитликни ташкил этган минтақалар ичида Евросиё материгининг ўртасида жойлашган Марказий Осиё ўзига хос аҳамиятга эга. Қозоғистон, Туркманистон, Ўзбекистон, Қирғизистон ва Тожикистон мамлакатларини ўз ичига олган мазкур ҳудудда етакчи глобал давлатларнинг ўзаро рақобатли манфаатлари кесишади. Чунки минтақа улкан энергетик ҳамда минерал ресурслар, маданий-цивилизациявий ва, энг муҳими — инсон салоҳияти, меҳнат ресурсларига эга. Шу билан биргаликда, халқаро терроризм, экстремизм ва наркобизнес таҳдиди мавжуд, у бевосита беқарорликнинг йирик ўчоғи яқинида жойлашган. Бу эса минтақадаги мамлакатларнинг ўзаро ҳамкорлик ва яхлитликда фаолият олиб боришини тақазо этади [4]. Шу каби ҳолатларни инобатга олган ҳолда, кейинги вақтда Марказий Осиё биргаликда ривожланишнинг ижобий суръатларини намоён этмоқда. Барча соҳада минтақавий ўзаро алоқалар кучаймоқда. Минтақа ичидаги энг кескин муаммолар — хавфсизлик, давлат чегаралари ва сувдан фойдаланиш тизимли асосда ҳал қилинмоқда. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 2018 йил июнда “Марказий Осиё минтақасида тинчлик, барқарорлик ва изчил тараққиётни таъминлаш бўйича минтақавий ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш” резолюциясининг қабул қилиниши [7] жаҳон ҳамжамияти томонидан мазкур минтақа давлатларининг жипслашуви, бинобарин, улар биргаликдаги саъй-ҳаракатлар билан умумий муаммоларни ечиш, хавфсизлик ва барқарор тараққиётни таъминлашга қодир эканлиги тан олинаётганининг ёрқин тасдиғидир [15].

Марказий Осиё минтақаси қадим замонлардан узоқ ва яқин кўшни давлатлар диққат-эътиборини ўзига жалб этиб келган. Милоддан олдинги даврда Эрон ҳукмдори Доро I, Македониялик Александрнинг Марказий Осиё ҳудудларини босиб олишга қаратилган тажовузкорона ҳаракатларига тарихнинг ўзи гувоҳ. Кейинги даврларда эса Кушонийлар томонидан Марказий Осиёнинг босиб олиниши, Шарқий Туркистонга Турк ҳоқонлигининг ҳужуми, милодий VII-VIII асрларда араб халифалигининг Марказий Осиёни забт этиши, XIII асрнинг бошларида Чингизхон бошчилигидаги қудратли мўғул империяси кўп сонли кўшинларининг Марказий Осиёга бостириб кириши, XIX аср охирида эса минтақа учун Чор Россияси ва Буюк Британиянинг кураш олиб бориши ўлканинг нақадар улкан геосиёсий аҳамиятга эга эканлигидан далолат беради.

Хўш, Марказий Осиё ўзидаги қандай жозибали томонлари билан кўплаб кучлар эътиборини ўзига жалб этиб келмоқда? **Биринчидан**, минтақа

географик жойлашув нуқтаи назаридан, тарихий “Буюк Ипак йўли” ҳамда Ҳиндистондан шимолий ўлкалар – Россия ва Европага ўтадиган савдо йўли кесишган жойда, стратегик жиҳатдан қулай минтақада жойлашган. **Иккинчидан**, Марказий Осиё ўзининг бой табиий бойликлари билан қадим замонлардан буён кўплаб ҳукмдорлар эътиборини ўзига тортиб келган бўлиб, ўша замонлардаги йирик давлатларнинг геосиёсий манфаатлари доирасидан ўрин олган эди. Бу эса ўз навбатида, йирик давлатларнинг Марказий Осиёни геосиёсий манфаатлари доирасига киришини эълон қилиб, минтақада фаол ҳаракатлар олиб боришга ундаган. Худуд материкнинг қоқ юрагида жойлашган. Зеро, америкалик олим, халқаро муносабатлар бўйича профессор Николас Спайкменнинг прагматик геосиёсий қарашларига кўра, ким Евросиёни назорат қилса, у жаҳон тақдирини ҳал қилади. Бу каби ёндашувлар, табиийки, ўлкага бўлган қизиқишни доимо ошириб келган.

Ҳозирги вақтда тизимли мулоқот, барча томонларнинг манфаатларини инобатга олиш ва оқилона муроа асосида ўзаро манфаатли ҳамкорликни ривожлантириш масалалари Марказий Осиёнинг барча мамлакатлари томонидан қўллаб-қувватланмоқда [21]. Бу борада, айниқса, минтақанинг марказида жойлашган Ўзбекистон алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси – тобора ривожланиб бораётган мустақил давлат. Унинг микрогеографик ўрни минтақадаги барча мамлакатлар билан чегарадошлиги натижасида қулайлик касб этади. Бинобарин, Ўзбекистоннинг худудий макон хусусиятлари, унинг географик ўрни ички ва ташқи сиёсатни танлаш ҳамда амалга оширишда катта аҳамиятга эга. Мамлакат бугунги кунда кўшни давлатлар ўртасида боғловчи ҳалқа вазифасини ўтайди. Буларнинг барчаси республиканинг жаҳон иқтисодиётига интеграциялашуви, чет эл инвестицияларини жалб қилиш мамлакатни давлатлар ўртасида ўзаро фойдали ҳамкорликнинг, товарлар ва капитал транзитининг ўзига хос минтақавий марказига айлантиради [3]. Ўз атрофидаги тўрт ядровий давлат: Россия, Хитой, Ҳиндистон ва Покистон билан шундай ташқи сиёсатни йўлга қўйганки, уларнинг бирортасига ён босиш ёки яқин ҳарбий ҳамкорликка асосланган ташқи сиёсатни олиб бормайди. Ўзбекистон Республикаси суверен давлат сифатида дунёдаги ҳар бир мамлакат билан тенг ҳуқуқли яқин қўшничилик, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда ўзаро манфаатли ҳамкорлик сиёсатини олиб бораётганлиги туфайли ҳам мамлакатда устувор барқарор вазият вужудга келди ва Ўзбекистон ўзи танлаган йўлдан собитқадамлик билан ривожланиб

бормоқда. Хусусан, мамлакат Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг сўнгги уч йилда қўшни Туркменистон (29.04.2021; 20-21.2022), Тожикистонга икки марта (10-11.06.2021), (18-19.04.2024) ва Қозоғистонга (12.10.2022) расмий ташрифлари амалга оширилди.

Шунингдек, Қирғиз Республикаси Президенти Саир Жапаров 2021 йил 11-12 март кунлари давлат ташрифи Ўзбекистонга келиши, қолаверса, жорий йилда (5.04.2024) Қозоғистон Президенти Қ.Ж. Тўқаевнинг Ўзбекистонга ташрифи бўлди. Мазкур олий даражадаги ташрифлар Марказий Осиё давлатлари ўртасида ўзаро дўстона, яқин қўшничилик ва манфаатли алоқаларни янада жадаллашивуда муҳим аҳамиятга эга бўлди [16].

Шуни таъкидлаш жоизки, жаҳондаги бугунги ижтимоий-сиёсий вазиятда ушбу барқарорлик ҳолати исталган лаҳзада ички ва ташқи омиллар таъсирида беқарорликка айланиши мумкин [2]. Марказий Осиёнинг жанубий ҳудудларига туташган Афғонистонда 2021 йилдан бошлаб сиёсий муҳитнинг тубдан ўзгариши, Толибон ҳаракати вакиллариининг давлат бошқарувини назоратга олиши минтақадаги ҳарбий – сиёсий вазиятга нисбатан муносабатни янада такомиллаштиришни тақозо этади. Афғонистонда қирқ йилдан ортиқ давом этган низолар мамлакатнинг шундоқ ҳам яхши ривожланмаган иқтисодиётини бошдан-оёқ вайрон қилди.

Марказий Осиёнинг жанубий ҳудудларига туташган Афғонистондаги бир неча йиллардан буён давом этиб келаётган уруш ҳаракатлари натижасида, мамлакатда янги бошқарув тизими шаклланди. Марказий Осиё мамлакатларининг манфаатлари минтақада халқаро транспорт йўлаклари ва халқаро транспорт инфратузилмасини биргаликда яратишга мос келади, бу эса минтақа мамлакатларидан жаҳон бозорларига экспорт маҳсулотларини етказиб беришда транспорт харажатларини камайтиришга ёрдам беради. Афғонистондаги сиёсий вазиятнинг кескинлашуви ушбу мақсадларга эришишни кечиктириши мумкин. Шу жиҳатдан, мустақил Ўзбекистон ва Афғонистон муносабатларини икки босқичга бўлиб таҳлил қилиш ўринли бўлади:

1. Республика бошқарувидаги Афғонистон ҳукумати.
2. “Толибон” ҳаракатининг ҳукумат тепасига келиши ва амирлик бошқаруви шаклланиш жараёнидаги Афғонистон ҳукумати [5].

Биринчи босқич. Афғонистонда узоқ вақт мобайнида ҳукумат ва “Толибон” ҳаракати ўртасида давом этган уруш ҳаракатлари Марказий Осиё давлатларига “илиқ денгизлар”даги портларга чиқиш ва, шу йўл билан,

жаҳон хўжалигига интеграция қилиш имкониятини берадиган янги транспорт-коммуникацияларини очиш йўлида асосий ғов бўлиб келди [6; 120-б.]. Шу муносабат билан, 2018 йилнинг март ойида Афғонистон бўйича Тошкент конференцияси ўтказилди. Анжуман якуни бўйича қабул қилинган, унинг барча қатнашчиларининг яқдил позицияси ифода этилган “Тошкент декларацияси” Афғонистонда тинчлик ўрнатиш бўйича ўзига хос Дастур бўлди. Айнан, ушбу конференциядан сўнг Афғонистондаги барча сиёсий кучлар, жумладан, “Толибон” ҳаракати иштирокида музокаралар жараёнини бошлашга қаратилган халқаро ҳаракатлар янада фаоллашди. Афғонистонда тинчликнинг қарор топиши натижасида, нафақат Марказий Осиё, балки жаҳондаги “оғриқли нуқта”лардан бирига барҳам берилган бўлади. Чунки, у террористик ва экстремистик “функция”га эга эканлигидан ташқари, наркобизнес ўчоғи ҳамдир. Юқоридаги ҳолатларни инобатга олган ҳолда, минтақа мамлакатлари Афғонистондаги вазиятни яхшилаш бўйича тизимли ишларни амалга ошириб келмоқда. Жумладан, Ўзбекистоннинг Афғонистон масаласи бўйича биринчи босқичдаги томонлараро ўзаро ҳамкорлигини қуйидагиларда кўриш мумкин:


- Сурхондарё вилоятидан Афғонистоннинг Боғлон вилояти Пули-Хумри шаҳригача 260 км узунликдаги “Сурхон – Пули – Хумри” электр узатиш линиясини қуриш лойиҳасини амалга оширилиши;

- Мозори Шариф – Ҳирот темир йўл линиясини қуриш бўйича қўшма лойиҳанинг амалга оширилиши;


- Термизда “ўзбек-афғон” таълим марказининг очилиши;

- Афғон капитали иштирокида ҳамкорликдаги қўшма корхоналарнинг ташкил этилиши ва ҳ.к.

Ўзаро ҳамкорликнинг кучайтирилиши натижасида Афғонистон билан ҳам алоқалар анчайин жадаллашиб, 2021 йилда ташқи савдо 2015 йилга нисбатан 151,4 фоизга ўсган [11]. (1-расм).



Foreign trade turnover of Uzbekistan with neighboring countries in 2015
(Total: 3 765,4 mln \$)



Foreign trade turnover of Uzbekistan with neighboring countries in 2021
(Total: 7 055,3 mln \$)

1-расм. Ўзбекистоннинг қўшни давлатлар билан ташқи савдо айланмаси (2015-2021 йиллар)

Умуман олганда, бу босқичда Ўзбекистон-Афғонистон муносабатлари динамик равишда ўзгариб турган. Сўнгги беш йилликдаги “Янги Ўзбекистон – янги қўшничилик” тамойили натижасида алоқалар муттасил ижобийлашиб борди. Чунончи, 2015 йилда Ўзбекистоннинг Афғонистон билан ташқи савдо айланмаси 445,1 млн долларни ташкил этган бўлса, 2021 йилда бу кўрсаткич 673,7 млн долларга етди ва ҳоказо.

Иккинчи босқич. Йигирма йилдан (2001 йил октябрь) ортиқ вақт мобайнида АҚШ қўшинлари Афғонистонда “минтақа хавфсизлиги учун” деган даъво билан ўз қўшинларини жойлаштирганди. Бу муддат давомида ҳам Америка қўлловидаги афғон ҳукумати ва диний-фундаменталистик гуруҳлар ўртасида ҳокимият учун курашлар муттасил бўлиб келган. Узоқ йиллик саъй-ҳаракат ва ортиқча ижтимоий-иқтисодий сарфланмалардан сўнг, ниҳоят, 2021 йил 14 апрелда АҚШ Президенти Жо Байден Афғонистондан 2021 йил 1 майдан бошлаб Америка қўшинларини олиб чиқиб кетилишини эълон қилди [12].

Белгиланган муддатдан бошлаб Америка армиясининг чиқиб кета бошлаши ортидан Афғонистонда “Толибон” ҳаракати мамлакат ҳудудларини бирин-кетин эгаллай бошлади. Расмий ҳукумат қаттиқ қаршилик кўрсатишига қарамай, кучлар мувозанати тез ўзгара бошлади. Албатта, Толибларнинг яшин тезлигидаги ҳужумлари афғон ҳукумати ва халқаро ҳамжамиятни доғда қолдирди. Ҳеч ким Кобул америкалик ҳарбийлар ва унинг иттифоқчилари олиб чиқилиши жараёни якунланишидан олдин қулашини

кутмаганди [17]. Расман, 2021 йил 15 августда Афғонистон Ислом Республикаси “кулади” ва мамлакат деярли Толибонлар томонидан эгалланди. 6 сентябрда эса эгалланмаган охирги ҳудуд – Панжшер ҳам қўлга киритилиб, Афғонистон тўлиқ “Толибон” назоратига ўтди [14].

2021 йил 17 августдаги биринчи матбуот анжуманида Толибон вакили ислом шариати асосида бошқариладиган давлат тузиш учун курашишаётгани, қўшни давлатларга даҳл қилинмаслиги, улар ҳеч кимдан қасос олишга уринмасликлари, аёлларнинг шариатдаги ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъкидлаб ўтди [18].

Келтириб ўтилганидек, 2021 йилнинг учинчи чорагидан бошлаб Ўзбекистонга чегарадош Афғонистонда вазият буткул ўзгариб кетди [14]. Аммо бундай ҳолат қачондир бўлиши мумкинлигини инobatга олиб, Ўзбекистон ва бошқа Марказий Осиё мамлакатлари йигирма йиллик тажрибалар асосида геосиёсий вазиятни мувозанатлаштириб келишган.

Ўзбекистон доимий равишда Афғонистонда тинчлик ўрнатиш масаласига катта эътибор қаратган [22]. Жумладан, мамлакат Биринчи Президенти И.А.Каримов доимо Афғонистонда тинчлик ўрнатиш ва гуманитар ёрдам кўрсатиш бўйича ташаббуслар билан чиқиб, ҳатто БТМ минбаридан туриб бу масалага жиддийроқ ёндашиш кераклигини таъкидлаб ўтган. Бу масала кейинги даврида ҳам эътибор марказига айланди. Чунончи, 2018 йил Толибон вакиллари билан тинчлик музокаралар олиб борилгани хусусида 2021 йил 27 август куни Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев қуйидагиларни келтириб ўтгани эътиборга молик: “Толиблар билан икки йил олдин мулоқот олиб боргандик, ҳали ҳеч бир давлат бу ишни қилмаганда мен улар билан мулоқот қилиш бўйича топшириқ бергандим. Уларнинг Доҳадаги раҳбари Биродар жаноблари ўшанда Ўзбекистон томонига бирорта ўқ отилмаслиги бўйича ваъда берганди. Ваъдасини бажараётгани учун ҳам улар билан мулоқот қилиб туришимиз табиий. Биз учун халқимизнинг тинчлиги керак. Халқимиз тинч бўлиши учун, ким бўлишидан қатъи назар, исталган томон билан гаплашаман. Афғонистонда шундай ҳолат бўлишидан икки йил олдинги таҳлилларимиз далолат берган эди”. Мазкур “Янги Ўзбекистон – янги қўшничилик” тамойилига асосланган муносабатлар янги афғон ҳукумати – Афғонистон Ислом Амирлиги билан келгусида ижобий геосиёсий ва геоиқтисодий алоқалар йўлга қўйилишида асос вазифасини бажаради.

Янги муносабатлар замирида Афғонистон Ислом Амирлиги музокаралар гуруҳи аъзоси ва “Толибон” ҳаракати сиёсий идораси матбуот

котиби Муҳаммад Суҳайл Шаҳин Ўзбекистон Ташқи ишлар вазирлигига Ўзбекистон мустақиллигининг 30 йиллиги муносабати билан ўз раҳбарияти номидан табрик мактуби йўллаган. “Биродар Ўзбекистон Республикаси раҳбарияти ва халқини Мустақиллик байрами билан самимий табриклаймиз. Биз қўшни Ўзбекистон билан самарали ва дўстона муносабатлар ўрнатишни хоҳлаймиз. Ўзбекистон иштирокида Афғонистонда инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш, хусусан, темир йўл ва электр узатиш тармоқларини қуришни давом эттиришдан манфаатдорлигимизни тасдиқлаймиз”, – дейилади мактубда [19]. Бу эса икки томон учун ҳам манфаатли ва энг тўғри йўлдир.

Зеро, қандай бўлмасин, умумий хавфсизлик ва барқарорликни мутаҳкамлаш автомобил ва темир йўлларини қуриш, табиий ресурсларни ташийдиган қувурлар ўтказиш, минтақавий ва трансминтақавий савдо-сотиқнинг ривожланиши учун қулай шароитлар яратади [18]. Натижада, Ўзбекистон “Термиз – Ҳирот – Карачи” йўналишида Ҳинд океанига чиқиш имкониятига эга бўлади.

Таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон ҳукумати минтақадаги барқарор вазиятни сақлаб қолиш йўлида қуйидаги асосий жиҳатлардан иборат бўлган Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолият концепциясини қабул қилган бўлиб, унда мамлакат ташқи сиёсатининг асосий жиҳатлари акс эттирилган [1]. Жумладан:

1. Ўзбекистон Республикаси давлатнинг, халқнинг олий манфаатларига, унинг фаровонлиги ва хавфсизлигига, мамлакатни модернизация қилишнинг устувор йўналишларига, амалдаги миллий қонунчилик ҳамда қабул қилинган халқаро мажбуриятларга амал қилган ҳолда иттифоқлар тузиш, ҳамдўстликларга ва бошқа давлатлараро тузилмаларга кириш, шунингдек, улардан чиқиш ҳуқуқини ўзида сақлаб қолади;


2. Ўзбекистон Республикаси қўшни давлатлардаги ҳарбий можароларга ва танг вазиятларга тортилишининг олдини олиш юзасидан сиёсий, иқтисодий ва бошқа чора-тадбирларни кўради, шунингдек, ўз ҳудудида хорижий давлат ҳарбий базалари ва объектлари жойлаштирилишига йўл қўймайди;

3. Ўзбекистон тинчликсевар сиёсат юритади, ҳарбий-сиёсий блокларда иштирок этмайди, ҳар қандай давлатлараро тузилмалар ҳарбий-сиёсий блокка айланган тақдирда улардан чиқиш ҳуқуқини ўзида сақлаб қолади;


4. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига, “Мудофаа тўғрисида”ги қонунига ва Ҳарбий доктринасига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари фақат давлат суверенитети ва мамлакат ҳудудининг яхлитлигини ҳимоя қилиш, аҳолининг тинч ҳаёти ва хавфсизлигини асраш мақсадидагина тузилади ҳамда хориждаги тинчликпарварлик операцияларида иштирок этмайди» [27].

Ўзбекистон асосий эътиборини минтақа яхлитлигини таъминлаш, қўшничилик алоқаларини янада мустаҳкамлаш ва халқаро муносабатларни жадаллаштириш орқали иқтисодий-ижтимоий вазиятни янада такомиллаштиришга қаратмоқда [24]. Айниқса, XXI асрнинг иккинчи ўн йиллигида қўшни давлатлар билан товар айирбошлаш бўйича юқори кўрсаткичларга эришилди. Илк бор минтақалараро ва чегара олди ҳудудлар ўртасида ҳамкорлик йўлга қўйилди, барча даражаларда ўзаро алоқалар фаоллашди. Шу ўринда, мамлакат Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг: “2017 йилда биз қўшниларимиз билан сув ресурсларидан биргаликда фойдаланиш, чегараларни белгилаш, ўтиш пунктларини очиш, транспорт қатновини қайта тиклаш ва кенгайтириш каби кўплаб нозик масалаларнинг ечимини топдик”, деган сўзларини [26] келтириш мақсадга мувофиқ бўлади. Хусусан, Ўзбекистон-Қирғизистон ўртасидаги эксклав, анклав ва бошқа муаммоли чегара ҳудудлари, Тожикистон билан охирига етказилмаган делимитация ишлари ижобий тарзда ҳал этилмоқда.

Савдо-иқтисодий алоқалар ҳам сезиларли даражада фаоллашди. Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари билан товар айланмаси деярли икки баробар ортди. Ҳамкорликнинг ўсиб бораётган суръатларидан минтақадаги барча мамлакатлар реал фойда олмоқда. Чунончи, 2021 йил маълумотларига кўра, қўшни давлатлар билан ташқи савдода энг катта улуш (55,5%) Қозоғистонга тегишли бўлса, бу борада Тожикистоннинг кўрсаткичлари (8,5%) биров пастроқ (1-расм). Қолаверса, мамлакатлар ташқи савдо айланмасининг ички таркибига қарасак, экспорт ва импорт алоқалари ҳам турли кўрсаткичларга эга (2-расм).



Import of goods and services of the Republic of Uzbekistan by neighbours
(Total: 3 723,6 mln \$)



Export of goods and services of the Republic of Uzbekistan by neighbours
(Total: 3 331,7 mln \$)

2-расм. Ўзбекистоннинг қўшни давлатлар билан ташқи савдо айланмасининг экспорт ва импорт бўйича таркиби (2021)

Минтақавий ҳамкорликнинг кучайиши, бу – объектив, барқарор ва ортга қайтмас тенденциядир [15]. Шунингдек, Ўзбекистон ўзининг макроиқтисодий ўрни ва геосиёсий мавқеини тобора мустаҳкамлаб бормоқда. Мустақил давлатлар ҳамдўстлигининг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида савдо-иқтисодий алоқаларни ривожлантириш, турли тармоқларда қўшма лойиҳаларни амалга ошириш, транспорт-коммуникация ва транзит салоҳиятини рўёбга чиқариш, хавфсизликни мустаҳкамлаш, маданий-гуманитар алмашинувларни кенгайтириш бўйича катта имкониятларни қўлга киритди.

Қолаверса, 2020 йили МДХ давлатларининг навбатдаги саммитига раислик қилиши мамлакатнинг геосиёсий ҳолатини янада мустаҳкамланишида катта рол ўйнади [8].

Ўзбекистон 2001 йилдан буён Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо. Тинчлик ва қўшничилик алоқаларини кучайтириш, терроризм ва экстремизмга биргаликда қарши курашиш, иқтисодий ва хавфсизлик масалалари юзасидан ушбу ҳамкорлик орқали кўплаб муаммоларнинг ечимига эришилди ва мамлакат қитъада ўзига хос геосиёсий яхлитликнинг бир қисмига айланди. Чунончи, 2022 йилнинг 15-16 сентябрь кунлари ШХТнинг навбатдаги саммити Самарқандда ўтказилиши натижасида бартараф этилиши лозим бўлган масалалар ҳам кўриб чиқилиб, жами 44 та ҳужжат – битим, концепция, дастурлар ва бошқа қарорлар қабул қилинди. Бу эса ташкилот тарихида рекорд кўрсаткич бўлди. Саммитда ШХТ фаолиятининг муҳим соҳаларидаги ҳамкорлик ҳолати ва уни

ривожлантириш истиқболлари муҳокама қилинди. ШХТ Давлат раҳбарлари кенгашининг Самарқанд декларацияси тадбирнинг бош якуний ҳужжати бўлди [29].

Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар Самарқанд саммитида ШХТ ўзаро боғлиқликни мустаҳкамлаш ва самарали транспорт йўлакларини яратиш концепциясини амалиётга татбиқ этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Бирлашган миллатлар ташкилоти қўллаб-қувватлаши остида Тошкент шаҳрида минтақалараро ўзаро боғлиқлик марказини ташкил этишни таклиф қилди [9]. Шунингдек, Хитой – Қирғизистон – Ўзбекистон темирйўли қурилиши тўғрисида уч томонлама битим имзоланишини тарихий воқеа сифатида баҳоланиб, стратегик жиҳатдан энг муҳим лойиҳа – “Термиз – Мозори Шариф – Кобул – Пешовар” темирйўли коридори қурилишини ҳам қўллаб-қувватлашга чақирди. Транспорт ва коммуникациялар соҳасидаги барча истиқболли лойиҳаларни келгуси йили Ўзбекистонда ШХТ биринчи транспорт форуми доирасида муҳокама қилиш мумкинлиги таъкидланди [28].

Мазкур “Термиз – Мозори-Шариф – Кобул – Пешовар” трансфтон темирйўл лойиҳасининг тахминий қиймати 5 миллиард АҚШ долларини ташкил этади. Узунлиги 600 км бўлган темирйўл Марказий Осиё мамлакатлари учун Покистоннинг йирик денгиз портларига чиқиш йўлини очади.

Лойиҳа тўлиқ амалга оширилгач, Покистондан Ўзбекистонга юк ташиш 35 кун эмас, 3-5 кун давом этиши, битта стандарт юк контейнерини ташиш нархи қарийб уч баробарга арзонлашиши кутилмоқда. Шу билан бирга, ушбу йўналиш бўйича юк ташиш ҳажми 10 миллион тоннага етиши мумкин [20].

Айтиш жоизки, жаҳоннинг жуда кўплаб минтақаларида маданияти ва ҳўжалик тузилиши бир-бирига яқин мамлакатлар ўртасида тузилган интеграцион уюшмаларнинг фаолияти жадал кечиши сир эмас [23]. Бу борада НАФТА, ЕИ кабиларни келтириш ўринли бўлади. Осиё қитъасидаги Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши ана шундай платформалардан биридир. Бу ташкилот 2009 йил 3 октябрда Озарбайжоннинг Нахичеван шаҳрида тузилган бўлиб, дастлаб унга Туркия, Озарбайжон, Қозоғистон ва Қирғизистон аъзо эди. Кейинги йилларда мазкур давлатлар билан алоқалар мустаҳкамланди. Олий ва юқори даражадаги ташрифлар амалга оширилди. Бу ташкилотнинг асосий мақсади қардош мамлакатлар ўртасида ишонч ва алоқаларни мустаҳкамлаш, савдо-иқтисодиёт, транспорт, энергетика, туризм ва маданий-гуманитар соҳаларда ҳамкорликни ривожлантириш, минтақада

тинчлик ва хавфсизликни таъминлаш борасидаги саъй-ҳаракатларни мувофиқлаштириш бўлиб, бундай яхлитликка Ўзбекистон ҳам қизиқиш билдириб, 2019 йил 14 сентябрда Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашини тузиш тўғрисидаги Нахичеван битимини ратификация қилди ҳамда 2019 йил 15 октябрь куни Боку шаҳрида ўтказилган Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг еттинчи саммитида илк бор тўла ҳуқуқли аъзо сифатида иштирок этди. Шу борада қўшма технопарклар, start-up инновация компаниялари ва венчур жамғармалари ташкил этиш, қўшма инвестиция фонди ва туркий давлатлар савдо уйлари биргаликда барпо этиш ташаббусини илгари сурди [10]. 2021 йилнинг 11-12 ноябрь кунлари Истамбулда Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг (Туркий кенгаш) саккизинчи саммити бўлиб ўтди. Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашини “Туркий давлатлар ташкилоти” деб қайта номлаш тўғрисида қарор қабул қилинди.

2022 йил ноябрь ойида Туркий давлатлар ташкилотининг биринчи йиғилиши Самарқанд шаҳрида ўтказилди ҳамда саммит доирасида 10 дан ортиқ ҳужжатлар имзоланди. Жумладан:

Туркий давлатлар ташкилоти Самарқанд саммити декларацияси;

Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашини тузиш тўғрисидаги Нахичеван битимига протокол;

Туркий инвестицион фондни қисқа муддатларда тузиш тўғрисидаги қарор;

Божхона коридорларини соддалаштириш тўғрисидаги битим;

Аралаш транспорт воситаларида юк ташиш тўғрисидаги битим;

Туркий давлатлар ташкилотининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган стратегиясини қабул қилиш тўғрисидаги қарор;

Савдо тартибларини соддалаштириш стратегиясини қабул қилиш тўғрисидаги қарор [13].

Кўриниб турганидек, давлатлараро муносабатларнинг мустаҳкамлана бориши давомида мамлакатлардаги муаммоларга оид ишлар кўрилиб, биргаликда ҳал этила боради.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг жаҳон миқёсидаги ўзига хос жиҳатларидан бири унинг миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик тамойилини илгари суришидир. Чунончи, Ўзбекистонда турли миллат ва диний конфессия вакиллари ўртасида дўстона муҳитни мустаҳкамлашга биринчи даражали эътибор қаратилади.

Бу борада, 2017 йил сентябрь ойида БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида Ўзбекистон томонидан илгари сурилган “Маърифат ва диний бағрикенглик” резолюциясини 193 та давлат кенг қўллаб-қувватлагани жаҳон ҳамжамияти томонидан Ўзбекистоннинг саъй-ҳаракатларига берилган юксак баҳо ҳамда эътироф сифатида катта ғурур ва ифтихордир [16].

Қолаверса, “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонининг еттинчи бандида мамлакат хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш, очиқ, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш масалаларининг эътибор марказига қўйилиши диққатга сазовордир [25].

Худуди ядровий қуролдан ҳоли бўлган, қўшничилик сиёсатини қўллаб-қувватлаш позициясида илдам бораётган Ўзбекистон сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш, иқтисодий ривожланишга эришиш учун, аввало, Марказий Осиёдаги геостратегик ҳолатини янада мустаҳкамлаши ҳамда ички имкониятлардан тўлароқ фойдаланган ҳолда, жаҳон хўжалиги учун турли хил экспортбоп маҳсулотларни кўпайтириши мақсадга мувофиқ.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Марказий Осиё давлатлари халқаро муносабатларда тенг ҳуқуқли субъект сифатида ўз миллий манфаатларини ҳимоя қила олиши, минтақадаги фаол ва қудратли давлатлар билан муносабатда мувозанатни йўқотмаслик учун ҳам ташқи сиёсатнинг аниқ йўналишларига амал қилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Бунинг учун:

✓ **биринчидан**, Марказий Осиё давлатларининг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва ҳуқуқий соҳаларда танлаган йўли демократик, очиқ бозор, инсонпарварлик ва инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилиш тамойилларига асосланган бўлиши лозим.

✓ **иккинчидан**, Марказий Осиё давлатлари минтақада турли ҳудудий муаммоларни дипломатик йўллар билан ҳал қилиши жуда муҳимдир. Кейинги йиллардаги бундай муносабатларнинг ижобий тарзда ва илиқлик билан ҳал этилаётгани минтақанинг тобора яхлит ва умумий геосиёсий макон сифатида шакллантира боради.

✓ **учинчидан**, Марказий Осиё давлатлари, айнан, яхши қўшничилик ва ўзаро манфаатли ҳамкорлик тамойиллари асосида савдо-иқтисодий, транспорт-коммуникация, маданий-гуманитар соҳаларда, хавфсизлик ва

барқарорлик масалаларида ўз салоҳиятини янада самарали амалга оширишлари муҳимдир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, Марказий Осиё мамлакатлари, хусусан, Ўзбекистон Республикаси етарли ресурс ва стратегик имкониятларга эга. Шу жиҳатдан, мавжуд имкониятлардан биргаликда ва самарали фойдаланиш минтақа мамлакатларининг ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ривожланишида асос бўлиб хизмат қилади, қолаверса, жаҳоннинг энг муҳим геосиёсий минтақаларидан бирига айланишига муҳим замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолият концепцияси». Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик Палатаси Ахборотномаси. – Тошкент, 2012-й., сентябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2018 йил 28 декабрь.
[URL:https://president.uz/uz/lists/view/2228](https://president.uz/uz/lists/view/2228)

3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 2011. – 440 б.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи, 2017 йил 19 сентябрь // “Ўзбекистон овози” газетаси, 2017 йил 21 сентябрь, № 117 (32322).

5. Тошпўлатов А.М., Жумаханов Ш.З. Ўзбекистон қўшничилик муносабатларининг янги давр геосиёсий манзараси // Ўтмишга назар халқаро журнали | International Journal of Look to the Past | Международный журнал Взгляд в прошлое, 8-сон, 5-жилд / Бош муҳаррир: Р.Х.Муртазаева. – Тошкент: Tadqiqot.uz, 2022. Impact factor – 5.414 (SJIF: 2021). DOI: 10.26739/2181-9599. ISSN: 2181-9599.

6. Хўжанов Б. Миллий муносабатлар: геосиёсат ва геомафкура мувозанати. Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари.Ўзбекистон гуманитар журнали, 2017. №1 (77) сон. – 126 б.

Интернет материаллари:

7. BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan rezolyutsiyani qabul qildi. 24.06.2018. **URL:** <https://xs.uz/uz/post/bmt-uzbekistan-rezolyutsiya>

8. O‘zbekiston 2020-yilda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga raislik qiladi. 11.10.2019. **URL:** <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-2020-yilda-md%D2%b3ga-raislik-k-iladi-9556>

9. O‘zbekiston Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) faoliyatidagi ishtiroki. <https://mfa.uz/uz/cooperation/international/643/>
10. O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar kengashiga a‘zo bo‘lishi. 03.10.2019. URL: <http://uza.uz/uz/society/o-zbekiston-turkiy-kengashga-a-zo-davlatlar-bilan-an-anaviy--03-10-2019>
11. O‘zbekiston statistik ma‘lumotlari portali [online]. <https://stat.uz>
12. Remarks by President Biden on the Way Forward in Afghanistan // The White house. 14.04.2021. URL: <https://www.whitehouse.gov/briefing-room/speeches-remarks/2021/04/14/remarks-by-president-biden-on-the-way-forward-in-afghanistan/>
13. Turkiy tashkilot sammiti doirasida imzolangan hujjatlar ma‘lum qilindi. 11.11.2022. URL: <https://kun.uz/uz/news/2022/11/11/turkiy-tashkilot-sammiti-doirasida-imzolangan-hujjatlar-malum-qilindi>
14. Афғонистон — тўлиқ «Толибон» ҳукмига ўтди. Панжшер нега уч кун ичида қулади? 07.09.2021. URL: <https://kun.uz/65983501>
15. **«Марказий Осиёда ўзаро муштараклик: таҳдидлар ва янги имкониятлар» мавзусидаги халқаро конференцияда Ўзбекистон Республикаси ташқи ишлар вазир А.Камилов нутқи. 19.02.2019. URL: <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-tashqi-ishlar-vaziri-markazij-osiyo-hamisha-yagona-va-bolinmas-mintaqa-bolib-kelgan>**
16. Ташқи сиёсат соҳасидаги устувор йўналишлар. 19.04.2024. URL: <https://strategy.uz/index.php?news=1414>
17. Толибларнинг ҳокимиятга келиши. Кобул нима учун бунча тез қулади? 18.08.2021. URL: <https://kun.uz/50873170>
18. «Толибон» илк матбуот анжуманини ўтказди. Катта ваъдалар берилди. 17.08.2021. URL: <https://kun.uz/54101622>
19. «Толибон» ҳаракати Ўзбекистон халқи ва раҳбариятини Мустақиллик байрами билан табриклади. 01.09.2021. URL: <https://kun.uz/12954275>
20. Трансафғон темирйўл лойиҳасини амалга ошириш бўйича амалий ишлар бошланди. 18.07.2022. URL: <https://kun.uz/news/2022/07/18/transafgon-temiryoli-loyihasini-amalga-oshirish-boyicha-amaliy-ishlar-boshlandi>
21. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев Остонада бўлиб ўтган Марказий Осиё мамлакатлари раҳбарларининг биринчи маслаҳатлашув учрашувида сўзлаган нутқи. 03.16.2018. URL:

<https://kun.uz/news/2018/03/16/markazij-osie-mamlakatlari-hamkorligining-ustuvor-junalislari-belgilab-olindi>

22. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича «Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик» мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи. 27.03.2018. **URL:** <http://president.uz/uz/lists/view/1601>

23. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган «Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик» мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. 10.11.2017. **URL:** <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-sama-10-11-2017>

24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ташқи ишлар вазирлиги ва мамлакатимизнинг хорижий давлатлардаги элчихоналари фаолиятига бағишланган йиғилишдаги нутқи. 12.01.2018. **URL:** <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-manfaatlarini-khal-aro-mi-yesda-atiy-imoya-ilish-d-12-01-2018>

25. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. 29.01.2022. **URL:** <https://lex.uz/uz/docs/5841063#5844604>

26. Ўзбекистон манфаатларини халқаро миқёсда қатъий ҳимоя қилиш – дипломатик корпусимизнинг асосий вазифасидир. ЎЗА: 12.01.2018. **URL:** <https://uza.uz/posts/56911>

27. Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолият концепцияси ўзгариши мумкин. 18.01.2021. **URL:** <https://kun.uz/news/2021/01/18/ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyat-konsepsiyasi-ozgarishi-mumkin>

28. Ўзбекистон «Термиз – Мозори Шариф – Кобул – Пешовар» темирйўли қурилишини қўллаб-қувватлашга чақирди. 16.09.2022. **URL:** <https://kun.uz/news/2022/09/16/ozbekiston-termiz-mozori-sharif-kobul-peshovar-temiryoli-qurilishini-qollab-quvvatlashga-chaqirdi>

29. ШХТ саммити якунида Самарқанд декларацияси имзоланди. 16.09.2022. **URL:** <https://kun.uz/news/2022/09/16/shht-sammiti-yakunida-samarqand-deklaratsiyasi-imzolandi>

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТИНЧЛИК, ҲАМКОРЛИК, ЯХШИ ҚЎШНИЧИЛИКНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСАТИНИНГ ЎРНИ

Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич,
Наманган Импулс тиббиёт институти доценти,
тарих фанлари номзоди
Tel: +99893 345-19-69,
E-mail: qozoqov69@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсат борасида эришган ютуқлари, Марказий Осиё халқлари ўртасидаги ўзаро яхши қўшничилик муносабатларининг йўлга қўйилиши каби масаллар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Ташқи сиёсат, қўшни, қонун, фармон, давлат, Марказий Осиё, Ўзбекистон, Қирғизистон, Тожикистон, савдо, маданий, Президент, фуқаро, гуманитар, ҳамкорлик.

Қўни-қўшнилар билан яхши муомалада бўлиш ўзбекларнинг азалий миллий қадриятларидан саналади. Халқимиз орасида “Қўшнинг тинч, сен тинч” нақли бежиз айтилмаган. Бугунги кунга келиб мазкур қадимий миллий қадрият ташқи сиёсатимизда ҳам ўз ифодасини топомқда.

Сўнгги 4-5 йил ичида Ўзбекистон Республикасининг давлат бошқарувида демократик тамойилларга амал қилиш, қонун устиворлиги, фуқароларнинг ижтимоий-сиёсий ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, фикр, сўз ва эътиқод эркинлиги масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шунинг баробарида ўтган бу вақт Ўзбекистон ташқи сиёсатида ҳам улкан ўзгаришлар даври бўлиб тарихга кирди. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида мамлакат ички ҳаётида миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик тамойилларига амал қилиниши баробарида қўшни республикалар билан ҳам яхши қўшничилик сиёсати олиб борилмоқда.

Ҳозирги кунда Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар, биринчи галда, қўшни давлатлар билан олиб бораётган очиқ, конструктив, ўзаро манфаатли ташқи сиёсати Марказий Осиёдаги давлатлар учун муҳим аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Президентининг сўнгги пайтлардаги Туркманистон, Қозоғистон, Россия, Хитой, Қирғизистон давлатларига ташрифлари

давлатимиз ташқи сиёсатида ўзаро манфаатли ҳамкорлик муносабатларига алоҳида эътибор қаратилаётганлигининг яққол намунасидир.

Ташқи сиёсат борасида бир неча йиллар давомида шаклланган биқиқлик, ўзини-ўзи изоляция қилиш ҳолатидан чиқиш Шавкат Мирзиёевнинг Президент мансабида дастлабки иш бошлаган кунлариданоқ бошланди.

“2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси”нинг “Чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат соҳасидаги устувор йўналишлар”, деб номланувчи бандида: “...Ўзбекистоннинг ён-атрофида хавфсизлик, барқарорлик ва аҳил қўшничилик муҳитини шакллантириш” асосий устивор йўналишлардан бири эканлиги кўрсатиб ўтилди.

Шунга мувофиқ, Президентимиз 2017 йил 19 сентябрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқида таъкидлаганидек, ўтган қисқа вақт мобайнида минтақада мутлақо янги сиёсий муҳит яратишга эришилди.

Президент мазкур нутқида жумладан: “Ўзбекистон бугунги кунда ўзининг ташқи сиёсатида Марказий Осиё минтақасига устувор аҳамият қаратмоқда. Бу – ҳар томонлама чуқур ўйлаб танланган йўлдир.

Марказий Осиёнинг қоқ марказида жойлашган Ўзбекистон ушбу минтақа барқарорлик, изчил тараққиёт ва яхши қўшничилик худудига айланишидан бевосита манфаатдордир.

Тинч-осойишта, иқтисодий жиҳатдан тараққий этган Марказий Осиё – биз интиладиган энг муҳим мақсад ва асосий вазифадир.

Ўзбекистон ўзаро мулоқот, амалий ҳамкорлик ва яхши қўшничиликни мустаҳкамлашнинг қатъий тарафдоридир.

Биз Марказий Осиё мамлакатлари билан ҳеч истисносиз барча масалалар бўйича оқилона муроа асосида ҳамкорлик қилишга тайёрмиз” [2], деди.

2017 йилнинг сентябрь ойи бошида чегаравий мунозараларнинг олдини олувчи Ўзбекистон – Қирғизистон давлат чегаралари тўғрисидаги шартноманинг имзоланиши мазкур масалаларнинг ечими сифатида том маънода муҳим воқеа бўлди.

Сўнгги 4-5 йил ичида Ўзбекистон ҳукумати ва Президенти томонидан ташқи сиёсатда ижобий натижалар учун хизмат қилувчи бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 апрелдаги “Ўзбекистон-

Қозоғистон давлат чегараси орқали ўтадиган «Оқ олтин» ва «Малик» назорат ўтказиш пунктлари очилиши тўғрисида»ги 2931-сон, 2018 йил 28 августдаги “Ўзбекистон Республикаси билан Тожикистон Республикаси ўртасида стратегик шерикчиликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 3923-сон, 2021 йил 15 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси ва Россия Федерацияси ўртасидаги кўп қиррали ҳамкорликни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [3] 5026-сон қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик Палатасининг 2018 йил 30 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси билан Тожикистон Республикаси ўртасида стратегик шериклик тўғрисидаги шартномани (Тошкент, 2018 йил 17 август) ратификация қилиш ҳақида Ўзбекистон Республикаси Қонуни Тўғрисида»ги 2158-III-сон Қарори, 2020 йил 10 июндаги “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси билан Қирғизистон Республикаси Жогорку Кенеши ўртасида ҳамкорлик бўйича Парламентлараро Комиссияни ташкил этиш тўғрисида”ги қўшма Қарори [4], Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси билан Қирғизистон Республикаси ўртасида Ўзбек-Қирғиз давлат чегараси тўғрисидаги шартномани (Бишкек, 2017 йил 5 сентябрь) ратификация қилиш ҳақида”ги [5.] Қонуни ва бошқаларни мисол қилиб келтириш мумкин.

Юқоридаги ҳужжатларнинг қабул қилинишидан кўзланган асл мақсад – қўшни давлатлар ўртасидаги сиёсий, савдо-иқтисодий, инвестициявий, молиявий-техник, маданий-гуманитар соҳаларидаги ўзаро манфаатли, амалий шерикликни кенгайтириш ҳамда стратегик ҳамкорлик ва иттифоқчилик муносабатларини сифат жиҳатидан янги даражага кўтариш ва уни аниқ мазмун билан янада бойитишни таъминлаш ҳамда эришилган ҳукуматлар ўртасидаги аҳдлашувларнинг сўзсиз ва тўлиқ ҳажмда амалга оширилишини таъминлашдан иборат эди.

Бунинг натижаси сифатида бугунги кунга келиб, Ўзбекистоннинг Марказий Осиёдаги қўшни давлатлар билан ҳар томонлама алоқалари янада ривожланди, қардошлик алоқалари мустаҳкамланди. Айниқса, республикалар ўртасида фуқароларнинг бир мамлакат ҳудудидан бошқа мамлакат ҳудудига кириб-чиқиш имкониятларининг кенгайтирилди. Натижада, 20-25 йил давомида қўйилган чекловлар олиб ташланиб, Ўзбекистон фуқаролари қўшни давлатлардаги қон-қариндошлари билан эркин мулоқот ва борди-келдини йўлга қўйдилар. 1924 йили Марказий Осиёда ўтказилган сунъий миллий-давлат чегараланиши оқибатида айрим минтақаларда бир қишлоқ аҳолиси иккига бўлиниб, бир қисми

Тожикистонга яна бир қисми Ўзбекистонга ёки бир қисми Қирғизистонга яна бир қисми эса Ўзбекистон таркибига киритилган эди. Агар бундан 5-6 йил аввал бўлиб ташланган бу аҳоли пунктлари орасидаги масофалар гарчи бир неча юз метрни ташкил этган бўлсада, қариндош-уруғлар бошқа давлатлар фуқаролари бўлганлиги боис, бир бирларининг тўй-маракаларида иштирок эта олмас эдилар.

Бугун бундай кўнгилсиз ҳолатларга чек қўйилди. Ўзаро алоқалар самимий дўстлик ришталари билан мустаҳкамланиб, асрий-тарихий анъаналар яна давом эта бошлади.

Бу биринчи галда кейинги йилларда Ўзбекистон раҳбариятининг олиб бораётган оқилона давлат сиёсати, яхши кўшничилик тамойилларига амал қилишининг натижасидир.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев президентлик лавозимида фаолият юритишни бошлаган кунларданоқ давлатимизнинг ташқи сиёсат борасидаги стратегиясини қуйидагича шарҳлаган эди: “Мамлакатимизнинг миллий манфаатларини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга бўлган Марказий Осиё минтақаси Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг асосий устувор йўналиши ҳисобланади. Биз ўзимизнинг яқин кўшнилариимиз Туркманистон, Қозоғистон, Тожикистон ва Қирғизистон билан очиқ, дўстона ва прагматик сиёсат олиб боришга содиқ қоламиз” [1. Б. 17.].

Ўзбекистон ташқи сиёсатидаги бу ўзгаришлар халқаро жамоатчилик томонидан ҳам эътироф этилди. Масалан, Осиё ва Африка мамлакатлари институти катта илмий ходими Виктор Ким бу ҳақда шундай дейди: “2007 йилдан 2016 йилгача бўлган даврга Марказий Осиёдаги интеграция жараёнлари учун “турғунлик” даври эди, деб таъриф бериш мумкин. 2016 йилнинг декабрида Ўзбекистон президентлигига Шавкат Мирзиёевнинг сайланиши билан минтақадаги вазият шунингдек, Ўзбекистон ташқи сиёсатининг устувор йўналишлари ҳам ижобий томонга кескин ўзгарди” [6].

2017 йилнинг 22 сентябрида Тошкент шаҳридаги «Miran International» меҳмонхонасида халқаро ва маҳаллий экспертлар иштирокида ташкил этилган «Ўзбекистоннинг Ҳаракатлар стратегияси доирасидаги ташқи сиёсий фаолияти» мавзусида давра суҳбати бўлиб ўтди. Унда АҚШ, Россия, Буюк Британия, Швеция, Бельгия, Франция, Хитой, Япония, Покистон ва Ҳиндистондан ташриф буюрган, жами 26 нафар экспертлар иштирок этдилар. Тошкентга ташриф буюрган Буюк Британия Парламенти Лордлар Палатаси вакили лорд Муҳаммад Илтаф Шайх Ўзбекистонда 2016 йилги ўтказилган президентлик сайловларидан сўнг амалга оширилган ишларга

қараб баҳо берилса, халқ мустақил Ўзбекистоннинг сиёсий воясини танлашда адашмаган, дея ўз фикрларини билдирди [7].

Умуман олганда Ўзбекистон бугунги кунда Марказий Осиё давлатлари орасида тинчлик, ўзаро ҳамкорлик, яхши қўшничилик, ижтимоий-гуманитар алоқаларни ривожлантириш ташаббускори бўлган мамлакатга айланмоқда.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар I жилд.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-Б.17.
2. <https://soglom.uz/archives/9722>
3. <https://buxgalter.uz/uz/>
4. <https://lex.uz/docs/5103589>
5. <https://lex.uz/docs/3367420>
6. https://asiaplustj.info/ru/news/opinion/20200924/_rol-uzbekistana-v-razvitii-regionalnih-transportnih-kommunikatsii-neosporima
7. <https://kun.uz/news/2017/09/22/halkaro-ekspertlar-uzbekiston-taski-siesati-akida-fikr-bildirisdi>

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАШҚИ МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИ СОҲАСИДА ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИГИ

Исломбек Абдухамидов

Тарих институтининг таянч докторанти

e-mail: klaviho@mail.ru

Аннотация. *Мазкур тадқиқотда Ўзбекистон Республикасининг ташқи меҳнат миграцияси соҳасидаги халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик масалалари ўрганилган. Унда асосан Халқаро миграция ташкилоти ҳамда Миграция сиёсатини ривожлантириш халқаро маркази билан ҳамкорлик аълоқаларига урғу берилган. Шунингдек, жараёни ёритишда расмий хужжатлар ҳамда юқоридаги халқаро ташкилотларнинг маълумотлари таҳлил қилиниб, соҳани ривожлантириш борасида муаллифнинг таклиф ва тавсиялар бериб ўтилган.*

Калит сўзлар. *Миграция, меҳнат миграцияси, Халқаро миграция ташкилоти, Миграция сиёсатини ривожлантириш халқаро маркази, Ташқи меҳнат миграцияси агентлиги, COVID-19.*

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ В ОБЛАСТИ ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Исломбек Абдухамидов

докторант Института истории

Э-маил: klaviho@mail.ru

Аннотация. *В данном исследовании изучены вопросы сотрудничества Республики Узбекистан с международными организациями в сфере внешней трудовой миграции. Основное внимание уделяется отношениям сотрудничества с Международной организацией по миграции и Международным центром развития миграционной политики. Кроме того, с целью разъяснения процесса были проанализированы официальные документы и информация вышеуказанных международных организаций, а также даны авторские предложения и рекомендации по развитию отрасли.*

Ключевые слова: *миграция, трудовая миграция, Международная организация по миграции, Международный центр развития миграционной политики, Агентство по внешней трудовой миграции, COVID-19.*

COOPERATION OF UZBEKISTAN WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FIELD OF EXTERNAL LABOR MIGRATION

Islombek Abdukhamidov

PhD student at the Institute of History

e-mail: klaviho@mail.ru

Abstract. In this study, cooperation issues of the Republic of Uzbekistan with international organizations in the field of foreign labor migration were studied. It mainly emphasizes cooperation relations with the International Organization for Migration and the International Center for the Development of Migration Policy. In addition, the official documents and the information of the above international organizations were analyzed in order to clarify the process, and the author's suggestions and recommendations regarding the development of the industry were given.

Key words: migration, labor migration, International Organization for Migration, International Center for Migration Policy Development, External Labor Migration Agency, COVID-19.

Халқаро миграция ташкилоти* (ХМТ) 1951 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг бир қисми сифатида ташкил этилган бўлиб, миграция соҳасида етакчи халқаро ташкилот ҳисобланади [14]. Мазкур ташкилот дунёнинг 150 дан ортиқ мамлакатларида ишлайдиган 18 мингдан ортиқ ходимлари орқали аҳолининг миграция муаммоларини тадқиқ этади. Ҳозирда ташкилотга 175 та давлат аъзо бўлса, 8 та давлат кузатувчи мақомига эга [15]. Ўзбекистон Республикаси ва ХМТ ўртасидаги ҳамкорлик аълоқалари 2015 йилдан бошлаб ўрнатилган [16] бўлса-да, у сўнги йилларда ривожланиб бори ва янги босқичга чиқди. Хусусан, 2018 йил 27 ноябрда Ўзбекистон ХМТнинг 173 аъзоси сифатида қабул қилинди. Ушбу масала миллий қонунчиликда 2018 йил 26 декабрдаги “Халқаро миграция ташкилоти Конституциясини ратификация қилиш тўғрисида”ги қонун билан янада мустақамлаб қўйилди [13]. 2020 йил 5 ноябрда эса “Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Халқаро миграция ташкилоти ўртасида ҳамкорлик Битими” имзоланди [12].

2021 йил 15 мартда Ўзбекистон расмий идора вакиллариининг ХМТнинг Марказий Осиё бўйича минтақавий мувофиқлаштирувчиси Зейнал Гаджиев

билан расмий учрашуви бўлиб ўтди. Унда ташқи меҳнат миграцияси борасида амалга оширилаётган ишлар ва келгусида амалга оширилиши мумкин бўлган вазифалар муҳокама қилиб ўтилган. Учрашув давомида З.Гаджиев сўнгги йилларда Ўзбекистонда меҳнат мигрантларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва яшаш шароитларини яхшилашга қаратилган кенг кўламли ислохотлар амалга оширилаётганини таъкидлаб ўтди [18]. Ҳамкорлик алоқаларининг давом эттирилиши натижасида 2021 йил апрелида Тошкент шаҳрида ХМТнинг ваколатхонаси очилди [16]. Шунингдек, ХМТ томонидан COVID-19 пандемияси ва ундан кейинги даврда хорижий мамлакатларда оғир вазиятга тушиб қолган меҳнат мигрантларини ватанга қайтариш ишлари амалга оширилди. Хусусан, 2020 йилда 99 нафар (жами қайтарилганларнинг 13,2 фоизи), 2021 йилда 68 нафар (жами қайтарилганларнинг 21,2 фоизи), 2022 йилда эса 9 нафар (жами қайтарилганларнинг 0,6 фоизи) ўзбекистонликлар ХМТ кўмагида ватанга қайтарилди [12]. Хорижий мамлакатларда оғир вазиятга тушиб қолган меҳнат мигрантларининг ўз ватанига қайтариш ишларига масъул давлат идораларининг иштирокини тобора ортиб бориши, Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграцияси соҳасида олиб борилаётган давлат сиёсатининг амалий ифодасидир.

ХМТ томонидан 2015 йилда Миграция бошқаруви асоси (Migration Governance Framework) ишлаб чиқилган бўлиб, бу 2022 йилдан бошлаб Ўзбекистонда ҳам жорий қилинди. 2022 йил тарихда илк бор, Ўзбекистон Республикасининг Миграция бошқаруви индикаторлари профили яратилди [3]. Унда Ўзбекистонда миграция бошқарувининг яхши ривожланган соҳалари ҳамда мавжуд муаммолари ҳақида маълумотлар бериб борилади. Шу билан бирга мавжуд муаммоларни бартараф этиш борасида таклифлар ҳам тақдим этилади.

2023 йил 14 февралда ХМТ нинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси томонидан “Меҳнат миграцияси дастури – Марказий Осиё” лойиҳаси муҳокамасига бағишланган учрашув [4], 2023 йил 14 декабрда эса Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази ва Халқаро миграция ташкилотининг мамлакатимиздаги миссияси ташкилотчилигида “Хавфсиз, тартибли ва қонуний миграция тўғрисидаги глобал шартномани имплементация қилишга кўмаклашиш” мавзусига бағишланган халқаро илмий тадбир бўлиб ўтди [10]. Бундай ҳамкорлик алоқаларининг давомли бўлиши Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграцияси соҳасида давлат бошқарувининг такомиллашиб боришида муҳим аҳамият касб этади.

Миграция сиёсатини ривожлантириш халқаро маркази* (ИСМПД) 1993 йилда ташкил этилган бўлиб, унинг асосий вазифаси Европа Иттифоқи давлатларидаги миграция сиёсатининг самарали механизмларини ишлаб чиқишдан иборат. Марказнинг Бош офиси Австрия пойтахти, Вена шаҳрида жойлашган бўлиб, у 3 та минтақавий идорага ва жаҳоннинг 30 та давлатида ўзининг вакиллик органларига эга ҳисобланади. Шунингдек, марказ БМТда кузатувчи мақомга эга бўлиб, унга 20 та давлат аъзо ҳисобланади [1].

Жадвал*

Миграция сиёсатини ривожлантириш Халқаро марказига аъзо давлатлар

№	Давлатлар	Йиллар	Давлатлар	Йиллар
1.	Австрия	1993	11. Словакия	2006
2.	Швейцария	1993	12. Руминия	2011
3.	Венгрия	1995	13. Босния ва Герцеговина	2012
4.	Словения	1998	14. Сербия	2014
5.	Чехия	2001	15. Шимолий Македония	2015
6.	Швеция	2002	16. Малта	2018
7.	Болгария	2003	17. Туркия	2018
8.	Полша	2003	18. Германия	2020
9.	Хорватия	2004	19. Греция	2021
10.	Португалия	2004	20. Нидерландия	2023

Шунингдек, ICMPD миграция сиёсати самарадорлигини сифат жиҳатдан ошириш мақсадида илмий соҳада халқаро ҳамкорлик масалаларини ҳам қўллаб-қувватлайди. Хусусан, марказ ташаббуси билан 2016 йилдан буён ҳар йили Вена миграция конференцияси ўтказиб келинади. Унда дунёнинг турли ҳудудларидан келган ҳукумат вакиллари, сиёсатчилар, жамоатчилик ташкилотлари шунингдек, миграция соҳасида фаолият олиб боровчи олимлар иштирок этади [9]. 2018 йилда ўтказилган конференцияда “Хавфсиз, тартибли ва мунтазам миграция” масалалари муҳокама қилинган бўлса [7], 2020 йилда эса COVID-19 пандемия даврида

* International centre for Migration Policy Development (ICMPD). <https://www.icmpd.org/>

* Ушбу жадвал Миграция сиёсатини ривожлантириш Халқаро маркази маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган (<https://www.icmpd.org/about-us/the-organisation/member-states>)

миграция жараёнларини тартибга солиш, мигрантларнинг ижтимоий-ҳуқуқий манфаатларини ҳимоя қилиш каби масалалар муҳокама қилинган [8].

Ўзбекистон Республикаси ташқи меҳнат миграцияси соҳасида халқаро ҳамкорлик масалаларини йўлга қўйиш борасида ИСМПД билан ҳамкорлик аълоқаларини йўлга қўйганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиз. Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳузуридаги Ташқи меҳнат миграцияси агентлиги (ТММА) жорий архиви ҳужжатларига кўра, ИСМПД билан дастлабки ҳамкорлик алоқалари 2004 йилда йўлга қўйилган [11] бўлса-да, узоқ йиллар давомида республикада мавжуд бўлган сиёсий вазият юқоридаги ҳамкорликнинг ривожланишига салбий таъсир этган. Ўзбекистонда 2017 йилдан бошлаб амалга оширилган туб ислохотлар натижасида юқоридаги ҳамкорлик масалалари янги босқичга олиб чиқилди. Хусусан, 2022 йилда ИСМПД бош директори Майкл Спинделеггер бошчилигидаги делегация мамлакатимизга ташриф буюрди [2]. Ташриф давомида делегация аъзолари янги ташкил этилган “Ишга марҳамат” мономарказлари ва KOICA каби касб-ҳунарга ўқитиш марказларининг фаолияти билан танишар экан, бундай ўқув марказларининг ишсиз фуқароларнинг касбга ўқитишда муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидлаб ўтдилар. Олиб борилган музокаралар натижасида 2022 йил 27 сентябр куни ТММА ва ИСМПД ўртасида ҳамкорлик Меморандуми имзоланди [12]. Унда Ўзбекистон фуқароларини Европа Иттифоқи давлатларида ишга жойлаштириш жараёнларини тартибга солиш, уларнинг меҳнат ҳуқуқларини таъминлаш каби масалалар кенг муҳокама қилинган [19].

Ташқи меҳнат миграцияси соҳасида давлат сиёсатининг ижобий томонга ўзгариши ҳамда юқоридаги халқаро ҳамкорлик муносабатларининг мустаҳкамланиши натижасида республика аҳолисининг ташқи меҳнат миграциясининг географияси ривожланган Европа мамлакатлари томон йўналтирила бошланган. Хусусан, тарихда илк бор 2021 йилда ташкилий асосда вақтинчалик ишлаш учун Германияга 4 нафар Ўзбекистон фуқаролари юборилган бўлса, бу кўрсаткич 2022 йилда 63 нафарга, 2023 йилда эса 477 нафарга етган. Буюк Британия билан ҳам бу борада ҳамкорлик илк бор 2022 йилдан ўрнатилган. Мазкур йилда 114 нафар, 2023 йилда эса 1923 нафар фуқаролар ташкилий асосда вақтинчалик ишлаш учун Буюк Британияга юборилган [12]. Бу каби соҳадаги ижобий ўзгаришларнинг амалга оширилишида Ўзбекистон Республикаси ва ИСМПД ўртасидаги

хамкорлик аълоқаларининг мустаҳкамланиб бориши шунингдек, мамлакатлар ўртасидаги икки томонлама ҳамкорлик аълоқаларининг ўрнатилиши билан узвий боғлиқдир.

Ўзбекистон Республикаси инсон ҳуқуқлари бўйича 18 та халқаро шартномани ратификация қилган [5] бўлса-да, БМТ Бош Ассамблеясининг 1990 йил 18 декабрдаги 45/158 резолюцияси билан қабул қилинган “Меҳнат мигрантлари ва уларнинг оила аъзоларининг ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги халқаро конвенцияни шунингдек, Халқаро Меҳнат Ташкилоти-нинг 1949 йилдаги С97-сонли “Бандлик учун миграция”, 1975 йилдаги С143-сонли “Меҳнаткаш мигрантлар” ва 1997 йилдаги С181-сонли “Хусусий бандлик агентликлари тўғрисида”ги конвенцияларини ратификация қилинмаган [6]. Ушбу халқаро нормаларнинг Ўзбекистон томонидан ратификация қилиниши тизимда мавжуд бўлган муаммоларни халқаро миқёсда ҳал этишда муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабдан ушбу ҳужжатларни миллий қонунчиликка олиб кириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаб ўтиш мумкин-ки, Ўзбекистон Республикасининг юқорида номлари келтириб ўтилган халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик аълоқалари мустақилликнинг дастлабки чорак асри давомида суст амалга оширилган бўлиб, 2017 йилдан кейин олиб борилган сиёсий жараёнлар натижасида амалий аҳамият касб эта бошлаган. Ўзбекистоннинг 2018 йилда ХМТ аъзолигига қабул қилиниши саҳада амалга оширилган энг катта ютуқлардан бири бўлди. Эндиликда республикада мавжуд бўлган миграция муаммоларини ҳал этишда халқаро тажриба кенг ўрганила бошланди. 2022 йилда ТММА ва ИСМПД ўртасида ҳамкорлик Меморандумининг имзоланиши аҳолининг ташқи меҳнат миграцияси йўналишларини ривожланган Ғарб мамлакатларига хусусан, Буюк Британия ва Германия каби мамлакатларга нисбатан ҳаракатланишида муҳим аҳамият касб этган.

Фойдаланилган адабиёт ва манбалар рўйхати:

1. Factsheet. Электрон манбаа:
[https://www.icmpd.org/file/download/48038/file/Factsheet EN Juli2023 Online.pdf](https://www.icmpd.org/file/download/48038/file/Factsheet_EN_Juli2023_Online.pdf) (Муржаат вақти: 2023 йил 18 март).
2. ICMPD and the Agency for External Labor Migration Uzbekistan signed a Memorandum of Understanding. Электрон манбаа:
<https://www.icmpd.org/news/icmpd-and-the-agency-for-external-labor->

migration-uzbekistan-signed-a-memorandum-of-understanding (Мурожаат вақти: 2023 йил 10 апрел)

3. Migration Governance Indicators Profile 2022 | Republic of Uzbekistan. Электрон манбаа: <https://publications.iom.int/books/migration-governance-indicators-profile-2022-republic-uzbekistan> (Мурожаат вақти: 2023 йил 15 март)

4. Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan "Mehnat migratsiyasi dasturi - Markaziy Osiyo" loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan uchrashuv o'tkazilmoqda. Электрон манбаа: <https://mehnat.uz/ru/news/migratsiya-boyicha-xalqaro-tashkilotning-ozbekistondagi-vakolatxonasi-tomonidan-mehnat-migratsiyasi-dasturi-markaziy-osiyo-loyihasi-muhokamasiga-bagishlangan-uchrashuv-otkazilmoqda> (Мурожаат вақти: 2023 йил 16 апрел).

5. Status of ratification interactive dashboard. Электрон манбаа: <https://indicators.ohchr.org/> (Мурожаат вақти: 2024 йил 15 март)

6. Up-to-date Conventions and Protocols not ratified by Uzbekistan. Электрон манбаа: https://normlex.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:11210:0::NO::P11210_COUNTRY_ID:103538 (Мурожаат вақти: 2024 йил 10 январ)

7. Vienna Migration Conference 2018. Электрон манбаа: <https://www.icmpd.org/about-us/vienna-migration-conference/vienna-migration-conference-2018> (Мурожаат вақти: 2023 йил 25 октябр)

8. Vienna Migration Conference 2022. Электрон манбаа: <https://www.icmpd.org/about-us/vienna-migration-conference/vienna-migration-conference-2020> (Мурожаат вақти: 2023 йил 25 октябр)

9. Vienna Migration Conference. Europe's leading forum on migration. Электрон манбаа: <https://vienna-migration-conference.org/> (Мурожаат вақти: 2023 йил 25 октябр)

10. Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya to'g'risidagi global shartnomani implementatsiya qilishga ko'maklashish. Электрон манбаа: <https://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m12046> (Мурожаат вақти: 2024 йил 19 январ).

11. ТММА ЖА. Агентликнинг 2004 йил ҳисобот хужжатлари.

12. ТММАНинг Стратегик режалаштириш ва йиғма таҳлил бўлими томонидан берилган маълумот, 2023 йил.

13. Ўзбекистон Республикасининг 26.12.2018 йилдаги “Халқаро миграция ташкилоти Конституциясини ратификация қилиш тўғрисида”ги

ЎРҚ-510-сон қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.12.2018 й., 03/18/510/2375-сон.

14. Халқаро миграция ташкилоти. Электрон манбаа: <https://www.iom.int/iom-history> (Мурожаат вақти: 2024 йил 21 март).

15. Халқаро миграция ташкилоти. Электрон манбаа: <https://www.iom.int/who-we-are> (Мурожаат вақти: 2024 йил 21 март).

16. Халқаро миграция ташкилоти. Электрон манбаа: <https://www.iom.int/countries/uzbekistan> (Мурожаат вақти: 2024 йил 13 апрел).

17. Халқаро миграция ташкилоти. Электрон манбаа: <https://www.iom.int/countries/uzbekistan> (Мурожаат вақти: 2024 йил 21 март).

18. Халқаро миграция ташкилотининг Марказий Осиё бўйича минтақавий мувофиқлаштирувчиси билан учрашув. Электрон манбаа: <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/vstrecha-s-regionalnym-koordinatom-mom-po-tsentralnoj-azii> (Мурожаат вақти: 2022 йил 25 ноябр).

19. Электрон манбаа: <https://www.icmpd.org/news/icmpd-and-the-agency-for-external-labor-migration-uzbekistan-signed-a-memorandum-of-understanding> (Мурожаат вақти: 2023 йил 25 сентябр).

YETTINCHI SHO'BA.
SIFATLI TA'LIM — YANGI O'ZBEKISTONNING MUHIM POYDEVORI
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI: OLIY TA'LIMDA
KREDIT-MODUL TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ismoilov Temurbek Islomovich,
NamDU, Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi
kafedrası professor v.b.

Annotatsiya. Ushbu tezisdá kredit-modul tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda oliy ta'limda ta'lim strategiyalarining evolyutsiyasini tahlil qilinadi. Tadqiqot ushbu tizimning paydo bo'lishidan to hozirgi tendentsiyalarigacha bo'lgan asosiy rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqadi. Ish tarixiy ma'lumotlarni, shuningdek, oliy ta'lim sohasidagi zamonaviy amaliyot va tadqiqotlarni tahlil qilishga asoslangan. Kredit-modul tizimining o'quv jarayoniga ta'siri va talabalarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot natijalari ta'lim strategiyalarining rivojlanish dinamikasini va ularning zamonaviy dunyoda ta'lim sifatiga ta'sirini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: evolyutsiya, ta'lim strategiyalari, kredit-modul tizimi, oliy ma'lumot, rivojlanish bosqichlari, akademik kredit, o'quv modullari, o'quv dasturi, talabalar vakolatlari.

Kirish: Oliy ta'lim jamiyat ehtiyojlari, texnologik o'zgarishlar va kasbiy tayyorgarlikning yangi talablariga javoban doimiy ravishda rivojlanib boradi va o'zgaradi. Ushbu rivojlanishning asosiy jihatlaridan biri kredit-modul ta'lim tizimiga o'tishdir. Ushbu maqola oliy ta'limda kredit-modul tizimining evolyutsiyasini ko'rib chiqadi, uning rivojlanish bosqichlarini ta'kidlaydi va ta'lim muassasalari uni amalga oshirishda duch keladigan asosiy afzalliklari va qiyinchiliklarini muhokama qiladi. Oliy ta'lim jamiyat rivojlanishining asosiy omili bo'lib, uning evolyutsiyasi doimiy o'zgarish va takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu evolyutsiyaning muhim yo'nalishlaridan biri kredit-modul ta'lim tizimini joriy etishdir. Ushbu tizim talabalarni o'qitishda moslashuvchanlik, individuallashtirish va moslashuvchanlikni taklif etadi. Keling, oliy ta'limda kredit-modul tizimining rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqaylik.

Kredit-modul tizimining kelib chiqishi: Kredit-modul tizimi birinchi marta XVIII-XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy qilingan va o'quv

jarayonlarini liberallashtirish, talabaning haftalik akademik yukini belgilash maqsadida yaratilgan. 1869 yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi **Charlz Uilyam Eliot (1834-1926)** "kredit soatlari" tushunchasini kiritdi. Shunday qilib, 1870 va 1880 yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy etiladi. Kredit tizimi bilan o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish va ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish imkonini berdi. Ushbu maqolada kredit moduli tizimining rivojlanish tarixi, talabalar tomonidan bilim olish mexanizmlari haqidagi mulohazalarni ko'rib chiqiladi.

Modulli o'qitish va kreditga asoslangan talabalarni baholash g'oyalari tizimi rasmiy ravishda amalga oshirilishidan ancha oldin paydo bo'lgan. 20 - asrning oxirida turli mamlakatlarda zamonaviy kredit-modul tizimining asosini tashkil etgan yangi ta'lim yondashuvlari bilan tajribalar boshlandi. Kredit-modul ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning moslashuvchan va egiluvchan ta'lim usullariga bo'lgan ehtiyojiga javoban paydo bo'ldi. Asosiysi shundaki, o'quv jarayoni har biri ma'lum miqdordagi kreditga ega bo'lgan kichik modullar yoki bloklarga bo'linadi. Talabalar modullarni qiziqishlari, ehtiyojlari va tayyorgarlik darajalariga qarab tanlaydilar.

Kredit-modul tizimining rivojlanish bosqichlari:

Birinchi bosqich (yadrolanish): rivojlanishning boshida kredit-modul tizimi keng qo'llaniladigan amaliyotdan ko'ra ko'proq g'oya edi. U akademiyada o'rganilgan va muhokama qilingan, ammo uni amalga oshirish uchun o'quv rejalari va dasturlarida katta o'zgarishlar talab qilingan.

Ikkinchi bosqich (amalga oshirish): ushbu davrda ko'plab universitetlar va kollejlarda kredit-modul tizimini faol ravishda joriy qila boshladilar. Bu o'quv rejalari, kurslar tuzilishi va talabalarni baholash usullarining o'zgarishiga olib keldi.

Uchinchi bosqich (tarqatish): hozirgi vaqtda kredit-modul tizimi ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan va standart amaliyotga aylandi. U nafaqat universitetlarda, balki o'rta maktablarda va kasb-hunar ta'limi muassasalarida ham qo'llaniladi.

Kredit-modul tizimining kelajagi. Kredit-modul ta'lim tizimining kelajagi yanada qiziqarli va xilma-xil bo'lishni va'da qilmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi va mehnat bozori ehtiyojlarining o'zgarishi bilan tizim talabalar va ta'lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlar va echimlarni taklif qilish orqali rivojlanishda davom etishi kutilmoqda.

Oliy ta'limda kredit-modul tizimining rivojlanishini amalga oshirishning birinchi bosqichlari 20 - asr oxiri va 21-asr boshlarida turli mamlakatlardagi

ko‘plab universitetlar kredit-modul tizimiga o‘tishni boshladilar. Ushbu bosqich kurslarni yaratish va standartlashtirish, kreditlar tarkibini aniqlash va baholash jarayonlarini ishlab chiqish bilan ajralib turardi. Kredit-modul tizimini joriy etishning birinchi qadamlari 20-asrning oxirida ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirildi (Italiya, Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya). Ushbu tizimning afzalliklari aniq edi: u ta’lim sifatini oshirishga yordam berdi, o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini rag‘batlantirdi va kurslarning moslashuvchanligini oshirdi.

Takomillashtirish va targ‘ib qilinishi: keyingi o‘n yilliklarda kredit-modullarni o‘qitish tizimi tobora keng tarqalgan. Universitetlar kurslarni boshqarish, talabalarni baholashni osonlashtirish va yanada moslashuvchan o‘rganishni ta’minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etishdi.

Zamonaviy muammolarga moslashish: Internet texnologiyalarining rivojlanishi va ta’limga ommaviy kirish bilan kredit-modul tizimi uchun yangi muammolar va imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Ta’lim muassasalari onlayn kurslar, moslashuvchan jadvallar va moslashtirilgan ta’lim rejalari bilan tajriba o‘tkazishni boshladilar.

Kredit-modul ta’lim tizimi talabalarga kurslarni tanlashning moslashuvchanligi, o‘quv dasturini individuallashtirish va o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish qobiliyati kabi bir qator afzalliklarni beradi. Shu bilan birga, qiyinchiliklar mavjud, shu jumladan o‘quv dasturlarini samarali boshqarish, ta’lim sifatini ta’minlash va talabalar yutuqlarini etarli darajada baholash zarurati.

Kredit-modul tizimining afzalliklari:

* *Moslashuvchanlik:* talabalar o‘z qiziqishlari va maqsadlariga muvofiq kurslarni tanlashlari va o‘z imkoniyatlariga qarab o‘qish tezligini aniqlashlari mumkin.

* *Shaffoflik:* kredit tizimi talabalarga ta’lim dasturini yakunlash uchun qanday kurslarni o‘tashlari kerakligini aniq ko‘rish imkonini beradi.

* *Moslashuvchanlik:* kredit-modul tizimi mehnat bozori talablari va ilmiy yutuqlardagi o‘zgarishlarga osongina moslashadi.

Biroq, kredit-modul tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo‘lida talabalarni baholashning samarali usullarini ishlab chiqish, o‘qitish sifatini ta’minlash va ma’lumotlarni boshqarish kabi qiyinchiliklar mavjud.

Xulosa. Kredit-modul ta’lim tizimi oliy ta’lim evolyutsiyasining muhim bosqichidir. Uning joriy etilishi va rivojlanishi yanada moslashuvchan, individuallashtirilgan va samarali o‘qitish usullariga intilishni aks ettiradi. Kelajakda ushbu tizim zamonaviy jamiyatning muammolari va ehtiyojlariga javob

beradigan rivojlanishda davom etadi. Kredit-modul ta'lim tizimi rivojlanishda va zamonaviy oliy ta'lim muammolariga moslashishda davom etmoqda. Uning evolyutsiyasi ta'lim muassasalarining tez o'zgaruvchan dunyoda talabalar uchun moslashuvchanlik, shaffoflik va ta'lim sifatini ta'minlash istagini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шакадирова, Н. И. "Практическое значение использования кредитно-модульной системы в высшем образовании." *Academic research in educational sciences* 3 (2020): 687-691.
2. Изетаева, Г. К., Р. Д. Нарбаева, and Ф. Ө. Кеунимжаева. "Введение системы кредитного модуля в высших учебных заведениях Узбекистана." *Экономика и социум* 3-2 (106) (2023): 517-520.
3. Бойполвонов, Барот Джонкобулович. "Влияние системы кредитного модуля на высшее образование." *Интернаука* 22-1 (2021): 102-103.
4. Сатторова, Саодат Нарзуллаевна. "История развития системы кредитного модуля, механизм получения знаний учащимися." *Gospodarka i Innowacje*. 32 (2023): 189-191.

SIFATLI TA'LIM O'ZBEKISTONNING POYDEVORI

Qurbonov Feruz Yaxshimurodovich

*Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali "KI" fakulteti tyutori*

Norboboyev Alibek Shuxrat o'g'li

TATU Qarshi filiali "KI" fakulteti KI-11-23 guruh talabasi

Islomov Tolib Orif o'g'li

*Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali "KI" fakulteti KI-12-23 guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim tizimidagi o'rganilayotgan tahliliy vazifalar, ta'lim jarayonida amaliyotga tadbqiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim tizimini barqaror rivojlantirishda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, innovatsion, jarayon, vazifa, islohat, takomillashtirish.

Аннотация: В данной статье говорится обсуждаются реформы, реализуемые в системе образования, изучаемые аналитические задачи в системе образования, инновации, внедряемые в образовательный процесс, значение инновационных технологий, используемых в устойчивом развитии системы образования.

Ключевые слова: образование, обучение, инновационный, процесс, задача, реформа, совершенствование.

Abstract: In this article, the reforms implemented in the education system, the analytical tasks being studied in the education system, the innovations implemented in the educational process, the importance of innovative technologies used in the sustainable development of the education system are discussed in this article. is spoken.

Keywords: education, training, innovative, process, task, reform, improvement.

Ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi mavjud. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida ta'limni "Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" deb ta'kidlagani chuqur strategik ega. Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni olti yo'nalish misolida aniq ko'rsatib o'tdi.

Ayniqsa, ta'lim sohasini yanada isloh qilish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash bo'yicha bildirilgan konstruktiv fikrlar e'tirofqa molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda ta'limga, ilm-fanga

yaxshi sharoit yaratilgan bo‘lsa, o‘sha yerda har tomonlama yetuk va vatanparvar kadrlar yetishib chiqqan.

Vaholanki, ta‘lim sifati kasbiy anglashning kompleks tavsifi, zamonaviy rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy taraqqiyot talablariga mos faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanadi.

O‘qituvchining qo‘lida kelajak taqdiri turadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga qilgan murojaatida asosiy e‘tibor Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta‘limni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi ta‘kidlandi. “Najot – ta‘limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi.

O‘qituvchilarning maqomini, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarur” ligi qayd etildi.

Ha, yurt rahbari tomonidan kelayotgan yangi yilning “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb belgilanishi bejizga emas. Yangi O‘zbekistonimizda ilm-fanga e‘tibor yuqori cho‘qqiga chiqqan hozirgi davrda zamonaviy hayotni sifatli ta‘limsiz va ilm-ma‘rifat taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Jahonning yetakchi davlatlarida ham taraqqiyot ta‘limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilangandan keyin yuz berganligi sir emas. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liq.

Ta‘limning sifatini oshirish uchun, avvalambor, bu sohadagi muammolarni o‘rganish zarur. Ushbu muammolarni bartaraf etish esa ularni aniqlash va borligini tan olishdan boshlanadi. Hadisda aytilganidek: “Bilimlarga intilish har bir muslim va muslima uchun vojib” ekan, ilmga intilgan har bir insonga sifatli ta‘lim berish ham juda-juda zarurdir.

Ta‘lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodiy tafakkurli, kasb-xunarli, tadbirli va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o‘z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o‘z navbatida ta‘lim jarayonida zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Ularni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Zero, uni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan natijani bermaydi, bugungi kunda o‘qitishning an‘anaviy ko‘rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, o‘qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Shu bois ham ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda o‘qitishning an‘anaviy texnologiyalari ta‘lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ilg‘or texnologiyalar bilan almashtirilmoqda.

Ta‘lim sifatini oshirish hukumatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi soha mutaxassislari, mutasaddilari zimmasiga yuksak vazifalarni yuklamoqda. O‘qituvchi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi va chuqur bilimlarga

ega bo'lishi, balki ta'lim oluvchining hayotiy ehtiyojlarini tushunishi, barcha sohada namuna bo'lishi, najot nafaqat o'qitishda, balki yuksak sifatli ta'limda ekanligini chuqur anglamog'i lozim.

Bugungi shiddatkor zamonda sifatli ta'lim kelajak poydevori bo'lib xizmat qiladi. Asrlar osha dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan ilm-fanimiz kelajagiga bugun biz loqayd qarashimiz buyuk xatoyimiz hisoblanadi. Chunki bizga ota-bobolarimizdan me'ros bo'lib qolgan ilm-ma'rifatni, ta'lim rivojini shunchaki tashlab qo'ya olmaymiz va bunga haqqimiz ham yo'q.

Nega sifatli ta'lim kelajak poydevori deymiz? Bu ta'lim beruvchi maskanlarining muhimi vazifasi hisoblanib, bunda o'qituvchilarning roli beqiyos, chunki o'sib kelayotgan avlodga ta'lim-tarbiyani maktabdagi, kollej va litsey, shuningdek oliygoh o'qituvchilari beradi.

Bugungi kunda har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ravishda ishlamasa, salohiyatli kadrlarni tayyorlash qiyin bo'ladi. Bilamizki, jamiyat hayotining katta qismini yoshlar tashkil etadi, bu yoshlarga ko'proq e'tiborni qaratish lozimligini anglatadi.

O'qituvchi nafaqat o'z kasbining ustasi, balki jamiyat hayotining barcha sohalaridan xabardor, keng doirada fikr-mulohaza yuritadigan mukammal shaxs bo'lishi, bugungi kunning qahramoni sifatida o'zini shakllantirishi shartdir.

Avvalo, har bir o'qituvchi dars o'tish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil etishi, turli xil qiziqarli va foydali metodik qo'llanmalardan foydalanishi kerak bo'ladi.

Har bir o'qituvchida o'quvchini psixologik tomondan tushunish layoqati shakllangan bo'lishi, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun o'z fanini, kasbini sevishi joizdir. Bundan tashqari o'qituvchilarning bilim darajasini belgilovchi toifa hujjatlari bo'lishi kerak.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni qiziqitira olishi uchun zamonaviy texnologiyalar asosida dars tashkil qilish, o'quvchilarning qiziqishini inobatga olish, iloji boricha hayotiy misollar keltirish orqali, o'quvchilarni rag'batlantirish metodini ko'proq qo'llashi lozim.

Qachonki, o'quvchilarning qiziqishini inobatga olib dars tashkillashtirsagina, faqat an'anaviy tarzda dars o'tishdan cheklanib, no'an'anaviy metodlar qo'llanilsa, ko'zlagan marralarimizga yetishga yaqin qolgan bo'lamiz.

Zotan, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashni eng muhim vazifaga aylantirish masalasi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunimizda ham aks etgan. Chunki yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g'ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O'zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin.

Bu jarayonda qator omillarni hisobga olishimiz darkor. Avvalo, hozirgi o'ziga xos tub yangilanishlar davrini e'tiborga olish, jumladan, muttasil olg'a intilish, hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish zarur. Bu yo'lda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish,

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun vatandoshlarimizning xilma-xil g'oyalari orasidan munosiblarini tanlab, ular asosida xalqimiz mentalitetiga har tomonlama mos keladigan, ommabop, nazariy, umumtarbiyaviy ahamiyatga ega nazariyani ishlab chiqish vazifasi turibdi.

Maqsadlarimiz ro'yobi uchun yurtdoshlarimizning o'zini anglashiga xizmat qiluvchi, milliy va umumbashariy tamoyillarni targ'ib etuvchi, ibtidosidan intihosigacha falsafiy mazmunga boy ta'limotga ega bo'lish istagini hisobga olish kerak. Bu ishlarni amaliyotga tadbiiq etishda islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etishi kerak, degan g'oyaga doim amal qilish ehtiyojini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, xalqimiz ma'naviy merosiga daxldor, ming yillardan beri amaliyotda o'z isbotini topib kelayotgan maqollar, hikmat va rivoyatlarda ulug'lanayotgan eng katta boylik aql-zakovat va ilm ekani behuda emasligini farzandlarimizga misollar orqali tushuntirish mas'uliyati zimmamizda turibdi. Zero, tarbiyasizlik ma'naviy qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi omil ekani, bilimsizlik o'zbek xalqi va qadriyatlariga mutlaqo zid keluvchi axloqsizlik fenomeniga aylanayotganiga kunda-kunora guvoh bo'lyapmiz.

Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya mutanosibligini ta'minlashda qator omillarni nazarda tutish lozim. Fuqarolik mas'uliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalash birinchi o'rinda turadi. Mana shu maqsad bizni taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga eltadi. Zotan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi ham tasodifiy emas, balki tub tarixiy qiyofamizni dunyoga namoyon qiluvchi omil ekanini unutmashlik darkor.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01. PF-60-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26.

4. Бабашев, Ф. А. (2018). Реформы, нацеленные на дальнюю перспективу. Вопросы науки и образования, (1 (13)), 118-119.

O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA’LIMI TIZIMIDA FINLANDIYA TAJRIBASINI JORIY QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich

University of Business and Science Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Tel: 90 555 45 23

E-mail: ulugbekiuldashev08@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Finlandiya maktab ta’limi tizimidagi ayrim o‘ziga xos jihatlari solishtirilgan. Har bir xususiyat yuzasidan O‘zbekistonda joriy qilish imkoniyatlari haqida xulosa berilgan. Keltirilgan jihatlarni tahlil qilish O‘zbekistonda sifatli ta’lim joriy qilish maqsadi bilan bog‘liq islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: maktab ta’limi, fin umumta’lim maktablari, kasaba uyushmalari, ta’limni moliyalashtirish, ta’lim sifatini baholash, PISA

ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ОПЫТА ФИНЛЯНДИИ В СИСТЕМУ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Юлдашев Улугбек Кадыржанович

Преподаватель кафедры социальных наук Университета бизнеса и науки

Телефон: 90 555 45 23

Электронная почта: ulugbekiuldachev08@gmail.com

Аннотация: В данной статье сравниваются некоторые специфические аспекты системы школьного образования Узбекистана и Финляндии. Для каждой функции дано краткое описание возможностей реализации в Узбекистане. Анализ упомянутых аспектов помогает понять суть реформ, связанных с целью внедрения качественного образования в Узбекистане.

Ключевые слова: школьное образование, финские средние школы, профсоюзы, финансирование образования, оценка качества образования, PISA.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTATION OF THE FINLAND EXPERIENCE IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich

Teacher of the Department of Social Sciences, University of Business and Science

Phone: 90 555 45 23

E-mail: ulugbekiuldashev08@gmail.com

Abstract: *This article compares some specific aspects of the school education system of Uzbekistan and Finland. A summary of the possibilities of implementation in Uzbekistan is given for each feature. The analysis of the mentioned aspects helps to understand the essence of reforms related to the goal of introducing quality education in Uzbekistan.*

Key words: *school education, Finnish comprehensive schools, trade unions, education financing, education quality assessment, PISA*

O‘zbekistonda sifatli ta’lim kelajak poydevori ekanligi anglangan holda bugungi kunda bu sohada islohotlar amalga oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimida jahon tajribasi o‘rganishga kirishilgan. Xususan, maktab ta’limi sohasida katta yutuqlarga erishgan Finlandiya tajribasi o‘rganishga va joriy etishga kirishildi. Finlandiya tajribasini O‘zbekistonda joriy qilish imkoniyatlarini o‘rganishda bu ikki davlat ta’lim tizimini o‘zaro solishtirish va farqli xususiyatlarni aniqlash kerak bo‘ladi. Ushbu xususiyatlarni o‘rganish orqali O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish mumkin. Quyida O‘zbekiston va Finlandiya ta’lim tizimidagi mavjud farqli xususiyatlar ko‘rib chiqiladi va fin tajribasini joriy qilish imkoniyatlari haqida xulosalar beriladi.

Kasaba uyushmalarining o‘rni. Ma’lumki, kasaba uyushmalari barcha sohalaridagi xodimlar manfaatini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalarining boshlang‘ich tashkilotlari deyarli barcha tashkilotlarda, jumladan, maktablarda ham faoliyat ko‘rsatadi. 2019-yilda qabul qilingan “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida, tashkilotlarga, ish joylariga borish hamda xodimlarning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va ularning sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetganligini hamda kasb kasalliklarini tekshirishda belgilangan tartibda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilab berilgan [1]. Lekin kasaba uyushmalari o‘qituvchilar manfaatini himoya qilishda o‘z funksiyalarini bajara olgani yo‘q. Ya’ni, o‘n yillar davomida o‘qituvchilar paxta terish, ko‘cha tozalash va boshqa shu kabi ishlarga majburiy mehnatga jalb etilgan

paytda hech qanday shaklda ularning manfaatini himoya qilmadi. Natijada bu holat pedagoglarning jamiyatdagi mavqeyi ancha tushib ketishiga ham ta’sir ko’rsatdi.

Finlandiyada OAJ (Opetusalan Ammattijärjestö) deb ataluvchi Ta’lim tred-yunioni (ya’ni kasaba uyushma ittifoqi) erta bolalik ta’limidan boshlab, katta yoshdagilar ta’limigacha xodimlarni birlashtiruvchi katta tashkilotdir. OAJ ta’lim siyosatiga ta’sir ko’rsatishda katta rol o’ynaydi. Finlandiyada Sipilä hukumati davrida (2015-2019-yillar) ta’limni moliyalashtirishdagi xarajatlarning qisqartirilishiga OAJ bir necha marta norozilik bildirib chiqqan. OAJ ushbu moliyaviy ta’minotning kamaytirilishiga e’tiroz bildirib, ushbu fikrlarni aytib o’tgan: “Oxirgi 20 yil davomida ta’lim xarajatlari kamaytirilishi bilan bir vaqtda munitsipal ta’lim xizmatlari orasida tengsizlik o’sdi. Parlament Fin umumta’lim maktablari o’quvchilari o’rtasidagi tengsizlikni kuchaytirishga qaror qildi” [2]. Finlandiyada OAJ kabi ta’lim tizimiga hukumat e’tiborini talab qiladigan tashkilotning mavjudligi fin ta’lim tizimi rivojiga ma’lum darajada hissa qo’shgan. Finlandiyada deyarli barcha sohalarida bunday kasaba uyushmalarining faoliyati e’tiborga molik. Fin kasaba uyushmalari markaziy birlashmasining (SAK) sobiq raisi Lauri Lyulyuning qayd etishicha, kasaba uyushmasi harakatining ishonchli kelishuv tomoni ekanligi va o’z a’zolarining farovonligini oshirishni uddalaganligi, jamiyatdagi farovonlik darajasining yuksalishiga o’z ta’sirini ko’rsatdi [3]. Haqiqatda Finlandiya jamiyatida deyarli barcha sohalaridagi qo’lga kiritilgan yutuqlarda kasaba uyushmalarining o’rni katta.

O‘zbekistonda Finlandiya ta’lim tizimini joriy etishda OAJ kabi pedagog xodimlar va ta’lim tizimi manfaatlarini himoya qila oladigan kuchli kasaba uyushmasining mavjud bo’lishi zaruriyatini ham hisobga olish lozim. Bunday kuchli jamoat tashkilotining mavjud bo’lishi hukumatni har doim ta’lim tizimiga jiddiy e’tibor qaratishga undagan bo’lardi.

Ta’limning moliyalashtirilishi. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o’rta ta’lim davlat tomonidan bepul amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida davlat bepul umumiy o’rta ta’lim va boshlang’ich professional ta’lim olishni kafolatlashi ta’kidlangan [4]. Lekin nodavlat ta’lim muassasalarida bepul ta’lim kafolatlanmagan. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 9-moddasida nodavlat ta’lim tashkilotlarida umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim to’lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan [5]. Umumiy o’rta ta’lim majburiy ta’lim shaklidir, lekin nodavlat yoki davlat ta’lim muassasalarida o’qishni tanlash ixtiyoriydir.

Finlandiya ta’limining eng e’tiborli jihatlaridan biri boshlang’ich ta’limdan universitetgacha bo’lgan bosqichda ta’lim bepul amalga oshiriladi [6]. Umumiy

o‘rta ta’limda xususiy ta’lim muassasalari deyarli uchramaydi. 1973-1991-yillarda Finlandiyadagi Milliy maktablar boshqaruvi raisi bo‘lib ishlagan Erkki Axo Turli toifadagi ko‘maklashuvchi xizmatlar, o‘quv qo‘llanmalari va issiq ovqatni o‘z ichiga olgan ta’lim jarayoni o‘quvchilar uchun tamomila bepul ekanligini ta’kidlaydi [7]. Finlandiyada bolalar bepul ta’limdan tashqari maktablarda sog‘lom issiq ovqat bilan ham ta’minlanadi. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida darsliklar bepul ta’minlansa-da, bepul ovqat berish joriy qilinmagan. Faqat Prezident maktablarida bunday imkoniyat mavjud. Finlandiya ta’lim tajribasini joriy qilishda masalaning ushbu jihatiga ham e’tibor berilsa, o‘quvchilarga yanada yaxshi qulayliklar yaratilgan bo‘lardi. Lekin bunda davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini ham hisobga olish talab etiladi.

Yuqorida ko‘rilgan jihatlar ikki davlat ta’lim tizimidagi ayrim xususiyatlarni taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Darslarni tashkillashtirish, metodlar, fuqarolarning ta’limga nisbatan munosabati, iqtisodiy va demografik omillarni ham ko‘rib chiqish fin tajribasini O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy qilish istiqbollari masalasida yakuniy xulosa qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. 06.12.2019 dagi O‘RQ-588-sonli “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni / <https://lex.uz/docs/-4631281>
2. Martin Thrupp and others. Finland’s famous education system. Unvarnished insights into Finnish schooling. – Singapore: Springer, 2023. – P.56.
3. Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi / Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B.65.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.21.
5. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-637-sonli Qonuni / <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi / Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B.131.
7. Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi / Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B.129.

IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASH VA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNI UZLUKSIZ TIZIMINI TASHKIL ETISH

Kurbanova Gullola Bakhramovna

GulDPI Pedagogika kafedrası (PhD) katta o'qituvchi

Saylieva Umida Sodiqovna

GulDPI Pedagogika yo'nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida iqtidorli talabalarni aniqlash, tanlash va malakali kadrlar tayyorlash uchun bajariladigan ishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iqtidorli, ijodiy, malakali, kadrlar, tizim, ilm-fan, innovatsion, integratsiya, kompazitsiya, kommunikativ, funktsiya, biznes, menejment.

Annotation: In this article, the issues of identification, selection and implementation of the system of work to be carried out for the training of qualified personnel of senior students in higher educational institutions are covered.

Keywords: management, creative, skilled, personnel, system, science, innovation, integration, composition, communicative, function, Business, Management.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации и реализации системы выполняемых работ в высших учебных заведениях по выявлению, отбору одаренных студентов и подготовке квалифицированных кадров.

Ключевые слова: талантливый, творческий, квалифицированный, кадровый, системный, научный, инновационный, интеграционный, композиционный, коммуникативный, функциональный, деловой, управленческий.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish uchun uning turli yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish zarur. Zamonaviy kompyuterlarning imkoniyatlari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanmay ilm-fan sohasida yuksak marralarga erishib bo'lmay qoldi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni ilm-fan sohalariga keng qo'llash malakasiga ega bo'lish uchun esa xorijiy tillarni mukammal bilish talab qilinmoqda.

Ilm-fanning erishgan yutuqlarini chuqur o'rganib, ularni yanada rivojlantirishga hissa qo'sha olishi uchun, bu sohaga kirib keluvchi yoshlar yuksak qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo'lishi, yuqori malakali ustozlar bilan

hamkorlikda ilmiy yo'nalishni maqsadli tanlashi, faoliyatini zamonaviy metodologiya, tizim, texnologiya va dasturlar asosida yuritishi zarur.

Respublikamiz ta'lim tizimining yoshlarni ilm-fan sohasiga tanlov asosida jalb etish, ularni istak, imkoniyat va qobiliyatlarini maqsadli yo'naltirish, ilmiy faoliyatni kompleks dasturlar asosida tashkil etish tajribasi va erishilayotgan natijalarning salmog'i ortib bormoqda. OTMlarda iqtidorli yoshlar bilan ish olib borish dastur va nizomlari ishlab chiqilgan, tashkil etilgan iqtidorli yoshlar akademiyalari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan umumiy nizom va dasturlar asosida faoliyat yuritishmoqda. Natijada ilm-fan, madaniyat, sport, zamonaviy texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishayotgan yoshlarning soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Bu boradagi ishlarning sifat va samarasini yanada oshirish metod, tizim va texnologiyalarini yaratish ustida OTMlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

1. Yoshlarda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish orzu, istak, havas va maqsadlarni shakllantirish, bu sohaga ularning qobiliyat va imkoniyatlarini baholab jalb etish hamda maqsadli yo'naltirish dastur va metodlarini qo'llashning samarali tizimini belgilash.

Ilm-fan sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan iqtidorli talaba bu sohaning istalgan yo'nalishiga birinchi qadamni qo'yishdan oldin uning qay darajada rivojlanib borayotgani, echimini kutayotgan dolzarb muammolari, kelajakda yuksak marralarga erishishi uchun bu sohaning ko'p qirralarini mukammal egallashi zarurligi haqida bir oz bo'lsada tasavvur va tushunchalarga ega bo'lishini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

2. Yoshlarni ilm-fanning insoniyat uchun katta ahamiyat kasb etuvchi ustivor yo'nalishlarida mehnat qilib yuksak natijalarga erishishini ta'minlovchi ilmiy faoliyat metod va texnologiyalarini joriy etish.

3. Olim va mutaxassislarni yoshlarni ilm-fanning yuksak cho'qqilari sari etaklashning zamonaviy metod va texnologiyalarini mukammal egalashi va amaliyotga joriy etishini ta'minlovchi chora-tadbirlarni takomillashtirish.

4. Yoshlarni tarbiyalash va ilm-fan soxasida yuksak marralarga olib kelishi tarixdan ma'lum bo'lgan ustoz-shogird metodini samarali qo'llash va bunday vazifani amalga oshirish malakasini mukammal egallagan iqtidorli yosh olimlarni tayyorlashning zamonaviy tizim va metodlarini joriy etish.

5. Yoshlarning ilm-fan soxasida erishgan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, Xalqaro grantlar va innovatsion loyihalarni bajarishda faol ishtirok etish hamda

bozor iqtisodiyoti sharoiti talablari asosida samarali faoliyat yuritish malakasini shakllantirish metod va texnologiyalarini takomillashtirib joriy etish va b.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularni iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-shvroitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohatlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan rag‘batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida vatanimiz dovrug‘ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodlarni tarbiyalashimiz zarur. Buning uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash, ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan ta‘minlab borish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ular asosida ta‘lim muassasalari uchun tavsiya va qo‘llanmalar ishlab chiqish. Yoshlar o‘rtasida mahalliy va xalqaro shu jumladan, nodavlat fan olimpiadalarni tashkil etish ularning xalqaro olimpiadalarda ishtirokini ta‘minlash. Yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda olimpiadalar uchun doimiy yangi nazorat materiallarini ishlab chiqish, xalqaro olimpiadalari ishtirokchilarini yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda tayyorlash.

Respublika Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion korporativ hamkorlik integratsiyasini amalga oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda ta‘lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etishyu raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko‘rishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda oliy maktabning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya ustuvorliklari bilan belgilanadi va mazkur strategiya OTM sifatini oshirish hamda uni imkoniyatini kengaytirishga yo‘naltirilmoqda.

O‘zbekistonda bozor islohatlarini boshlanishi yangi sharoitlar oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlash tuzilmasi, ularning bilim va ko‘nikmalariga bo‘lgan talabni o‘zgartirdi. Endilikda yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko‘lamini tushuna oladigan

kadrlarga talab ortib bormoqda. Bular to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo‘lishi lozim.

OTM, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi – OTM, fan va ishlab chiqarishdagi yutuqlar va salohiyatlardan birgalikda foydalanish. Avvalo tayyorlash muhiti, malakani oshirish va qayta tayyorlash hamda birgalikdagi ilmiy izlanishlar olib borishda o‘z ifodasini topadi. Amaliyotda integratsiya deganda, bir maqsadda birlashgan bir necha subektlarni birgalikda ish olib borishi tushiniladi. Integratsiya turli soha va darajalarni o‘z ichiga olgan holda o‘zida kompazitsion va kommunikatsion funktsiyalarni namoyon etadi.

Kompazitsion funksiya – integratsiyani tarkibi va strukturasi, birlashgan subektlarni norasmiy va normativ chegaralarni va ularni mutaxassisliklarini birlashtiradi.

Kommunikativ funksiya - subektlar aro koperatsiyalar shakli va tarkibini, aloqa va o‘zaro birlashmalarini, ularning printsip va mexanizmlarini yangi sharoitlarga moslashuvni ifodalaydi.

Bugungi rivojlanish davrida jahonda “uchlik speral” ilmiy ishlab chiqarish interatsiyasi modeli keng tarqalgan bo‘lib (OTM ishlab chiqarish korxonasi muassasalari – fanlar akademiyasi institutlari) fanlar akademiyasi – oliy ta’lim – ishlab chiqarish korxonalari.

OTM va korxona hamkorligi:

1. korxonani qiziqishi (malakali kadrlarni doimiy ishga olish, amaliy tayyorlash maqsadida talabalarni vaqtinchalik ishga olish, tadqiqot va ishlab chiqarishga talabalarni jalb qilish, ilmiy ishlab chiqarish va maslahatlarga professor-o‘qituvchilarni jalb qilish, malakali mutaxassislar tayyorlashda ish beruvchi so‘rnini kuchaytirish):

2. OTM (kafedra) qiziqishi (bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qatnashish, aniq kurs va diplom ishlarini korxona muammolari bilan bog‘lash, mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchi monitoringini olib borish, talabalarni amaliyot bazasi bilan ta’minlash, tadqiqot va ishlab chiqarishda buyurtmalar olish, korxona ishchilarini qayta tayyorlashga qabul qilish)

3. Talabaning qiziqishi (chuqur bilimga ega bo‘lish, aniq mutaxassislik bo‘yicha malakaga ega bo‘lish, aniq yo‘nalishda ilmiy ish olib borish, ma’lum ko‘rinishdagi rag‘batlanish, ish bilan ta’minlanish)

Hozirgi rivojlanish vaqtida malakali talaba o‘z ustida ishlashi shaxsini o‘stirishi lozim bo‘ladi. Chunki hozirgi kunda ishga joylashishdagi talablar juda yuqori. Malakali talaba o‘qishni bitirgandan so‘ng mutaxassisligi bo‘yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo‘lishi kerak va kelajakda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha

etuk mutaxassis, xar tomonlama raqobatbardosh bo‘lishi, ham bilim jihatdan, ham shaxs sifatida kompetentli bo‘lib etishishi kerak.

Yuqorida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish Konseptsiiyaning bajarilish natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.- “O‘zbekiston”-2017y 592-bet
2. Sh.M.Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020y. 24-yanvar. T.-“Tasvir” nashriyoti 2020y 72-bet.
3. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.-“O‘zbekiston” NMIU, 2017y 56-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh 2019 y 6 may.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. Toshkent sh 2019 y 8 oktyabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy majlisga Murojaatnomasi. Toshkent 2020 y 24 yanvar.
7. Azizxodjaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T. TDPU, 2003.
8. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: Fan, 2007.
9. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. A. Ta’lim sifatini boshqarish. T.: Turon-Iqbol, 2006.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI AMALIY MATEMATIKA YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KASBGA OID MATNLARNING O'RNI

Soliyev Umidjon Yulchivoyevich,

Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi

E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru

Tel: +99894-216-84-24

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari amaliy matematika yo'nalishi talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda sohaviy matnlarning o'rniga bag'ishlangan bo'lib, unda ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda sohaviy matnlarning metodik muammosining tavsifi keng yoritilgan. Ingliz tili darslarida inglizcha matnlar asosida tilni o'rgatish ancha samarali usul ekanligi, ammo kasbga yo'naltirilgan holda ingliz tilini o'qitishda o'qish kompetensiyasini rivojlantirish chuqur o'rganilmagan ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Maqolada ingliz tilini kasbga yo'naltirilgan holda o'rgatishda inglizcha matnlardan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va qo'lga kutilayotgan natijalar berilgan.

Kalit so'zlar: til o'rganish, o'qish, o'qishning turlari, nutq faoliyati, matn, ingliz tilida o'qishni o'rgatish.

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме замены профессиональный текстов в развитии английской компетенции чтения у студентов высших учебных заведений, занимающихся прикладной математикой, а также широко освещена методическая проблема полевых текстов в развитии английской компетенции чтения. Было высказано предположение, что обучение языку на основе английских текстов на уроках английского языка является более эффективным методом, однако развитие читательской компетентности при профессиональном обучении английскому языку досконально не изучалось.

В статье представлены научные исследования и ожидаемые результаты по использованию английских текстов в профессионально-ориентированном обучении английскому языку.

Ключевые слова: изучение языка, чтение, виды чтения, речевая деятельность, текст, обучение чтению на английском языке.

Abstract: This article is devoted to the problem of replacing professional texts in the development of English reading competence among students of higher

educational institutions engaged in applied mathematics, and also widely covers the methodological problem of field texts in the development of English reading competence. It has been suggested that teaching language from English texts in English language classrooms is a more effective method, but the development of reading competence in professional English language teaching has not been thoroughly studied.

The article presents scientific research and expected results on the use of English texts in professionally oriented English language teaching.

Key words: *language learning, reading, types of reading, speech activity, text, teaching reading in English.*

Sifatli ta'lim paradigmasi yosh avlodning chet tilida o'qish kompetentsiyasining ijtimoiy zarur darajasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu bilimlar ularga zamonaviy xilma-xil va mobil axborot maydoniga moslashishga yordam beradi. Chet tilida o'qish kompetensiyasi deganda o'qish, o'qilganni tushunish, kasbiy muloqot sharoitida olingan ma'lumotlardan samarali foydalanish, chet tillarida yozma hujjatlar bilan ishlash qobiliyati tushuniladi.

O'quv profilidagi tegishli bilimlarning aksariyati talabalar tomonidan o'qish orqali olinadi. Chop etilgan manabalar turli xil kodlarda taqdim etiladi, ular maxsus o'qitilishi kerak: ularni oddiy darajada o'zlashtirib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, chet tilini o'qishga o'rgatish va xorijiy tillardagi yozma matnlarda keltirilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish barcha bosqichdagi ta'lim muassasalarining muhim vazifasiga aylanadi.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili, haqiqiy pedagogik voqelikni kuzatish shuni ko'rsatadiki, chet tilini bilish o'qish kompetensiyasi fan bo'yicha bilimlarni boyitish, kasbiy muhim ko'nikmalarni takomillashtirish, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish vositasi bo'lib, ularning umumiyliigi talabalarning o'quv va kelajakdagi kasbiy faoliyatini amalga oshirishga tayyorlik darajasini belgilaydi (V.A. Slastenin). O'qish kompetensiyasining yetukligi "yuqori darajadagi kasbiy ta'limning mezon" (T.A.Olxovskaya) va "raqobatbardosh shaxsning integrativ xarakteristikasi" (Ch.Edelhoff).

Zamonaviy tadqiqotchilarning asarlarini o'rganish kasbga oid matnlar orqali talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirish muammosini hal qilishga urinishlar ko'rsatilmoqda. So'nggi o'n yilliklar davomida bir qator tadqiqotlar olib borildi (T.G. Agapitova, E. G. Galizina, S. A. Jukova, E. V. Krilova, M. A. Mosina, T. S. Serova va boshqalar), ularda chet tilini o'qishning vazifalari, mavzu mazmuni, kasbiy yo'naltirilgan o'qishning psixologik mexanizmlari, ichki va tashqi tuzilishi

ochib berilgan, talaba lug'atini tanlash va tashkil etishga tezaurus-maqсадli yondashuv yo'llari, turli profildagi mutaxassislarga kasbiy yo'naltirilgan ma'tnni o'qishni o'rgatish usullari ishlab chiqilgan.

Pedagogikaga oid xorijiy adabiyotlarda "o'qish kompetensiyasi" atamasi 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo'llanila boshlandi. (S.Ehlers, J.Grzesik, G.Westhoff, X.Willenberg). Mahalliy pedagogika fanida bu atama 21-asr boshlarida qo'llanila boshlandi.

Talabalar kelajakdagi kasbni tanlashga qaror qilib, o'rta maktabdan keyin oliy ta'lim muassasalariga kelishadi va odatda maktab o'quv dasturidan o'qiyotgan chet tilining lug'at va grammatika asoslari bilan tanishadilar. Shunga ko'ra, oliy o'quv yurtida ular o'zlarining kasbiy yo'nalishini hisobga olgan holda o'z bilimlaridan qanday foydalanishni ko'proq o'rganishlari kerak. Maktab-universitet tizimida chet tillarini o'rgatishdagi uzluksizlikning bunday namoyon bo'lishi biz uchun muhim, chunki ushbu tadqiqotda biz boshlang'ich bosqichda talabalarning o'rganishini ko'rib chiqamiz. O'qishni o'rgatish uchun o'rta maktab dasturi talablari nutq faoliyatining bir turi sifatida o'qishning ishlash xususiyatlarini hisobga oladi. Maktab o'quvchilari badiiy, publitsistik va ilmiy-ommabop matnlarni o'qiydilar. Ularga umumiy ilmiy, umumtexnikaviy va ilmiy-ommabop xarakterdagi matnlarni matndan ma'lumot olish maqsadida o'qish ko'nikma va malakalari o'rgatiladi. Shu bilan birga, o'qishga eng ta'sir qiluvchi omillardan biri bu o'quvchining matnni to'liq tushunish darajasini aniqlashidir.

Kelajakda, nofilologik ta'lim yo'nalishlarida o'qishning dastlabki bosqichida talabalar yuqoridagi ko'nikmalarni rivojlantirishlari, maxsus bilim va tushunchalar va matnlarni chuqur tushunishga asoslangan matnlarni tanqidiy baholashlari mumkin. Ta'limning ushbu davrida hal qiluvchi omil faoliyatning maqsadiga aylanadi, bunga erishish, bizning fikrimizcha, kasbiy yo'naltirilgan o'qishda o'qitishni tashkil etishga kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish orqali erishiladi.

Chet tillarini o'qitish metodologiyasida "sintetik o'qish" atamasi odatda matnni tushunish "tanish elementlarning sinteziga asoslangan" o'qishning ushbu turini tavsiflash uchun ishlatiladi va tarjima qilib bo'lmaydigan xarakterga ega. Bu o'zingiz uchun tezkor o'qishdir. Sintetik o'qish jarayonida o'quvchining barcha diqqati matn mazmuniga qaratiladi va sintetik o'qishni tekshirish ob'yekti doimo o'qilgan narsani tushunishdir. Sintetik o'qish uchun asosan tanish til materialiga asoslangan matnlar qo'llaniladi, uning vazifalaridan biri talabalar o'zlarini qiziqtirgan yangi ma'lumotlarni aniqlashlari sababli mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdir.

Sintetik o'qishning ushbu parametrlariga (tanish til, material, ma'lumotlarning axborot beruvchanligi va izchilligi) o'qish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan professional yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasi va uning turlari asoslanadi. Shunday qilib, chet tilidagi kasbiy yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasi fanlararo bilimlarni shakllantirish va nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki:

a) leksik xususiyati iqtisodiy terminologiya, sintaktik xususiyati esa ma'lum tuzilmalar (passiv ovoz, kesimli iboralar) bo'lgan til materialini o'zlashtirish jarayonini optimallashtiradi;

b) ma'lum tarkib va formatda farq qiluvchi amaliy matematika sohasining yozma matnlari asosida quriladi;

v) kasbiy yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ham til kompetensiyasini shakllantirishga (til va nutq kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha mashqlar), ham bo'lajak amaliy matematikachining asosiy kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda, qoida tariqasida, ikkita vazifa hal qilinadi: tanish, to'g'ridan-to'g'ri tushunish uchun mavjud bo'lgan narsalarni sintez qilishni o'rgatish va tushunish qiyin va notanish narsalarni tahlil qilishni o'rgatish. Shu bilan birga, yangi leksik materialning paydo bo'lishi alohida so'zlarning mustaqil grammatik tahlilini ham nazarda tutadi, chunki lug'atlarda yangi amaliy matematikaga oid terminologiyani yozib olish uchun vaqt yo'qligi sababli, talabalarni lingvistik va ekstralingvistik qo'llab-quvvatlashlarning maksimal miqdoridan foydalanishga o'rgatish, maxsus matnni adekvat tushunishga hissa qo'shish kerak.

Oliy ta'lim muassasalarining Amaliy matematika yo'nalishlarida o'qishning birinchi kursidanoq talabalar asta-sekin chet tilini, kasbiy yo'naltirilgan adabiyotlarni va kasbiy ahamiyatga ega kommunikativ vaziyatlarni o'qishga o'tadilar. Talabalarda grammatik hodisalar va leksik tizimdagi asosiy narsani tahlil qilish, umumlashtirish va ajratib ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan leksik va grammatik materialni dastlabki, asosan vizual, tizimlashtirishga asoslanib, maxsus chet tilidagi matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117- sonli qarori 2021 yil 19 may.

2. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 1996. –231

3. Isaqulov N.J. Kasb ta'limi metodikasi: o'quv qo'llanma. T.: Fan; 2014. – 200 b.

-
4. Абрамян, С. А. Роль профессионально ориентированного обучения иностранному языку в формировании межкультурной компетенции // Вопросы прикладной лингвистики: сб. науч, трудов. - М.: РУДН, 2009.- 154 с.
 5. Зимняя И.А. Педагогическая психология.-М.: Логос, 2007. -384 с.
 6. Grabe, W. Teaching and Researching Reading (Applied Linguistics in Action). - Edinburgh: Pearson Education Limited, 2001. - 304 p.

SIFATLI TA’ LIM - YANGI O‘ZBEKISTONNING MUHIM POYDEVORI

Urishova Maftuna Obidjon qizi

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat

chet tillari instituti 1-kurs talabasi

Tel: 93 904 16 05

E-mail: urishovamaftuna359@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sifatli ta’lim tizimining Yangi O‘zbekistonni qurishda tutgan muhim o‘rni va ta’lim sohasida olib borilayotgan o‘zgarishlar haqidagi fikrlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim sifati va samaradorligi, ilm-fan va ma’naviyat, ta’lim muassasalari, kadr, rekonstruksiya, “exchange program”.*

Аннотация: *В данной статье анализируется важная роль системы качественного образования в строительстве Нового Узбекистана и изменения в сфере образования.*

Ключевые слова: *Качество и эффективность образования, наука и духовность, образовательные учреждения, кадры, реконструкция, программа обмена.*

Abstract: *This article analyzes the important role of the quality education system in the construction of New Uzbekistan and the changes in the field of education.*

Key words: *Quality and effectiveness of education, science and spirituality, educational institutions, personnel, reconstruction, exchange program.*

Bugungi kunda biz barpo qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ravnoq topishi uchun ta’lim tizimi muhim omillaridandir .Ayniqsa, o‘tgan yillardagiga qaraganda sifatli ta’limga bo‘lgan e’tibor va talab oshib bormoqda. Chunki ,sifatli ta’limni targ‘ib qilgan mamlakat har qanday jabg‘ada o‘zining yuksak muvaffaqiyatiga erisha oladi. Shuning uchun ham oxirgi yillarda ta’limning amalda qo‘llanilayotgan sifatiga bo‘lgan e’tibor borgan sari oshib bormoqda.

Yurtboshimiz aytganlaridek, Yangi O‘zbekiston aynan maktab ostonasidan ta’lim tarbiyadan boshlanadi, mamlakat taraqqiyoti ilm-fan va innovasiyaga tayanadi.⁸⁴

Sifatli ta’limni yurtimiz bo‘ylab keng targ‘ib qilish uchun bu yo‘nalish Konstitutsiyamizda o‘z o‘rniga ega. Ya’ni, Konstitutiyaamizning 51-moddasida

⁸⁴ <https://parliament.gov.uz/articles/1350>

belgilangandek: Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli.

Oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o’zini o’zi boshqarish, tadqiqotlar o’tkazish va o’qitish erkinligi huquqiga ega.⁸⁵

Ta’limga bo’lgan e’tiborning yana bir muhim jihati shuki, sifatli ta’lim bilan yurtimiz kelajagini, fuqarolar va davlat o’rtasidagi munosabatni yanada mustahkamlanishini, ko’plab ish o’rinlar yaratilib aholining ishsizligini kamaytirish kabi muammolarni ham hal qila olinadi. Bugungi globallashtirilgan davrda har bir davlat uchun ta’lim tizimi juda ham muhim bosqich sanaladi. Chunki, ta’lim orqali barcha xalq o’z iqtisodiy jarayonini yaxshilash imkoniga ega bo’ladi, yosh kadrlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan loyihalar va dasturlar har bir davlatning o’z kelajagi uchun muhimdir.

Shuningdek, prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev, Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo’llagan Murojaatnomasida kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo’lgan ustuvor vazifalarni olti yo’nalish misolida aniq ko’rsatib o’tdi. Ayniqsa, ta’lim sohasini yanada isloh qilish, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash bo’yicha bildirilgan konstruktiv fikrlar e’tirofga molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko’rsatadiki, qayerda ta’limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo’lsa, o’sha yerda har tomonlama yetuk va vatanparvar kadrlar yetishib chiqqan.

Shu maqsadda ta’limning barcha yo’nalishlarida qator o’zgarishlar bo’lishi kutilmoqda va bu o’zgarishlar ta’lim sohasida so’nggi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan tizimli o’zgarishlarning navbatdagi ilmiy asoslangan va natijasi kafolatlanayotgan bosqichidir.

Bundan besh yil muqaddam oliy ta’lim muassasalari soni 78 ta bo’lgan bo’lsa, buguni kunda bu raqam 198 tani tashkil etmoqda. Talabalar soni 300 ming nafardan, so’nggi yillarga kelib esa ular 956 ming nafardan oshiq bo’ldi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ham ta’lim sohasini rivojlantirish bo’yicha ustuvor vazifalar belgilangani diqqatga sazovor. Xususan, “Namunaviy maktab” loyihalari asosida 480 ta maktabni rekonstruksiya qilish va yangidan barpo etish orqali 150 ming o’quvchi o’rnini yaratildi.

Ma’lumki, ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat biz uchun ustuvor masalalardan sanaladi. Zero, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Shu sababli o’quvchilarning darslardagi davomatga, tarbiyasi og’ir o’quvchilarga alohida e’tibor qaratilishi belgilanadi. Ota-

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston” Toshkent - 2023

onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas’uliyati oshirilib, “maktab — ota-ona — mahalla” zanjiri asosida elektron muloqot platformasi ishga tushiriladi.

Shu nuqtai nazardan, Murojaatnomada bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, eng avvalo pedagoglarimiz ta’lim sifatini ta’minlash bo’yicha o’z faoliyatlarini qayta ko’rib chiqishlari, ota-onalar va jamoatchilik bilan bu borada faol hamkorlikni yo’lga qo’yishlari lozim.⁸⁶ Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to’g’ri yo’lidir. **Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug’ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog’liq**”.⁸⁷

Ayniqsa, so’nggi yillarda yurtimiz bo’ylab ommalashib borayotgan Xususiy ta’lim universitetlari ko’plab yoshlarni ta’limga bo’lgan qiziqishini oshib borishiga sabab bo’lmoqda. Xalqaro miqyosdagi ta’lim tizimi talabalarimizning chet el ta’limiga ham ega bo’lishi ya’ni, “exchange program” orqali o’z bilim ko’nikmalarini boshqa davlatda ham amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’lib borishmoqda.

Bugungi kuinda nega ta’lim yoshlar uchun muhim omillardan biri?

Ta’lim nima ekanligi haqida juda ko’p turli xil tushunchalar va ta’riflar mavjud, ammo bitta narsani umumiy qabul qilish mumkin, bu ta’limning muhimligi va buning sabablari.

1. Barqarorlikni ta’minlaydi. Ta’lim hayotda barqarorlikni ta’minlaydi va hech kim uni sizdan hech qachon tortib ololmaydigan narsadir. Yaxshi ma’lumotga ega bo’lish va diplomiga ega bo’lish orqali siz yaxshi martaba imkoniyatlariga ega bo’lish imkoniyatingizni oshirasiz va o’zingiz uchun yangi eshiklarni ochasiz.

2. Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlaydi. Barqarorlikdan tashqari, ta’lim moliyaviy xavfsizlikni ham ta’minlaydi, ayniqsa bugungi jamiyatda. Yaxshi ta’lim yuqori maoshli ishga olib keladi.

3. Tenglikni ta’minlaydi. Butun dunyo haqiqatan ham teng bo’lishi uchun uni ta’limdan boshlash kerak. Agar hammaga ta’lim olish uchun bir xil imkoniyatlar berilsa, ijtimoiy tabaqalar o’rtasidagi tafovut kamroq bo’lar edi. Har bir inson yuqori maoshli ishlarda teng imkoniyatga ega bo’lishi mumkin.

4. Mustaqillikni ta’minlaydi. O’qigan inson hech qachon boshqalarni fikriga qaram bo’lmaydi. O’zining shaxsiy fikri bo’ladi.

5. Orzularni amalga oshishini ta’minlaydi⁸⁸

⁸⁶ <https://parliament.gov.uz/news/sifatli-talim-va-tarbiya-mamlakatning-mustahkam-poydevori#>

⁸⁷ <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m9698>

⁸⁸ file:///C:/Users/user/Downloads/ta-limning-jamiyatdagi-ahamiyati.pdf

Albatta, bu olib borilayotgan jarayonlarnong barchasi sifatli ta’limni targ‘ib qilish maqsadida olib borilmoqda va o‘z natijasiga erishmoqda. Bu jarayon orqali biz yurtimizdan yetishib chiqadigan yetuk kadrlarga ega bo‘lamiz va kelajagi porloq yoshlar bilan Yangi O‘zbekistonni qurishda o‘z ishonchli qadamimiz sari olg‘a bora olamiz

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. <https://parliament.gov.uz/articles/1350>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston” Toshkent - 2023
3. <https://parliament.gov.uz/news/sifatli-talim-va-tarbiya-mamlakatning-mustahkam-poydevori#>
4. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m9698>
5. <file:///C:/Users/user/Downloads/ta-limning-jamiyatdagi-ahamiyati.pdf>

YANGILANGAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TA’LIM TIZIMIGA OID O‘ZGARISHLAR

Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o‘g‘li

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

katta o‘qituvchisi

Tel: 99 320-94-96

E-mail: sharofiddinov.mahmudjon@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi natijasida yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim tizimiga oid yangi kiritilgan huquqiy normalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, ta’lim tizimi, inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim va tarbiya, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari, o‘qituvchi, xususiy oliy o‘quv yurtlari.

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Шарофиддинов Махмуджон Машрабжон угли

Наманганский государственный институт иностранных языков имени

Исхакхана Ибрата Старший преподаватель

Телефон: 99 320-94-96

Электронная почта: sharofiddinov.mahmudjon@mail.ru

Аннотация: В данной статье анализируются новые введенные правовые нормы, касающиеся системы образования, в Конституцию Республики Узбекистан, которая была обновлена в результате всенародного референдума 30 апреля 2023 года.

Ключевые слова: Конституция в новой редакции, система образования, инклюзивное образование, дошкольное образование и обучение, государственные и негосударственные образовательные организации, педагог, частные высшие учебные заведения.

CHANGES TO THE EDUCATION SYSTEM IN THE UPDATED CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sharofiddinov Mahmudjon Mashrabjon ogli
Senior teacher at Namangan State Institute of
Foreign Languages named after Is'hakhan Ibrat
Phone number: 99 320-94-96
E-mail: sharofiddinov.mahmudjon@mail.ru

Abstract: *This article analyzes the newly introduced legal norms related to the education system in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, which was updated as a result of the national referendum on April 30, 2023.*

Key words: *Constitution in the new version, education system, inclusive education, preschool education and upbringing, state and non-state educational organizations, teacher, private higher education institutions.*

Bilim insonni komillikka ko'tarish bilan birga, u yashayotgan jamiyat va mamlakatni ham yuksaltiradi. Insonda bilim va intellekt sifatli ta'lim natijasida shakllanadi. Shu bois davlat fuqarolarning ta'limga oid huquqlarini amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 50-moddasida fuqarolarning ta'lim olish huquqi bilan bog'liq quyidagi mazmundagi normalar mustahkamlandi: **birinchidan**, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan norma belgilandi. Bunda davlat yangi bog'chalarni qurish, mavjudlarini ta'mirlash, shu jumladan davlat, davlat-xususiy sheriklik va xususiy bog'chalarni ko'paytirish, yangi bog'chalarni tashkil etishga imtiyozlar va subsidiyalar berish, pirovardida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni yuz foizga yetkazish choralarini ko'radi; **ikkinchidan**, umumiy o'rta ta'limning majburiyligi belgilandi. Bu degani maktab yoshidagi har qanday bola albatta maktabda o'qishi shart hamda bunga to'sqinlik qilishga hech kimning, hatto otalarning haqqi yo'q. Ushbu majburiyat ta'lim oluvchiga ham, ta'lim tashkilotiga ham birdek mas'uliyat yuklaydi; **uchinchidan**, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir, degan norma o'rnatildi. Oldin faqatgina maktab ishlari davlat nazoratida edi, endilikda esa maktabgacha ta'lim ham davlat nazoratiga o'tkazildi. Natijada bog'cha va maktablarda bolalarning xavfsizligi va salomatligi, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya, ta'limning yuqori sifati va mazmundorligi ta'minlanadi; **to'rtinchidan**, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi, degan insonparvar norma bilan to'ldirildi. Unga ko'ra, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy

nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun juda muhim; **beshinchidan**, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi, deb mustahkamlandi. Bu esa maktabgacha ta'lim-tarbiyadan to oliy ta'limgacha hamda boshqa ta'lim turlarini, shuningdek, ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, oilada ta'lim olish, mustaqil ta'lim olish, inklyuziv ta'lim va hokazo shakllarini tashkil etish va faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi.

Ta'limga oid qoidalar inson huquqlariga oid ko'plab xalqaro hujjatlarda hamda Germaniya, Portugaliya, Bolgariya, Urugvay kabi davlatlarning konstitusiyalarida ham belgilab qo'yilgan. Yuqoridagi normalarning Konstitusiyamizga kiritilishi bog'chalar va maktablar, oliy ta'lim tashkilotlari sonining ko'payishiga, ta'lim va tarbiya sifatining oshishiga xizmat qiladi, pirovardida har bir shaxsning umri davomida ta'limning barcha turlaridan foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Ta'lim har qanday mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan muhim omildir. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 50-moddasida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlash bo'yicha davlatning majburiyatini belgilovchi norma mustahkamlandi.

Ta'lim tashkilotlarini, ayniqsa, nodavlat yoki xususiy bog'cha, maktab, universitetlar va boshqa ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun davlatning doimiy, har tomonlama qo'llovi muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy davlatda davlatning asosiy funksiyalaridan biri aholining umumiy ilmiy va ma'rifiylik darajasini oshirishga qaratiladi. Bunda ta'lim tashkilotlarining yetarli bo'lishi hamda ta'lim sifati muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda davlat ta'lim tashkilotlarini rivojlanishi uchun qanchalik sharoit yaratsa, nodavlat ta'lim tashkilotlarini ham tashkil etish va faoliyat yuritishi uchun undan kam bo'lmagan tashkiliy, huquqiy sharoitlarni yaratish, moddiy ko'mak ko'rsatishi shart.

Shu bois xususiy ta'lim tashkilotlariga keng imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilib, ushbu soha rivojlantirildi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: 2016 yilda 5211 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda 6598 ta davlat hamda 22 mingdan ziyod turli shakllardagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatdi; 2016 yilda 9719 ta umumta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirda ularning soni 10296 taga yetdi. 2016 yilda 21 ta nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022 yilda ular 334 taga

ko'paydi; 2016 yilda 77 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023 yilga kelib ularning soni 210 dan oshdi.

Nodavlat ta'limni rivojlantirishga oid qoidalar Finlyandiya, Vengriya, Koreya Respublikasi kabi davlatlarning konstitusiyalarida ham belgilab qo'yilgan. Ushbu yangi norma davlat tomonidan nafaqat davlat, shu bilan birga, nodavlat bog'chalar, maktablar, oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, faoliyat yuritishiga sharoit yaratish va kafolatlash kabi vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Muhimi, bolalarni bog'chalar bilan qamrov darajasi oshadi, xususiyl maktab va universitetlar ko'payishi orqali raqobat muhiti vujudga keladi, pirovardida ta'lim olish imkoniyati kengayib, uning sifatini oshirishga erishiladi.

Xalqimiz yoshlikda olingan bilimni toshga o'yilgan naqshga qiyoslaydi. Zero, ta'limning boshlang'ich asosi bo'lgan maktabgacha ta'lim inson kamolotida beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois so'nggi yillarda ushbu ta'lim turi tubdan isloh etildi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bog'cha tarbiyasi nafaqat bolaning o'ziga, balki uning ota-onasiga ham, qolaversa, butun jamiyat hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 50-moddasida davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan muhim norma mustahkamlandi.

Mazkur kiritilayotgan o'zgartirishlarga ko'ra, davlatga quyidagi majburiyatlar yuklatildi: **birinchidan**, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ya'ni davlat tomonidan ushbu ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish uchun iqtisodiy va tashkiliy, huquqiy ko'mak ko'rsatiladi. So'nggi yillardagi davlatning qo'llab-quvvatlovi natijasida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016 yildagi 27,7 foizdan 71,8 foizga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5211 tadan 29 mingdan ziyodga yetkazildi. Bu – 2 millionga yaqin bola bog'chaga borayapti, degani. 2022 yilda "Finance Inquirer" nashri bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan dunyodagi eng peshqadam 10 ta davlatni e'lon qildi. Unda O'zbekiston jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi; **ikkinchidan**, maktabgacha ta'lim va tarbiya ham davlat nazoratida bo'lishi belgilandi. Ya'ni maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish, o'quv jihozlari bilan ta'minlash, bolalarni sog'lom oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarishlash xizmati va boshqa moddiy vositalar bilan ta'minlash ishlari doimiy nazoratga olinadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga oid qoidalar Shveysariya, Litva kabi davlatlarning konstitusiyalarida ham belgilab qo'yilgan. Kiritilayotgan

ushbu norma har bir bolaning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olish huquqini kafolatlaydi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya orqali bolalarning rivojlanishiga asos yaratadi. Fuqarolarni, ayniqsa, sog‘lig‘ida muammosi bo‘lgan bolalarni ta’lim va tarbiya olishi uchun bog‘cha, maktab, oliy ta’lim tashkilotlarida maxsus sharoitlarni yaratish ijtimoiy davlatning vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi Konstitusiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi, degan qoidani Asosiy qonunimizga kiritishni taklif qilgan edi. Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 50-moddasida “ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi”, degan muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi norma mustahkamlandi.

Bugungi kunda aqli zaif, kar va zaif eshituvchi, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi, tayanch a’zolarida nuqsoni bo‘lgan 21 231 dan ortiq bolalar uchun respublikamizda 90 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritdi, Bundan tashqari, yengil darajadagi nogironligi bo‘lgan 18 000 nafarga yaqin o‘quvchilar maktablarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda o‘qishdi. Inklyuziv ta’limga oid alohida normaning belgilanishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim va tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishiga, ta’lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligiga xizmat qiladi va pirovardida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqining to‘liq amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Mamlakatimizdagi ta’lim turlari tizimida umumiy o‘rta ta’lim markaziy o‘rinni egallaydi. Maktab har bir insonning barkamol va bilimli shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 50-moddasida davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim olishni kafolatlashi bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim majburiy ekanligi haqida norma belgilandi.

Mazkur yangi normaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: **birinchidan**, intellektual avlod asri bo‘lgan XXI asrda ilm-ma’rifatsiz har qanday jamiyat, iqtisodiyot barqaror rivojlana olmaydi. Shu sababli, har bir insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash oila, jamiyat va davlatga muayyan majburiyatlarni yuklaydi. O‘tgan olti yilda maktablarda qo‘shimcha 500 ming o‘quvchi o‘rni tashkil qilindi, kelgusi 2-3 yilda yana 1 million o‘rinli maktablar tashkil qilish rejalashtirilgan; **ikkinchidan**, O‘zbekiston tomonidan imzolangan ko‘plab xalqaro hujjatlarda umumiy o‘rta ta’lim majburiy ekanligi belgilangan.

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi belgilangan. Zero, umumiy o'rta ta'limning majburiylikini belgilash orqali aholining savodlilik darajasini yuksaltirish jahonda tan olingan usuldir; **uchinchidan**, maktabda o'qishning majburiy ekanligini bajarmaganlik uchun qonunchiligimizda ota-onalar uchun javobgarlik belgilangan.

Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasida bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaganlik uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Bu voyaga yetmaganlarning o'z vaqtida va sifatli ta'lim olishlarini, ota-onalarning ta'limga oid majburiyatini ta'minlashga qaratilgandir.

Shuningdek, ta'lim oluvchilar, ularning otaonalari va yaqinlarining mas'uliyatini oshirish bilan birga, ertamiz egalari bo'lgan yoshlarning maktabda puxta bilim olib, hayotda o'z o'rnini topib, el-yurt koriga yaraydigan munosib farzand bo'lib yetishishi uchun muhim huquqiy kafolat bo'lib hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'limning majburiy ekanligiga oid normalar Italiya, Bolgariya, Vengriya kabi mamlakatlar konstitusiyalarida mavjud.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi tubdan isloh etildi. Jumladan, xususiy oliy o'quv yurtlari ochildi, xorijiy universitetlar filiallari soni ortdi, olis hududlarda ham universitet filiallari tashkil etildi, 41 ta davlat oliy o'quv yurtlariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Shuningdek, oliygohlarga qabul so'nggi olti yilda 5 baravarga ortib, talabalar soni 1 millionga yetdi. Qamrov esa 9 foizdan 38 foizga oshdi.

Oxirgi olti yilda grantlar soni 2 baravar ko'payib, 40 mingga yetdi. Shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko'paydi. Oliy ta'lim tizimi xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishi – uni ma'muriy boshqarishdan tortib o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot jarayonini tashkil etishda akademik erkinlikka ega bo'lishini taqozo etadi. Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 51-moddasida "Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega", degan qoida belgilandi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham oliy ta'lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash oliy ta'limdagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Konstitusiyamizga ushbu normaning kiritilishi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanishiga, professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv va ilmiy

faoliyati mustaqilligini ta‘minlashga, ushbu sohaga tashqi aralashuvni cheklashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “...muallimning obro‘-e‘tibori – bu avvalo millatning, butun xalqning obro‘-e‘tibori ekanligi”ni alohida e‘tirof etib, Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda ustozga bo‘lgan yuksak ehtirom Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topishi zarurligi haqidagi taklifni bergan edi. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 52-moddasida: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etilishi mustahkamlandi.

Jamiyatni inson, insonni esa ta‘lim va tarbiya o‘zgartiradi. Millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish, avvalambor, o‘qituvchilar faoliyatiga bog‘liq. Zero, o‘qituvchi ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ilm-fan sir-asrorlari, ma‘naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Shu bois mazkur norma Uchinchi Renessansning tayanch ustunlaridan biri bo‘lgan o‘qituvchiga ramziy ma‘noda “millat bunyodkori” maqomini berdi; ikkinchidan, davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadrqimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi, degan norma belgilandi.

Ustozlar qadri yuksalgan yurt, albatta, barqaror rivojlanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda o‘qituvchi kasbining maqomi va obro‘sinini ko‘tarish, muallim va ustozlarning qadri, sha‘ni va g‘ururini tiklash, ularning moddiy va ijtimoiy qo‘llabquvvatlanishini ta‘minlash, samarali mehnat faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratildi.

Mazkur norma ustoz va murabbiylar huquq va manfaatlarini ta‘minlash, sha‘ni va qadr-qimmati himoyalinishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 700 mingga yaqin o‘qituvchilarni davlat tomonidan professional o‘sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo‘llabquvvatlanishining kuchaytirilishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va obro‘sinini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi/
<https://lex.uz/docs/-6445145>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-sonli “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish

bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni / <https://lex.uz/docs/-6461609>

3. Янгиладанаётган конституция 100 саволга 100 жавоб. – Тошкент: Адолат, 2023.

4. 2020 – 2025 йилларда халқ таълими тизимида инклюзив таълимни ривожлантириш Концепцияси/[https:// lex.uz/docs/5044711#5045930](https://lex.uz/docs/5044711#5045930)

5. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси / <https://lex.uz/docs/4545884>

ELEKTRON TA'LIM TIZIMLARIDA BAHOLASH JARAYONINI SUNIY INTELLEKT ORQALI AMALGA OSHIRISH USULLARI

Husanov Kasim Asimovich

*Tabiiy-matematika fanlari kafedrası
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent shahridagi Turin Politehnika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
k.khusanov@polito.uz*

G‘aniyev Ubaydullaxon Ne‘matxon o‘g‘li

*Amaliy matematika va raqamli texnologiyalar kafedrası o‘qituvchisi
Namangan davlat universiteti,
Namangan, O‘zbekiston
ubaydulla.ganiyev.92@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos keladigan o‘rganish algoritmlari tasvirlangan. Tavsiya etilgan adaptiv ta'lim tizimi doirasida maqolada talabalarga kurs materialini yaxshiroq o‘rganishga yordam beradigan interaktiv vositalarning ayrim misollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: adaptiv ta'lim, tabiiy tilni qayta ishlash, adaptiv ta'lim tizimi, adaptiv gradient algoritmi, ildiz o‘rtacha kvadrat ko‘paytirish algoritmi.

МЕТОДЫ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ОЦЕНИВАНИЯ В ЭЛЕКТРОННЫХ СИСТЕМАХ ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Хусанов Касим Асимович

*Кафедра естественных и математических наук
кандидат физико-математических наук, доцент
Туринский политехнический университет в Ташкенте
Ташкент, Узбекистан
k.khusanov@polito.uz*

Ганиев Убайдуллахан Нематхан огли

*Преподаватель кафедры прикладной математики и цифровых технологий
Наманганский государственный университет,
Наманган, Узбекистан*

Аннотация: В данной статье описаны алгоритмы обучения, которые адаптируются к потребностям и возможностям учащихся. В рамках предлагаемой системы адаптивного обучения в статье показаны некоторые примеры интерактивных инструментов, которые помогают студентам лучше усваивать учебный материал.

Ключевые слова: адаптивное обучение, обработка естественного языка, система адаптивного обучения, алгоритм адаптивного градиента, алгоритм умножения квадратного корня на среднее значение.

METHODS OF IMPLEMENTING THE EVALUATION PROCESS IN ELECTRONIC LEARNING SYSTEMS THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Kasim Khusanov

*Department of natural-mathematical sciences
candidate of physical and Mathematical Sciences, Associate Professor
Turin Polytechnic University in Tashkent
Tashkent, Uzbekistan
k.khusanov@polito.uz*

Ganiyev Ubaydullaxon

*Teacher of the Department of Applied Mathematics and digital technologies,
Namangan State University,
Namangan, Uzbekistan
ubaydulla.ganiyev.92@mail.ru*

Annotation: This article describes learning algorithms that adapt to the needs and capabilities of students. Within the framework of the proposed adaptive learning system, the article shows some examples of interactive tools that help students better assimilate educational material.

Key words: adaptive learning, natural language processing, adaptive learning system, adaptive gradient algorithm, root mean square Multiplication algorithm.

KIRISH

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar o'rganilayotgan mavzularning qat'iy ketma-ketligida o'quv materiallarining an'anaviy chiziqli tasviriga qaraganda ancha kengroqdir. Ushbu maqolada the problemo'qitishning intellektual adaptiv tizimining elementi sifatida elektron o'quv kursini yaratish muammosi ko'rib chiqilgan.

Ta'limning adaptiv tizimlari o'qitish muhitini personifikatsiyalashga, uni individual foydalanuvchilarning xususiyatlariga moslashtirishga qaratilgan. Mualliflar a setturli maqsadlar, bilim va tajriba darajasi bo'lgan foydalanuvchilar to'plamiga xizmat ko'rsatadigan tizimni taklif qilishadi [4].

Ta'lim-bu yagona yondashuv g'oyasini qat'iyon rad etadigan sektor. O'tgan yillar davomida talabalar individual rivojlanishni tarbiyalashdan ko'ra oldindan belgilangan natijalarga ustuvor ahamiyat beradigan qat'iy ta'lim tizimlari yoki modellariga majbur bo'ldilar. Biroq, ushbu ta'lim to'siqlarini yo'q qilish uchun AI-adaptiv ta'lim deb nomlanuvchi inqilobiy usul paydo bo'ldi. Bu innovatsion yondashuv har bir o'quvchi alohida ehtiyojlarini hal aratilgan, moslashtirilgan ta'lim metodlarni ishga talabalar turli talablariga qondirish uchun.

So'nggi bir necha yil ichida elektron ta'lim moslashuvchanlik, miqyoslilik va shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini taklif qiluvchi ta'limga kuchli yondashuvga aylandi. Elektron ta'lim kontekstida adaptiv ta'lim deganda individual o'quvchilarning o'ziga xos afzalliklari va ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv mazmuni, resurslari va faoliyatini aqlli va dinamik sozlash tushuniladi. O'quvchi ma'lumotlarini tahlil qilish va talqin qilish orqali adaptiv ta'lim tizimlari shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini taqdim etish, o'quv natijalarini optimallashtirish va talabalarning faolligini oshirish uchun ongli qarorlar qabul qilishi mumkin.[1]

AI yoqilgan adaptiv ta'lim-bu har bir talaba uchun o'quv tajribasini shaxsiylashtirish uchun ta'limdagi sun'iy intellektdan (AIED) foydalanadigan ilg'or ta'lim yondashuvi. Ushbu innovatsion usul talabalarning kuchli, zaif tomonlari va o'rganish usullarini baholash uchun ma'lumotlar tahlili va mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanadi. Ushbu tahlil asosida tizim o'quv materialining mazmuni, sur'ati va qiyinchilik darajasini o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda dinamik ravishda moslashtiradi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) [2] ning subfildidir sun'iy aql yo'naltirilgan hisoblash tilshunosligi talqin. Ushbu soha statistik jihatdan o'zini tutadigan mashinani o'rganish usullarini birlashtirish orqali matnli va audio talqin qilishning bir nechta sohalarini qamrab oladi. Shuningdek, u hisoblash tilshunosligining pragmatik tadqiqotlari sohasini qamrab oladi va turli xil texnikalarni amalga oshirish orqali juda keng va kuchli bo'ldi. Hisoblash tilining aniqligi va yaxshilanishini kundan-kunga yaxshilaydigan NLP texnikasining mavjudligi va qobiliyatining ortishi aniqlik va takomillashtirish kuni. NLP va mashinani o'rganish tadqiqotning eng yo'naltirilgan yo'nalishlari hisoblanadi. NLPga asosan psixologiya, kognitiv fan, tilshunoslik va boshqa ko'plab sohalar ta'sir qiladi. Bu qayta ishlangan muhandislikning hisoblash modellari bilan

bog'liq insonning o'zaro ta'sirini va inson tilini tushunishni hal qilish uchun qayta ishlangan muhandislikning hisoblash modellari bilan bog'liq human interaction. Several dasturiy ta'minot paketlari til uchun ishlab chiqilgan modelling inson osonlikcha talqin qilishi mumkin bo'lgan hisoblash tilini talqin qilish uchun tilni modellashtirish sohalari uchun ishlab chiqilgan.

METODLAR

Tadqiqot ishlari moslashtirilgan ta'lim mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu mexanizm moslashtirilgan ta'lim talabalari tomonidan bilim olish jarayonlarini avtomatlashtirishdan, shu jumladan talabaning bilim darajasini monitoring qilish va baholash tizimini joriy etishdan, moslashtirilgan o'quv tizimini yaratishda mavjud algoritmlarni o'rganishdan va talabani o'rganish usullarini o'rganish uchun tegishli algoritmgacha muvofiq baholashdan iborat.

ADAPTIV TA'LIM TIZIMINING SO'NGGI ALGORITMLARI

Tavsiya etilgan adaptiv ta'lim tizimi (ATS) elektron o'quv kursini ishlab chiqish kontseptsiyasini taqdim etadi, bu uning o'quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Adaptiv ta'lim stavkalari bilan algoritmlar

Rshunday qilib, several model parametrlarini o'rganish tezligini moslashtiradigan bir nechta qo'shimcha (yoki mini-partiyaga asoslangan) usullar joriy etildi.

AdaGrad. The Algoritmda ko'rsatilgan AdaGrad algoritmi barcha model parametrlarining o'rganish tezligini ularning barcha tarixiy kvadrat qiymatlari yig'indisining kvadrat ildiziga teskari proportsional ravishda masshtablash orqali individual ravishda moslashtiradi. Yo'qotishning eng katta qisman hosilasi bo'lgan parametrlar mos ravishda ularning o'rganish tezligini tez pasayishga ega, kichik qisman hosilalari bo'lgan parametrlar esa ularning o'rganish tezligini nisbatan kichik pasayishga ega. Aniq ta'sir parametr makonining yanada yumshoq Nishab yo'nalishlarida katta taraqqiyotdir. [3]

RMSPProp. [3] RMSPProp algoritmi AdaGradadagradni konveks bo'lmagan sharoitda gradient to'planishini eksponentli og'irlikdagi harakatlanuvchi o'rtacha darajaga o'zgartirish orqali yaxshiroq bajarish uchun o'zgartiradi. AdaGrad konveks funktsiyasiga qo'llanganda tez yaqinlashish uchun mo'ljallangan.

Neyron tarmog'ini o'rgatish uchun konveks bo'lmagan funktsiyaga qo'llanganda, o'quv trajekti turli xil tuzilmalardan o'tishi va oxir-oqibat mahalliy konveks kosasi bo'lgan mintaqaga etib borishi mumkin.

AdaGrad kvadrat gradyaning butun tarixiga ko'ra o'rganish tezligini qisqartiradi va bunday conv ex tuzilishiga kelishdan oldin o'rganish tezligini juda

kichik qilgan bo‘lishi mumkin. RMSProp tarixni haddan tashqari o‘tmishdan olib tashlash uchun eksponent ravishda chirigan o‘rtacha ko‘rsatkichdan foydalanadi, shunda u conv ex kosasini topgandan so‘ng tezda birlashishi mumkin, go‘yo bu misol AdaGrad algoritmi ushbu piyola ichida boshlangan. AdaGradAdaGrad bilan taqqoslaganda, harakatlanuvchi o‘rtacha qiymatdan foydalanish harakatlanuvchi o‘rtacha uzunlik shkalasini boshqaradigan yangi giperparametr-dotekspektivni joriy qiladi.

XULOSA

Yuqoridagi algoritmlarning xususiyatlariga qarab, AdaGradAdaGrad va RMSProp ikkalasi ham mashinada o‘rganishda ishlatiladigan gradientga asoslangan optimallashtirish algoritmlari deb aytish mumkin. Ularning orasidagi farqlar:

- AdaGrad: AdaGradAdaGrad har bir parametr uchun avvalgi gradiyentlari asosida noyob adaptiv o‘rganish tezligini hisoblab chiqadi. Ushbu usul sekinroq o‘zgaruvchan parametrlarga katta o‘rganish stavkalarini belgilaydi, bu muhim xususiyatlarni aniqlashga va ularni samarali optimallashtirishga yordam beradi.

- RMSProp: boshqa tomondan, RMSProp parametrlarning kvadrat gradyanlarining o‘rtacha qiymatini olib, adaptiv o‘rganish tezligini hisoblab chiqadi. Ushbu yondashuv gradyanlarning kattaligi asosida o‘rganish tezligini moslashtirishga yordam beradi.

Both AdaGrad va RMSProp mashinada o‘rganishda ishlatiladigan gradientga asoslangan optimallashtirish algoritmlari. Ular moslashuvchan ta'lim stavkalari va qadam o‘lchamlarini hisoblash jihatidan farq qiladi. Har bir algoritm parametrlarni optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin, ammo ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega. AdaGrad va RMSProp o‘rtasidagi tanlov RMSPropgradientlar va parametrlarning tabiati, ma'lumotlar miqdori va kerakli yaqinlashish tezligi kabi omillarga bog‘liq.

Adabiyotlar:

[1].«Adaptive learning using artificial Elektron ta'limda sun'iy intellektidan foydalangan holda adaptiv ta'lim in e-learning: a adabiyot sharhi» Ilie Gligorea, Marius Cioca, Romana Oancea. <https://www.mdpi.com/2227-7102/13/12/1216>

[2].Kompyuter fanidagi yutuqlar, «tabiiy tilni qayta ishlash: ilovalar, texnikalar va muammolar», Irum Hafeez Sodhar, Abdul Hafeez Buller. <https://www.researchgate.net/publication/366384548>

[3].Ian Goodfello, Yoshua Bengio, Aaron Courville – «chuqur o‘rganish» (2017, MIT) <https://www.deeplearningbook.org/>

[4]. K. Xusanov, R. Kaxarov, «adaptiv o‘qitish tizimining elementi sifatida elektron kursni rivojlantirish», in 2023 yilda IEEE axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha 17-xalqaro konferentsiyasi (AICT). DOI: 10.1109 / AICT59525. 2023. 10313159

**O‘ZBEKISTONDA UMUMTA’LIM MAKTABLARINING DARSLIKLAR BILAN
TA’MINLANISHI
(Namangan viloyati misolida)**

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Tarix kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD

Tel: +998934062303

Rashid 4062303@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida ta’lim sohasini rivojlantirishda darsliklar masalasiga qaratilgan e’tibor va sohadagi kamchiliklar hamda yutuqlar haqida ma’lumotlar krltirilgan.

Kalit so‘zlar: Maktab, darsliklar, maktablar moddiy-texnik bazasi, biologiya, tarix, ximiya, geografiya, kadr.

O‘zbekiston dastlabki yillardan boshlab, ma’naviy va madaniy hayotni yaxshilashda, iqtisodiyotning keng tarmoqlarini yaratishda kadrlar tayyorlash masalasiga alohida urg‘u berilgan. Yani, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli kitoblarida Sovet hokimiyati davrida ta’lim sohasi oxirgi yillarga kelib ancha yomonlashgani ya’ni, 1990-yilda respublikada ilm-fan va ta’lim sohasining moddiy-texnik bazasi, kadrlar tarkibi achinarli ahvolga tushib qolganligi haqida fikr bildirganligi[1, – B. 22.] bejiz emas.

Shu nuqtaiy nazardan mustaqil O‘zbekistonda ta’lim jarayonlariga munosib e’tibor berilib, asta sekinlik bilan maktablarda zamonaviy laboratoriya va kompyuter xonalari, chet tillarini o‘rganish uchun lingofon xonalari tashkil etilishi orqali maktablar zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ldi. Shu bilan birga ta’limning asosini tashkil etuvchi darsliklar masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Chunonchi, mustaqillik yillarida Xalq ta’limi tizimida o‘ziga xos qiyinchiliklar bo‘lgan. Masalan, Namagan viloyatida 1991-yil yanvar xolatiga viloyat maktablarda barcha fanlar bo‘yicha 54 ming dona, hususan Namangan shahar maktablarining 1990-yil yilgi holatga ko‘ra, 184 ming dona darsliklar etishmasligi ma’lum bo‘lgan. Shu yili viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i I. Qozoqov ko‘plab maktablarda ayrim fanlardan darsliklar umuman yo‘qligi yoki bir nechta ekanligi hamda ko‘plab maktablarda sinf doskasi va bo‘rning yo‘qligi yoki mavjudlari ham foydalanib bo‘lmasligini takidladil[2, –B.2.]. Ammo, bu muammolar keying yillarda bartaraf etilib maktablarning ahvoli yaxshilana boshlagan.

Respublikamizda 1994-1995-o‘quv yillarga kelib, bolalar bog‘chalarida xorijiy tillarni o‘rgatish yo‘lga qo‘yilib 500 ga yaqin maktablarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni o‘rgatish va kompyuter orqali darslarni olib borish keng yo‘lga qo‘yilgan. Shu yilda umumta’lim maktablar tizimida 118 ta yangi litseylar va 77 ta

gimnaziyalar tashkil etilib, ularda 41326 ta o‘quvchi ta’lim olgan. Bunda tashqari Oliy va o‘tra maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi bilim yurtlari qoshida 20 ta litsey va 2 ta gimnaziyalar faoliyat ko‘rsata boshlagan.

1995–1996-o‘quv yiliga kelib, Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan qishloq joylarida joylashgan xunar texnika bilim yurtlarining 105 tasi xunar litseylariga, 54 tasi esa “Biznes maktab”lariga aylantirilib o‘z faoliyatini boshlaganlar [3, –B. 45]. Mazkur o‘quv yilidan yurtimizda yetti tilda darsliklar chop etilgan bo‘lib, “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan 1995-yilda maktablar kutubxona jamg‘armasini to‘ldirish maqsadida 77 nomda 26 mln 241 ming nusxada o‘zbek va rus tillarida darsliklar nashr ettirish rejalashtirilgan bo‘lsa, bu darsliklarning 72 nomdagi 22 million nusxada darsliklar nashr etib, ulardan 62 nomdagi darsliklar to‘liq miqdorda chop etilmagan. Bundan farqli ravishda mazkur o‘quv yilida o‘tkazilgan Xalq ta’limi vazirligining hay’at yig‘ilishida yuqoridagi 77 nomdagi chop etilgan kitoblarning faqatgini 10 nomdagisi maktablarga yetib borganligi, maktablar uchun dastur va o‘quv metodik tavsiyalarning nashr etish rejasi 16 foizga bajarilganli kitob chop etish va uni taqsimlashdagi muammolarni yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi[4, –B. 2].

Shuningdek, “O‘zkitob” omboriga yetib kelgan 63 nomdagi darsliklarning 1 mln 804 ming 196 ta nusxasi viloyatlarga yuborilgan. Bulardan, 56 nomdagi 1 mln 440 ming 614 ta nusxasi maktablarga yetib borgan. Bunga sabab “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan rejalashtirilgan 12 nomdagi 3 mln 731 ming nusxadagi darsliklar Rossiyaning “Charli” firmasi tomonidan chop etilgan. Ushbu darsliklarning 9 nomdagisi Respublikamizga to‘liq yetib kelmagan. Darsliklarning yetib kelmasligiga sabab darsliklarning harid qilinishiga mo‘ljallangan pullarni o‘z vaqtida ajratilmaganligi bo‘lgan[5, –B. 46].

Manashu davrda O‘zbekistonda “O‘qituvchi” nashriyotidan tashqari “Bilim” (Qoraqalpoq), “Prosveshnie” (rus), “Maorif” (tojik), “Rauai” (qozoq), “Mekteb” (qirg‘iz), “Mairif” (turkman) tillarida darsliklar chop etilgan bo‘lib bu darsliklar umumiy hisobda 423 nomdagi 30 mln 773 ming 40 nusxa chop etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, shulardan 106 nomdagi 20 mln 150 ming 880 ta nusxada chop etilgan, mazkur darsliklarnig faqatgina 16 mln 872 ming 465 ta nusxasi belgilangan joylarga yetib borgan[6, –B. 59].

Namangan viloyati umumta’lim maktablariga 1995–1996-o‘quv yillarida o‘quv darsliklariga 77 nomdagi 1 mln 876 ming 300 ta darsliklar uchun ehtiyoj mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Respublika kutubxona jamg‘armasidan Namangan viloyatga 57 nomdagi 1 mln 337 ming 364 ta darsliklar yuborilgan, ammo viloyatga 46 nomdagi 1 mln 24 ming 136 ta darsliklar yetib kelgan[7, –B. 58]. E’tibor berib qaralganda Namangan viloyatiga 11 turdagi 313 ming 238 nusxadagi o‘quv darsliklari yetib kelmagan.

Yuqoridagi darsliklar bo‘yicha muammolarning asosiy sabablari davlatimiz bu davlarda iqtisodiy qiyinchilikni boshidan o‘tkazayotgani va darsliklar chop etish bo‘yicha otaliq tashkilotlar yoki homiylarning kamligi anashu davrning ta’lim sohasidagi eng ko‘zga ko‘rinarli muammosi edi.

Lekin, davlatimiz tomonidan 1995-yillarda umumta’lim maktablarini moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadi shu yilda 30 dan ortiq turli ko‘rinishdagi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzilgan. Natijada 1995-yilda 22.2 mln so‘mlik o‘quv anjomlari, tuli geografik kartalar, jadvallar, alibomlar, bukletlar, gramplastinkalar, gerbariylar, o‘yinchoq va o‘yin vositalari, fizika, kimyo va biologiya fanlari oid o‘quv-laboratoriya anjomlari va boshqa sotib olini tarqatilgan. Bu holat 1994-yilga nisbatan 10 barobar ko‘p hisoblanadi[8, –B. 11]. 1995-yil 25-iyulda Xalq ta’limi vazirligining “Orginal ko‘rgazmali qurollarni yaratish bo‘yicha” buyruqga asosan shu yilda 50 mln so‘m mablag‘lar ajratiladi[9, –B. 16-17]. 1997-yilga kelib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” qabul qilinishi asosida mamlakatimida ta’lim tizimi rivojlandi va shu yildan birinchi sinfga qabul qilingan o‘quvchilarga Prezident sovg‘alari berish boshlandi.

Masalan, Namangan tumaniga 1998–1999-o‘quv yilda maktab ostonasiga qadam qo‘yayotgan 4210 nafar o‘g‘il-qizlarga Prezident sovg‘asi sumka, darsliklar va 12 turdagi o‘quv qurollari bepul topshirilgan. Bundan tashqari, 2–3 sinflar uchun o‘quv darsliklari topshirilgan va yetmagan darsliklar esa ota-onalari tomonidan sotib olib berildi. O‘quvchilar orasida ijtimoiy yordamga muhtoj yoki ko‘p farzandli oilalarning farzandlariga darsliklar bepul tarqatildi[10, –B. 2].

Darsliklarning pulli bo‘lish tartibi 1998-yil 5-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 1998-1999-o‘quv yildadan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim maktabda darsliklar pulli shaklga o‘tdi. Bu davrda viloyatda hududlarida kitob sotuvchi do‘konlar yo‘q edi. Tumanlarda kitob do‘konlarining mavjud emasligi, tufayli tuman xalq ta’limi bo‘limi darsliklarni olib kelib, barcha maktablarda sotishni yo‘lga qo‘yganligi, har bir darslik o‘rtacha bahosi 100–150 so‘m atrofida bo‘lganligini ta’kidlanadi[11, –B.2]. Shu yilda maktablarning kutubxona jamg‘armalaridagi kitoblar ekspertizadan va inventarizasiyadan o‘tkazilib, yangi o‘quv yilida foydalansa bo‘ladigan 53.6 mln darsliklar aniqlanib o‘quvchilarga bepul tarqatildi. Respublika ta’lim rashriyoti tomonidan ta’lim muassasalari byutmalari asosida 120 nomdagi 13807.0 nusxada darsliklar chop etildi[12, –B. 58].

Bundan tashqari, Namangan tumani xalq ta’lim bo‘limi esa 1998-1999-o‘quv yilda o‘quvchilar uchun darsliklar masalasini hal etishda tuman “Nuroniy” jamg‘armasi homiyligida 30503 dona darslik kitoblar olib kelib, sotuvga chiqarildi. Tuman maktablarining birinchi sinfga qabul qilinayotgan o‘quvchilari uchun Prezident sovg‘asi sifatida 24 nomdagi darsliklar maktablarga sovg‘a sifatida etkazib berildi[13, –B. 2]. Maktablarga davlat tomonidan berilayotgan e’tiborga javoban viloyat yoshlari Respublika fan olimpiadalarida munosib qatnashib, faxrli o‘rinlarni egalladilar. Birgina 1997-yili Respublika fan olimpiadasida viloyatning 19 nafar yoshlarning 9 nafari faxrli o‘rinlarga ega bo‘lib, Viloyat Respublikada birinchi bo‘lishga muvaffaq bo‘ldir. Shu yili viloyatdagi maktablarning 1249 nafar o‘quvchilari o‘z bilimlarini ochiq namoyon etdi[14, –B. 1].

Hamda, 1996-1997-o'quv yilida Respublika Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun bo'lgan test jarayonlarida viloyatimizdagi abiturentlar o'zbek tili, biologiya, tarix, ximiya, geografiya, fanlaridan boshqa viloyatlarga nisbatan yaxshi ko'rsatkichga erishganlar [15, -B. 5].

Keying yillarda esa bu ko'rsatkich oldingi yillarga nisbatan yuqori darajaga ko'tarilgan. 1999-yilda viloyatdan 19 nafar o'quvchilar Respublika fan olimpiadasida qatnashgan bo'lsa, bularning 7 nafari (III-o'rin) oliygohlarga imtixonsiz kirish huquqiga ega bo'lganlar. Hamda viloyatimiz maktablarida ta'lim oluvchi 35 foiz o'quvchilari fanlar kuchaytirilgan sinflarda ta'lim olishlari 1998-yilda 2658 nafar 1999-yilda esa 2962 nafar [16, -B. 141] 2001-yilda 4796 nafar [17, -B. 6] o'quvchilarni oliygohlarda ta'laba bo'lish imkoniyatini yuzaga keltirgan. Umuman olganda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va DTS [18, -B. 2] qabul qilinishi umumta'lim maktablari tizimining rivojlanishga sabab bo'lgan.

1998-yil 5-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi qarorga asosan maktabning 1 sinfiga qabul qilingan o'quvchilarga Prezident sovg'asi sifatida viloyat maktablariga 30 nomdagi 502800 nusxa ya'ni, 100 foiz darslik o'quvchilarga yetkazilgan. Barcha tuman homiylar ko'magida 49 nomdagi 47960 nusxa 57 mln somlik, aylanma mablag' xisobidan 132 nomdagi 93 mln somlik, otanalar tomonidan 255 nomdagi 197 mln somlik darslik va o'quv adabiyotlari sotib olindi va o'quvchilarni darsliklar bilan taminlanishi darajasi 91 foizga ko'tarildi [19, -B. 10]. Bu holat 2000-yil sentyabr holatiga ko'ra, viloyatda 2377902 dona darsliklar yetishmagan va taminlanganlik darajasi esa 56.4 foizni, 2001-yilda 74.2 foiz tashkil etgan. 2003-2004-o'quv yilda Uchqo'rg'onda tuman hokimining tashabbusi bilan otaliq tashkilotlar va homiylar ishtirokida xayriya hashari o'tkazildi. Xayriya hasharidan tushgan mablag'lar evaziga keyingi 3 yil davomida 67 mln 691 ming 488 so'mlik darslik sotib olinib, sharoiti og'ir oila farzandlariga topshirildi. 3 yilda shu yo'l bilan tumanda 6185 ta badiiy adabiyotlar kutubxonalar fondiga qo'shildi. 2005-2006-o'quv yildada esa Uchqo'rg'on tumanida maktablarning kitob bilan ta'minlanlanganlik darajasi 97.9 foizni tashkil etdi [20, -B. 2].

Viloyatda maktab kutubxonalarini boyitishda viloyat hokimli tashabbusi bilan, har yilning 10-sentyabr kunida "Kitoblar bayrami", "Kutubxona - mahalla", "Maktab-kutubxona-oila jamoat tashkilotlari" hayriya tadbirlar o'tkazib kelingan. Ushbu tadbirlar davomida 2002-2003-o'quv yilida 1 mln 234 ming 471 nusxa 440 nomdagi 799 mln 845 ming 645 so'mlik darsliklar viloyat umumta'lim maktablariga yetkazilgan [21, -B. 111].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki ta'limni rivojlantirishda darsliklar masalasi davlatimiz tomonidan o'z davriga nisbatan yaxshi ko'rinishda hal etildi. Har qanday sharoitda ta'limni rivojlantirish ishlari jadallashdi va darsliklarni yaratishda uzviylikka va aniqlikka asoslangan holda yaratildi. Xalqimiz ham ta'limni rivojlantirishning barcha bosqichida davlatimizga ko'makchi bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B. 22.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. – B. 2.
3. Номозов О. Дарсликлар пулли Вўладими // Поп тонги. – 1998. – №23. – B. 2.
4. Ҳасанов Т. Давр талаВлари асосида // Истиқлол. – 1998. – №57. – B. 2.
5. Учқўрғон туман халқ таълими ходимларининг анъанавий август кенгашида туман халқ таълими Вўлимининг мудир И. Жўраевнинг тумандаги таълим муассасаларида 2005–2006 ўқув йилида олиВ Ворилган ишлар ҳамда янги ўқув йилидаги вазифалар ҳақида маърузаси..... – B. 2.
6. Ғофуров М. Халқ таълимида “Чақнаш” // МураВВий. – 1997. – №10. – B. 1.
7. Қаралсин: Халқ таълим вазирлиги ҳайъати йиғилишида // Маърифат. 1995. – № 6. – B. 2.
8. Қўчқоров Ю. Фарзандингиз мактаВга тайёрни // Истиқлол. – 1998. – №49. – B. 2.
9. Ёш авлод тарВияси ҳақида ўйлар // Наманган ҳақиқати. – 1991. – № 3. – B. 2.
10. МДА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. 45-вароқ.
11. МДА М-26-фонд. 1-жилд. 753-иш. 58-вароқ.
12. МДА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. 46-вароқ.
13. МДА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. 59-вароқ.
14. МДА М-26 фонд. 1-рўйхат. 399-иш. 58-вароқ.
15. МДА М-26 фонд. 1-рўйхат. 519-иш. 11-вароқ.
16. МДА М-26 фонд. 1-рўйхат. 519-иш. 16-17-вароқ.
17. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 136-иш. 5-вароқ.
18. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 217-иш. 141-вароқ.
19. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 294-иш. 6-вароқ.
20. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 294-иш. 10-вароқ.
21. НВДА 645-фонд. 1-рўйхат. 333-иш. 111-вароқ.

FAN YO‘NALISHDAGI MA‘LUMOTLAR YIG‘INDISI VA TILNI INTEGRATSIYALASHGAN O‘RGATISH USULI VA UNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

***Bakoyev Navruzjon,**
Is’hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti stajor-o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Fan yo‘nalishdagi ma‘lumotlar yig‘indisi va tilni integratsiyalashgan o‘rgatish⁸⁹ - bu fan mazmuni bilan birlashtirgan innovatsion o‘qitish yondashuvi bo‘lib, til ko‘nikmalarini akademik material bilan birlashtirib, CLIL bir vaqtning o‘zida ikkala sohani ham faol o‘rganishga yordam beradi. Talabalarda fikrlash va mazmunli tilni egallash qobiliyati va til ravonligini rivojlantirishga yordam beradi. Til rivojlanishini mavzu bo‘yicha ma‘lumotlar bilan birlashtirish orqali ta’lim natijalarini yaxshilashning dinamik va samarali usulidir.*

Kalit so‘zlar: *Fan yo‘nalishdagi ma‘lumotlar yig‘indisi va tilni integratsiyalashgan o‘rganish, afzalliklar, kamchiliklar, ko‘p tillilik.*

Fan yo‘nalishdagi ma‘lumotlar yig‘indisi va tilni integratsiyalashgan o‘rgatish - bu tilni o‘qitishga yondashuv bo‘lib, u tarix, geografiya yoki fan kabi fanlarni chet tili orqali o‘qitishni o‘z ichiga oladi. Til o‘rganishni fan yo‘nalishdagi ma‘lumotlar yig‘indisi va tilni integratsiyalashgan o‘rgatish bilan birlashtirish "CLIL" atamasi birinchi marta 1990-yillarda Finlyandiyaning Jyväskylä universitetida Devid Marsh va Enn Maljers tomonidan qo‘llanilgan va ular tilni o‘rganishni birlashtirishning mumkin bo‘lgan afzalliklarini ko‘rishgan CLIL mavzulari Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa talabalar bir nechta tillarni o‘rganishi kerak bo‘lgan ko‘p tilli guruhlarda mashhurlikka erishdi.

CLIL bir vaqtning o‘zida til ko‘nikmalarini va mavzu bo‘yicha bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarga mazmunli matnlar orqali yangi tilni o‘rganish imkoniyatini beradi, bir mavzuni chet tilida o‘rganish orqali talabalar tilni bilish darajasini oshirishi mumkin.

Yillar davomida CLIL butun dunyo bo‘ylab maktablar va ta’lim muassasalarida ikki tillilikni targ‘ib qilish, kognitiv ko‘nikmalarni oshirish va talabalarni tobora globallashtirib borayotgan dunyoga tayyorlash usuli sifatida joriy etilgan bu esa tilni bilish va akademik yutuqlarni yaxshilashga olib keladi.

⁸⁹ Content and Language Integrated Learning (CLIL)

O‘qituvchilar bugungi kunda ham CLILni turli sinf muhitlari va til ehtiyojlariga moslashtirish uchun o‘zgartirmoqdalar. U hozirda ko‘plab mamlakatlarda til ta’limi o‘quv dasturlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarga til va mavzularni o‘zlashtirishda qiziqarli yondashuvni taqdim etadi

Bir vaqtning o‘zida til va mavzuni o‘rganishni birlashtiradigan ilg‘or yondashuv bo‘lib, u 1970-yillarda til o‘rganishning samarali usuli sifatida qara boshladi. Bu o‘qitish uslubi borasida turli tadqiqotlar olib borildi va turli fikrlar ilgari surildi.

Tilni o‘zlashtirish va mavzu bo‘yicha o‘rganish o‘rtasidagi bilim bo‘shlig‘i, bu o‘quvchilarga turli fanlarni o‘rganish davomida til ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

CLIL ning asosiy printsiplari tabiatshunoslik, matematika, tarix yoki geografiya kabi fanlarni chet tilida, ko‘pincha ingliz tilida o‘qitishdir. Bu orqali talabalar nafaqat ushbu fanlarning mazmuni bilan tanishadilar, balki tilga singib ketadilar. Ushbu integratsiyalashgan yondashuvning o‘zi talabalarga til ko‘nikmalarini mazmunli va haqiqiy kontekstlar orqali rivojlantirishga yordam beradi, bu esa til o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi.

CLILning til va mazmunni chuqur anglash qobiliyati uning asosiy afzalliklaridan biri bo‘lib bu bilan an’anaviy til o‘qitishdan tubdan farq qiladi. An’anaviy til o‘qitishda til imkoniyatlarini qo‘llanilishiga kam e’tibor beriladi CLILda talabalarga mavzu bo‘yicha mutaxassislar bilan muloqot qilish, chuqur suhbatlarda qatnashish va maqsadli tilda tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, CLIL o‘quvchilarning motivatsiyasini va faolligini oshirishi isbotlangan bo‘lib ta’lim muhitini qo‘llab-quvvatlagan holda, talabalar o‘zlarini yanada kuchliroq his qilishadi, bu esa oxir-oqibat yaxshi natijalarga olib keladi.

Bundan tashqari, CLIL ning afzalliklari tilni o‘zlashtirishdan tashqari, CLIL ham madaniyatlararo kompetentsiya va global xabardorlikni rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatadi, chunki talabalar turli xil madaniyatlar, nuqtai nazarlar va fikrlash usullari bilan shug‘ullanadilar. Bu ta’sir ularning madaniy tushunishini, bag‘rikengligini va ochiq fikrliligini oshiradi.

Biroq, har qanday o‘qitish usuli singari, CLIL ham o‘zining kamchiliklariga ega. CLIL o‘qituvchilari orasida tilni bilish darajasining yo‘qligi, o‘qituvchilardan mavzuni chet tilida yetkazishni talab qiladi va barcha o‘qituvchilar ham zarur til ko‘nikmalariga ega emaslar. Tilni yetarli darajada bilmaslik samarali muloqot va tushunishga xalaqit berishi mumkin, bu esa CLIL yondashuvining umumiy samaradorligiga putur etkazishi mumkin.

Yana bir qiyinchilik sinf dinamikasini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib, CLIL sinflari ko‘pincha turli darajadagi tillarni bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan talabalardan iborat bo‘lib, bu o‘qituvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va ularga yordam berish o‘rtasida muvozanatni saqlashi kerak. Bundan tashqari, CLIL sinflarining murakkabligi o‘qituvchidan ko‘proq rejalashtirish va tayyorgarlikni talab qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida CLILni qabul qilish an'anaviy ta'lim tizimlariga qarshilik ko'rsatishi mumkin va o'qituvchilar uchun ish yukining ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, CLIL mazmuni va til o'rganishni yaxlit va mazmunli tarzda birlashtirgan o'qitish usuli bo'lib, uning tarixi 1970-yillarga borib taqaladi va u til ko'nikmalarini oshirish, talabalarning faolligini oshirish, madaniyatlararo rivojlanishiga xizmat qiladi. Kompetentsiya va global dunyoqarashni rivojlantirish, ammo CLIL potentsialidan to'liq foydalanish uchun o'qituvchining malakasi, sinfni boshqarish va o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish kabi muammolarni hal qilish kerak. Bu esa talabalarga har tomonlama va boyituvchi ta'lim tajribasini taqdim etishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baqoyev, Navrozjon (2023). O‘ZBEK TILIDAGI “QO‘L” SO‘ZI VA U QATNASHGAN IBORALAR SEMANTIKASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 414-417.
2. Bakoev, N., & Abdumutalova, M. (2023). YAPON TILIDAGI KANSAI SHEVASI VA O‘ZIGA XOSLIGI. *Interpretation and researches*, 1(17).
3. Bakoev, N., & Yuldasheva, S. (2023). YAPONIYA TA'LIM TIZIMI. *Interpretation and researches*, 1(17).
4. Bakoev, N., & Ravshanov, S. (2023). YAPON TILIDAGI IYEROGHLIFLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 84-87.
5. Bakoev, N., & Sheraliyeva, F. (2023). YAPONIYA TURIZM SOHASI VA RIVOJLANISHI. *Interpretation and researches*, 1(18).
6. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) DISADVANTAGES AND ITS SOLUTIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 53–57. Retrieved from
7. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING'S DISADVANTAGES. «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА».

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

G‘aniyeva Gulnoza Azizbek qizi

Namangan davlat universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti talabasi

Namangan, O‘zbekiston

gulnoza.ganiyeva.02@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi. Bu usullar qiziqishni oshirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va o‘quv jarayonini osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu guruhda ishlash, rolli o‘yinlar, interfaol mashqlar va o‘quvchilar o‘rtasida muloqotni rivojlantirish orqali faol ishtirok etishning afzalliklariga urg‘u beradi.

Kalit so‘zlar: faollikni oshirish, til o‘zlashtirishni yaxshilash, shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribasi, hamkorlikda o‘rganish, multimedia resurslari, texnologiya integratsiyasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ганиева Гульноза Азизбековна

Студент Наманганского государственного университета, факультет

английской филологии

Наманган, Узбекистан

gulnoza.ganiyeva.02@mail.ru

Аннотация: В этой статье подчеркивается важность использования интерактивных методов в обучении английскому языку учащихся начальной школы. Эти методы играют значительную роль в повышении интереса, мотивации учащихся и облегчении процесса обучения. В нем подчеркиваются преимущества активного участия посредством групповой работы, ролевых игр, интерактивных упражнений и содействия общению между учащимися.

Ключевые слова: вовлеченность, овладение языком, индивидуальный опыт обучения, совместное обучение, мультимедийные ресурсы, интеграция технологий.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO PRIMARY CLASS STUDENTS

Ganiyeva Gulnoza

Namangan State University, Student of the Faculty of English Philology

Namangan, Uzbekistan

gulnoza.ganiyeva.02@mail.ru

Abstract: *This article highlights the importance of utilizing interactive methods in teaching English to primary school students. These methods play a significant role in increasing students' interest, motivation, and facilitating the learning process. It emphasizes the benefits of active participation through group work, role-playing, interactive exercises, and fostering communication among students.*

Key words: *enhanced engagement, improved language acquisition, personalized learning experience, collaborative learning, multimedia resources, technology integration.*

I. INTRODUCTION

Teaching English to primary class students can be a challenging task, but utilizing interactive methods can make the learning process more engaging and effective. Interactive teaching methods encourage active participation, foster language acquisition, and enhance students' overall language skills. In this article, we will explore the benefits of using interactive methods in teaching English to primary class students and provide practical strategies for implementing them in the classroom.

II. LITERATURE REVIEW

This part of the article consists of the brief literature review presenting background of the article topic.

The **International Journal of Human Computing Studies** in journal Mamirova Malikaxon's "Using Interactive Methods in Teaching English at Schools". The lesson provides information on information and its significance, which is considered one of the pressing issues in English lessons using interactive methods.[1]

The European Scholar Journal in journal Laylo Xalilova, Maxliyo Turgunboeva end X. Tojiev's "Interactive methods in english classes". About interactive education-modern educational method it consists of the interaction of

all participants in the educational process: teachers and students. Today, this teaching method is widely used everywhere: in schools, universities, courses and trainings, because this style is very effective not only in terms of gaining knowledge, but also in terms of gaining knowledge information is provided on the formation of personal skills and the development of the character of students.[2]

The Academic Research in Educational Sciences in journal Zuhra Khakimberdievna Rasulova’s “Teaching english by using interactive methods”. This article about teaching English by using interactive methods. In this article it is spoken about a lot of interactive methods, especially the importance of using total physical response (TPR) method in teaching English.[3]

The European Scholar Journal in journal Nasreddinova Farzona Shukhratova’s “Interactive methods in teaching english”. In this article particulars which is considered one of the present-day issues in the English language lessons using interactive methods and its importance.[4]

III. BENEFITS OF INTERACTIVE TEACHING METHODS

1. Enhanced Engagement: Interactive methods actively involve students in the learning process, capturing their attention and fostering a positive attitude towards English learning. By incorporating games, group activities, and hands-on exercises, students become more enthusiastic and motivated to participate actively.

2. Improved Language Acquisition: Interactive methods provide ample opportunities for students to practice and apply their English language skills in a meaningful context. Through interactive activities such as role-plays, discussions, and multimedia presentations, students develop their listening, speaking, reading, and writing abilities while building confidence in their language proficiency.

3. Personalized Learning Experience: Interactive teaching methods allow educators to address the diverse learning needs and preferences of primary class students. By incorporating a variety of activities, such as visual aids, songs, storytelling, and technology-based tools, teachers can cater to different learning styles and provide a more personalized learning experience.

4. Collaborative Learning: Interactive methods encourage collaboration and teamwork among students. Group activities, pair work, and interactive games promote peer interaction, communication, and cooperation. Through collaborative learning, students can learn from one another, exchange ideas, and develop their interpersonal and social skills.

IV. PRACTICAL STRATEGIES FOR INTERACTIVE TEACHING

1. Games and Activities: Incorporate language learning games, puzzles, and interactive activities into your lessons. For example, word matching games, vocabulary bingo, or language board games can make learning enjoyable and reinforce language skills.[4]

2. Multimedia Resources: Utilize audiovisual resources such as videos, songs, and interactive online platforms to enhance learning. Engaging multimedia content captures students' interest, exposes them to authentic language use, and promotes listening and comprehension skills.

3. Role-plays and Drama: Encourage students to participate in role-plays and drama activities that simulate real-life situations. This interactive approach allows students to practice using English in context, develop conversational skills, and boost their confidence in speaking.

4. Technology Integration: Make use of educational apps, websites, and interactive software to supplement classroom instruction. Online platforms and interactive whiteboards can facilitate interactive exercises, quizzes, and virtual language learning experiences.

5. Storytelling and Picture Books: Narrate stories or use picture books to engage students and stimulate their imagination. Promote interactive discussions around the story, encourage students to ask questions, and allow them to retell or rewrite the story in their own words.

6. Real-world Connections: Relate English learning to real-life situations and contexts. Encourage students to use English in practical scenarios such as ordering food, giving directions, or describing objects. Field trips or guest speakers can also provide authentic language experiences.

Total Physical Response (TPR) [3] Method or full physical response method is one of the methods of learning a foreign language, widely used for working with children of preschool and primary school ages. Due to this, the method is universal for working with all types of perception: both with kinesthetic and with visuals and auditory learners. The teacher, using this method, explains the meaning of a word or concept through the movement of the body, which his students repeat after him, while pronouncing the studied word or phrase. In the first stage, for example, the guys do what the teacher says in English. So, through action, the teacher introduces new vocabulary. In the second stage, the teacher shows the action, and the children call it.

Most parents are positive about gaming lessons, but there are those who adhere to traditional forms. We convince them, we say that it is important to talk the child, and not just teach him to read, write and translate. Because we

learn a language in order to communicate in it. The TPR method is the memorization of new words or phrases using gestures or the execution of teacher commands. For example, with the word spoon - children eat an imaginary spoon, and with the word smile- they smile.

For example: Activity "Confusion". The facilitator calls one part of the body while touching the other.[3]

For example, pronounces Nose, and points to the ear. The task of the players is to touch exactly that part of the body that he calls.

It turns out, with the help of interactive, or as they are also called specialists, communicative, methods, we kill two birds with one stone: we support the child's interest in the subject, and we study the language. What can we say about how happy the guys are when they are offered to play computer games as homework. It turns out that with their help you can improve your knowledge.

V. CONCLUSION

Using interactive methods in teaching English to primary class students offers numerous benefits, including enhanced engagement, improved language acquisition, personalized learning experiences, and collaborative learning opportunities. By incorporating interactive activities, games, multimedia resources, and technology, educators can create a dynamic and stimulating learning environment that fosters students' language skills, creativity, and critical thinking abilities. Embracing interactive teaching methods ensures that English learning becomes an enjoyable and effective experience for primary class students.

These methods enhance students' interest, motivation, and make the learning process more accessible. Interactive tools such as animations, videos, games, and interactive activities capture students' attention and increase their motivation to learn English. They encourage active participation, engagement, and practical application of knowledge through group work, role-playing, collaborative exercises, and promoting communication among students. Interactive methods facilitate students' self-expression, application of learned skills, and sharing ideas with others. Interactive digital resources and platforms provide students with opportunities for self-paced learning, monitoring their progress, and self-assessment. They also enable access to interactive learning materials through devices like smartphones, tablets, and computers, making learning more convenient and engaging.

Online platforms offer a wide range of interactive materials, tests, forums, and webinars, allowing students to access engaging activities at their own pace. Interactive methods in teaching English to primary school students enhance

motivation, increase interest, promote active participation, self-monitoring, and utilize technological resources. These methods contribute to effective and enjoyable learning experiences for students.

References:

- [1]. Mamirova Malikaxon, "Using Interactive Methods in Teaching English at Schools". *International Journal of Human Computing Studies*, Vol. 4, no. 3, Mar. 2022, pp.1-4
<https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS/article/view/2779>.
- [2]. Laylo Xalilova, Maxliyo Turgunboeva, Baratova Shoxsanam, & X. Tojiev. (2021). Interactive methods in english classes. *European Scholar Journal*, 2(2), 48-50. <https://www.scholarzest.com/index.php/esj/article/view/228>
- [3]. Rasulova, Z. K. (2021). Teaching english by using interactive methods. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(11), 248-250. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-248-250
- [4]. Nasreddinova Farzona Shukhratova. (2023). INTERACTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH. *European Scholar Journal*, 4(12), 25-27. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/esj/article/view/4131>
- [5]. Richards, Jack C.; Theodore S . Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge UK, 2001.

YANGI O‘ZBEKISTON: TA’LIM ISLOHOTLARIDAN – UCHINCHI RENESSANS SARI

Qo‘chqarova Muxtasar Baxtiyor qizi

*Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari va uning mazmuniga doir ayrim mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ta’lim islohotlari, Yangilanayotgan O‘zbekiston, Harakatlar strategiyasi, Uchinchi Renessans, maktabgacha ta’lim, xalqaro ilmiy va amaliy tajriba.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta’lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e’tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga, ulug‘ ajdodlarimizga munosib avlodlar bo‘lib shakllanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, O‘zbekistonda o‘ziga xos maqsad muddaolarni qamrab olgan milliy g‘oya e’lon qilindi: “Ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik” [6. “Xalq so‘zi” 01.09.2020]. Buning ma’nosi shuki, milliy davlatchilik, bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyatni yuksak darajada rivojlantirish ta’lim islohotlari orqali amalga oshiriladi. O‘z navbatida, yangi O‘zbekistonda ta’lim uch muhim funksiyani bajarmoqda: birinchidan, jamiyatda ma’rifatini yuksaltirish; ikkinchidan, yuksak malakali kadrlar tayyorlash; uchinchidan, ilm-fanni zamon talablari asosida rivojlantirish. Negizi O‘zbekiston bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasida keyingi ming yil davomida ikki Renessans davri kelganligi jahon ilm-

fanida e’tirof etilganligi ta’lim taraqqiyotida hali o‘zbek yoshlari shubhasiz dunyoni hali ko‘p lol qoldiradi deb umid bildiramiz.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, bugungi O‘zbekiston hududi tarixda ilm-fan, madaniyat va san’atning qadimiy manzillaridan biri sifatida IX-XII asrlarda birinchi Sharq Uyg‘onish davri yoki Musulmon Renessansi beshigi hisoblanib, ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri — XIV-XVI asrlardagi ikkinchi uyg‘ontsh davri Temuriylar Renessansi sifatida jahon ilf-fani rivojiga juda katta hissa qo‘shgan ulug‘ alloma va mutafakkirlar yurti bo‘lgan. Takidlash kerakki, “Renessans” tushinchasi lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi.

Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan. Gap uyg‘onish davri haqida ketar ekan, Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, bugungi O‘zbekiston hududi tarixda ilm-fan, madaniyat va san’atning qadimiy beshigi sifatida mavjud bo‘lib kelgan. Bu to‘g‘risida islomga qadar mavjud manbalarda ham ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, “Avesto”da ma’naviy muhit, ilm-fan va ta’lim-tarbiya xususida o‘z davri uchun ilg‘or g‘oyalar ilgari surilgan. O‘zbekiston hududlari tarixan Buyuk ipak yo‘lining markazi va uning turli tarmoqlari kesishgan nuqtada joylashganligi uchun Sharq va jahonning turli mamlakatlaridan diniy va dunyoviy bilim olish istagidagi insonlar hamisha Samarqand, Buxoro, Xorazm, Nasaf (Qarshi), Kesh (Shahrisabz), Toshkent, Farg‘ona etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo‘g‘ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o‘sganini ta’kidlaydi. U O‘rta Sharq Uyg‘onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho‘zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi. XV asrdan Renessans Yevropaga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300 — 350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg‘oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o‘girib, chuqur o‘zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg‘onishiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatganlardan biri Ibn Rushddir. Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurida XVI asr o‘rtalarigacha averroizm (Ibn Rushd ta’limotiga asoslangan oqim) mavqeini saqlab turdi. Renessans, ya’ni Uyg‘onish atamasi ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot jadal rivojlanishi davriga nisbat berilishidir.

Birinchi Sharqda ilk O‘rta asrlar Uyg‘onish davri nomini olgan ilmiy va madaniy taraqqiyot VIII-IX asrlardayoq o‘z olamshumul kashfiyotlari bilan olamni o‘zgartirgan edi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. “Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi. O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.

Bugungi ta’lim tizimida yurtimizdan chiqqan ulug‘ alloma va mutafakkirlarining davomchilari shakllanmoqda. Davlatimiz rahbari “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi” deb ta’kidladi. [7. “Xalq so‘zi” 1.10.2020] Shubhasiz, uchinchi renessans – mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotining, iqtisodiyot va jamiyatning, xalqqa xizmat qilish va odamlarni rozi qilishday ezgu niyat bilan amalga oshirilayotgan barcha yutuqlar – kishilariimiz va yoshlarimiz aqlu zakovatining, iqtidor va iste’dod quvvatining yorqin namunasi bo‘ladi.

Uchinchi Renessans masalasi strategik vazifa sifatida milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilayotgani, buning uchun maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi ekanligi, bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiyijodiy ziyolilar yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, bu tashabbusni qo‘llabquvvatlovchi ota-onalar yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘lishi shu Vatanda yashayotgan barcha yurtdoshlarimiz zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi, albatta.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan islohotlar, ayniqsa ta’lim-tarbiya sohalaridagi rivojlanish odamlarda ertangi kuniga ishonch va shukronalik kayfiyatini maralar ham yangi ko’lam, miqyos kasb etayotganligi tan olinmoqda. Natijada, yurtimiz haqida gap ketganda, mamlakatimizning o’zida ham, jahon miqyosida ham “Yangi O‘zbekiston” degan ibora bot-bot tilga olinib, bu yerda yangi renessas davri boshlanish arafasida ekanligi ta’kidlanmoqda. Bu bejiz emas albatta. Mustaqillik bayrami tadbirida so’zlagan nutqida Prezidentimiz: “Xalqimizning ulug’vor qudrati jo’sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg’onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo’ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”. Prezident tarixga nazar solib, bu xalqning ilm zakovati, jahon sivilizatsiyasi ilm-faniga qo’shgan xissasi tufayli IX-XII asrlarda yurtimiz hududida birinchi, XV asrda ikkinchi Renessans porlaganini ta’kidladi. Mamlakatimizda uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Ular “Ilmdan boshqa najot yo’q va bo’lishi ham mumkin emas”, degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar. [Lekin, ilm-fanda, e’tiqod va imonda millatning o’zlaridan ilgarilab ketishini istamagan sobiq tuzim jadidlarni qatog’on qildi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari, islohot va o’zgarishlar natijadorligi ta’lim tizimida yangi avlod kadrlarini yetishtirishni, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishni, mamlakat ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish asosida oliy ta’lim sohasini yanada rivojlantirishni taqazo etmoqda. Ushbu yo’nalishda qabul qilinayotgan Prezident qarorlari va farmonlari uchinchi renessas avlodlarini shakllantirishning huquqiy asosi bo’lib qolmoqda. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni chet ellardagi nufuzli o’quv yurtlarida o’qitish va malaka oshirish bugun davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan.

Ushbu islohotlar uchun davlat budjetidan xarajatlar so’nggi 6 yilda **4,3** baravarga oshirildi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2016-yildagi **5 211** tadan 2021-yilga kelib **19 316** taga, maktablar soni **9 719** tadan **10 289** taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta tiklandi, maktab o’qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta’lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb **4 baravarga** oshirildi, OTM soni **70 tadan 191 taga** yetkazildi, oliy ta’limdan keyingi ta’limning ikki pog’onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi **27,7 foizdan 67 foizga**, maktablardagi malakali oliy ma’lumotli

o‘qituvchilar ulushi **81,8 foizdan 87,8 foizga**, yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi **9 foizdan 38 foizga** yetkazildi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta‘limda qamrov darajasini hozirgi **67 foizdan 80 foizga** yetkazish, **7 mingdan** ziyod yangi nodavlat MTTLarni tashkil etish, xalq ta‘limi tizimida qo‘shimcha **1,2 million** o‘quvchi o‘rnini yaratish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o‘quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko‘zda tutildi. Shuningdek, oliy ta‘limda qamrov darajasini **50 foizga**, nodavlat OTMLar sonini kamida **50** taga yetkazish belgilab olindi.

Bugun xorijda doktorantura va magistraturada o‘qitish, malaka oshirish va stajirovkani tashkil qilish bo‘yicha dastlabki ehtiyoj 3,5 mingdan ortiq. Shu bilan birga Yurtimizda xalqaro ilmiy va amaliy tajriba ega 600 nafardan ziyod vatandoshlarimizga ehtiyoj mavjud. 1000 ga yaqin xorijiy olimlar va ekspertlarni jalb etishga talab bor. Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta‘lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta‘minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. 2020 yildan boshlab 10 ta oliy ta‘lim muassasasi o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi. Albatta mamlakatimizda yangi avlod kadrlarini tayyorlashda oliy ta‘lim tizimida tub islohotlarning ahamiyati katta. Qolaversa, davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta‘lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

Biroq hali bu sohada ham qilinadigan ishlar, hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar bor. Shu bilan birga farzandlarimizni zamonaviy bilimlarni va chet tillarni chuqur o‘rganishlari uchun mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. “Yoshlarimizning “IT” texnologiyalarga qiziqishini yanada oshirish va ularning yetuk mutaxassis bo‘lib sarflayapmiz? Ertaga ushbu fundamental ilmlar baribir natija ko‘rsatadi. Axir bir vaqtlar shunday bo‘lgandi-ku”, — dedi Shavkat Mirziyoyev [8. www.gazeta.uz. 29.08.2020]. Ta’kidlash kerakki, bugun mamlakatning buyuk kelajagini, uning iqtisodiy qudratini, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasini yuksalishini sifatli ta’limsiz, yetuk va malakali kadrlarsiz aslo tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu sohada ta’limdagi islohatlar ajdodlarga munosib avlodlarni shakllantirishda munosib ma’naviy asos bo‘laoladi va ualbatta uchinchi renessasni ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo‘lishini ta‘minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzluksiz ta‘lim olishga bo‘lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. “Ta‘lim to‘g‘risida” Qonun O‘RQ-637-son 23.09.2020. <https://> “Xalq so‘zi” gazetasi, 24 sentyabr, 2020 yil.
2. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston davlat mustaqilligining 29 yilligi bayram tadbirida so‘zlagan nutqi. “Xalq So‘zi” gazetasi 1 sentyabr, 2020 yil.
3. Адам Мец Мусульманский Ренессанс Издание 2-е, из-во "Наука" Москва 1973.стр 3-7, 211-267, 397- 473.
4. Ю.В. Совастеева Академик Н.И. Конрад и его концепция Возрождения на Востоке // Россия и АТР, 2013, №1, С. 133-141.
5. И. Конрад Запад и Восток. М.: Наука, 1966. Стр.3-10, 103-204, 455- 496.
6. “Xalq so‘zi” 01.09.2020.
7. “Xalq so‘zi” 1.10.2020.
8. www.gazeta.uz. 29.08.2020.

**YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR VA YANGICHA
YONDASHUVLAR
(STEAM texnologiyalarining joriy qilinishi misolida)**

Sharofiddinova Zakoatxon Shuxratjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
Tel: +998 99 320 94 96

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM texnologiyalarining bugungi kundagi ahamiyati, uning imkoniyatlari va yutuqlari, ta’lim tizimidagi afzalliklari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM texnologiyalari, ta’lim sifati, konsepsiya, qobiliyat, tanqidiy fikrlash, xorijiy tarbiya, integratsiya, fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika, integratsiya, tanqidiy fikrlash, xalqaro ta’lim dasturlari.

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”[8].

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda[1].

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda

xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi[6].

Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

2020-yil 23-sentabrda yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonun 11 bob, 75 moddadan iborat. Ta'limdagi islohotlar bu bilan cheklanib qolmasdan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini, davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-qarori orqali O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish va xalq ta'limini jahon andozalari darajasida tashkil etishga qaratilgan keltirilgan[3]. 2022-yil 11-mayda "2022-2026-yillar xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" prezident farmoni bilan tasdiqlandi. O'zbekistonda xorijiy tajribalardan foydalanilgan holda Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi. Bu haqida prezidentning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risidagi" (PF-6108-son06. 11.2020-yil) farmonida so'z boradi. Milliy o'quv dasturi-har bir sinf bosqichi yakunida o'quvchilardan ketiladigan natijalarni hamda bir sinfdan keyingi sinfga o'tishni va o'quvchi qanday natijalarni qo'lga kiritishi kerakligi va baholash jarayonini tushuntirishga yo'naltiruvchi hujjatlar. Bu kabi qator o'zgarishlardan biri ta'limdagi STEAM yondashuvdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoniga ko'ra innovatsion ta'lim jarayoniga o'tish zamonaviy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olish, AKT va ta'lim berishning yangi metodlarini joriy etish, dars jarayonini STEAM ta'lim texnologiyasi talablari asosida tashkil etish, STEAM fanlarini o'qitish bo'yicha kurslardan o'tgan pedagoglar 2023-yilda 10%, 2030-yilga kelib 50%ga yetishi yangi kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini

shakllantirish kabi vazifalar belgilangan. STEAM atamasi ingliz tilidagi “Science”, “Technology”, “Engineering”, “Arts”, “Maths” so‘zlarining bosh harflarini anglatadi[4]. STEAM atamasi aslida STEMning to‘ldirilgan ko‘rinishi hisoblanadi, ya’ni $STEM+ART=STEAM$. STEM chap miya yarim shari funksiyalarini rivojlantiradi. ART esa o‘ng miya yarim shari funksiyalarini rivojlantiradi. Chap miya yarim shari funksiyalariga analitik, induktiv, deduktiv, tanqidiy fikrlash, til, o‘qish va yozish qobiliyatlari kirsa, o‘ng miya yarim shari funksiyalariga Ijodkorlik, tasavvur, his-tuyg‘ular va boshqalar kiradi. Endi o‘z navbatida bizda STEAM yondashuv bizga nima uchun kerak degan savol paydo bo‘ladi.

STEAM ta’lim texnologiyasining afzalliklari nimada? STEAM ta’limining afzalliklarga biri shuki u fanlar bo‘yicha emas mavzular integratsiyalashuvi ta’lim. Avvallari darslar chiziqli ko‘rinishda amalga oshirilgan bo‘lsa endi darslar spiralsimon ko‘rinishda olib boriladi. Yana bir afzalliklarga biri esa haqiqiy hayotda ilmiy va texnik bilimlarni qo‘llash. Bizga ma’lumki yangi milliy o‘quv dasturi PISA, PIRLS, TIMSS, EGRA, EGRA kabi xalqaro musobaqalarda yetakchi o‘rinlarni egallagan Finlandiya, Yaponiya, AQSh kabi davlatlarning o‘quv dasturlari asosida yaratilmoqda. Haqiqiy hayotda ilmiy va texnik bilimlarni qo‘llash afzalligi ham Finlandiya ta’lim tizimidagi “Amaliylik” tamoyiliga to‘g‘ri keladi deb aytsak bo‘ladi[5].

Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni, o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o‘zlari “uqib oladilar”.

STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish etarli emas.

Amaliy qobiliyatga e’tibor berib, talabalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim vazifasini tashkil etadi. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e’tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi

va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda Art qo‘shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O‘qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog‘i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi[7].

Agar biz an‘anaviy ta‘limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu maktab o‘quvchilariga nafaqat ba‘zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O‘sha. haqiqatda ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir.

STEAMning afzalliklari birgina bular bilan cheklanib qolmasda u yana:

- tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal etish;
- o‘z kuchlariga ishonchni orttirish;
- faol muloqot va jamoaviy ishni tashkillashtirish;
- o‘quvchilarni hayotning texnologik yangiliklariga tayyorlash;
- texnik fanlarga qiziqishini rivojlantirish;
- loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish;
- ta‘lim va martaba o‘rtasidagi ko‘prik kabi afzalliklarni ham o‘z ichiga oladi.

STEAM ta‘lim texnologiyasining amalga oshirish bosqichlari quyidagicha:

- hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammoli vaziyat hosil qilish;
- muammoni hal etish rejasini tuzish;
- konstruksiya va modullarning protipini yaratish;
- kamchiliklarni bartaraf etish yakuniy natijalarni taqdimot qilish;
- bajarilgan ishni baholash.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog‘liq bo‘ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta e‘tibor qaratish lozim. Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo‘naltirishimiz kerak. Bu borada STEAM texnologiyasi bizga qo‘l keladi.

STEAM – tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubidir. STEAM texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligiga e‘tibor qaratiladi. STEAM ta‘lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan 1-2-sinflarning ona tili va o‘qish savodxonligi, tabiiy, matematika

darsliklarida berilgan mavzularga STEAM texnologiyasi asosida yondashib, darslar tashkil etsa bo‘ladi.

Xususan, tabiiy fanlarda har bir mavzu nazariy ham amaliy tarzda berilgan. Jumladan 2-sinf tabiiy fanida Yer sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni o‘rganishda o‘quvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg‘ulot ham o‘tkazishadi. O‘quvchilar yer shari, quyosh modelini yasashadi. Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini o‘ylab topishadi. Bir shu mavzu asosida o‘quvchilarni bilishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga, ijodkorlikka undash mumkin. Nafaqat darslarda balki sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham STEAM texnologiyasidan oqilona foydalanish kerak. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda kasb, hunar egalari taklif etilsa, ular o‘z kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘rsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Kelajakda kasb tanlashda, o‘z yo‘nalishini topib oladilar. Xulosa qilib aytganda zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim uchun istiqbolli, ustivor yo‘nalishlardan biri bu-o‘quvchilarni yetuk shaxs sifatida rivojlanishi hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida iboratdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchi va o‘quvchilarining zamonaviy ta‘limda o‘rni haqida o‘rganishda ushbu maqoladan foydalanishni talaba, ilmiy izlanuvchilar hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladi. Zamonaviy ta‘limning o‘rni O‘zbekiston yoshlarining kelajagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. O‘tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘zieva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innavatsiya – Ziyo, 2019.
2. Z. M. Ashurova. Maktabgacha ta‘limda STEM texnologiyasining ahamiyati. – Toshkent, 2022.
3. Bultakova R. STEAM texnologiyalari maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish yo‘lida. Журнал «МУФАЛЛИМ ХЭМ ҲЭМ ҲЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ», № 6/5 – 2022 ЖЫЛ.
4. <https://zenodo.org/records/7990699>
5. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimidagi-islohotlar-buyuk-yangilanishlar-poydevoridir>
6. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
7. <https://jdpu.uz/steam-texnologiyalarining-bugungi-kundagi-ahamiyati-va-afzalliklari/>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

JADID MA’RIFATPARVARLARI TA’LIMY QARASHLARINING MILLIY IDENTITETNI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o‘g‘li

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

katta o‘qituvchisi

Tel: 99 320-94-96

E-mail: sharofiddinov.mahmudjon@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma’rifatparvarlarining ta’limiy qarashlari asosida milliy identitetni rivojlantirish mezonlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Jadidlarning milliy ong, vatanparvarlik, ma’naviyat va zamonaviy ta’limga oid g‘oyalari yosh avlodda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning muhim omili sifatida yoritilgan. Shuningdek, maqolada milliy identitetni rivojlantirishning pedagogik mezonlari hamda ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy identitet, milliy ong, ta’lim, tarbiya, vatanparvarlik, pedagogik mezonlar, milliy qadriyatlar, usuli jadid.

XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni ma’rifat orqali taraqqiyotga olib chiqish, milliy ongni uyg‘otish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Jadid ma’rifatparvarlari ta’limni jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida baholab, milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirishga intilganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is’hoqxon Ibrat kabi jadid namoyandalari yoshlarni ilm-fanli, ma’naviyatli va vatanparvar inson qilib tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan. Ularning pedagogik qarashlarida ona tiliga hurmat, tarixiy xotirani asrash, milliy qadriyatlarni e‘zozlash hamda jamiyat oldidagi fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish muhim o‘rin egallaydi. Jadidlarning “usuli jadid” maktablari orqali ta’lim tizimiga yangi metodlarning joriy etilishi milliy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichiga aylangan.

Milliy identitet bu shaxsning o‘z millatiga mansublik hissi, milliy qadriyatlar, til, madaniyat va tarixga daxldorligini anglash jarayonidir. Jadid ma’rifatparvarlari aynan shu tushunchani shakllantirishda ta’lim va tarbiyani asosiy vosita sifatida ko‘rganlar. Ular yosh avlodning milliy o‘zligini anglashini ta’minlash orqali jamiyatning ma’naviy taraqqiyotiga erishish mumkinligini ta’kidlaganlar.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlash va rivojlantirish masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli jadid

ma’rifatparvarlari merosini o‘rganish hamda ularning ta’limiy qarashlarini zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etish yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur mavzu talabalarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va ma’naviy barkamollikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik faoliyatini tahlil qilishdan oldin, "mezon" tushunchasining mohiyatini aniqlash zarur. Mezon — bu biror hodisaning shakllanganlik darajasini baholash uchun xizmat qiluvchi obyektiv ko‘rsatkich yoki belgidir. Milliy identitet borasida bunday mezonlarni jadidlarning amaliy faoliyati va asarlaridan kelib chiqib ishlab chiqish mumkin, chunki ularning har bir faoliyat yo‘nalishi (maktab, matbuot, teatr, adabiyot) ma’lum bir mezonni shakllantirishga xizmat qilgan.

Jadid namoyandalarining ilm-ma’rifat yoyish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, ular shaxs, jamiyat va davlat istiqboli yo‘lida doimo jonini xavfga qo‘yib, eski ta’lim tizimini yangi, zamonaviy ta’lim uslubiga almashtirish asnosida mamlakat kelajagini qurish uchun kurashganliklari shuni ko‘rsatadi: ularning pedagogik faoliyati shaxsiy fido, jamiyat manfaati va davlat istiqboli — bu uch o‘lchov birligida amalga oshirilgan, bu esa milliy identitet mezonlarini belgilashda asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

2. Jadid merosiga asoslangan milliy identitet mezonlari

Jadid ma’rifatparvarlarining ta’limiy-tarbiyaviy faoliyati va asarlarini chuqur tahlil qilish natijasida quyidagi pedagogik mezonlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi mezon — tarixiy-milliy ongning shakllanganligi. Bu mezon shaxsning o‘z xalqi tarixini, uning bosib o‘tgan yo‘lini bilishi va anglashi bilan belgilanadi. Behbudiy bu boradagi o‘z pedagogik faoliyatini amaliy ravishda namoyon etgan: u "usuli jadid" maktablari uchun "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Madxali jo‘g‘rofiya umroniy" ("Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish"), "Muxtasari jo‘g‘rofi rusiy" ("Rossiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi"), "Amaliyoti islom" kabi darsliklarni yozgan edi, bu orqali yosh avlodga tarixiy va geografik bilim asosida millat va vatan haqidagi tasavvurni shakllantirgan.

Ikkinchi mezon — ona tili va milliy adabiyotga nisbatan ongli munosabat. Bu mezon shaxsning o‘z ona tilini qadrlashi, undan faol foydalanishi va milliy adabiy merosga hurmat bilan qarashida ifodalanadi. Munavvar Qori Abdurashidxonov bu yo‘nalishda «Adibi avval», «Adibi soniy» darsliklarini yaratgan, «Tajvid al-Qur’on», «Yer yuzi» singari qo‘llanmalarni tuzib, nashr etgan, Abdulla Avloniy esa "usuli jadid" maktablari uchun to‘rt qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy she’rlar», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yohud axloq» kabi darslik va o‘qish kitoblarini tuzgan. Bunday darsliklarning nomlanishidagi "milliy" so‘zining alohida ta’kidlanishi ona tili va adabiyotga ongli munosabatning muhim mezon ekanligini ko‘rsatadi.

Uchinchi mezon — ma’rifatga, ilmga intilish va bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj. Bu mezon shaxsning dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlikda egallashga, jaholat va qoloqlikdan xalos bo‘lishga bo‘lgan ichki ehtiyoji bilan belgilanadi.

Behbudiy o'zining "Ehtiyoji millat" maqolasida bu fikrni quyidagicha asoslagan edi: boshqa millatlarda muntazam maktablar mavjud bo'lib, ularda diniy ilm bilan birga dunyoviy ilm va fanlar ham o'qitiladi, chunki zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'ladi. Bu — millat taraqqiyoti bevosita ma'rifatga bog'liqligini ko'rsatadigan muhim mezondir.

To'rtinchi mezon — milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usining mavjudligi. Bu mezon shaxsning o'z millati va vataniga nisbatan faxr-iftixor tuyg'usi, uning ravnaqi yo'lida fidokorlik bilan harakat qilishga tayyorligida namoyon bo'ladi. Behbudiyning «Haq olinur, berilmas!» degan so'zlari jadidlarning shioriga aylangan edi, bu esa milliy g'ururning faol, kurashchan xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Avloniyning «Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir» degan fikri milliy taqdirning tarbiya bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi.

Beshinchi mezon — ijtimoiy faollik va jamoat ishlariga jalb etilganlik. Bu mezon shaxsning faqat shaxsiy manfaat doirasida emas, balki jamiyat va millat manfaati yo'lida faol ishtirok etishida ko'rinadi. Jadidlarning bu boradagi amaliyoti boy bo'lgan: Munavvar Qori «Xurshid» jaridasini nashr etgan va unga muharrirlik qilgan, «Najot», «Kengash», «Hurriyat», «Osiyo», «Haqiqat», «Turon» kabi matbuot nashrlarida ham muharrirlik qilgan, shu bilan birga «Jamiyati xayriya» tashkil etilgan bo'lib, uning ta'sischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Hasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo'jaev va Toshxo'ja Tuyoqboevlar bo'lgan. Bu jamoat tashkilotlari va matbuot orqali ijtimoiy faollikni mezon sifatida belgilash imkonini beradi.

Oltinchi mezon — milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashtirilganligi. Bu mezon shaxsning o'z milliy o'zligini saqlagan holda, dunyo madaniyati va fan yutuqlariga ochiq bo'lishida ifodalanadi. Jadid namoyandalari Vatanga muhabbat, el-yurtga beminnat xizmat qilib, ozod, erkin va farovon jamiyat barpo etish, taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar ilm olishda tengligi borasidagi kurashga chaqirishgan. Bu mezon milliy identitetni yopiq, izolyatsiyalangan tushuncha emas, balki dinamik va rivojlanishga ochiq jarayon sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi.

Yettinchi mezon — gender tengligi va ta'limning inklyuzivligiga munosabat. Jadidlar millat taraqqiyotini faqat erkaklar ta'limi bilan emas, balki ayollar ma'rifati bilan ham bog'lagan: Behbudiy ayollar ham diniy va dunyoviy ilmlarni o'rganishda erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ta'kidlagan, ilmli onadan ilmli farzand, johil onadan johil farzand tarbiyalanishini millat ravnaqi nuqtai nazaridan muhim deb hisoblagan. Bu mezon milliy identitetning jamiyatning barcha a'zolarini teng darajada qamrab olishi lozimligini ko'rsatadi.

Sakkizinchi mezon — badiiy-ijodiy ifoda orqali milliy o'zlikni namoyon etish. Bu mezon shaxsning teatr, adabiyot, sahna san'ati orqali millat hayotidagi muammolarni aks ettirish va jamoatchilik ongini uyg'otishga qodirligi bilan bog'liq. Behbudiy bu borada teatrni millatning o'z yuzini ko'rishiga ko'zgu sifatida qaragan

va «Padarkush» asarida ilmsizlik, johillik qanday musibatlarga olib borishi mumkinligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Bu mezon orqali milliy identitetning ijodiy-badiiy ifoda darajasini baholash mumkin.

3. Mezonlarning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari

Yuqorida ko‘rsatilgan sakkiz mezon o‘zaro bog‘liq tizimni tashkil etadi va ularni alohida-alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit majmua sifatida qo‘llash zarur. Zamonaviy ta’lim amaliyotida bu mezonlar asosida o‘quvchi-yoshlarda milliy identitetning shakllanganlik darajasini aniqlash, monitoring qilish va pedagogik faoliyatni tegishli yo‘nalishlarda takomillashtirish mumkin. Masalan, tarixiy ong va ona tiliga munosabat mezonlari fanlarni o‘qitish mazmuni orqali, ijtimoiy faollik va badiiy ifoda mezonlari esa sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar orqali rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Jadid ma’rifatparvarlarining boy pedagogik merosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning amaliy faoliyatida milliy identitetni shakllantirishning sakkiz asosiy mezonini tarixiy ong, ona tilga munosabat, ma’rifatga intilish, milliy g‘urur va vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, milliy-umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, gender tengligi va badiiy-ijodiy ifoda ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu mezonlar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodda barqaror milliy identitetni shakllantirish jarayonini ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish va baholash uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. I jild. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. — Toshkent, 2005.
4. Muhammadjonova L. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. — Toshkent: O‘zMU.
5. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. — Toshkent: Davr-press, 2006.
6. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullaev O‘. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari). 2-kitob. — Toshkent: Sharq.
7. Abdullaev D.N. Istiqlol yo‘lida jon fido qilgan millatimiz fidoyilari. — Toshkent, 2022.

JADID MA’RIFATPARVARLARI TA’LIMYIY QARASHLARI ASOSIDA MILLIY IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o‘g‘li

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

katta o‘qituvchisi

Tel: 99 320-94-96

E-mail: sharofiddinov.mahmudjon@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma’rifatparvarlari ta’limiy qarashlari asosida milliy identitetni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Jadidlarning ta’lim va tarbiyaga oid g‘oyalari, xususan, milliy qadriyatlarga sodiqlik, ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik va zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirish tamoyillari yosh avlodda milliy o‘zlikni shakllantirishning muhim omili sifatida yoritilgan. Maqolada milliy identitetni rivojlantirishda ta’lim muhitining ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalganligi, pedagogik hamkorlik, innovatsion ta’lim metodlari va tarixiy-madaniy merosdan samarali foydalanish kabi pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, jadid ma’rifatparvarlari merosini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish talabalarida milliy ong, fuqarolik mas’uliyati va ma’naviy barkamollikni rivojlantirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy identitet, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim-tarbiya, usuli jadid, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, milliy ong, ma’naviy tarbiya, innovatsion ta’lim, yoshlar tarbiyasi.

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati xalq ma’naviyati, ta’lim tizimi va milliy ong taraqqiyotida muhim tarixiy hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Jadid ma’rifatparvarlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, ma’rifat va zamonaviy ta’limni e’tirof etdilar. Ularning pedagogik qarashlari yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, milliy o‘zlikni anglash hamda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi globallashuv jarayonida milliy identitetni rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri bo‘lib, bu borada jadidlar merosi muhim ilmiy-manaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadid ma’rifatparvarlari ta’lim tizimini isloh qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishni maqsad qilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is’hoqxon Ibrat kabi mutafakkirlar ta’limni milliy uyg‘onishning asosiy vositasi sifatida ko‘rganlar. Ular yoshlarni ona tiliga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, tarixiy merosni asrash va zamonaviy bilimlarni egallash ruhida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surganlar. Ayniqsa, “usuli

jadid" maktablarida yangi pedagogik metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va milliy ongini shakllantirishga xizmat qilgan.

Milliy identitetni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari bir necha muhim omillar bilan belgilanadi. Avvalo, ta'lim jarayonining milliy qadriyatlar asosida tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodga milliy tarix, til, madaniyat va urf-odatlar haqida chuqur bilim berish ularda milliy mansublik hissini kuchaytiradi. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy muhitni shakllantirish talabalar ongida vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, jadidlar merosidan dars va tarbiyaviy tadbirlarda samarali foydalanish yoshlarning tarixiy xotirasini mustahkamlaydi hamda milliy o'zlikni anglashiga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish ham milliy identitetni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol metodlar, loyihaviy ta'lim va multimedia vositalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning milliy qadriyatlarga nisbatan qiziqishini oshiradi. Pedagog va talaba o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan ta'lim muhiti esa yoshlarning erkin fikrlashi va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi.

Birinchi, ma'rifatparvarlik bosqichida jadidlarning diqqat markazida aynan ta'lim sohasini isloh etish turgan. Ma'rifatparvarlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti darajasini ko'ra olganlar va bu zehnli yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo'lgan. Natijada, ular o'z oldilariga ikki tomonlama vazifani qo'ydilar: bir tomondan, zamonaviy bilim va o'qitish metodlarini joriy etish, ikkinchi tomondan, bu jarayonda millatning o'ziga xos qadriyatlari, tili va tarixini saqlab qolish. [Edebi](#)

Statistik ma'lumotlar jadid maktablari tarmog'ining tez sur'atlar bilan kengayganini ko'rsatadi: XIX asr oxirida O'rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar sanoqli bo'lgan bo'lsa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, o'quvchilarning soni 4106 nafarga yetdi. 1910-yilda Toshkentning o'zida 24 ta jadid maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 1740 nafar bola o'qigan, 1917-yilga kelib esa o'lkada 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar mavjud bo'lgan. Bu raqamlar jadid pedagogikasining nafaqat g'oyaviy, balki amaliy jihatdan ham keng qamrovli ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi.

Muhim jihati shundaki, jadidlar yangi usul maktablarining Turkistonda milliy kadrlar tayyorlash va yosh avlodni o'qitishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar, shuningdek, taraqqiyparvarlarning qarashlarida xotin-qizlar ta'limi masalasi alohida o'rin tutgan. Bu jadid pedagogikasining demokratik va inklyuziv xususiyatlarini, ya'ni millatning barcha a'zolarini (jinsidan qat'i nazar) ma'rifatga jalb etish g'oyasini namoyon etadi, bu esa milliy identitetni shakllantirishning muhim shartlaridan biri — jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oluvchi ta'lim tizimini yaratishdir.

2. Jadid mutafakkirlarining milliy identitetga oid pedagogik qarashlari

Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy-tarbiyaviy merosida milliy identitet tushunchasi bevosita "millat", "vatan" va "ona til" kategoriyalari orqali ifodalangan. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining davlatchilik va millat birligi haqidagi qarashlarida millatning turli ijtimoiy guruhlar — ziyolilar, ma'rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlarning birgalikda millat va Vatan manfaati yo'lida harakat qilishi zarurligini ta'kidlagan edi.

Tarbiya masalasida Abdulla Avloniyning pedagogik merosi alohida ahamiyatga ega. Uning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatida tarbiya millatning kelajagini belgilaydigan hal qiluvchi omil sifatida talqin etilgan: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot — yo falokat, yo saodat — yo razolat masalasidir» degan fikr Avloniyning tarbiyaga bergan strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Bu yondashuv shuni anglatadi: jadidlar nazarida millatning yashash-yashamasligi, uning kelajakdagi taqdiri bevosita yosh avlod tarbiyasi, xususan, uning milliy o'zligini anglash darajasiga bog'liq edi.

Jadidlarning g'oyaviy faoliyatida milliy identitet alohida mafkuraviy yo'nalish sifatida ham shakllangan: jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkiston milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi.

3. Jadid merosi asosida milliy identitetni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy qarashlarini zamonaviy pedagogika nazariyasi bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodda milliy identitetni rivojlantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlarini belgilash mumkin:

Birinchi shart-sharoit – ta'lim mazmunini milliy-tarixiy meros bilan boyitish. Jadidlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim faqat zamonaviy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki o'quvchida o'z xalqining tarixi, adabiyoti va madaniyatiga nisbatan chuqur bilim va hurmatni shakllantirishi lozim. Bu borada ona tili, milliy adabiyot va tarix fanlarining o'quv dasturlaridagi salmog'i va sifati muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Ikkinchi shart-sharoit – milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashtirilgan holda taqdim etilishi. Jadidlarning umuminsoniy madaniyat yutuqlaridan foydalanish zarurligini ta'kidlagan qarashlariga asoslanib, zamonaviy ta'lim jarayonida milliy identitetni mahalliychilik yoki yopiqlik sifatida emas, balki dunyo madaniyati bilan faol muloqotga kirisha oladigan ochiq tafakkur sifatida shakllantirish zarur.

Uchinchi shart-sharoit – pedagogik kadrlarning milliy g'oya va qadriyatlar tashuvchisi sifatidagi tayyorgarligi. Jadid maktablarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarning shaxsiy namunasi va e'tiqodiga bog'liq bo'lganidek, bugungi kunda ham o'qituvchining o'zi milliy qadriyatlarni chuqur anglagan va ularni amaliy tarbiya jarayonida namoyon eta oladigan mutaxassis bo'lishi muhim shart hisoblanadi.

To'rtinchcho shart-sharoit – sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni milliy g'oya asosida tashkil etish. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'quvchilarda

sinfidan tashqari mashg'ulotlarda ijobiy sifatlarni shakllantirishda ta'lim jarayonini aniq maqsadda tashkil etish, uning natijalarini xolis baholash va tarbiyaviy jarayondagi o'rnini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv jadidlarning maktabdan tashqari ma'rifatparvarlik faoliyati (jamoat tashkilotlari, matbuot, teatr) tajribasi bilan uyg'unlashadi.

Beshinchi shart-sharoit - oila, maktab va jamiyat hamkorligini ta'minlash. Mahallaning ijtimoiy-pedagogik o'rne va mahallada qadriyatlar hamda ijtimoiy ong translyatsiyasining ahamiyati jadid davridan beri o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Milliy identitet faqat maktab darslari orqali emas, balki oila va mahalla muhitida ham izchil shakllantirilishi lozim.

Oltinchi shart-sharoit - davlat siyosati darajasida qulay shart-sharoitlarning yaratilishi. Yoshlarning o'z tarixiga, urf-odatlariga va madaniyatiga nisbatan mas'uliyatli bo'lishini ta'minlash, ularning o'z qobiliyatlarini namoyish etish va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish davlat yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi kerak.

Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy-tarbiyaviy merosi tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ta'lim islohotini millatning ma'naviy-mafkuraviy uyg'onishi bilan uzviy bog'liq holda olib borganlar. Ularning pedagogik qarashlarida milliy identitet — ona til, tarix, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usi orqali shakllantiriladigan, ayni paytda umuminsoniy taraqqiyotga ochiq bo'lgan dinamik tushuncha sifatida talqin etilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida ushbu boy merosdan foydalanish, yuqorida ko'rsatilgan pedagogik shart-sharoitlarni izchil amalga oshirish orqali, yosh avlodda barqaror milliy identitetni, ayni paytda dunyoqarashi keng va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mustaqil O'zbekistonning kelajak taraqqiyoti uchun muhim pedagogik-ijtimoiy zaminni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Normurodova G.B. Turkistonda jadidchilik harakati // Dilimiz ve Edebiyatimiz. – Toshkent, 2023.
4. Abdullaev D.N. Istiqlol yo'lida jon fido qilgan millatimiz fidoyilari. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Turkiston jadidlarining davlatchilik masalasiga qarashlari // Ilmiy maqolalar to'plami. — Toshkent, 2023.
6. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyo'zov G. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2006.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". — Toshkent, 1997.
8. Sodiqova M. Maktabgacha pedagogika. Darslik. — Toshkent: O'qituvchi, 2020.

SAKKIZINCHI SHO‘BA.
GENDER TENGLIGI VA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI
YOSH TADBIRKOR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMI VA UNING
ISTIQBOLLARI

Mirzaxalov Sardorbek Jamoliddinovich

*Is‘hoqxon Ibrat nomidagi Namanagan davlat chet tillari instituti
Sharq tillari, gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi mudiri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, ularning bandligini ta‘minlash borasidagi islohotlar yoritilgan. Shuningdek, Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga o‘qitish va sohada kadrlar tayyorlash masalasidagi tahlillar tarixiy nuqtai nardan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tadbirkorligi, yosh kadr, yoshlar, kasb-hunar maktablari, bandlik.

Аннотация: В данной статье освещается государственная политика в отношении молодежи в Узбекистане, реформы по обеспечению их занятости. Также с исторической точки зрения освещается анализ обучения молодежи предпринимательской деятельности и подготовки кадров в отрасли.

Ключевые слова: молодежное предпринимательство, молодые кадры, молодежь, профессиональные училища, занятость.

Abstract: This article highlights the state policy towards youth in Uzbekistan, reforms to ensure their employment. Also, from a historical point of view, the analysis of youth entrepreneurship education and training in the industry is highlighted.

Keywords: youth entrepreneurship, young people, youth, vocational schools, employment.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng asosiy e‘tibor iqtisodiy erkinlikka qaratildi. Tarixdan ma‘lumki, iqtisodiy erkinlik davlatning to‘liq mustaqilligini anglatadi. Garchi, Sovet Ittifoqi davrida tadbirkorlik keskin qoralangan bo‘lsa-da, hududda milliy hunarmandchilik sohalaridan bo‘lgan temirchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik va boshqa xalq hunarmandchilik sohaları saqlanib qoldi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e‘lon qilingandan so‘ng xususiy mulk erkinligi qonun bilan mustahkamlanib, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochildi. Tadbirkorlik rivojlanishi bilan bir qatorda, sohada ilg‘or, zamon

talabiga javob beradigan, ilmi kadrlar zahirasini yaratish zaruriyati vujudga keldi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sohasida tub islohotlarni talab etdi. Sovet Ittifoqi respublikalari iqtisodiyoti bevosita Markazga bo‘ysundirilgan holda, murakkab ijtimoiy muhitni vujudga keltirgan edi. Mamlakatdagi ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun kommunistik tuzumdan saqlanib qolgan boqimandalik ruhiyatini o‘zgartirish zarur edi. Shutufayli ham mamlakatda yosh tadbirkor kadrlarni demokratik ruhda tayyorlovchi ta’lim dargoxlarini tashkil etish va zamon talabiga mos kadrlar tayyorlash nafaqat tadbirkorlik sohasini rivojlantiradi, balki davlatni iqtisodiy jihatdan erkinligi, jozibadorligi va xalq farovonligiga erishishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ko‘plab ijtimoiy muammolarga ham yechim bo‘la oladi. Tadbirkorlik, albatta, katta san‘at, chuqur bilim va mahorat, qolaversa, alohida iste’dod talab qiladi. Shu bois, hamma ham tadbirkor bo‘lavermaydi. Dunyoda yoshi katta aholining atigi 7-10 foizi tadbirkorlik bilan shug‘ullanadi¹⁵¹. O‘zbekiston Respublikasi aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etishini hisobga olinsa, tadbirkorlik sohasiga yoshlarni jalb etish orqali davlatning iqtisodiy taraqqiyotga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish orqali ularning bandligini ta’minlash, qolaversa, ushbu sohani rivojlantirish bilan bog‘lik vazifalarni chuqur anglash, amaliyotdagi muammolarni to‘g‘ri hal qilish maqsadida sohaga doir kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish zaruriyat edi. Qolaversa, mustaqillikning ilk yillarida ko‘plab yoshlar ishsiz bo‘lib, ularni tadbirkorlikka jalb qilishning yagona yo‘li bu – ularning tadbirkorlikka o‘qitish, o‘rgatish hamda sohada o‘z o‘rniga ega bo‘lishi bilan ahamiyatli edi.

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligini tarixiy dalillar asosida tahlil qilganda, 1993-yilda Farg‘ona viloyatida 11,5 mingdan ortiq ishsiz aholi ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 70 foizini yoshlar tashkil qildi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida yangidan yaratilayotgan ish o‘rinlari katta mablag‘ni talab etdi. Natijada, xarbiy xizmatni o‘tagan, o‘rta maktabni bitirgan yoshlarning ko‘pchiligi yetarli ko‘nikmalarsiz va kasb-hunarsiz bo‘lib mehnat bozorini to‘ldirib bordi. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni ish bilan ta’minlashning ilg‘or usuli hisoblanadi. Ammo sohada yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan yoshlarni faoliyat turiga jalb qilib bo‘lmasdi. Shu boisdan ham, butun respublika hududida joylashgan hunar-texnika bilim yurtlari va Xalq ta’limi boshqarmasi bilan hamkorlikda “Band bo‘lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta o‘qitish va yoshlarni milliy hunarmandchilikka o‘rgatish ishlarini olib borish bo‘yicha

muvofiglashtiruvchi markaz” (keyingi o‘rinlarda Muvofiqlashtiruvchi markaz deb yuritiladi – muallif) tuzildi.

Muvofiqlashtiruvchi markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- aholini ish bilan ta‘minlanmagan qismini o‘qitish, qayta tayyorlash, kasbga yo‘naltirish, yoshlarga hunar o‘rgatish, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish sohasida hududda yagona davlat siyosatini olib borish va uni amalga oshirish;

- mahalliy hokimiyat organlarining aholini ish bilan ta‘minlash dasturlariga, yoshlarni ish bilan ta‘minlashga doir takliflar ishlab chiqish;

- o‘rta maktab bitiruvchilari, harbiy xizmatdan qaytgan va band bo‘lmagan yoshlar hisobini yuritish hamda ularni kerakli kasblarga yo‘naltirish, qiziqishlaridan kelib chiqib, usta hunarmandlarga biriktirish;

- ishsiz yoshlarni jahon mehnat bozorida, jumladan, kompyuter texnologiyasi, texnik ta‘mirlash va boshqa kichik biznes sohasida yuqori talabga ega bo‘lgan kasb bo‘yicha xo‘jalik hisobi asosida o‘qitish, keyinchalik o‘z mintaqasida, respublikada va xorijda ish faoliyatini olib borishga tayyorlash.

Muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan 1993-yilda Farg‘ona viloyati hududida olib borilgan hisobotga ko‘ra, aholining o‘sish sur‘ati o‘rtacha 2,5-2,6 foizni, Mehnat resurslari esa 1106,3 ming kishini tashkil qilgan. Shundan 1993-yilning o‘zida maktab bitiruvchilari va harbiy xizmatni o‘tab qaytgan, 32600 nafar ishsiz yoshlar ro‘yxatga olingan.

1993-1995-yillar mobaynida faoliyat olib borgan Muvofiqlashtiruvchi markaz, o‘zini oqlamadi, oqibadda o‘z faoliyatini tugatdi. Bunga birinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi faqatgina nazariy bilimlarga asoslangan bo‘lib, amaliy ko‘nikmalar berib borilmagani, ikkinchidan, ko‘plab talaba yoshlar Muvofiqlashtiruvchi markaz pedagog-hodimlari tomonidan ko‘r-ko‘rona jalb qilingan bo‘lib, o‘zi ixtiyoriy ravishda o‘rganishga harakat qilmagani, bunga esa oilaviy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy muammolar sabab bo‘lgani, uchinchidan, jahon tajribasining ilg‘or usullari o‘zlashtirilmagani, chet elning nufuzli o‘quv yurtlari, firmalari va biznes vakillari bilan yaqindan aloqa o‘rnatilmagani asosiy sabab bo‘ldi.

Natijada, sohaga oid kadrlar tayyorlash tizimida islohotlar amalga oshirildi. Ushbu maqsadda, 1995-yil 29-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlarining kasb-hunar ta‘limining yo‘nalishini o‘zgartirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 296-son qarori qabul qilindi¹⁵⁵. Qaror asosan qishloqda xususiy sektorni rivojlantirish, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va

rag'batlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy himoya qilishga oid vazifalarni amalga oshirish va ularni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida zarur kasblar va mutaxassisliklarni egallash uchun jalb qilishga, bu yo'lda ularni rag'batlantirishga qaratilgan. Qishloqda joylashgan hunar bilim yurtlari faoliyatini tubdan qayta yo'naltirishni amalga oshirish, ularni tadbirkorlik sohasi bo'yicha o'quv markazlariga – kasb va biznes maktablariga, o'rta maxsus o'quv yurtlarini esa kichik va o'rta biznes, fermer xo'jaliklari va aholiga xizmat ko'rsatish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kollejlarga aylantirishni ko'zda tutdi. 1995-yilning o'zida viloyat va tumanlarda 160 ta yangi turdagi kollejlari, maxsus ixtisoslashtirilgan litseylar ochildi¹⁵⁶. Jumladan,

Andijon turizm va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji;

Andijon maishiy xizmat kasb-hunar kolleji;

Andijon iqtisodiyot va servis sohasi kasb-hunar kolleji;

Andijon milliy hunarmandchilik va ijtimoiy iqtisodiyot kolleji;

Andijon tuman Oqyor sanoat kasb-hunar kolleji;

Namangan agrotadbirkorlik kasb-hunar kolleji;

Namangan yengil sanoat kasb-hunar kolleji;

Namangan sanoat kasb-hunar kolleji;

Namangan shahar savdo va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji;

Chust milliy hunarmandchilik va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji;

Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji;

2-Farg'ona ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji;

Farg'ona sanoat kasb-hunar kolleji va boshqalar shular jumlasidan dir¹⁵⁷.

Kollejlari, yoshlarni turli kasblarga o'rgatish, biznes va qishloq xo'jaligiga kerakli bo'lgan o'rta ma'lumotli kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, kasbiy tayyorlash va o'qitish sohasini rivojlantirish, ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va mazmunini boyitish, istedodli yoshlarni xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda ko'plab yaxshi natijalarga erishishlarida ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator tizimli ishlar yo'lga qo'yishi kerak edi. O'sha davr o'rta-maxsus ta'lim sohasini rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning zamon talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi. Xususan:

1) kollejlari aholi yashash joylaridan uzoq bo'lgan masofada joylashtirilganligi, ayniqsa, ta'lim muassasasi joylashgan hududlarda transport tarmoqlari yetarli darajada ta'minlanmaganligi hamda ob-havo sharoitlari tufayli o'quvchilarning ko'p hollarda ommaviy ravishda dars mashg'ulotlarini qoldirishlariga sabab bo'lgan;

2) kollejlarda moddiy-texnik bazani ko‘plab kasb-hunar kollejlari ta‘lim yo‘nalishlariga mos kelmasligi, o‘quv ustaxonalarida, mahsulot ishlab chiqarishga kerakli bo‘lgan xom ashyo bilan yetarli darajada ta‘minlanmasligiga olib keldi. Respublika bo‘yicha o‘rta-maxsus ta‘lim dargohlarining moddiy-texnik jihozlanishining o‘rtacha darajasi atigi 56 foizni tashkil etdi, 31 ta kollejda amaliyot ustaxonalari umuman bo‘lmagan;

3) kollejlarda darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar bilan yetarlicha ta‘minlanmagan, mavjudlarining 50 foizi rus va qoraqalpoq tillariga tarjima qilinmagan, darsliklar doymiy yangilab borilmagan;

4) kollejlarda kadrlar tayyorlashda hududlarning real iqtisodiy tarmoqlarning ehtiyojlaridan kelib chiqilmagani ortidan, mehnat bozori bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qiyinchilik tug‘dirdi;

5) kasb-hunar ta‘lim muassasalarining mavjud o‘quv jarayonlarni tashkil etishda, qo‘llanilayotgan o‘quv-me‘yoriy hujjatlar hamda o‘qish muddatlari kasblarning qiyinlik darajasiga javob bermadi, malakaviy amaliyotini tashkil etishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ta‘lim sifatini tushib ketishiga va ushbu ta‘lim maskanlari bitiruvchilariga bo‘lgan talabni pasayishiga olib keldi. Buning natijasida o‘qishni tamomlagandan so‘ng ish joylarida ularni yana bir-bor o‘qitish zaruratini keltirib chiqardi;

6) kadrlar tayyorlashda “Hayot davomida ta‘lim olish” tamoyili bo‘yicha kasbga o‘rgatish tizimining yetarli rivojlanmaganligi, aksariyat hollarda ishsiz yoshlarni mehnat bozorida keraksiz bo‘lib qolishiga olib keldi¹⁵⁸.

Kollejlarda kadrlarni hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olmagan holda tayyorlashi bandlik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqardi. Qo‘plab hollarda bitiruvchilar hisobot uchungina, xususiy korxonalarga 3-4 oydan keyin bo‘shatib yuborish shartlari bilan ishga joylashtirildi. Masalan, 2016-yilgi hisobotlarga ko‘ra 477743 nafar bitiruvchi yigit-qizlar o‘rta-maxsus ta‘lim maskanlarini bitirib chiqqan va ularning 438503 nafari yoki 91,8 foizi ish bilan ta‘minlangani to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Ma‘lum vaqt o‘tgandan keyin ishga joylashganlarning 90 foizga yaqini o‘z ish joylarida ishlamayotgani ma‘lum bo‘lgan.

1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi davrga hamohang tarzda, jahon bozoridagi talablarni inobatga olgan holda isloh qilib borilmadi. Masalan, Finlyandiya davlatida qurilish sohasida o‘rta ma‘lumotli mutaxassis sifatida mehnat qilayotgan 139 nafar O‘zbekistonlik mehnat muhojirlari 2016-yilda diplomlari soxtaligi tufayli mamlakatdan deportatsiya qilingan. Bundan tashqari, 258 nafar O‘zbekiston fuqarosiga ma‘lumoti to‘g‘ri

kelmaganligi tufayli ishlashga ruxsat berilmagan¹⁶⁰. Ushbu muammolarni vujudga kelishining asosiy sababi ta’lim tizimidagi jahon tajribasini joriy etilmaganligidir.

Kadrlar tayyorlash tizidagi mummlarni yechish va jahon tajribasining ilog‘or usullarini qo‘llash maqsadida, 2018-yildan boshlab kollejlarda faoliyatini tubdan isloh qilishga kirishildi. Ushbu maqsadda 2018-yil 25-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 Farmoni e’lon qilindi¹⁶¹. Farmon tadbirkorlik sohasi, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha kadrlarni maqsadli tayyorlashni nazarda tutadi. Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida, ko‘p tarmoqli kasb-hunar kollejlari o‘rnida, kasb-hunar maktablari qayta tashkil etildi. Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab, jami 93 ta shunday ta’lim maskanlari tinglovchilarni qabul qila boshladi.

Qayta tashkil etilgan kasb-hunar maktablarini, oldingi kollejlardan farqi quyidagicha:

1) kasb-hunar maktablari nafaqat o‘rta ta’lim bitiruvchilarini, balki bozor sharoitidan kelib chiqib yangi kasbni egallamoqchi bo‘lgan, oldin o‘rta, o‘rta-maxsus, oliy ta’limni olgan fuqarolarni yangi kasbga o‘qitishni nazarda tutadi, bunda ta’lim oluvchining yosh chegarasi belgilanmagan;

2) ta’lim 3 yillik majburiy emas, ya’ni 6 oydan ta’lim turini qiyinlik darajasiga qarab 2 yilgacha davom etishi belgilangan.

Respublikada kasb-hunar maktablarini tadbirkorlik sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini yangicha usulda yondashilgani, jahon tajribasi asosida tashkil etilganini e’tirof etish joiz. Qolaversa, shunga o‘xshash kurslarni doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Masalan, Yaponiyada bu jarayon juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Yaponiya tadbirkorlari kichik va o‘rta biznesda ishlaydigan kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlashga katta e’tibor berishadi. Rivojlangan G‘arb mamlakatlarida ham vaziyat shunday. Kadrlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish zarurati jahon iqtisodiyotining globallasuvi tufayli paydo bo‘ldi. XXI asrda ilg‘or texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorga yo‘naltirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ma’lum bir mamlakatning tashqi bozorlari, raqobatchilari, shartlari va qonunchilik bazasi to‘g‘risida tezkor va aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Bu o‘z navbatida, ishbilarmon kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6208 Farmoni /<https://lex.uz/docs/5382151>.
2. “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6208 farmoni // lex.uz
3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –488 b.
4. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. –464 б.
5. Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда Янги Ўзбекистонни албатта бунёд этамиз // Халқ сўзи, 2021. 1 июль.
6. O‘zbekiston Milliy Arxivi (O‘zMA) Fond M-13 - “Kamolot” yoshlar ijtimoiy xarakati.
7. O‘z MA M.110-fond – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi.
8. Namangan viloyati davlat arxivi (NVDA) 963-fond – Namangan shahar hokimligi.
9. Мирзакаримов М. Таълим хизматлари бозори ва меҳнат бозорини мувофиқлаштириш ёшлар бандлиги омили сифатида // “Иқтисодиёт ва инновatsion технологиялар” илмий электрон журнали. №1, январь-февраль, 2017.

O‘ZBEKISTONDA XOTIN QIZLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA GENDER TENGLIGINING AXAMIYATI

Abduxolikova Nasiba Alijonovna

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti

v/b dotsenti falsafa fanlari doktori PhD

Tel: 998 94 303 99 91; E-mail: : abduholiqovanasiba@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maolada jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeyini mustahkamlash borasidagi nazariy qarashlar va ularning tarixiy aspektlari, O‘zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy muhofazasini yanada takomillashtirishga oid natijador usul va vositalar hamda davlat boshqaruv organlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy o‘rni haqida turlicha qarash va nazariyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Gender, matriarxat, oila, introspektiv xislatlar, sog‘lom turmush tarzi, kommunikativ qobiliyat. gender stereotiplari.*

Kirish bo‘limi. Dunyo miqyosida xotin-qizlar huquq va erkinliklarining himoyasi XXI asrga kelib umumbashariy muammo sifatida muhim hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda. BMT shafeligida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, «Ayollar huquqi – inson huquqi» shiori ostida gender tengligi, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, ayniqsa, ijtimoiy-huquqiy tizimlarni yanada takomillashtirish dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda. Xotin-qizlar ongi va tafakkuriga iqtisodiy faoliyat norma va prinsiplarini, ijtimoiy pozitsiyalarni, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan sa’y-harakatlar tendensiyaviy tus olmoqda. Ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirib borish, jamiyatda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Metodlar bo‘limi. O‘zbekistonda sharqona ma’naviy-axloqiy yondashuvlarga asoslangan holda xotin-qizlar innovasion tafakkurini shakllantirish va natijada ularning ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy va praksiologik jihatlarini tadqiq etish zamonaviy ilm-fan oldida turgan muhim masaladir. Mamalakatimizda bu boradagi amaliy ishlarga alohida e’tibor berib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta’minlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo‘ladi. Ayol baxtli bo‘lsa,

oila va jamiyat ham albatta baxtli bo‘ladi»⁹⁰. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda xotin-qizlarning rolini oshirish masalalari nazariy va huquqiy jihatdan yaxshi o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning jamiyat hayoti sohalarida teng mavqeni egallashining amaliy ifodasi va uni amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etish, ayol fenomenini falsafiy jihatdan tahlil etishni taqozo etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda aholining 51 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etayotgan ayollarning manfaati va huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirish ustuvor masala bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksida, shuningdek, «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi, «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar bunda muhim ijtimoiy-huquqiy kafolat vazifasini bajarmoqda. Mazkur bobda shu asosda jamiyat hayotida ayollar siyosiy faoliyatining namoyon bo‘lishi, ularning siyosiy faolligi va ijtimoiy mavqeyini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeyining rivojlanish tendensiyalari va ijtimoiy-falsafiy qarashlar, O‘zbekiston jamiyati taraqqiyotida xotin-qizlar faolligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritib beriladi.

Jamiyatning demokratik taraqqiyotida fuqarolarga munosib turmush shart-sharoiti, ayniqsa, ayollarning ijtimoiy mavqeyi va faoliyatiga oid muammolar ijtimoiy-gumanitar fanlarda fanlararo tadqiq etilgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumati davlat siyosatining markaziy ijtimoiy siyosati sifatida qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanishi, sharqona ehtirom va e’zoz milliy meros⁹¹ ekanligi ta’kidlangan.

Natijalar bo‘limi. Insoniyat tarixining katta qismini egallagan ona urug‘i (matriarxat) davri ijtimoiy-tarixiy adabiyotlarda «ayollar hukmron bo‘lgan davr» sifatida ta’riflangan. Bu borada tadqiqotlar olib borgan olimlar M.Xolmatova dehqonchilik, kulolchilik, chorvachilikning asoschisi, mehnat taqsimotini yo‘lga qo‘yib, dastlabki mehnat qurollarini yaratgan, uy xo‘jaligini yuritishni boshlab bergan ayollar ekanligini qayd etadi⁹². Biroq, patriarxal davrga o‘tilishi bilan ijtimoiy muvozanat erkaklar tomonga og‘di, ya’ni erkak – asosiy ishlab chiqaruvchi kuch,

⁹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6-мартдаги Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-khalqaro-khotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

⁹¹Каримов И.А. Халқаро хотин-қизлар куни муносабати билан ўзбек хотин-қизларига табрик хати // Халқ сўзи. – 2015. – 7 март. – № 46 (6229).

⁹²Холматова М. Жамиятда аёлларнинг тутган ўрни // Экология ва аёл. – Фарғона. – 2001. – Б. 109-110.

jamoa boshqaruvchisi, oila boshlig‘i va himoyachisiga aylandi. Ota urug‘i davri xususiyatlarini tadqiq etgan K.Milletning fikriga ko‘ra, erkaklar hukmronligi «patriarxal institut sifatida barqaror bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy stratifikatsiya (kasta yoki toifa, feodalizm yoki byurokratiya)ning barcha shakllarida ildiz otgan hamda o‘zining tarixiy va geografik rang-barangligi bilan ajralib turadi»⁹³. Shu bois patriarxal munosabatlarga xos ustuvor mafkura tarixiy taraqqiyotning har bir davrida ayollarni tobe qilishga doir mustahkam qarash va an‘analar tizimini yaratdi.

Movarounnahrga islom dini kirib kelgach (VII-VIII asrlar), diniy ilmlar dunyoviy ilmlar bilan uzviy bog‘langan holda rivojlana bordi. Islom dini o‘lkamizdagi ijtimoiy hayotda ayollar imkoniyatlarini bir qadar cheklagan bo‘lsa-da, ammo asrlar davomida shakllanib, ko‘nikmaga aylanib qolgan ayollarning ijtimoiy hayotdagi muayyan darajadagi erkinliklari temuriylar hukmronligi davrining oxirigacha saqlanib qoldi.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi mavqeyini yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Sohibqiron saltanatidagi ayollarga bo‘lgan hurmat-izzat, e‘tibor va ishonch diqqatga sazovor. Bu borada Amir Temur: «Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo‘lishga harakat qildim» deb bejiz yozmagan⁹⁴. Shu bois Saroymulkxonim Amir Temur nikohiga o‘tgach, mamlakatning eng nufuzli ayollaridan biriga aylandi, saltanatda «Bibixonim» degan yuksak mavqega ega bo‘ldi. Bibixonim yuksak idrok egasi, o‘qimishli, ma‘rifatli bo‘lish bilan birga, benazir did-farosat sohibi ham bo‘lgan. U iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotdan yaxshi xabardor bo‘lib, saltanat ishlarida dono maslahati bilan faol ishtirok etgan. Bunday yuksak sifatlar, o‘z navbatida, o‘zbek millati tarixida jasorat va matonati, aql-zakovati, mehnati va bunyodkorlik salohiyati, buyuk farzandlar tarbiyasida o‘z mehri bilan abadiy nom qoldirgan temuriy malikalar – Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim kabi o‘z davrining yetuk ayollarining o‘rni tarixdan munosib joy olgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati xotin-qizlar masalasiga yondashishda tub burilish yasadi. Jadidchilar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yangilanishi jarayonlarida ayollarning rolini oshirishni targ‘ib qildilar. Bu borada, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ma‘rifatparvarlarning fikrlari diqqatga sazovor. Maxmudxo‘ja Behbudiyning o‘z davrida «Xotin-qizlarni

⁹³Миллет К. Политика пола. https://genderindetail.org.ua/netcat_files/47/55/046_Politika_pola_K.Millet_.pdf

⁹⁴Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т: Шарқ, 2003. – 342 б.

jamiyatning to‘laqonli a‘zolari sifatida qabul qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uni taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir-oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog‘liqdir»,⁹⁵ degan fikrlari zamonaviy jamiyatlarga xos progressiv ruhda ekanligi bilan ahamiyatlidir.

O‘tgan asrning 70-80-yillariga kelib, sobiq Ittifoq davrida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda o‘zgarishlar kuzatilib, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida gender tafovutlar nafaqat biologik, balki ijtimoiy omillarga bog‘liq ekanligi borasidagi fikrlarni muhokama etish boshlandi. Ammo gender tafovutlar borasidagi mavjud yondashuvlar rivojlangan davlatlarda jadal kechayotgan feministik harakatning ikkinchi to‘lqini «Women’s studies» ijtimoiy-gumanitar fanlarning yangi yo‘nalishi sifatida G‘arb mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarida xotin-qizlar tarixi kurslarining o‘qitilishidan uzilganligi bois, o‘ta cheklangan biryoqlama xususiyat kasb etib, mustamlaka davrdagi «sovuq urush» poygasida kommunistik mafkura afzalliklarini isbotlashga yo‘naltirilgan edi.

Munozara bo‘limi. Gender (gender) – ijtimoiy jins. Ingliz tilida ijtimoiy jins («gender») va biologik jins tushunchalari farqlanadi. Atamashunoslik nuqtai nazaridan gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, keyinchalik bevosita gender tadqiqotlari jarayonida shakllandi. «Gender» tushunchasining mazmuni, avvalo, jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig‘indisidir. Gender – jinsning madaniy inqilobi, bizning o‘z ijtimoiy madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir⁹⁶. Buning ustiga, jins faqat gender demakdir, ya‘ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir. O‘zbek xalqi uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos etnomadaniyat yaratgan. U boshqa xalqlar, millatlar madaniyati bilan integratsiyalashib, hayot tarziga mos kelgan innovatsiyalarni qabul qilgan va umuminsoniy qadriyatlar negizida tadrijiy ravishda rivojlanib kelgan. Ushbu umuminsoniy xususiyat o‘zbek ayollari etnomadaniyatiga ham xosdir. Bu borada tadqiqot olib borgan olim O.Nishonovanning ta’kidlashicha: «O‘zbek ayollari etnomadaniyatida xotin-qizlarimizning o‘ziga xos turmush tarzi, hayotiy tajribasi, urf-odatlar, avlodlararo muloqot an‘analari, dunyoni anglash, idrok etish usullari,

⁹⁵Бехбудий.М. Хифзи сихати оила // Ойна,1914. – 53-сон.

⁹⁶ Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси.Т.: Ўзбекистон. 2003. Б.9

oilaviy-maishiy marosimlari, ma’naviy boyliklari, ijtimoiy normalar, madaniy ijod namunalari jamlangan»⁹⁷.

Sayyoramizda yashaydigan ayollarning 5 foizi yuqori boshqaruv lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkich qancha? Biz bu borada dunyo mezonlaridan oldindamizmi yo ortda qolyapmizmi?

Yurtimizdagi turli korxonalaridagi rahbar ayollar miqdorida o‘shish kuzatilmoqda. Bu ko‘rsatkich 2017 yili 44,2 foiz bo‘lgani holda, 2019-yilning o‘tgan davrida 45,3 foizga yetgan. Iqtisodiyot sohasida agar tadbirkor ayollar jami tadbirkorlik sub’yektlarining 29 foizini tashkil etsa, fermer xo‘jaligi rahbarlarining bor-yo‘g‘i 5,4 foizi ayollar ekan⁹⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilingan «Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiya mazkur sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Konvensiyaning qator normalari Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ishlab chiqilayotgan «Ayollar siyosati to‘g‘risida», «Ayollar reproduktiv salomatligi to‘g‘risida»gi qonun loyihalari, Mehnat kodeksining gender ekspertizasini tashkil etish, amaldagi hujjatlarga ayollar huquqlariga oid o‘zgartishlar kiritish, bola huquqlari bo‘yicha «Ombudsman instituti»ni ta’ sis etish, yuvenal sud tizimini joriy qilish singari muhim hujjatlarda ham o‘z aksini topadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish bo‘yicha oxirgi besh yillikda mamlakatimizda 24 ta me’yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, bulardan 2 tasi Gender tenglik va ayollarni zo‘ravonlik va tazyiqlardan himoya qilish muammolari bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha Gender tenglikni oshirish strategik Konsepsiyasida ham ayollarning jamiyatdagi ishtirokini ta’minlash va rahbar lavozimlariga qo‘yish maqsadida zaxira kadrlar tayyorlash masalalari ilgari surilgan. Oliy Majlis Senatida «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda gender tenglikni

⁹⁷Нишонов О. Ўзбек аёллари этномаданияти: генезиси, хусусиятлари, муаммолари (фалсафий-маданий ёндашув): Фалсафа фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2005. – 21 б.

⁹⁸ Саидов А. Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаол бўлса. http://namhaqiqat.uz/siyosat/hotin-izlar_izhtimoiy-siyosiy_faol_bulsa.html

ta’minlash bo’yicha faoliyatini takomillashtirish to’g’risida»gi qarori asosida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi.

O‘zbekiston xotin-qizlari mamlakat aholisining yarmini tashkil etgani holda:

- «yuqori parlament faoliyatida – 30 % senatorlar;
- deputat ayollar – 32 % ni;
- mahalliy Kengashlarda – 25 % deputat ayollar;
- Ichki ishlar vazirligida – 16 nafar rahbar ayollar;
- viloyat, tuman va shahar hokimlari – 7 nafar;
- undan tashqari har xil tashkilotlar kesimida (tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi va h.k.) 1500 nafar rahbar ayollar faoliyat olib bormoqdalar»⁹⁹.

O‘zbekistonning uzoq tarixi – ayollarimizning ham o‘tmishidir. Shoiralar, davlat rasmiylari, diplomatlar, muhandislar, hamshiralar, rafika va onalar. Bu nozik sharqona san’at bo‘ladimi, yoki qat’iy va aniq fanlarmi – o‘zbek ayollari barcha sohalarida a’lo darajada ilgarilab borishdi, ammo soyada qolib kelishdi.

Xulosa. Xotin-qizlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va faolligini yanada oshirish, ularning hokimiyat organlari tizimi faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish haqida so‘z borar ekan, albatta, bu eng avvalo, har bir fuqaro, har bir ayolning tashabbuskorligi, faolligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan dolzarb masaladir. Ayollarning bilim olishi, biror-bir kasbga yo‘naltirilishi ularning nafaqat iqtisodiy hayotdagi faolligini ta’minlashda rol o‘ynabgina qolmay, balki farzandlar tarbiyasi, oila mustahkamligi, ma’naviy va madaniy qadriyatlar tiklanishidagi ahamiyati ham beqiyosdir.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun ularning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini yanada oshirishning zaruriy sharti sifatida joylardagi hokimliklar, xotin-qizlar qo‘mitalari, mahalla qo‘mitalari, nodavlat-notijorat va jamoat tashkilotlarining doimiy, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatini tashkil etish orqali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 6-martdagi Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-xalqaro-xotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

2. Karimov I.A. Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o‘zbek xotin-qizlariga tabrik xati // Xalq so‘zi. – 2015. – 7 mart. – № 46 (6229).

⁹⁹ Умурзаков У.П. Янгиланаётган Ўзбекистонда хотин-қизларнинг илм-фан тараққиётидаги роли ва гендер тенглиги мавзусида I-халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент: «Tadqiqot», 2021. -4-5 б.

3. Xolmatova M. Jamiyatda ayollarning tutgan o‘rni // Ekologiya va ayol. – Farg‘ona. – 2001. – B. 109-110.
4. Millet K. Politika pola. [https://genderindetail.org.ua/netcat_files/47/55/046 Politika pola K.Millet .pdf](https://genderindetail.org.ua/netcat_files/47/55/046_Politika_pola_K.Millet.pdf)
5. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T: Sharq, 2003. – 342 b.
6. Behbudiy.M. Xifzi sihati oila // Oyna,1914. – 53-son.
7. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi.T.: O‘zbekiston. 2003. B.9
8. Nishonova O. O‘zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari (falsafiy-madaniy yondashuv): Falsafa fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2005. – 21 b.
9. Saidov A. Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lsa. [http://namhaqiqat.uz/siyosat/hotin-izlar izhtimoiy-siyosiy faol bo‘lsa.html](http://namhaqiqat.uz/siyosat/hotin-izlar_izhtimoiy-siyosiy_faol_bo'lsa.html)
10. Umurzakov U.P. Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi roli va gender tengligi mavzusida I-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent: «Tadqiqot», 2021. -4-5 b.

IJTIMOIIY JARAYONLARDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI VA MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN E‘TIBOR

Olimova Ra‘noxon Rasuljon qizi

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID ID: 0009-0008-6520-9813

Tel: 93 938-70-47

Annotatsiya: *Inson hayoti va jamiyat rivojida muqaddas Ona zoti, munis ayollarimizning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanini oddiy so‘zlar bilan ifoda etish nihoyatda qiyin bir vazifa. Ayollarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularga ko‘maklashish bo‘yicha eng quyi bo‘g‘in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Bashariyat, jamiyat, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustovi, pandemiya, Inson huquqlari bo‘yicha kengash, sessiya, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, faxriy unvon, orden va medallar.*

KIRISH. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”, deb alohida ta‘kidlagan. Buyuk ma‘rifatparvar Abdurauf Fitrat: “Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim”, deb yozgan edi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma‘naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni otalar, onalar, ustozlar ma‘naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Bugun biz ochiq jamiyatda yashayapmiz. Bu imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanib, ilg‘or g‘oyalarni o‘zlashtirishimiz kerak. Lekin, milliy qiyofamizga putur yetkazadigan illatlardan ehtiyot bo‘lishimiz, o‘zligimizni yo‘qotmasligimiz shart” [1].

“Bugungi murakkab globallashuv davrida ma‘naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma‘naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta‘siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotgan” bir davrda xotin-qizlarning ma‘naviy salohiyati yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, o‘zbek ayollari zimmasida “milliy sharqona ma‘naviyatini saqlab qolish va uni yanada yuksak darajada, zamonaviy asoslarda davom ettirish” kabi mas‘uliyatli vazifa yotadi. Ayollarimiz bu mas‘uliyatli vazifani, avvalo, oiladagi tarbiyadan

boshlashadi. Taraqqiyparvar ma’rifatparvarlardan biri Abdulla Avloniy “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” – degan savolga “Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir” – deb javob bergan edi [2]. Haqiqatdan ham millat tarbiyasiga birinchi navbatda onalar mas’uldir.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Oilada er oila ta’minotchisi, ayol tarbiyachi va uy-ro‘zg‘or yumushlarining bajaruvchisi sifatida faoliyat ko‘rsatar ekan, oiladagi sog‘lom muhit avvalo, ayol ma’naviyati bilan bog‘liqdir. Ayolning ziynati ham uning ma’naviyatidadir. Shu sababli ham xalqimizda “yaxshi xotin-baxtu-oltin”, degan hikmatli so‘z bor. Zero, ayol ma’naviyati oilaviy qadriyatlar an’anaviyligini ta’minlashda muhim omil sanaladi. Chunki, oiladagi o‘zaro munosabatlarning barchasi ayol tomonidan boshqarilib, tartibga solib turiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Abdurauf Fitrat shunday degan edi : “Millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”. Jamiyatda ilg‘or fikrli, ma’naviy kamolot cho‘qqisiga erishgan ayollar qancha ko‘p bo‘lsa, millatning ma’naviyati ham shunchalik yuksak bo‘ladi. Zero, jadidlar tarifi bilan aytganda, “Ayol yuksalsa, yuksalur bashariyat!”[3].

Shuning uchun ham, jadidlar “xotin-qizlarni jamiyatning to‘la qonli a‘zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to‘g‘ri hal qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog‘liqdir” - deb, o‘z harakatlari davomida quyidagi g‘oyalarni hayotga tadbiq etish uchun kurashdilar:

- Ayollarning oiladagi o‘rnini belgilash orqali, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish, diniy va dunyoviy ishlardagi ishtirokida teng huquqlilikni ta’minlash;

- Xotin-qizlarning millat tayanchi ekanligidan, yosh avlodning ijtimoiy, ahloqiy va mehnat tarbiyasida mas’ulligidan kelib chiqib, ularni ma’rifatli qilish;

- Har qanday jamiyatning ma’daniy-ma’naviy darajasi xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanishi bois, ularga nisbatan salbiy munosabatni o‘zgartirish.

Tantanali tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz xotin-qizlarini bayram bilan muborakbod etib nutq so‘zladi.

- Inson hayoti va jamiyat rivojida muqaddas Ona zoti, munis ayollarimizning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanini oddiy so‘zlar bilan ifoda etish nihoyatda qiyin

bir vazifa. Mana shunday paytda Siz, azizlarning sha’ningizga madhiyalar aytish uchun odam shoir bo‘lib tug‘ilmaganiga beixtiyor afsuslanib qoladi, – dedi davlatimiz rahbari [4].

O‘zbekiston ayollar rolini oshirish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda. Bunda davlatning ayollar manfaatini himoya qilish siyosati, bu sohadagi ishlarni baholash, ularning rolini oilada, jamiyat va davlat boshqaruvida oshirish, ayollar uyushmalarining mamlakat siyosiy darajasiga ko‘tarilgan. Umuman olganda, jamiyatda erkaklar va ayollar teng huquqliligi to‘g‘risidagi normalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustovida mustahkamlanib qo‘yilgan. Bu shundan dalolat beradiki, xotin-qizlar va erkaklar tengligi muammosi butun jahonda muhim ahamiyat kasb etuvchi masala.

NATIJA VA MUHOKAMA. Prezident xotin-qizlarning barcha sohalaridagi faolligi, ayniqsa, pandemiya sharoitida aholi salomatligini asrash va bolalarni o‘qitishdagi fidoyiligini alohida ta’kidladi. Bugungi kunda mamlakatimizda mehnat bilan band aholining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Boshqaruv tizimida ularning ulushi 33 foizga yetdi. Bir yarim mingga yaqin ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlaymoqda. Bu boradagi salohiyatni yanada oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirilgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari 6 ta tumanda ayollar hokim vazifasida ishlayotganini ta’kidlab, ularni olqishladi.

– Bunday zamonaviy bilim va iste’dodga, yetakchilik qobiliyatiga ega, fidoyi xotin-qizlarimiz – xalqimiz, millatimizning oltin fondi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi, – dedi Prezident.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar bayrami”dagi nutqi xalqimizga, ayniqsa, yosh yigit-qizlarga murojaat, da’vat ham bo‘ldi.

– Oila – mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne‘mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug‘ saodatdir. Mashhur qo‘shiqlardan birida aytilganidek, “Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir”. Men aziz yigit-qizlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: turmush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas’uliyat bilan qarang. Bu masalaga yuzaki yondashib, ham o‘zingiz, ham o‘zga bir inson hayotini xavf ostiga qo‘ymang”, – deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev [5].

Ma’lumki, 2022-yil 22-fevral kuni davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashi sessiyasida nutq so‘zlab,

ijtimoiy-siyosiy hayotda va tadbirkorlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlar qat’iy davom ettirilishini ta’kidlagan edi.

Bayram tadbirida Prezident shu boradagi vazifalarni birgalikda amalga oshirish masalalariga to‘xtalib o‘tdi. Qizlar tarbiyasi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, zamonaviy bilim va hunarlarni egallashi, ish joyiga ega bo‘lishi, jamiyatda munosib o‘rin topishiga alohida ahamiyat berishimiz zarurligini qayd etdi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 4 mart kuni qabul qilingan “8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonga muvofiq, yurtimizda olib borilayotgan tub islohotlarda faol qatnashib, yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo‘lida tashabbus va ibrat ko‘rsatib kelayotgani uchun bir guruh ayollar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi. 3 martdagi Prezident qaroriga ko‘ra, yigirma sakkiz nafar faol qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi[6].

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda yurtimizda dolzarb sanalayotgan gender tadqiqotlarni shakllantirishning O‘zbekiston bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Eng avvalo, hududimizda amaliyotni o‘rganish sohasida tadbiriq etilayotgan gender nazariyalarini milliy xususiyatlarini o‘rganishga qanchalikkirib borilganligini e‘tiborga olish lozim. Shu bilan birga, O‘zbekistondagi hozirgi paytda ma‘lum qiyofani hosil qilgan gender munosabatlari va muammolari o‘zining tarixiy kontekstidagi tadqiqotlarini kutib turibdi. Va aynan, shu masalalar yuzasidan yondashuv yurtimizda olib borilayotgan gender tadqiqotlarining jamiyatdagi ahamiyatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yurtimizda xotin-qizlarning faolligini oshirish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, erta nikohning oldini olish borasida ishlab chiqilgan dasturlar asosida joylardagi xotin-qizlar boshlang‘ich tashkilotlari ham samarali ish olib bormoqda.

Jamiyatimizda ayollarning ham turli ijtimoiy ehtiyojmand toifalari mavjud. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj xotin – qizlarimizni bugun faol qilib, qiyin vaziyatida ularni o‘qitib, kasb – hunarli qilib, muammolarini o‘zlari yengishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda, va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz. Zamonamizni o‘tmish tarix bilan taqqoslasak, xotin – qizlarimizning bugungidek erkinligi, huquq va imkoniyat jihatidan tengligi taqsiinga sazovordir. Bugun xotin – qizlarimiz uchun mavjud imtiyozlarni ko‘rib chiqamiz.

Xotin- qizlar o‘qishga kirishida qo‘shimcha davlat granti va imtiyozli kreditlar.

- Kam ta'minlangan oilalardagi xotin qizlar;
- To'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan yoxud ota – onasining ikkisi ham vafot etgan ijtimoiy himoya muhtoj qizlar;
- Turmush o'rtog'i vafot etgan. Voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;
- Nogironligi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin – qizlar.

Yuqoridagi ehtiyojmand toifalarga tavsiyanoma Mahalla va Nuroniylarni qo'llab – quvvatlash vazirligi tomonidan beriladi hamda bu toifalar "Ayollar daftari" ga ham tegishlidir. "Ayollar dafari" ga 30 yoshdan oshgan xotin va qizlarimizni qamrab oladi. Qo'llab – quvvatlash asosan (moddiy tomonlama, natura shaklida, dori- darmon bilan ta'minlash, jarroxlik amaliyoti uchun mablag'lar bilan qo'llab – quvvatlash) ni o'z ichiga oladi. OTM uchun 4 % kvotani olishi mumkin. Bundan tashqari 2020 – yil 18- fevraldagi PF-5938 "Jamiyatda ijtimoiyma'naviy muhitni sog'lomlashtirish mahalla institutini yanada qo'llab – quvvatlash hamda oil avaxotin – qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora – tadbirlari to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi [7]. Bunda yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin – qizlar, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy –huquqiy, xotin – qizlarning bandligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, qishloq joylarda xotin – qizlarning oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb qilishga ham atroflicha to'xtab o'tilgan.

XULOSA. Aytishimiz joizki, 2019-yil 2- sentabrda "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari" to'g'risidagi qonun mavjud bo'lib, 5- moddasida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ya'ni har bir faoliyat turida ayollarimiz erkaklar kabi istgan kasbida ishlashi va o'z karyerasini tashkil qilishi mumkin. Hozirda yangilanayotgan bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning yangi tahririning 58-moddasida – xotin–qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin – qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi [8].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ta'lim olayotgan, mehnatda band bo'lgan xotin – qizlarimizning intilishlari va qobiliyatlarini inobatga olishimiz, ularni jamiyatda erkaklar bilan faoliyatini uzviy va uyg'un tarzda davom ettirish, imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Ayollarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishimiz va jamiyatimizda ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadga muvofiq strategiyadir. Zero, unutmaylik, "Kelajak tarbiyasi olima ayollarimiz qo'lidadir" !!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.M.Mirziyoev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy ma’lumotlar. 2022-yil 2-mart.
2. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. – T.: Ma’naviyat, 1998. 37-bet.
3. A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. _ T.: Ma’naviyat. 1998. 98-bet
4. B.Po‘latov. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta’minlashda prokuratura organlarining vazifalari // O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining oliy o‘quv kurslari axborotnomasi. –T.: 2011, №, 32-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanali tadbirdagi nutqidan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni.
7. Ражабова Д.Х Проблемы молодёжи и женщин в воззрениях джадидов туркистана (конес XIX-начало XX бб). Автореф.дис...к.и.н - Т.:2003.-27с
8. <https://lex.uz/docs/-6445145>

YANGI O'ZBEKISTON AYOLLARINING DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISH JARAYONIDAGI TUTGAN O'RN

Esanova Zohira Alifjon qizi

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institute
Jahon tillari fakulteti 1- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda so'nggi yillarda amalda oshirilgan islohotlar natijasida xotin-qizlarga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, bilimlilar ayollarni ilm fan borasidagi yutuqlari, ularning qadr qimmatlilar yuksaklarga ko'tarilgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek ayollari, paranji, gender tengligi, demakratik islohotlar, olima, ayollar daftari, tadbirkor, huquq, innovatsion g'oyalar.

Abstract: this article is in effect in recent years in our country as a result of the increased reforms, the attention paid to women, they the conditions created for women with knowledge in science the achievements were highlighted by the fact that their value rose to the heights.

Key words: Uzbek women, paranji, gender equality, demacratik reform, scientist, women's notebook, entrepreneur, law, innovative ideas.

Аннотация: В этой статье рассказывается о практике последних лет в нашей стране внимание, которое уделяется женщинам в результате усиленных реформ, заключается в том, что они создаются условия для привлечения образованных женщин к освещаются достижения, их ценность, достигнутая высот.

Ключевые слова: узбекские женщины, паранджи, гендерное равенство, демократия реформы, ученый, женская тетрадь, предприниматель, право, инновационные идеи.

Hozirgi kunda mamlakatimizda har sohada ayollarga ko'plab e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, ayol borki olam nurga to'ladi, ayol qo'li yetgan joyda esa cho'l bo'lsada giyoh unadi. Ayollarni ulug'lab, ardoqlab, ularni boshiga ko'tarib yashaydigan davlat esa shubhasiz hech bir boshqa yurtlarga qarab bo'lmaydi. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar asnosida xotin-qizlarga ko'plab sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston taraqqiyotining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasida mamlakatni barqaror rivojlantirish, gender tengligi va xotin-qizlarni qonun bilan himoyalash maqsadlaridan biri, ya'ni davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning teng ishtirokini ta'minlashning muhim asosini tashkil etadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham ayollar o'zlari xoxlagan joyda ishlashi yoki bo'lmasam, o'zlari ma'qul deb bilgan qarorlarni qabul qilishlari mumkin.[3]

Shuni aytish joizki, buning barchasi mustaqilligimiz sharofatidir. Bundan bir necha yillar ilgari ayollar o'qishi, ishlashi u yoqda tursin hattoki o'zlari xoxlab turmush ham qurishmagan. Ular uchun ota onalari javobgar bo'lib, kimga ma'qul ko'rishsa taqdir ekan deb Alloh tomonidan bandalarga umrida bir marta beriladigan hayotni ham qadriga yetishmagan.

Olimlar nazarida XX asrda yuz bergan ba'zi ulkan o'zgarishlar zaminini tushunmay turib, bugungi o'zbek ayollarini baholash, ta'riflash juda qiyin. O'zbekiston ayollari boshqa jamiyatlardagi kabi urf-odat va zamonaviylik, kasb va oila, mustaqil hayot va ijtimoiy talablar kabi masalalar bilan yuzlashib keladi. Ammo, ushbu ko'rsatkichlar yuz yillar muqaddam bo'lib o'tgan voqealarni aks ettiradi. Bugun dunyo jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda ayollarga qaysi kasb bo'lmasin, barchasini qilish hamda, bir vaqtning o'zida oilani ham birdek olib borish kabi yuksak iste'dodi barcha erkaklarni hayron qoldiradi.[4]

2023-yil 30-apreldagi yangi tahrirlangan konstitutsiyaning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi".deb aytib o'tilganidek ayol kishini ilm bilan shug'ullanishi uning oilasi, farzandlari, qarindoshlari va jamiyatningilmli madaniyatli bo'lishi uchun mustahkam poydevordir. Donishmandlarimiz aytganidek "Erkak ilmli bo'lsa-farzandlari ilmli bo'ladi, ayol ilmli bo'lsa-millat ilmli bo'ladi".

Keyingi yillada mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va majburiyatlarini, gender tengligini taminlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi osh o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatini ustuvor yo'nalishga aylantirdi.

Birinchi kunda keng ko'lamli demokratik islohotlar natijasida ayollarni siyosiy-ijtimoiy jarayonidagi ishtiroki tobora kuchayib bormoqda. Buni o'tgan yil dekabrda mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarda bo'lib o'tgan saylovlar yana bir bor tasdiqlaydi.

Saylovlar natijasiga ko'ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin qizlar tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Senatda va mahalliy saylovlarda 25 foizdan oshdi.

Takidlash lozimki, mamlakatimiz tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Holbuki, bunga e'tibor berishingizni so'rayman bundan besh yil avval biz bu borada 128-o'rinda edik.

Hozirgi vaqtda davlat va jamiyat tashkilotlari tizimida 1 ming 380 nafardan ziyod xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda.

Muhtarama ayollarimizdan 16 nafari vatanimizning eng oliy mukofoti-- "O'zbekiston qahramoni " unvoniga sazovor bo'lgani barchamizni quvontiradi.

Xotin-qizlar o'rtasida fan doktorlari, professorlar va akademikg'ar, "Xalq o'qituvchisi", "Xalq shoiri", "Xalq artistig" unvonlariga sazovor bo'lgan yuzlab opa singillarimiz borligi - bu bizning faxrimiz.

Biz hozirgi kunda ishlab chiqarish, ta'lim -tarbiya, tibbiyot, ilm-fan, madaniyat va sport sohalari rivojlanishida ham ayollarimizning yuksak hissasi borligini munosib baholaymiz.

Barchangiz xabardorsiz milliy parlamentimiz tarkibida birinchi marta ayol kishi - hurmatli Tanzila Kamalovna Narbaeva Senat raisi lavozimiga saylandi.[1]

Yurtimizda ayol rahbarlar - vazirlar, hokimlar, ishlab chiqarish birlashmalari, bank va kompaniyalar raislari, huquq-tartibot idoralarida, Qurolli Kuchlarimiz tarkibida mas'ul vazifalarda xizmat qilayotgan opa-singillarimiz soni ortib bormoqda.

So'nggi yillarda ayollarga turli lavozimlar ishonib topshirilmoqda. Lekin ayollarga faqat ayol bo'lgani uchungina mansab berilmasligi kerak. Bizning ayollarimiz bu borada ishonchni oqlayaptilar, mana, bugungi kunda 6 nafar hokim ayollarimiz bor. Ularning har biri murakkab tumanlarda ish boshlaganiga qaramay, yaxshi natijalarga erishyapti. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Prezident maktablari rahbari ham yosh ayollar.

Yaqinda tashabbuskor va tashkilotchi ayollarimizning munosib vakillari g'oyat mas'uliyatli vazifaga - tuman va shahar hokimi lavozimlariga tayinlandilar. Jumladan, Andijon viloyatining Bo'ston tumaniga - Sadbarxon Mamitova, Buxoro viloyatining Olot tumaniga - Nargiza Ne'matova, Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumaniga - Zulayho Mahkamova, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahriga - Gavhar Alimova, Sirdaryo viloyatining Boyovut tumaniga - Dilfuza O'rolova, Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumaniga - Mahfuza Mustafoeva birinchi rahbar etib tasdiqlandilar.

Ona yurtimizda ibrat olsa arzigulik ayollarimiz bisyor. Zero, barchamiz ularning qilgan ishlari bilan dunyoni istalgan burchagida maqtanib yursak yarashadi.

Poytaxtimizning Qora qamish dahasida voyaga yetib, Toshkent sharqshunoslik institutida, keyinchalik Polsha va AQShdagi mashhur universitetlarda ta'lim olgan Azizaxon 32 yoshida tarix va dinshunoslik yo'nalishida fan doktori bo'lgani, 500 ta talabgor orasida konkursda g'olib chiqib yuksak darajaga erishgani sizni bizda havas qilsa arzigulik misol sifatida qarash lozim.

Tanganing ikkinchi tomoni ham borligi esa ko'ngillarni biroz Xira qiladi. Dunyoda barcha ham boy, ilmi, salohiyatli bo'lish uchun yaratilmagan. Balki ko'pchilikni buncha qurbi yetmas, yo bo'lmasa, oilaviy sharoiti yaxshi bo'lsada o'qimasdan hozirgi kunda ishsiz, nochor hayot kechiryotganlar oramizda ko'pchilikni tashkil qilayotganligi achinarli holat.

Keyingi vaqtda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi rahbariyati boshchiligidagi respublika ishchi guruhi tuzilib, barcha hududlarda ayollari qiynayotgan muammolar aniqlanib,

ushbu muammolar bo'yocha manzilli ish olib borish uchun mutlaqo yangi tizim - ayollar daftari joriy etilgan.

Keyingi uch oyda respublika komissiyasi tomonidan ushbu "daftar"ga kiritilgan 80 ming nafar xotin-qizlarning muammolari hal etildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir ayollarning 32 ming nafari ish bilan ta'minlandi.

Bundan buyon O'zbekistonda bironta ham ayol davlat va jamiyatning e'tiboridan chetda qolmaydi.[2]

Hukumatimiz xotin-qizlarning hayotda munosib o'rinlarni egallashlari va intellektual salohiyatlarini namoyon etishlari, respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda ularning to'laqonli ishtirokini ta'minlash maqsadida avvalo, ularning oiladagi vazifasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki bu ikkala o'ta muhim vazifani bajarishda ayollarning jamiyatdagi mavqei, nufuzi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanganligi, ma'naviy -marifiy jihatdan yetukligi, siyosiy ongi, ijtimoiy tafakkuri, huquqiy madaniyati va savodxonligi beqiyos ahamiyatga molikdir.

Biz yaxshi tushunamiz - xotin-qizlarning huquq va manfaatlari taminlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, farovonlik va erkinlik bo'ladi. Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham, albatta, baxtli bo'ladi.[5]

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, yaratilayotgan shuncha sharoitlar bularning barchasi faqatgina siz u biz uchundir. Bir o'qisak, ishlasak, qanchalik yetuk kadr bo'lib yetishishga harakat qilsak bu barchasi , avvalambor o'zimizga, so'ngra esa oilamizga, farzandlarimizga va shu qatorda vatanimizga o'z ayollik vazifamizni bajargan hisoblanamiz . Buning uchun bizdan talab qilinadigan bir narsa bor, u ham bo'lsa o'qish. O'qish uchun pul talab qilinmaydi, o'qiganingizni birovga foydasi ham yo'q. O'qish o'zimiz uchun, barcha ayollar uchun zarur.

O'tgan asrlar mobaynidagi paranjili hayotga qaytmaslik, har doim olg'a borish uchun zarur. Ayollar borki olam hal deb bejizga aytilmaydi. Ayol olam ko'rki shunday ekan, biz bu ko'rkka sayqal bersak qanchalik avaylasak, shunchalik go'zallashib olamni o'z nuri ila munavvar qiladi.

Ayol yerdan chiqqan emas, toptab ezg'ilash uchun. Ayol qo'ldan vujudga kelmagan urish uchun. Ayol yurak ostidan yaralgan sevib, sevilib yashash uchun.

To'g'ri ayollar aqlli, odobli bo'lsalarda ayollardan payg'ambar chiqmagan, payg'ambarlarning onasi yetishib chiqqan. Bundan ko'rinib turibdiki, erkak ko'chaning odami, u ishlaydi, oilani moddiy tomondan ta'minlab turadi, ammo, farzand tarbiyalash qo'lidan kelmaydi. Ushbu oliy vazifa ayollar zimmasiga yuklatilgan. Ayollar manfaatlarini ko'zlab qabul qilingan ko'plab qarorlar o'z ijrosini topmoqda vabunday imkoniyat har bir ayolga o'z iqtidorini, qobiliyatini ro'yobga chiqarishga, yangi g'oyalar ustida ishlashga, tashabbuskorlik ko'rsatishga ishtiyoq hamda, kelajakka ishonch hissini uyg'otayabdi.

Yangi-yangi marralar sari yetaklayapti quvonarlisi shundaki, bunday ayollar ro'yxati kundan-kunga ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Sh. Mirziyoyev– Toshkent M 54 “O‘zbekiston” NMIU, 2020.-456 b.
2. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5 jild [Matni]/ Sh. Mirziyoyev. – Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. - 408b.
3. Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari – T.: “Ta’lim nashriyoti”, 2021.344 b.
4. <https://www.amerikaovozi.com>
5. <https://kun.uz/news>

MUNDARIJA

O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishning yangi bosqichi <i>R. Karimov.....</i>	3
BIRINCHI SHO‘BA. O‘ZBEKISTON ENG YANGI TARIXINING TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI	
Turkiston boshqaruv Muvaqqat Qo‘mitasi faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlar <i>Z. Abdullayev.....</i>	5
O‘zbekistonning yangi tarixida nemis sharqshunosligining ahamiyati <i>Z. Tillabayeva.....</i>	12
1947 йилда ўтказилган пул ислохоти ва унинг озиқ-овқат таъминотига таъсири:муаммо ва ечимлар <i>М. Хўжамов.....</i>	17
Xonqa tarixi va toponimi <i>U. Zaripboyeva.....</i>	22
Muhammadyor Ibn Arab Qatag‘onning “Musaxxir ul-Bilod” asari va undagi davlatchilik masalasi, tarix va tahlil <i>F. Mamasidiqov.....</i>	26
IKKINCHI SHO‘BA. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	
Qo‘qon xonligida Oliy Kengashning markaziy boshqaruv tizimida tutgan o‘rni <i>Z. Xaydarov.....</i>	31

Ustrushonaning tarixidagi migratsiyalar va uning Ustrushona madaniyatidagi o‘rni (Qovunchi madaniyati tadqiqotlari misolida) <i>M. Lapasova</i>	39
Xiva xonligida chet el elchilariga xizmat ko‘rsatish tarixi <i>J. Polvonov</i>	46
Bir yarim ming yillik sag‘ana <i>N. Saydullayeva, M. Isaboyeva</i>	53
Rossiyaning Hindiston tomon yurishi va unda Xiva xonligining tutgan o‘rni <i>J. Razzaqov</i>	57
Ijtimoiy jarayonlarda xorijda tahsil olgan jadidlar ahamiyati <i>R. Olimova</i>	63
Tarixni anglash-mustahkam kelajak poydevori <i>M. G‘ofirjonova</i>	69
UCHINCHI SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOIIY SIYOSAT	
Ўзбекистонда болалар меҳнати ва мажбурий меҳнатни тугатиш сиёсати: муаммо ва ечимлар <i>Б. Джалолов</i>	76
Namangan viloyatida tarixiy turizmning rivojlanish omillari <i>M. Norinov</i>	83
XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida Farg‘ona vodiysi ekologik holati: muammo va yechimlar (tarixiy tahlil) <i>D. Norkuziyev</i>	88

TO‘RTINCHI SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHI VA SIYOSIY ISLOHOTLAR	
Davlat boshqaruvi – jamiyat bardavomligi kafolatlaridan biri <i>M. Rustamaliyev.....</i>	94
1917-1924-yillarda Turkiston jadidlarining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi siyosiy ahamiyati <i>Sh. To‘xtasinov.....</i>	98
Ўзбекистон ССР ижтимоий-сиёсий ҳаётини мафкуралаштиришда ОАВ воситаларининг роли ва унинг оқибатлари <i>Ў. Жўраев.....</i>	104
Кибержиноят ва рақамли криминалистика <i>Н. Собирова.....</i>	111
BESHINCHI SHO‘BA. ISTIQLOL YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOTI	
Юртимизнинг истиқлол даврида маънавий ва маданий тараққиёти <i>Х. Нушонов.....</i>	117
O‘zbekiston madaniyati va san‘atini tadqiq etish jarayonida yoshlar tashabbuslari va yutuqlari <i>R. Kurbanov.....</i>	121
Jadidlarni anglash o‘zlikni anglashdir <i>O. Maxsudjonov.....</i>	128
Istiqlol yillarida O‘zbekistonda ma’naviy va madaniy qadriyatlarga munosabat masalasi <i>Sh. Tursunkulova.....</i>	134

Миллий – маданий тараққиёт учун кураш <i>Д. Насретдинова.....</i>	139
O‘zbekistonda jamiyatni ma’naviy yangilanish jarayoniga yoshlarning munosabati <i>Sh. Mashrapov.....</i>	144
Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayoti: muammolar va yechimlar <i>M. Usmonova.....</i>	148
Mustaqillik yillarida o‘zbek teatri san’atida yangi odimlar <i>Y. Tursunboyev.....</i>	152
OLTINCHI SHO‘BA. O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA JAHON HAMJAMIYATI BILAN INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI	
Марказий Осиёнинг янги давр геосиёсий манзараси <i>Ш. Жумаханов.....</i>	162
Марказий Осиёда тинчлик, ҳамкорлик, яхши қўшничиликнинг шаклланишида Ўзбекистон ташқи сиёсатининг ўрни <i>Т. Қозоқов.....</i>	178
Ўзбекистоннинг ташқи меҳнат миграцияси соҳасида халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлиги <i>И. Абдухамидов.....</i>	183
YETTINCHI SHO‘BA. SIFATLI TA'LIM — YANGI O‘ZBEKISTONNING MUHIM POYDEVORI	
Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta'lim tizimi: oliy ta'limda kredit-modul tizimining rivojlanish bosqichlari <i>T. Ismoilov.....</i>	191

Sifatli ta’lim O‘zbekistonning poydevori <i>F. Qurbonov, A. Norboboyev, T. Islomov.....</i>	195
O‘zbekistonda maktab ta’limi tizimida Finlandiya tajribasini joriy qilishning o‘ziga xos xususiyatlari <i>U. Yuldashev.....</i>	199
Iqtidorli talabalarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni uzluksiz tizimini tashkil etish <i>G. Kurbanova, U. Saylieva.....</i>	203
Oliy ta’lim muassasalari amaliy matematika yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda kasbga oid matnlarning o‘rni <i>U. Soliyev.....</i>	208
Sifatli ta’lim - Yangi O‘zbekistonning muhim poydevori <i>M. Urishova.....</i>	213
Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim tizimiga oid o‘zgarishlar <i>M. Sharofiddinov.....</i>	217
Elektron ta’lim tizimlarida baholash jarayonini suniy intellekt orqali amalga oshirish usullari <i>K. Husanov, U. G‘aniyev.....</i>	225
O‘zbekistonda umumta’lim maktablarining darsliklar bilan ta’minlanishi (Namangan viloyati misolida) <i>L. Mamasaidov.....</i>	231
Fan yo‘nalishdagi ma’lumotlar yig‘indisi va tilni integratsiyalashgan o‘rgatish usuli va uning afzalliklari va kamchiliklari <i>N. Bakoyev.....</i>	236

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish <i>G. G‘aniyeva.....</i>	239
Yangi O‘zbekiston: ta’lim islohotlaridan – Uchinchi Renessans sari <i>M. Qo‘chqarova.....</i>	245
Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va yangicha yondashuvlar (STEAM texnologiyalarining joriy qilinishi misolida) <i>Z. Sharofiddinova.....</i>	251
Jadid ma’rifatparvarlari ta’limiy qarashlarining milliy identitetni rivojlantirish mezonlari <i>M. Sharofiddinov.....</i>	256
Jadid ma’rifatparvarlari ta’limiy qarashlari asosida milliy identitetni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari <i>M. Sharofiddinov.....</i>	260
SAKKIZINCHI SHO‘BA. GENDER TENGLIGI VA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI	
Yosh tadbirkor kadrlarni tayyorlash tizimi va uning istiqbollari <i>S. Mirzaxalov.....</i>	264
O‘zbekistonda xotin qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda gender tengligining ahamiyati <i>N. Abduxolikova.....</i>	271
Ijtimoiy jarayonlarda xotin-qizlarning o‘rni va mamlakatimizda xotin-qizlarga berilayotgan e’tibor <i>R. Olimova.....</i>	278
Yangi O‘zbekiston ayollarining davlat va jamiyat rivojlanish jarayonidagi tutgan o‘rni <i>Z. Esanova.....</i>	284

**O‘ZBEKISTON ENG YANGI TARIXINING DOLZARB
MASALALARI**

**Respublika ilmiy anjumani maqolalar to‘plami
2024-yil 30-aprel**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НОВЕЙШЕЙ ИСТОРИИ
УЗБЕКИСТАНА**

**Сборник статей республиканской научной конференции
30 апреля 2024 года**

ACTUAL ISSUES OF THE NEWEST HISTORY OF UZBEKISTAN

**A collection of articles of the Republican scientific conference
April 30, 2024**

Mas’ul muharrir: M.Yakubbayev

Texnik muharrirlar: M.Sharofiddinov, M.Abdusamadov

Sahifalovchi: Y.Tursunboyev

To‘raqo‘rg‘on – 2024